




N. NARZIYEV

TARIXIY ANTROPOLOGIYA

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

N.N. NARZIYEV

TARIXIY ANTROPOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2020

UO‘K:572(075.8)

KBK: 63.5 (59)

**N.Narziyev. Tarixiy antropologiya. (O‘quv qo‘llanma). –T.:
«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 180 bet.**

ISBN 978-9943-6600-7-6

Ushbu o‘quv qo‘llanmada Tarixiy antropologiya fani va uning shakllanishi, o‘rganish predmeti va obyekti, tadqiqot metodlari, fanning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar va ularning ijodlari, shuningdek, fanning zamonaviy yo‘nalishlari va maktablarda olib borilgan tadqiqot ishlari yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

UO‘K:572(075.8)

KBK: 63.5 (59)

Mas’ul muharrir: A.A. Ashirov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

M.Qurbonova – tarix fanlari nomzodi, dotsent;

A. Qayumov – tarix fanlari nomzodi, dotsent;

Sh. Nurullayeva – tarix fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978-9943-6600-7-6

© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.

24922/3

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har tomonlama yetuk, o‘z sohasining chinakam mutaxassislarini tayyorlashga qaratilganligidir. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning «Harakatlar strategiyasi» to‘rtinchi yo‘nalishida oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutilgan. So‘nggi yillarda barcha sohalarida bo‘lgani kabi tarix yo‘nalishida ham bo‘lajak tarixchi mutaxassislarni tayyorlashda, ularning tom ma‘nodagi yetuk kadrlarlar bo‘lib kamol topishlarida birlamchi ahamiyat kasb etuvchi mutaxassislik fanlari qayta ko‘rib chiqilib, bunday fanlar yangilanib, zamon ruhiga moslashtirib borilmoqda. Ana shunday o‘zgarishlar qatorida tarix yo‘nalishi talabalariga «Tarixiy antropologiya» fanining kiritilishi ham bejiz emas. Ushbu fan bo‘lajak mutaxassislarning har tomonlama puxta bilimlarga ega bo‘lishlariga, har qanday tarixiy jarayonlarning markazida turuvchi insonning ilmiy va gumanitar jihatdan tadqiq qila olishiga yordam beruvchi zamonaviy yo‘nalishdagi fanlardan biridir.

Mazkur qo‘llanma mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimi rivojidagi ushbu fan doirasida yaratilgan ilk ijodiy ishlardan biridir. Albatta, unda bir qancha kamchiliklar mavjudligi ehtimoldan holi emas. Shunday bo‘lsada, uning birlamchi maqsad yo‘lida, ya‘ni talabalarga «Tarixiy antropologiya» fani bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni berishiga hamda talabalalarni mazkur qo‘llanmada keltirilgan bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, qo‘shimcha bilimlarni egallash yo‘lida izlanish va o‘z ustilarida ishlashga undashiga ishonamiz.

❖ Tarixiy antropologiya keng qamrovli fan bo‘lib, u inson holatining barcha jihatlarini o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajagini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, insoniyat tarixining ijtimoiy jihatlarini, jamiyatdagi o‘rni, tili va madaniyati ham uning e‘tibori doirasidadir.

XIX asr oxiri XX asr boshiga kelib tarixni bayon etishdagi yondashuv va metodlar ko‘plab tanqidlarga uchrab, g‘arb mamlakatlarida turlicha yo‘nalishlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. XX asrning 70-80-yillarida tarixiy antropologiya bir qancha mamlakatlarda rivojlanishi sekinlashdi. 90-yillarda Fransiyada tarixiy antropologiyani tanqid qilish kuchayadi, fanni o‘rganish, unga qiziqish pasayib ketadi. Ammo bu

jarayon global xarakter kasb etmadi. Ko'pgina mamlakatlarda tarixiy antropologiyaga qiziqish o'sdi, natijada ba'zi mamlakatlarda tarixiy antropologiyaning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi. Germaniya, Italiya, Ispaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda yangi nomlar ostida tarixiy antropologiya rivojlandi.

Bu rivojlanish natijasida tarixiy antropologiyaning o'rganilish geografiyasi kengaydi, tadqiqot maydoni oshdi va o'zgardi. G'arb mamlakatlarda turli zamonaviy yonalishlar, jumladan, AQSHda yangi «Madaniy tarix» (new cultural history), Angliyada «Ijtimoiy antropologiya», Italiyada «Mikrotarix», Germaniya, Avstriya, Shvetsariyada «Alltagsgeschichte» (Og'zaki tarix), Fransiya «Annallar maktabi» kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Endilikda tarixni yoritishda umumiylikdan xususiylikka, siyosiy tarixdan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tarixni tadqiq etishda dolzarb mavzular ko'tarila boshlandi. Siyosiy tarix turli mafkuralar ta'siri ostida yozilib, real tarixni bayon etmay kelinganligi tanqid ostiga olina boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi tarixshunoslikda. asosiy e'tibor tarixdagi shaxsga, uning yashash sharoitlariga va ularning tarixiy jarayon bilan aloqalariga qaratildi. Bugungi kunga kelib, turli xil fanlar kesishgan tarixiy mavzularda tadqiqotlar katta qiziqishlarga sabab bo'lmoqda. Masalan, hissiyotlar tarixi, o'lim tarixi, kasalliklar tarixi, tibbiyot tarixi, ovqatlanish tarixi, bolalik tarixi, oila tarixi va boshqalar. Olimlar hattoki hidlar tarixi, odamlarning hissiyotlari tarixi kabi noodatiy mavzularga murojaat qilishmoqda.

Shunday qilib, ushbu o'quv qo'llanmada tarixiy antropologiya fanining dolzarb masalalarini o'qitishga doir nazariy va uslubiy ma'lumotlar berildi. Unda talaba berilgan bilimlarni puxta o'rganishi, mavjud bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar bilan ham tanishishi mazkur fan maqsadlariga erishishda ahamiyatlidir. O'quv qo'llanmada berilgan ba'zi rasm va illyustratsiyalarda izohlarlar yozilmadiki, bu bilan talabani mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirish nazarda tutildi.

So'nggi yillarda o'qitishning zamonaviy texnologiya va metodologiyalarni qo'llash, umumjahon e'tirof etayotgan fanlarni keng joriy etish masalasi respublikamizda olib borilayotgan oliy ta'limga doir islohotlar markazida turibdi. Ushbu o'quv qo'llanmaning yaratishdan asosiy maqsad ham tarix, antropologiya va etnologiya yo'nalishida ta'lim

olayotgan talabalarga tarixiy antropologiyaning asosiy tadqiqot mavzusi va muammolari hamda zamonaviy tadqiqot uslublari boirasida dastlabki bilimlarni berish, ularning kelgusidagi ilmiy faoliyatida kerak bo'ladigan va allaqachon hozirgi zamon faniga aylanib bo'lgan tarixiy antropologiyaga oid bilimlarini rivojlantirishdir. Shuningdek, O'zbekiston tarixini o'rganish ishlarini samarali tashkil etishga, qaratilgan YO'L XARITASida belgilangan vazifalarning V.26.1.da berilgan O'zbekiston tarixi fanini o'qitish tizimini takomillashtirishga oid tadbirlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ahamiyati kattadir.

Ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlashda akademiklar: A.Asqarov, A.Sagdullayev; professorlar: A.Ashirov, R. Sulaymonov, T. Salimov, M.Isomiddinov; dotsentlar: M.Qurbonova, A.Qayumov, Sh. Nurullayeva, I.Xo'jaxonovlar; katta o'qituvchilar: O.Mo'minov, A.Bobobekovlarning ilmiy va uslubiy materiallaridan keng foydalanildi. Buning uchun ularga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Reja

1. Tarixiy antropologiya fani nimani o'rganadi?
2. Tarixiy antropologiya fanining maqsadi va vazifalari.
3. Tarixiy antropologiya boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Antropologiya so'zi yunoncha so'z bo'lib, «*antropos*» – inson, «*logos*» – fan degan ma'nolarni anglatadi. «Antropologiya» atamasining kelib chiqishi antik davr falsafadan boshlanadi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel (miloddan avvalgi 384–322) birinchi bo'lib ushbu atamani inson tabiatining ma'naviy tomonlarini o'rganadigan bilim sohasini belgilashda foydalangan. Ushbu atama ko'plab klassik va klassik bo'lmagan mutafakkirlar tomonidan ishlatilganiga qaramay (Kant, Feyerbax va boshqalar), maxsus falsafiy intizom va maktab faqat XX asrning boshlarida «falsafiy antropologiya» nomi ostida shakllangan.

«Antropologiya» atamasi asl ma'nosida ko'plab gumanitar fanlar (san'atshunoslik, psixologiya va boshqalar) va ilohiyotshunoslik (dinshunoslik), diniy falsafada shu kungacha qo'llanilib kelinmoqda. XVI asrda Yevropada antropologiya tushunchasiga ko'proq «*jismoniy*» va «*fiziologik antropologiya*» sifatida qarashgan. XVII–XVIII asrlarga kelib, Yevropa atamashunosligida antropologiya atamasi inson faoliyatining barcha jihatlarini o'z ichiga qamrab oluvchi tushuncha sifatida shakllana boshlagan. Ushbu atama XVIII asr oxirlarida Rossiya va Avstriyada ham qo'llanila boshlagan. Antropologiyadagi izlanishlar fanning keng tarmoqlarda rivojlanishiga olib kelgan. XX asrning 90-yillariga qadar sobiq sovet ittifoqi davlatlarida, jumladan O'zbekistonda ham antropologiya ko'pincha odamning kelib chiqishi va evolutsiyasi va uning irqi haqidagi fan, ya'ni jismoniy antropologiya deb tushunilgan. Ammo 90-yillardan boshlab ko'plab universitetlarda ijtimoiy, madaniy, siyosiy va falsafiy antropologiya kafedralari paydo bo'la boshladi.

Biz talabalar «antropologiya» atamasi haqida maktab darsliklarida berilgan ma'lumotlarga asoslanib, xulosa qilishimiz to'g'ri kelmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, totalitar tuzum davrida O'zbekistonda antropologiya fani deganda bir yoqlama qarash shakllangan bo'lib, fanning asosiy o'rganilish obyekti sifatida insonning fiziologik (inson

tanasining tashqi tuzilishi va ulardagi o'zgarishlarda oid) xususiyatlari o'rganilgan. XX asrning ikkinchi yarimida totalitar tuzumga asoslangan mamlakatlarda tarixiy antropologiya deganda, ibtidoiy davr odamlari hayoti, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga doir bilimlar beruvchi fan sifatida rivojlangan. Fanning davriy chegarasi qadimgi davlatlar vujudga kelishi bilan nihoyasiga yetgan. XX asr o'rtalariga kelib, G'arbiy Yevropa va AQSHda antropologiya atamasi inson faoliyatining barcha sohalarini o'rganishga nisbatan qo'llanila boshlangan. Masalan, madaniy antropologiya, ijtimoiy antropologiya, siyosiy antropologiya, diniy antropologiya, tarixiy antropologiya kabi tarmoqlarda antropologiya fani rivojlangan.

XX asr ikkinchi yarimida antropologiya keng tarmoqli fanga aylanib, turli darajalarda bir-biridan ajratilgan va o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta fanlar shakllandi. Jumladan:

Vizual antropologiya – odamni foto va video materiallar asosida o'rganish bilan bog'liq yo'nalish.

Kibernetik antropologiya – odamni ma'lum dasturlar asosida ishlaydigan kibernetik tizim sifatida o'rganish bilan shug'ullanuvchi yo'nalish.

Pedagogik antropologiya – ta'limni antropologik hodisa sifatida o'rganuvchi yo'nalish.

Diniy antropologiya – bu ilohiyotning asosiy oqimida ishlab chiqilgan va insonning mohiyatini diniy ta'limotlar doirasida ko'rib chiqadigan inson mohiyati haqidagi teologik yoki falsafiy ta'limot.

Ijtimoiy va madaniy antropologiya – etnologiyaga juda yaqin fan bo'lib, insoniyat jamiyatlarini qiyosiy o'rganish bilan shug'ullanadi.

Jismoniy antropologiya – inson va uning irqalarini jismoniy kelib chiqishi va evolutsiyasini o'rganadi. •Paleoantropologiya asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, asosan inson irqalarini o'rganadi (zamonaviy insonlarning tasnifli muammolari, ularning geografik tarqalishi, shakllanish tarixi va boshqalar).

Falsafiy antropologiya – insonning mohiyati haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u odamni borliqning o'ziga xos turi deb biladi.

Shuningdek, lingvistik, siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, tibbiy kabi antropologiya yo'nalishlari ham o'ziga xos fan sifatida ajralib chiqib rivojlanib bormoqda.

XX asrning 20-yillarida Fransiyada shakllangan Annallar maktabi namoyonlari (M.Blok, L.Fevr) tanqidiy g'oyalari asosida tarixiy

antropologiyaning o'rganish obyekti kengayib, qadimgi va o'rta asrlar davri insonlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot tarzini o'rganish g'oyasini ko'tarib chiqdilar va an'anaviy tarixda qo'llanib kelinayotgan metodlarga qarshi chiqdilar. Bu esa Tarixiy antropologiyaning yangi ko'rinishda rivojlanishiga olib kelgan.

XX asrga kelib tarix fanini tadqiq etishda germaniyalik K.Lamprext, fransiyalik L.Fevr va M.Blok, angliyalik L.N.Emir va R.Touni kabi olimlar eski voqeanavis tarixchilarga qarshi kurash olib bora boshladilar. O'tgan asrning 50-yillariga kelib esa, «yangi tarix» deb atala boshlagan tarixiy antropologik tadqiqot usullaridan foydalanib tarixiy voqeliklarni yoritish ustun mavqega ega bo'la boshladi. Unda voqeanavislik emas, balki struktura ustunlik qila boshlaydi. Tarixiy antropologiyada iqtisodiy tarix va ijtimoiy tarixning asosiy yo'nalishi, o'rganish muammosiga aylana boshlandi. XX asr 80-yillaridan boshlab Yevropada ijtimoiy antropologiya assotsiatsiyalari tashkil topa boshlagan.

Aytish mumkinki, antropologiyaning insonlar o'rtasidagi farqlarga fundamental yondashuvi uning ilmiy fanlar orasida eng gumanitarlashgan qiyofa kasb etishini ta'minlaydi. Antropologlarning madaniyatlararo masalalarga bo'lgan qarashlari iqtisod, siyosat, psixologiya, san'at, musiqa va adabiyot kabi sohalarda ham o'z ifodasini topadi. Antropolog va tarixchilar tarixiy va madaniy hodisalarga tarixiy va madaniy jihatdan to'g'ri baho berishda hamkorlik qiladilar¹. Yevropada mahsulot ishlab chiqarishining o'sishi ko'plab aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash imkoniyatini yuzaga keltirdi. Natijada Yevropada aholi soni o'sib bordi. Dehqonlarning qishloqlarni tashlab, shaharlarga kelishi shaharlarni urbanizatsiya markaziga aylantirdi va shaharlarda ishchilar sinfi shakllandi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Insonlarning o'zgarish bosqichlarini bilish tarixchi uchun qanchalik muhim deb hisoblaysiz?

❖ Mazkur o'zgarish bosqichlarining yuz berishiga qanday omillar turtki bo'lishi mumkin?

❖ Jismoniy va fiziologik antropologiya deganda nimalarni tushunasiz? Nima uchun antropologiyada ko'plab yo'nalishlar ajralib chiqqan?

¹ Kottak C.Ph. Anthropology: the exploration of human diversity. 12th ed. – New York: Mc.Graw-Hill Inc., 2008. – P 7.

Ishlab chiqarishga bo'lgan talabning keskin sur'atda oshishi kasalliklar va epidemiyalarni ham keltirib chiqardi. XIX asr davomida poyezd va poroxodlarsiz ishchilar harakatini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmadi. Millionlab migrantlarning quruqlik va dengiz orqali AQSH, Avstraliya, Argentina, Janubiy Afrika, Sibir va boshqa hududlarga doimiy yoki uzoq muddatga yashash uchun ketishi Yevropadagi ishchilariga bo'lgan bosimni yengillashtirdi.

Shu davrda koloniyalarda ma'muriyat va mahalliy aholi o'rtasidagi aloqalar yangicha ruhda rivojlanib bordi. Quldorlikka qarshi yurishlar ijtimoiy hayotda yangi to'liqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'la boshladi. 1830-yillarda Britaniya va Fransiya mustamlakachiligida quldorlik bekor qilindi. XIX asr mafkurasi bilan bir davrda shakllangan irqchilik ham yuqoridagi jarayonlarda o'zining asl mohiyatini yoqota boshlabi. Tarixchilar bu kabi o'zgarishning ham kichik ham yirik ko'rinishlarini o'rgana boshlaganlar. Shu o'rinda insoniyatning ijtimoiy va madaniy hayoti borasidagi fikrlari bir jamoa yoki bir jamiyat turigagina asoslanib o'rganilishi yoki xulosa qilinishi noto'g'ri ekanligi ta'kidlandi².

Tarixiy antropologiyaning ikki o'lchami mavjud: ilmiy va amaliy. Shulardan biri hisoblangan amaliy antropologiyada ijtimoiy muammolar aniqlanib, ularni yechishga harakat qilinadi. Bunda fanlararo bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan Tarixiy antropologiya boshqa ko'plab fan va sohalar bilan bevosita aloqador bo'lib, ular qatoriga tabiiy va ijtimoiy fanlarni kiritish mumkin.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Sanoat inqilobi davridagi o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yuksalish belgilari tarixning qaysi jihatlarini o'rganishga qiziqishni oshirgan?

❖ Yevropadagi urbanizatsiya jarayoni o'sha davr va makon odamlarining ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'sir ko'rsatganmi?

² Barnard A. History and Theory in Anthropology. Cambridge University Press. 2004. –P.4

Bu aloqadorlikni tabiiy fan sifatida biologiya va ijtimoiy fan sifatida sotsiologiya fanlarining o'zaro munosabati misolida ko'rish mumkin. Ammo, ular o'rtasidagi farqli jihatlarni ham nazardan qochirmaslik lozim. Jumladan, sotsiologlar odatda zamonaviy va sanoatlashgan hududlarni o'rganadilar. Tarixiy antropologiyada tarixda yuz bergan ijtimoiy-madaniy masalalarga bo'lgan qarashlarning iqtisod, siyosat, psixologiya, san'at, musiqa va adabiyot kabi fanlararo hamkorlikda o'rganishi ham fanning bugungi imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda. Tarixiy antropologiya gumanitar fanlarga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida uning o'zi ham shu fanlar ta'siriga ega bo'lib, bu avvalroq aytib o'tilgan fanlararo hamkorlikning yana bir ifodasidir. Antropolog va tarixchilar mustamlakachilik va zamonaviy dunyo tizimini o'rganishda birgalikda ish olib bormoqdalar.

Odamlar ma'lum bir jamiyatda tug'ilish va ko'chib o'tish natijasida qo'shiladilar va ulardan hayotdan ko'z yumish yoki ko'chib chiqish natijasida ayriladilar. Bu kabi o'zgarishlar ta'siri insonlarda namoyon bo'lib, ijtimoiy tizimda deyarli o'zgarish kuzatilmasligi mumkin. Tarixiy o'zgarishning ikkinchi turida ijtimoiy tizim o'z tuzilishi va shaklini o'zgartirishi kuzatiladi. Bundan tashqari bunday o'zgarishlar avlodlar osha ham sodir bo'lishi ehtimoldan holi emas. Tarixchilar va tarixga asoslanuvchi antropologlar bu kabi o'zgarishlarning ham kichik, ham yirik ko'rinishlarini o'rganadilar. Tarixchi va antropologlarning kengayib borayotgan hamkorligi AQSHdagi qator oliy o'quv yurtlarida qo'shma dasturlar asosida talabalarga ta'lim berilayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Tarixiy antropologiyaning o'lchamlaridan biri hisoblangan amaliy antropologiya deganda nimani tushundingiz?

❖ Tarixiy antropologiya fani gumanitar fanlarga qanday qilib ta'sir ko'rsatishi mumkin? Misollar orqali tushuntirib bering.

❖ Tarixiy o'zgarishlarni tadqiq etishda tarixiy antropologiya va tarix fanlarining birgalikdagi faoliyati qaysi sohalarida yaqqol hamoyon bo'ladi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- ✓ Insonning iologik va madaniy tomondan hayotga moslashishini tadqiq etishda tarixiy antropologiyaning o'rni va ahamiyati.
- ✓ Antropologiyaning fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.
- ✓ Tarixiy antropologiyaning maqsad va vazifalari, uning fan sifatida shakllanishining amaliy ahamiyati.
- ✓ Tarixiy rivojlanish jarayonlaridagi o'zgarishlarning inson antropologiyasiga ta'siri sanoat inqilobi misolida.

Seminar savollari:

1. Tarixiy antropologiya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Tarixiy antropologiya qanday rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan?
3. Tarixiy antropologiya rivojiga hissa qo'shgan olimlar kimlar?
4. Tarixiy antropologiyaning O'zbekistonga kirib kelishi va o'qitilishi nima maqsadda amalga oshirilmoqda?
5. Mazkur fanning rivojlanish istiqbollari nimalardan iborat?

TARIXIY ANTROPOLOGIYANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

Reja:

1. G'arbiy Yevropada tarixiy antropologiyaning asoschilari va uning shakllanishi.
2. Etnologiyadan tarixiy antropologiya sari.

Tarixiy antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bahsli munozaralar mavjud. Tarixiy antropologiya fani XX asrga kelib amalda olib borilayotgan tarixiy bilimlarni o'rganishga oid tadqiqotlardagi nazariy modellari va usullarining o'zgarib borish zarurati asosida mavjud tarixni o'rganish, muammolarni tanlash, tadqiq etishda shakllangan an'analarga qarshi chiqish, tarixni tadqiq etishda yangicha metodologiyalarni, ya'ni umumiylikdan xususiylikka yo'naltirilgan usullardan keng foydalanish asnosida ko'plab yangi tarixiy fakt va dalillarning muomalaga kiritilishi asosida vujudga kelgan. Bu fanning asosiy o'ziga xosligi tarixni tadqiq etishda e'tiborni yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy voqeilikka qaratish emas, balki ijtimoiy hayotga yo'naltirilgan institutsional mexanizmlar, siyosiy va harbiy tarix, hukmron tabaqalarning kundalik buyumlari, din tarixi, san'at tarixi, jinoyatchilik tarixi, kundalik yozishmalar umuman olganda ijtimoiy munosabatlarning barcha tamoyillarini tarixiy davrlar bo'yicha qamrab olganligidadir. Misol tariqasida, tadqiqotchi biror-bir tarixiy davr uchun xos bo'lgan kundalik hayot tarixini o'rganishga kirishsa, u o'sha davrda mavjud bo'lgan tabaqalarning hayot kechirishi tartiblari, ularni qurshab turgan dunyo manzarasi, odatlari, ularning stereotiplari, o'sha davr odamlarining «madaniy mentallik» xususiyatlarini, shahar va qishloq hayoti kabilarni o'rganishi zarur hisoblanadi. Tarixiy antropologiyada tadqiqotchilar kichik, e'tibordan chetda qolgan tarixiy voqelik yoki odamlar qadrlagan odat, an'ana, shaxslarni yaqindan o'rganish asosida shu davr tarixiga keng xulosalar berishgan. Shuning uchun Tarixiy antropologiya fani turli davlatlarda turlicha nomlar asosida rivojlangan. Jumladan, Fransiyada «Annallar maktabi», Italiyada «Mikrotarix», AQSHda «Madaniy antropologiya», Angliyada «Ijtimoiy antropologiya» va boshqalar. Ularda tarix fanini tadqiq etishda ham o'ziga xos metodologik yondashuvlar ko'zga tashlanadi.

Tarixiy antropologiya vujudga kelishi Fransiyadagi «Annallar» maktabi faoliyati bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Ushbu maktab namoyondalari tarixni tadqiq etishda amalda qo'llanilayotgan metodlar

ancha eskirib qolganligini ta'kidlashgan. Tarixiy tadqiqotlarga yangicha uslublarda yondashish tarafdori bo'lgan bu maktab namoyondalariga M.Blok va L.Fevrlar hisoblanishadi. Ular o'z g'oyalarini «Tarixning iqtisodiy va ijtimoiy annallari» nomli jurnallarida ko'tarib chiqdilar. Ular asos solgan Annallar maktabining keyingi avlodlari davrida bu g'oyalar yanada rivojlantirilgan.

Ushbu fanning vujudga kelishida tarixiy bilimlarni yangilash, tarixni faqat siyosiy va harbiy mazmundagi ma'lumotlar bilan yozmaslik, tarixni o'rganishda tanqidiy yondashuvni ko'proq qo'llash Mark Blok va Lyusen Fevrlar asosiy maqsadlari ekanligini tushunish mumkin. Buning asosiy sababi etib an'anaviy tarix XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida jamiyat uning oldiga qo'ygan muammolarga javob bera olmay qoldi. Bu esa tarixiy antropologiyaning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Aniq va tabiiy fanlar taraqqiy etayotgan bir paytda, tarix fani an'anaviy ravishda davlatlar tarixi, yirik urushlar, davlat, siyosat, jamiyat arboblari tarixini o'rgangan holda tarixiy jarayonlardagi mayda, kichik detallar va voqeiliklarga, aholining iqtisodiy va ijtimoiy hayoti to'g'risida deyarli e'tibor qaratmasdan qolgan edi. Tarixiy antropologiya evolutsionizm g'oyalari asosida insoniyatning ibtidoiy hayoti va madaniyatini o'rganish bo'yicha ancha ishlar qilingan edi.

XX asrning birinchi yarimida antropologiya namoyondalari hikoya qilinadigan tarixdan muammoli va munozarali tarixga, yozishdan tushuntirishga o'tishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Dastlabki davrlarda tarixiy antropologiyada quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

- tarixda kichik voqeilikka tanqidiy yondashish
- tarixiy xulosalar berishda har bir davr odamlarning psixologik o'ziga xosligini inobatga olish, buning uchun umumiylikdan qochish va xususiylikka e'tibor qaratish;
- insonning dunyoqarashi va fikrlashining tarixiy jarayonlarda o'zgarishi mumkinligini o'rganish;
- insonni vaqt oralig'ida o'rganilishi tarixda aniq faktlarni berishini, ya'ni tarixni bayon etishda siyosiy va harbiy voqialar uzoq davrlarni qamrab olishi bilan xarakterlanishi, oqibatda xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotidagi kichik davrlar o'rganilmasdan kelinganligi tanqid ostiga olinib boshlangan.

Birgina Mark Blok izlanishlarida yuqoridagi jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. M. Blok insonni vaqt oralig'ida o'rganilishini fanga ilk bora kiritgan shaxs hisoblanadi³.

Ikkinchi guruh olimlari tadqiqotlarida iqtisodiy muammolar birinchi o'ringa chiqqanligini ko'rish mumkin. Tarixiy antropologiyaning ikkinchi guruh olimlari sirasiga Brodel, Sharl Moraze, Rober Mandru va boshqalarni kiritish mumkin. Brodel tarixdagi bunday burilishni - «Voqealar tarixida siyosiy hayot keskinligi va tezligi hamda bunda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning sekinligi natijasida amalda katta tarixiy davr o'tishi, o'zgarishlarni esa inson sezmay qolishi» - deb hisoblaydi. Bu g'oya orqali Brodel tarixni o'rganishda yakka shaxs va uning rolini tadqiq etishni tanqid etadi. Ya'ni o'rta asrlar va yangi davr tarixini o'rganishda hukumdorlar va harbiy sarkardalar asosiy obyekt sifatida tanlanib, uning atrofida tarixni yozish tanqid ostiga olingan.

Keyinchalik tarixiy antropologiyaning bir tarmog'i sifatida va hatto, tarixiy antropologiyaning ikkinchi nomi sifatida «tarixiy mentalitet» atamasi ham ishlatila boshlanadi. Tarixiy mentallik yo'nalishi tarixiy antropologiyaning qiziqish doirasiga «yangi demografik tarix», tabiat, madaniyat, biologik va jamoaviy psixologiya kabi sohalarini ham tarixiy antropologiyaning qiziqish, tadqiqot obyektlariga kiritilishiga sabab bo'ldi. XX asrning 40 – 60-yillarida olib borilgan tadqiqotlarning salmoqli qismini demografik yo'nalishdagi ishlar tashkil etdi. Demografik tadqiqotlar aholining alohida hududlardan boshqa joyga ko'chishi, bunga tabiiy omil, epidemiya, insonning turli yoshlarda vafot etishi muammolari (xususan bolalar va keksalar o'limi bilan bog'liq) kasalliklarga chalinish, jinsiy faollik kabi masalalar eng ko'p o'rganilgan mavzular ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jamoaviylik masalalari bilan bog'liq bu sohani o'rganishda yana M. Blok va L. Fevrlarning xizmatlari kattadir.

Tarixiy antropologiyaning bir tarmog'i bo'lgan tarixiy psixologiya o'zining taraqqiyotiga «Annallar maktabi» ning uchinchi avlod vakillari Jorj Dyubi, Jak le Goff, Emmanuel Lerua Ladyuri, Anre Byurger, Mark Ferro, Jak Revel, Per Nora, Fransua Fyure va boshqalar davrida erishganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu olimlarning sa'y-harakatlari va olib borgan tadqiqotlari natijasida M. Blok va L. Fevrlar ilgari surgan «total tarix»

³ Qarang. Марк Блок. Апология истории, или Ремесло историка. Перевод Е.М. Лысенко. М.: «Наука» 1973 г. 234 с.

nazariyasi keyinchalik «Tarixiy antropologiya»ga aylanib, fan sifada shakllanishiga olib kelgan.

Agar «Annallar maktabi»dan ajralib chiqqan «Total tarix» yo'nalishi asoschilari tarixiy davrda insonlarning odatlari, an'analarini tahlil qilish orqali iqtisodiy va ijtimoiy tarixni chuqurroq o'rganish mumkin deb hisoblagan bo'lsalar, uchinchi guruh annallar maktabi vakillari bu maydachuydalarga alohida qimmatli manba sifatida qaradilar. Shunday qilib, tarixchilar ko'z o'ngida insoniyat tarixida ikkinchi darajali deb qaralgan voqeliklar (fikrlash xarakteri, hissiyotlar olami, jamoaviy faoliyat) endilikda ulkan kashfiyotlarga olib kela boshlaganligi ko'zga tashlana boshladi.

Ingliz tarixchisi Piter Berk tarixiy antropologiya asoschilari sifatida F.Nisshe, A.Varburg, F.Konford, M.Blok va boshqa olimlarning nomini keltirib o'tadi. 1998-yilda Moskva shahrida tarixiy antropologiya sohasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiyada ma'ruza-chilardan biri bo'lgan A.A.Toporkov tarixiy antropologik yondashuvlar XIX asr o'rtalaridayoq vujudga kelganligi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tadi. O'z fikriga asos qilib esa F.I.Buslayev, A.A.Potebni, A.N.Veselovskiy va boshqa bir qator rus tarixchilarining asarlarini keltirib o'tadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida sanab o'tilgan olimlarning ko'pchiligi masalan, F.Nisshe, J.Mishle, F.I.Buslayevlar o'zlarini tarixiy antropologiya u yoqda tursin, hatto, tarixga oid tadqiqot ishlarini olib borgan deb hisoblamaganlar. Ammo, keyingi davr tadqiqotchilari yuqoridagi tadqiqotchilarning asarlarini tarixiy antropologiya vujudga kelishida muhim omil bo'lgan, deb ta'kidlaydilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, G'arb tarixnavisligi tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi konsepsiya va oqimlari doirasida faoliyat olib borgan tadqiqotchilar ishlarida aniqlangan yangiliklar va chop etilgan maqolalar tarixiy antropologiyaga mos ekanligini ko'rsatadi. Yuqorida nomlari keltirilgan J.Mishle, ham, F.Nisshe, ham, F.I.Buslayevlarning birlantasi ham «tarixiy antropologiya» degan atamani o'z ishlarida umuman ishlatishmagan. Shuningdek, ular biron-bir ilmiy yo'nalish, ilmiy harakat yoki tashkilotga birlashishmagan edilar.

Keyingi o'n yilliklarda tarixiy antropologiya faniga qiziqish butun dunyoda bo'lgani kabi Rossiyada ham keng yoyilib bormoqda. Shu o'rinda Nima sababdan butun boshli tarix fani yangi usul, yangicha qarashga qiziqib qoldi? Albatta tarix fanidagi bunday keskin burilishda mentallik tarixining alohida o'rni borligini aytib o'tishimiz kerak.

Tarixiy antropologiyada «Mo'jizakor qirollar» degan asari bilan «qirollik hukumatini g'ayritabiiy xarakterga ega ekanligi» to'g'risida yozadi. Bunday qirollik Angliyada va Fransiyada o'rta asrlardan boshlab XVIII asrlargacha bo'lgan davrlardagi davlatlarda qirollarni ulug'lash, ularni g'ayritabiiy, turli mo'jizaviy kuchga ega ekanliklarini, hatto turli kasalliklarni davolashi mumkinligi to'g'risidagi g'ayri ilmiy qarashlarni yozadi. Bu muammo muallif tomonidan har tomonlama tahlil qilingan. M.Blok xuddi shunday ilk davolanish an'anasi XI-XII asrlardan boshlangan desa, hozirgi tadqiqotchilar buning boshlanish vaqtini yuz yil keyinroqqa - XIII asr o'rtalarigacha surishgan; M.Blok shunday marosimlarni o'rta asr yodgorliklaridagi tasvirlar hamda monarxlar to'g'risidagi rivoyatlar asosida o'rgandi. Muallif eng asosiy diqqat va e'tiborni «qirollik mo'jizasi»ga qaratishni, qirollik boshqaruvi ilohiy, mo'jizaviy tushunchalar bilan bog'liq ekanligini yozdi.

Blokning aytishicha, bu ishonch «dunyoni qurilishini tushunishning butun boshli konsepsiyasi» bilan bog'liq. Hozirgi zamon fanida «mentallik» deb qabul qilingan bu yo'nalish bo'yicha M.Blok juda kamdan-kam hollarda mentalite so'zini ishlatadi. Ko'pincha u «jamoaviy tushunchalari», «jamo' ongi», hatto «jamoaviy adashishlar» kabi so'zlarni ham qo'llagan.

Shunday qilib, tarixchilar asta-sekinlik bilan yangi tadqiqot hududini topishdi, bu yo'nalishga fransuzcha «mentallik tarixi» degan deb nom berishdi. Qiyin tarjima qilinadigan «mentallik» (mentalite) Fransiya XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida keng tarqaldi. Bu nom «dunyoni ko'rish» ma'nosida ishlatildi.

M.Blokning do'sti va hamfikri Lyusen Fevrning ijodiy evolutsiyasi boshqacha edi: u ijtimoiy va ekologik tarixdan («odam geografiyasi») o'zining yetuk davrida g'oyalar, madaniyatlar, psixologiyani o'rganishga o'tdi. Ayniqsa, uning yetukligi mentalitet tarixini o'rganishda ko'rinadi. Uning bir qator maqolalari: «Tarix va psixologiya», «Folklor va folklorchilar», «Sezuvchanlik va tarix» kabi kitoblarida u bir qancha fanlararo tadqiqotlarini tarixchilar, filologlar, psixologlar, sotsiologlar, folklorchilar bilan birgalikda ko'tardi. XIX asr mobaynida ko'pchilik Nemis va Fransuz sotsiologlari AQSH va Britan antropologlari ta'sirida shakllangan. Tarixiy antropologiyada ko'tarilgan g'oyalar XIX asrda bir qator etnologlarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi.

Shu yerda biz ikki an'anani bir-biridan farqli jihatlar bilan ishlagan ikki mashhur inson ijodidan misol keltiramiz, ular amerikalik antropolog Luis Genri Morgan (1818-1881) va nemis sotsiologi Karl Marks (1818-

1883). 1835-yilda Fransuz sotsiologi Aleksis de Toskevelli Morganning hayoti turli yo'llar bilan Amerikadagi teng imkoniyatlarni gavdalandirib beradi- deya ta'rif beradi.


Morgan mahalliy amerikaliklar madaniyatining buzilib ketishiga yevropaliklarning kirib kelishi sabab bo'lganligini tushunib yetgandi. Kech bo'lmasidan oldin amerikaliklar ijtimoiy hayoti va an'anaviy madaniyati rasmiylashtirish asosiy vazifa ekanligini izohlab bergan. Bu munosabat, tezda Antropologiyani muhim ekanligini nazarda tutar edi va ikki buyuk amerikalik antropolog Frans Boas tomonidan targ'ib etilgan, shundan buyon mahalliy odamlar tadqiqotida keng yoyila boshlandi. Morgan odamlar bilan aloqalarni to'xtatib, xayrixohlik bilan ularning muammosini o'rgangan va jamiyat hayoti, ularning madaniyatini to'liq tafsilotlari bilan nashr ettirgan. Biroq Morgan faqat eng buyuk ishlari nazariy yordam bilan emas, balki *kinship*⁴ yo'nalishini (oila a'zolari orasidagi qarindoshlik holati) dastlab o'rganganligi bilan ham e'tirof etiladi. Morganning kinshipga qiziqishi irokezlar bilan yashaganligi bilan bog'liq. Keyinchalik esa Shimoliy Amerikaning boshqa hududlaridagi kinship tizimi orasidagi o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini o'rgangan. U amerikaliklar kinship tizimini o'rganishning keng hajmli qiyoslanishlar borligini izohlab bergan, shuningdek boshqa guruhlarining farqli xususiyatlarini o'rgangan.



Amerikalik antropolog Luis Genri Morgan (1818-1881) Nyu Yorkdagi fermada katta bo'lgan, huquqshunoslik mutaxassisi bo'yicha ta'lim olgan, mahalliy siyosatni chuqur o'rganishda faol ishtirok etgan. U birinchi bo'lib, Amerika millatlarining siyosiy haq-huquqlarini yoritib bergan, yoshligidan hindularning hayotini o'rganish uni jalb qilgan. 1840-yillarda Morgan bir qancha vaqt davomida Irokezlar bilan yashagan.

Morgan kinship tizimining birinchi bo'lib tipologiyasini ishlab chiqqan, tasniflangan va turlarga ajratilgan kinship tizimi orasidagi ayirma farqlarni ko'rsatib bergan. U tasvirlangan kinship tizimida (bizning shaxsiyatimizga o'xshash bo'lgan) shaxsning uzoq va yaqin qarindoshligi orasidagi farqlarni soddalashtirgan. (xuddi tug'ishganlarga, jiyanlarga, kuyovlarga o'xshaydigan uzoq qarindoshlar). Tasniflangan kinship tizimida ular ikkita kategoriya bo'yicha farqlanmaydi. Bu yerda bir xil atama

⁴ Kipship – qarindoshlik tizimi.



ishlatilishi mumkin, masalan, ota tomondan uzoq va yaqin qarindoshlar uchun. (Ota, otaning akasi, akasining o'g'li va boshqalar). Ammo, Morgan nazariy tuzishga qaraganda amalda bajardi.; Dunyo bo'ylab mavjud qarindoshlik sistemasini intensiv o'rganishni yillar davomida yanada shakllantirdi. Uning «Insoniyat oilasining o'xshashlik tizimlari» (1870) asarida tadqiqotlari natijasi qarindoshlik munosabatlari, dastlabki antropologik bog'liqlikni hamma uchun birday ekanligini ko'rsatib berdi.

Morgan uchun kinship tizimi jamiyat evolutsiyasining o'rganishga kirishishda dastlabki muhim qadam edi. U kinshipning rivojlanishini sodda jamiyatlarning tashkil qilinishiga sabab bo'lishini va kinship tizimlari orasidagi terminologik xilma-xilliklarni jamiyat tuzilishi shaklidagi xilma-xilliklar bilan o'zaro aloqador bo'lishini ko'rsatib berdi. Biroq, u kinship terminologiyasini sekin o'zgaradi, deb hisobladi va shu sababli, uni jamiyat evolutsiyasining ilk bosqichi o'z tarkibiga olishni izohladi.

Uning mashhur asari «Qadimgi jamiyat» (1877) kitobida yuqoridagi ishlarning hamma qirralarini ochib berdi. U madaniy evolutsiyani 3 ta katta qismga ajratadi: yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiya. Bu yo'nalishlar bo'yicha uning nazariyasi ko'proq texnologik bo'lgan, ya'ni «yovvoyilar»-ovchilar va terimchilar bo'lgan, «Varvarlik» – qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan. «Sivilizatsiya» esa davlat shakllanishi va urbanizatsiya bilan bog'liq bo'lgan. Afsuski, Morganning nazariyalari natijasizligi aniq ko'rinib turardi. Uning asosiy evolutsion sxemasi qabul-qilingan bo'lsada, uning detallari tushunarsiz edi. Ko'p marta uning isbotlab bergan texnologik asoslari haddan tashqari jiddiy holatlarga mos kelgan, masalan, kulolchilik-ikkita bosqich o'rtasidagi o'tish davri hisoblanadi. Agar bu kulolchilik alomatlari bo'lmasa, Polineziya aholisi o'zlarining siyozimlari bilan qayerga jo'nab ketishgan. U faqatgina haqiqatga yaqin bo'lgan, ya'ni Morganning o'zi aniq bilmagan uning xulosalari taxminiy bo'lgan, uning sanalari tahlil natijasi bo'lgan.

Shimoliy Amerikada antropologiya bir necha yo'nalishlarda tadqiq etilib kelgan. Jumladan: Kanada davlatida odatda quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etilmoqda:

- 1) biologik antropologiya,
- 2) arxeologik antropologiya;
- 3) lingvistik antropologiya,
- 4) madaniy antropologiya⁵.

⁵ Barnard A. History and Theory in Anthropology. Cambridge University Press. 2004. –P.3

Morgan va Marks 1850-yildan 1870-yilgacha faoliyat yuritgan olimlar jamiyatining birinchi a'zolari hisoblanadi. Lekin ularning qo'shgan hissalarini unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmasa ham zamonasining eng mashhur insonlari bo'lishgan. Morgan tomonidan yozilgan bir qancha kitoblar Yevropada nashr qilingan. 1860-yilda mashhur nemis antropologi Adolf Bastian (1826-1905) Morganning 3 jildli «Tarixdagi odamlar» nashr etadi. Bastian tibbiyot doktori akalari Vilgelm va Aleksander von Humboldt ta'siri ostida etnografiyada tadqiqot olib boradi. Ular lingvist va geograf bo'lib, Germaniyada 1800-yillarning birinchi yarmida inson evolutsiyasi va ijtimoiy jamiyatini o'rganganlar. Bastian Germaniya tashqarisida 20 yil davomida keng miqyosda sayohatlarni amalga oshirgan.

1840 – 1880-yillar o'rtasida sotsiolog va antropologlar tomonidan bir qancha mavzularni qamrab olgan yangi muammolar ko'tariladi. 1850-yillar va Birinchi jahon urushi davri oralig'idagi muddatda bir guruh olimlarning ishlarida (ko'proq Nemis va Fransuzlarda) «Klassik sotsiologiya» atamasi keng ilmiy muomalada qo'llanila boshlangan. Ularning dastlabki yorqin to'lqini Marks, Comte va Spenserlar edi. Ikkinchi avlod o'z ichiga Ferdinand Tunnnes, Emil Dyurkgeym, Georg Shimmel va Maks Veber, Like Marks bo'lib, bu mualliflarni ishlarini o'rganish hanuzgacha o'z qiziqarliligini saqlab qolgan. Tunnnes sotsiologiyada oddiy va murakkab jamiyat o'rtasidagi farqlarni tadqiq qilgan; Shimmel esa (hozirgi renessansni tadqiq qilgan) pul, shahar va zamonaviylashishni o'rgangan. Maks Veber va Dyurkgeymlar klassik sotsiologlar bo'lib, jumladan, Dyurkgeymning o'zi antropologik mavzularga aloqador bo'lgan, ingliz va fransuz antropologiyasida ta'siri kuchli bo'lgan. AQSHda klassik sotsiologiyaning ta'siri ko'p yillardan keyin sodir bo'lgan bo'lsada, Yevropadagidek kuchli bo'lmagan. Amerika antropologiyasiga Frans Boas tomonidan asos solingan. XX asrning Amerika antropologiyasini boshqarish sotsiologiyaga qaraganda madaniy tarix, linvistika, psixologiyaga nisbatan joylashtirilgan.

• Marksga o'xshab Dyurkgeym ham yaxudiy oilasida katta bo'lgan (Strasburg yaqinidagi kichkina shaharchada), uning ota-onasi uni yaxudiy din peshvosi bo'lishini xohlagan. Uni hayoti davomida, boshidan oxirigacha aqliy muammolar bilan aloqador bo'lgan va u ta'limiy yuksalishlar va jamiyatning ishonchli yetakchisi bo'lgan. 1887-yilda Bordo Universitetida pedagogika va sotsiologiyada ma'ruzachi sifatida tanlangan va akademik ustun sifatida 1-Fransuz jamiyat arbobi deb tan olingan. Ushbu davr mobaynida 1912-yilda Parijga ko'chishiga qadar ko'plab muhim ishlarini ikki qismli kitobda keltirgan; «De la division du travail sotial»

(1893), «Jamiyatdagi ishchilar diviziyasi» (1964) asarlarini yozgan. U ta'sirchan jurnal «L'Annee Sociologique» asoschisi bo'lgan. Dyurkgeymning «Primitivlar klassifikatsiyasi»(1963y.) asari tarixiy antropologiyaga oid bilimlarda ijtimoiy tizimning kelib chiqishini o'rganishda, ijtimoiy tuzilish va klassifikatsiya o'rtasidagi o'ziga xos bog'liqliklarni aniqlashtiradigan manba sifatida xizmat qiladi.

Dyurkgeym, Like Tonnie va Mainlardek evolutsiya va uning bosqichlarga qo'shilmagan holda, ijtimoiy turning farqli ziddiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lgan, ana'anviy va zamonaviy jamiyatlarni, turli nazariya va go'yalarsiz yonma-yon olib o'rgangan. Sodda jamiyatlar qadimgi zamonda rivojlanishda oddiydan murakkabga qarab ketganligi, biroq jamiyat tuzilmalari o'zlarining zarur qoidalari asosida o'rganilishi kerakligini ta'kidlagan. Dyurkgeymning eng so'nggi va eng buyuk ishi «Diniy hayotning dastlabki shakllari»(1915) hisoblanadi. Bu yerda u birdamlilikni ma'nosini anglashga harakat qilgan va jamiyat birdamlilikini saqlashga undagan. Birdamlilik Dyurkgeym muhokamalarida jamoaviy tabaqlanishdan kelib chiqqan. Guruhlar tomonida taqsimlangan ijtimoiy hayotning model ko'rinishlari ramzlar hisoblangan ma'lum qilgan.

Din va urf-odatlar uzoq vaqtdan beri antropologlarni o'ziga jalb qilib kelib va keng qamrovli amaliy shakllarni rasmiylashtirib kelgan. Hech kimga qarashli bo'lmagan jamiyatdagi ijtimoiy birlashuv muammosi evolutsionizm muhim ahamiyat kasb etgan.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- ✓ *G'arbiy Yevropada tarixiy antropologiyaning shakllanishiga hissa qo'shgan olimlar va ularning asarlarini tahlil qiling.*
- ✓ *Morgan ta'limotining antropologik tahlillardagi o'rni nimalarda deb bilasiz?*
- ✓ *Antropologiya fanidagi asosiy tushunchalarni sanab bering?*
- ✓ *Kalvinizm va asketizm tushunchalariga izoh bering?*

Reja:

1. Tarixiy antropologiyadagi tadqiqot metodlari.
2. Tarixiy antropologiyada tadqiqot metodlarini olib borishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlari.
3. Tarixiy antropologiya fanining metodologiyasini belgilab bergan yirik namoyondalari.

Metodologiya – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi deb ham ta'riflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo'lini o'rgatadi.

XX asrning 60 – 80-yillarida o'rta asrlar tarixini yoritishda o'rta asr odamlari mintalitetini o'rganish va qayta tiklashga doir jihatlarni o'rganishda tarixiy antropologiyada o'ziga xos yo'nalish ko'zga tashlanadi. Jumladan, ushbu masalada quyidagi mavzular tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan:

- ma'lum bir jamiyat a'zolari va unga kiritilgan sinflarning ish, mulk, boylik va qashshoqlikka munosabatlari tarixi;
- turli xil ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy bir butunlik obrazi;
- qonun va urf-odatlarining mohiyatini, qonunning ijtimoiy tartibga solish sifatidagi ahamiyatini anglash;
- tabiat tasviri va uning bilimlari, unga ta'sir etish usullarining – texnika, mehnat va sehgacha bo'lgan munosabatlarda aks etishi;
- olamning umumiy tuzilishida insonning o'rnini tushuntirish;
- insonlarning yashash yoshini, xususan, bolalik va keksalikni, o'limni, kasallikni, ayollarga bo'lgan munosabatni, nikoh va oilaning rolini, jinsiy munosabatlar masalasi;
- yerdagi va ko'chma o'rtaqidagi munosabatlar, ular orasidagi bog'liqlik va boshqa dunyo kuchlarining shaxslar va jamoalar hayotidagi rolini anglash;
- tarixda makon va vaqtni talqin qilish;

• tarixni va uning yo'nalishini mutaxassislar (xronikachilar, dinshunoslar, maktab o'quvchilari, olimlar) va oddiy odamlar tomonidan idrok etilishini qiyosiy o'rganish;

• elita (zadagonlar) va folklor (xalq) madaniyatning tahlili va qiyoslanishi;

• dindorlikning «yuqori» va «pastki» e'tiqod shakllarini o'rganish;

• «kitob odamlari» va og'zaki so'zning hukmronligi sharoitida yashaydigan odamlar psixologiyasi;

• ijtimoiy fobiyalar⁶ va jamoaviy psixozlar⁷, taranglashgan ijtimoiy-psixologik holatlarga doir masalalar;

• o'zaro bog'liqlikda «aybdorlik madaniyati» va «uyat madaniyati» masalalari;

• bayramlar tarixi va jamoalar hayotini maromiga yetkazgan taqvimiy urf-odatlar;

• shaxsning o'zini anglash usullari, uning individuallik o'lchovi kabi mavzularni o'rganish tarixiy antropologiyada yetakchi rol o'ynay boshlagan. O'z navbatida bu mazularni o'rganishda bir necha metodlardan foydalaniladi. Quyidagilarni shunday metodlar sirasiga kiritish mumkin:

Kliometriya metodi – tarixni o'rganishda matematik usullarni qo'llash, tarixni bayon etishda sonlar, yillar bilan bog'liq voqyealarga izoh berish tushuniladi. An'anaviy tarix tadqiqotlarida bu metoddan keng qo'llaniladi.

Strukturaviy tahlil – metodi bugun tarixiy voqyealarni o'rganish metodlari orasida eng keng tarqalayotgan metodlardan biri bo'lib, unda tarix bayonida umumiylikdan qochib xususiylik tahliliga e'tibor qaratiladi. Ushbu metod qo'llanganda umumiy voqyealar tarixi emas, balki, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini, srukturalarini alohida qismlarga bo'lib o'rganish nazarda tutiladi.

Biografiya janri metodi – tarixni yozishda ushbu usul, o'rta asrlar tarixnavisligida keng qo'llangan bo'lib, unda siyosiy arbob, harbiy sarkarda, biror tarixiy shaxs faoliyati bilan tarixni yozish nazarda tutiladi. Avtoritar va totalitar tuzumdagi davlatlarda tarixni bayon etishda bunday usuldan keng foydalanganlar.

⁶ Fobiya – grekcha «qo'rquv», insonning mantiqan nimadan qo'rqayotganligini atrofdagilarning tushunmasligi.

⁷ Psixoz – tashqi dunyoga nisbatan qiziqish, atrof-muhitga ishonchning yo'qolishi, qo'rquv.

Genealogik usul – qarindoshlik aloqalari, avlod, nikoh kabilarni diagramma va ramzlar vositasida aniqlash hamda yozib borish.

Suhbat jadvali – rasmiy suhbat tartibini tuzishning etnografik usuli bo‘lib, savolnomadan farqli o‘laroq mahalliy odam bilan bevosita tayyor jadvalda keltirilgan savollar yuzasidan gaplashish va javoblarni yozib borish nazarda tutiladi.

Uzoq muddatli tahlil – bu tadqiqotchining jamoa, hudud, jamiyat turmush tarzini o‘rganishga qayta-qayta tashrif buyurishidir.

Kuzatuv usuli – antropologlardan tashqari boshqa ijtimoiy soha olimlari tadqiqotlarida qo‘llaniladigan tadqiqot amaliyoti bo‘lib, statistik tahlil va anonim ma‘lumotlar yig‘ish orqali jamiyatlar tarixi o‘rganiladi.

Tizimli kuzatuv – keng qamrovli kuzatuvlarga asosanib, ma‘lumotlar yig‘ish usuli. Tarixiy antropologiyaning zamonaviy mavzular tadqiqotida keng qo‘llanilmoqda.

Narratif metodi (lotinchada «narrare» tavsiflash, hikoya, bayon qilish) – tarixni o‘rganish, ko‘p jihatdan, voqealar bayoni bo‘lib kelgan. Tarix o‘z nomi bilan - hikoya so‘zlaridan kelib chiqishi bejiz emas. XIX asrning oxirida fransuz tarixchilari. Sh. Langlyo va Sh. Seignoboslar ushbu metodni tarixni o‘rganishga keng joriy etganlar. Ular o‘z metodlari orqali tarixni o‘rganishda fanga nisbatan «*yelim va qaychi haqidagi fan*» iborasini qo‘llaganlar. Ularning fikriga ko‘ra, tarixchining vazifasi, arxivlardagi faktlarni jamlash va ularni bitta hikoyaga yig‘ish, tizimli holatga keltirishdir.

Ushbu uslub bugungi kungacha ko‘plab tarixchilar tomonidan qo‘llanilmoqda. Shunga ko‘ra, bayon qilish usuli muhim bo‘lsa-da, tarixiy faktlarni taqdim etish uchun yetarli emas. O‘z-o‘zidan, voqealar haqidagi voqea (rivoyat) ba’zi bir mantiqqa binoan qurilgan ma‘lum bir ketma-ketlikni nazarda tutadi. Tarixchi ushbu voqealar zanjirini ma‘lum sabab-oqibat munosabatlari, aniqlangan faktlar va boshqalar asosida izohlaydi. Topilmalar tarixiy voqea yoki davrni birlamchi tahlil qilish uchun muhimdir.

Tarixiylik (tarixiy-genetik) usuli XIX asrning birinchi o‘n yilliklarida vujudga kelib, tarixiylik tamoyilini keng tarqatdi. Tarixning tanikli tarixchisi va faylasufi F. Maynek (1862-1954) tarixshunoslikning paydo bo‘lishi G‘arb tarix fanidagi eng muhim intellektual inqiloblardan biri deb hisoblagan. Tarixiylik printsipi har qanday hodisani hisobga olishni anglatadi. Tarixiylik o‘tmishni, hozirgi va ehtimoliy kelajakni anglash

usuli sifatida, o'tmishdagi barcha hodisalarning ildizlarini izlashni talab qiladi. Davrlar va har bir davr o'rtasida uzluksizlik mavjudligini tarixiy jihatidan baholanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Tarixiy (tarixiy-genetik) usuldan foydalanishning yorqin namunasi sifatida Annallar maktabi vakillaridan F. Aryesning «Inson o'lim oldida» (1992) va J.Le Goffning «Tug'ilishning pokligi» (2009) asarlarida keng foydalanganligini ko'rish mumkin. Ushbu asarlarda turli manbalardan: ikonografiya ma'lumotlari, qabr toshlari va epitafiyalar (qabr toshlari), rasm, adabiy manbalardan foydalanganlar. F.Aryes G'arbiy Yevropada o'lim tushunchasi vaqt o'tishi bilan sezilarli o'zgarishlarga duch kelganligini ko'rsatdi. Agar varvarlik jamiyatlarida o'lim tabiiy zarurat sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda bu asosan taqiqlangan tushunchaga aylanganligini ta'kidlaydi.

Le Goff o'zining «Tug'ilishning pokligi» asarida shuni ko'rsatdiki, poklanish tushunchasi o'rta asrlarda faqat XI-XIII asrlar orasida paydo bo'lganligi, Papa Innokentiy IV tomonidan 1254 yilda rasman tan olinishini ta'kidlaydi. Ammo, bu g'oyalar oddiy darajada davom etganligini, pul bilan bog'liq bo'lgan odamlar - sudxo'rlar, savdogarlar - narigi dunyoda najot umidini topish istagida shakillanganligini ta'kidlaydi.

Tarixiy antropologiyada foydalaniladigan yana bir usul — bu «retrospektiv» (lotincha «*retrospectare*» «o'tmishga nazar») deb nomlangan usul. Uning mohiyati ko'proq faktlarga tayanishda tadqiqotchiga yaqin jamiyatning tarixiy voqealari bilan uzoq o'tmishni taqqoslash, o'tmish haqida o'z nuqtayi nazarini bildirishda foydalaniladi. Ushbu usuldan evolyutsionizm nazariyasi namoyondalari (E.Taylor, L.Morgan, F.Engels) ibtidoiy jamiyatlar tarixini o'rganishda keng foydalanishganini ko'rishimiz mumkin.

Shunga o'xshash yondashuv M. Blok tomonidan Fransiyada o'rta asr agrar tizimini o'rganishda to'liq qo'llanilgan. Blok taklifiga ko'ra o'rta asr Fransiyasining agrar tuzilishini, Fransuz qishloqlarining to'liq tasvirini tushunish uchun keyingi davr (XVIII asr) ma'lumotlariga tayanish ijobiy natija berishini ta'kidlaydi.

M.Blok ushbu usul haqida bir nechta eslatmalar berib, uning mohiyatini batafsil bayon qiladi: «Tarixchi har doim o'z hujjatlarining quli va eng muhimi o'zini tarixiy hodisalar tadqiqotlariga bag'ishlagan bo'lishi, jarayonlarni teskari tartibda loyihalashtirishi, ma'lumotlarni tizimli joylashtirishida muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Tarixiy metodlar ko'pincha voqealarni qayta qurish bilan bog'liq bo'lib, unda umumiy mantiqiy va evristik usullardan keng foydalaniladi. Tarixchi va faylasuf R. Kollingvud (1889-1943) ta'kidlashicha «tarixchi o'zining uslublari bilan jinoyatni ochishi kerak bo'lgan tergovchiga juda o'xshaydi» deb yozgan. Tergovchi singari tarixchi barcha dalillarni va ularga asoslangan ma'lumotlarni to'plashga harakat qiladi. Tasavvurga, mantiqqa va deduksiyaga asoslanib, dalillarga zid bo'lmagan gipotezalarni yaratadi.

Tarixiy uslubni qo'llash natijalaridan biri bu davriylashtirishni yaratishdir. Davriylashtirish nafaqat tarixni o'rganuvchi uchun, balki tarixchi uchun juda muhimdir. Tarixiy antropologiya tadqiqotlarida uzoq davrlarga voqealarni joylashtirish emas, balki davrlashtirishda voqealarni asos qilib olish asosiy masala sifatida qaraladi. Masalan, inqilob, urush, modernizatsiya, mustamlaka har doim davrlarga bo'linadi, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu esa tarixiy yo'nalishni chuqurroq anglashga, dalillarni tartibga solish, voqealarni tabiiy sxemasini saqlashga imkon beradi.

Tarixiy antropologiyada umumiy tarix bayonidan xususiy tarixni o'rganishga bo'lgan uslubiy yondashuvlar natijasida «yangi ilmiy tarix» ilmiy tadqiqotlarning yetakchi yo'nalishiga aylanmoqda. Natijada uning o'rganish obyekti va tarkibiy qismlari kengaygan. Jumladan, jamoatchilik bilan aloqalar tarixi; ijtimoiy tuzilish tarixi; kundalik hayot tarixi; shaxsiy tarix; ijtimoiy jamoalar va ijtimoiy to'qnashuvlar tarixi; ijtimoiy sinflar tarixi; ijtimoiy guruhlar tarixi kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tarixiy antropologiyada mutaxassisning bosh axloqiy mas'uliyati, ular o'rganayotgan odamlar jonzoqlar yoki buyumlar emas, balki bashariyatning bir bo'lagi ekanligini unutmasliklaridadir. Har qanday mas'uliyat, javobgarlikning buzilishi tadqiqot olib borishni to'xtatishga olib kelishi mumkin. Bu kabi bosh axloqiy mas'uliyatlar quyidagilarda o'z ifodasini topgan: zarar yetkazmaslik va noo'rin ish qilmaslik; insonlar va primatlarning mavjud holatlarini hurmat qilish; arxeologik qoldiq yoki tarixiy hujjatlarni saqlab qolish; tadqiqotda qatnashuvchilar bilan har tomonlama manfaatli aloqalarni o'rnatishga harakat qilish.



O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Metodologiya deganda nimani tushundingiz? Tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etishda uning roli nimalardan iborat?

❖ Nima uchun tarixiy antropologiyada muammolarni tanlash va o'rganish metodologiyasida aynan etnografiya, sotsiologiya metodlaridan foydalaniladi?

❖ Tarixiy antropologiyaning qiyosiylikligi va keng qamrovlilik xususiyati haqida qanday ma'lumotlarga egasiz? Ularni izohlab bering.

Bu fan Germaniya, Avstriya va Skandinaviya mamlakatlarida Volkerkunde – «ibtidoiy xalqlarni o'rganish» va Volkskunde – «rivojlangan xalqlarni o'rganish», ya'ni eng avvalo o'z xalqini o'rganish deb aytiladi. Buyuk Britaniya va uning bilan hamkor davlatlarda bu fan «ijtimoiy antropologiya» deb atalgan bo'lsa, AQSH va boshqa Amerika qit'asi mamlakatlarida bu fan «madaniy antropologiya» deb nomlangan.

Tarixiy antropologiya bo'yicha yirik mutaxassislar A.Grimshou va K.Xart «bizning asosiy pozitsiyamiz antropologiyani fan sifatida alohidalik va umumiylikni, xususiylik va universallikni hamohangligini tushunishini targ'ib qilishdir», deyishadi. XX asrning oxirlariga kelib Tarixiy antropologiyaning yo'nalishlari kengaydi. Bular «siyosiy», «yuridik», «iqtisodiy», «pravoslav», «slavyan» antropologiyasi va juda ko'p boshqa «antropologik lingvistika», «antropologik zo'rlash», «hukmdorlik antropologiyasi» kabi qator boshqa o'xshash fanlar kirib ketayotganligi kuzatiladi. Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, tarixiy antropologiyada muammolarni tanlash va o'rganishda umumiylik emas, balki xususiylik, makroobyekt emas, balki mikroobyekt yetakchi rol o'ynaydi.

Tarixiy antropologiya fanining metodologiyasini shakllanishida va rivojlanishida Mark Blok, Fevr Lyusen, Jorj Lefevr, Jorj Lefevr, Fernan Brodel, Jyul Mishle, Le Goff kabi olimlarning hissaları kattadir. Ularning g'oyalari ijtimoiy ma'lumotlarning yangi sohasi – tarixiy antropologiya yaratilishiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatgan. M.Blok, L.Fevr, F.Brodel - an'anaviy ravishda tarixni birgina universal metodik yondashuv asosida olib borib bo'lmashligini, tarixni tadqiq etishda hamma uchun majburiy bo'lgan yagona e'tiqod yo'q deb bilganlar. Jumladan, M. Blok tarixni

o'rganishni jamiyat taraqqiyoti qonunlari asosida olib borishni taklif etadi.



Mark Blok 1886-yilda Lion shahrida tavallud topgan. 1919 – 1936-yillar oralig'ida Strasburg, Sorbona universitetlarida ta'lim bergan. M.Blokning asosiy ishlari o'rta asr Yevropasi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, eng mashhur asari «Fransuz agrar tarixining xarakterli xususiyatlari» hisoblanadi. M. Blok 1929-yilda L.Fevr bilan birgalikda tuzgan «Tarixning iqtisodiy va ijtimoiy annallari» jurnali keyinchalik tarixiy antropologiya faniga asos bo'lgan.

Tarixiy antropologiya yirik namoyondalaridan biri L.Fevr tarixiy geografik metodlarga asoslanib tadqiqot ishlarini olib borgan. Uning qiziqish doirasiga agrar munosabatlar, savdo, ijtimoiy tuzilish, til, din, kundalik hayot kabilar kirgan. L.Fevrning xronologik nuqtayi nazardan qaraganda qiziqish doirasi juda keng, u o'rta asrlar, yangi zamon va o'zi yashab turgan davrga qadar bo'lgan tarixiy jarayonlarni tadqiq etganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo, uning asosiy qiziqishlari XVI asrning uyg'onish davri bo'lib hisoblanadi.



Fevr Lyusen (1878 –1956) – fransuz tarixchisi, Dijon universiteti (1912 – 1914), Strasburg (1919 – 1933), Kollej de Fransa professor lavozimlarida ishlagan. 1935-yilda Fransiya ensiklopediyasini chop etishda boshchilik qilgan. 1929-yilda M.Blok bilan birgalikda Strasburgda «Tarixning iqtisodiy va ijtimoiy annallari» jurnaliga asos soladi. L.Fevr siyosiy, voqeanavis tarixchilarni keskin tanqid qilib, tadqiqotchilar oldiga jamiyatni har

tomonlama o'rganish zarurligini taklif qilgan.

L.Fevr har bir sivilizatsiyalarning takrorlanmas o'ziga xos dunyogarashga ega ekanligini, inson bilimlari strukturasi o'zgaruvchanligi va

jamiyatni tadqiq etish muhimligini ta'kidlaydi. U o'z ishini yozishda arxiv manbalaridagi ma'lumotlarni statistik usulda jamlash usulidan foydalangan.

Jorj Lefevr (1874 –1959) – fransuz tarixchisi. Uning asosiy ishlari Buyuk fransuz inqilobi davri tarixi bo'lib o'rganish bo'lib, «Inqilob davrida Fransiya shimolidagi dehqonlar» mavzuida tadqiqotlar olib borgan. Klermon, Strasburg, Sorbona universitetlarida dars bergan. 1937-yildan boshlab «Buyuk Fransuz inqilobi» kafedrasini boshqara boshlaydi. 1932-yilda o'sha vaqtdagi yirik fransuz tarixchisi hisoblangan



Lefevr tarix fanini o'rganishda iqtisodiy, ijtimoiy va agrar munosabatlarga oid fanlarning metodlaridan keng foydalangan.



Fernan Brodel (1902 – 1977) – Tarixiy antropologiya fanining asoschilaridan biri. M.Blok va L.Fevrdan keyin Annallar maktabining «Tarixning iqtisodiy va ijtimoiy annallari» jurnali muharriri bo'lib ishlagan. Uning eng mashhur asari «Filipp II davrida o'rta yer dengizi va O'rta yer dengizi dunyosi» (1949) asari bo'lib, unda geografiya, iqtisod va tarixga oid tadqiqot usullari asosida Yevropaning janubi – g'arbiy qismining XVI asrning 2 – yarmidagi qiyofasi ochib beriladi. Asarda iqtisodiy masalalar, pul muomalasi va savdo bilan boliq

ma'lumotlar tizimli ravishda keltiriladi.

F. Brodel o'z ishlarida qo'llagan usullari bilan ko'proq L. Fevrga yaqinroq turgan. U jamiyat taraqqiyoti qonunlari iqtisodiy hayotga ta'sir

ko'rsatadi deb hisoblaydi. O'z tadqiqotlarida demografik, geografik, psixologik metodlardan ko'proq foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

Fransiyalik J.Mishlening fikricha, tarixiy jarayonlarning qahramoni bu sinflarga bo'linmagan xalqdir. Buyuk kishilar esa faqatgina tarixiy jarayonning simvollaridir. Mishlening mashhur asarlari ko'p tomlik «Fransiya tarixi» va ushbu asarining davomi hisoblangan «Fransiya inqilobi tarixi» asarlaridir. J.Mishle asarlarini yaratishda Arxiv, matbuot, turli memuarlar, tilshunoslik, geografiya, numizmatika fanlarining metodlaridan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

XX asrda Germaniyada K.Lamprext, Fransiyada L.Fevr va M.Blok, Angliyada E.E. Evans Prichart «Antropologiya va tarix», Kit Tomas «Tarix va antropologiya» kitoblarida, Alan Makfarleyn «Tarixiy antropologiyada ocherklar» asarlari bilan tarixiy antropologiya tadqiqotlari o'zining metodologik xususiyatiga ko'ra yangi yo'nalish ekanligini asoslashgan.

Jyul Mishle (1798 – 1874) – Roman-
tik yo'nalishda ijod qilgan fransuz
tarixchisi bo'lib. mayda burjuaziya ideo-
loglaridan biri sifatida tanilgan. 1827-yil-
dan professor, 1838-yildan boshlab
nufuzli «Kollej de Frans» kollejining
professori lavozimida ishlay boshlagan.
Iyul monarxiyasi davrida radikal kayfi-
yatdagi talabalar orasida katta obro'ga
ega bo'lgan. Bu borada uning 1845-
yilda «Iezuitlar», «Ruhoniy, ayol va
oila», 1846-yilda chop etilgan «Xalq»
kabi asarlari bilan mashhur.



XX asrning 2-yarimida Fransiyadagi «Annallar maktabi» ta'siri ostida Germaniyada tarixiy antropologiya rivojlana boshlagan. Tarixiy antropologiyada ijtimoiy tarixni o'rganishga alohida e'tibor qaratishgan Tomas Nipperdaya, Volf Lepenis, Oskara Kyolera, Yoxena Martina kabi olimlarning ishlarida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Tarix fani bilan tarixiy antropologiyani to'qnash kelishi dunyo dekolonizatsiya⁸ davriga to'g'ri kelganligi bejiz emas. Bu ijtimoiy fanlarning yevrosentrizm nazariyasidan ozod bo'lishga yordam berdi. Shuningdek, insoniyat taraqqiyot va progress yo'lida hukmron bo'lib kelgan ilmiy qarash va nazariyalardan ham ozod bo'lishga olib keldi.

Xulosa o'rniida shuni ta'kidlash kerakki, XX asrning 1-yarimida tarixiy antropologiya fani olib borgan tadqiqotlarida psixologiya, sotsiologiya, geografiya, iqtisod kabi fanlar metodlaridan foydalangan bo'lsa, XX asrning 70 – 80-yillariga kelib, ko'proq e'tibor lingvistika, demografiya, sotsiologiya kabi fanlar metodlaridan foydalanishga qaratilgan.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Etnograflar tomonidan amalga oshiriladigan beyosita qatnashuv tadqiqot usulidan antropolog olimlar qay darajada foydalanishadi?

❖ Biror tadqiqotda respondent sifatida ishtirok etganmisiz, yoki Sizda fanga oid qaysi mavzulardagi tadqiqotlarda respondentlik qilish istagi mavjud?

❖ Tadqiqotlar jarayonidagi antropologning bosh axloqiy mas'uliyatiga yuqorida qayd etilganlardan tashqari yana nimalar kirishi mumkin?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ Antropologlar tomonidan qardoshlik tamoyillari va insonlarning ijtimoiy hayotini o'rganishda genealogik ma'lumotlarning o'rni va ahamiyati.

✓ Tarixiy antropologiyada muammolarni aniqlash, tanlash va o'rganish metodologiyasida inson etnik jihatlarining roli.

✓ Tarixiy antropologiyaning etnografiyaga xos dala tadqiqot ishlarini olib borish usullari va ularning ahamiyatlilik darajasi.

✓ Tarixiy antropologiyada turli xil muammolarga yechim topish uchun yo'naltirilgan muddatli tadqiqotlar va ularning turlari. Vaziyat va muhitdan kelib chiqqan holda kichik kuzatuv tadqiqotini amalga oshirish va uning natijalari yuzasidan xulosa tayyorlash.

⁸ Dekolonizatsiya – mustamlaka, qaram, kalonial, dominion o'lkalarning to'liq mustaqillikka erishishi. Dekolonizatsiya davri Afrosiyo davlatlarining XX asrning 40–80-yillarda olib borgan mustaqillikka erishish yo'lidagi harakatlari bilan izohlanadi.

Seminar savollari:

1. Fandagi metodologiya tushunchasining lug'aviy va ilmiy ta'rifi, tarixiy antropologiya fanining metodologik asoslari nimalardan iborat?
2. Tarixiy antropologiyada fanga oid dolzarb muammolarni to'g'ri aniqlash, tasniflash va tanlay bilish yo'llari haqida nimalarni bilasiz?
3. Tarixiy antropologiyada aniqlangan dolzarb muammolarni tizimli o'rganish metodologiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Tarixiy antropologiyada etnografiyaga xos dala tadqiqot ishlarini olib borish usullariga nimalar kiradi? Ularning mazmuni nimalardan iborat?

Tarixiy antropologiyada tadqiqot metodlarini olib borishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar qaysilar?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarga diqqat qiling!

- **Grieger P.**, La caractérogie ethnique. Approche et comprehension des peuples, P., 1961;
- Handbook of social and cultural anthropology, ed. J. J. Honigmann, Chi., 1973.
- Jubile du Centenaire de la Societe d-Antropologie de Paris, P., 1959;
- **Martin D.**, Lehrbuch der Antropolgie in systematischer Darstellung, 3 Aufl., Bd 1-2, Stuttg., 1956-60;
- **Montagu A.**, An introduction to physical anthropology, 3 ed., Springfield, 1960.
- **Popper K. R.**, The logic of scientific discovery, L., [1959];
- **Bromley Yu. V.**, Etnos i etnografiya, M., 1973.
- **Bunak V. V., Nesturx M. F., Roginskiy Ya. Ya.**, Antropologiya. Kratkiy kurs, M., 1941;
- **Porshnev B. F.**, Sotsialnaya psixologiya i istoriya, M., 1966;
- **Roginskiy Ya. Ya., Levin M. G.**, Antropologiya, 2 izd., M., 1963;
- **Shpet G. G.**, Vvedenie v etnicheskuyu psixologiyu, v. 1, M., 1927;

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA ZAMONAVIY YO'NALISHLAR

Reja:

1. Tarixiy antropologiyada zamonaviy yo'nalishlarning vujudga kelishi.
2. Lesli Uayt konseptual yondashuvlarida tarixiy antropologiya masalasi.
3. Germenevtik yo'nalish – tarixiy antropologiya taraqqiyotining istiqboli.
4. Zamonaviy tarixiy antropologiyada postmodernizmning o'rni va ahamiyati.

Keyingi yarim asr davomida tarixiy antropologiya, fanida ko'plab yangi nazariy-metodologik qarashlar hamda g'oyalar paydo bo'ldi. Shubhasiz, bunday qarashlarning paydo bo'lishi dunyo miqyosidagi siyosiy jarayonlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Bu davrda Yevropa antropologlari tomonidan bir qator yangi nazariyalar yaratildi. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachi imperiyalarning yemirilishi tarixiy antropologiya taraqqiyotiga sezilarli ta'sir qildi. Aynan shu davrda Yevropa antropolog-etnologlari tomonidan antropologiya-etnologiya sohalarida bir qator yangi yo'nalishlar ishlab chiqildi. Jumladan, mashhur fransuz olimi Klod Levi-Strossning strukturaviy antropologiya maktabini misol tarzida keltirish mumkin. Levi-Stross XX asr jahon antropologiyasi fanining klassiklaridan biri bo'lib, uning nazariy-metodologik qarashlari o'ziga xosligi va ilmiyligi bilan antropologiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi.



Klod Levi-Stross (1908–2009)

Ingliz olimi Maks Gyulkman (1917–1975) tomonidan «neofunksionalizmning Manchester maktabi» nomi ostida mashhur bo'lgan yo'nalishga asos solindi. Rodni Nidxem (1923–2006) tomonidan ijtimoiy strukturalizmning yangi konsepsiyasi yaratildi. Fransuz antropologlari

XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, ma'lum ma'noda Levi-Stross qarashlari ta'sirida bo'lishlariga qaramay, Moris Godile, Klod Melissolar tarixiy materializmga asoslangan qarashlarni shakllantirishga harakat qildilar. Ammo ikkinchi jahon urushidan so'ng yirik mustamlakachi davlatlarda antropologiyaga bo'lgan qiziqishning pasayishi, o'z navbatida, antropologik tadqiqotlarga ajratiladigan mablag'ning kamayishiga olib keldi.

Niderlandiyada antropologiyaga amaliy qiziqishning zaiflashuvi sababli, bir qator ilmiy tadqiqot institutlari yopildi. Buyuk Britaniya va Fransiyada esa tarixiy antropologiyaning fanlar tizimidagi mavqeyi pasaydi. Biroq, bu Yevropa mamlakatlarida tarixiy antropologiya fani butunlay inkor etildi, degani emas. Keyingi davrda Yevropa olimlari tomonidan tarixiy antropologiya sohasida bir qator yangi nazariyalar yaratildi. XX asrning 50-yillaridan boshlab AQSHda tarixiy antropologiya madaniy antropologiya nomi ostida nihoyatda rivojlandi hamda u o'z ta'sirini Yevropaga ham o'tkazdi. Bu davrda AQSHda mazkur fanga qiziqishning ortishiga ikki xil sababni ko'rsatish mumkin: birinchidan, AQSHda madaniy antropologiya talabalarning umumiy ta'lim olishlarida muhim rol o'ynagan ijtimoiy-gumanitar fan hisoblangan, ikkinchidan, II jahon urushidan so'ng jahon siyosiy maydonidagi vaziyatning o'zgarishi, AQSHda tarixiy antropologiya fani taraqqiyotiga ma'lum ma'noda ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Amerikalik olimlar tomonidan uchinchi dunyo mamlakatlariga tavsiya qilingan madaniy relyativizm konsepsiyasi dunyoning yangi tartib qoidasi sifatida qabul qilindi.

XX asrning 40–50-yillarida Amerika va Yevropa tarixiy antropologiyasida Yevropa etnosentrizmini targ'ib qiluvchi yangi maktablar shakllandi. Bu maktab vakillari Yevropadan boshqa madaniyatlarni qoloq va yovvoyiroq deb hisoblaganlar. Bu nazariya Frans Boas (1858–1942) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, uni Melvill Xerstkovits rivojlantirgan.


XX asrning 40-yillariga kelib, tarixiy antropologiyada evolutsion nazariya isloh qilinishi natijasida neoevolutsionizm g'oyasi vujudga keldi. Klassik evolutsionizmning sodda to'g'ri chiziqliligini inkor etuvchi yangi yo'nalish tarafdorlari «evolutsiya» atamasini turlicha izohlaganlar. Ushbu atamani tushunish bo'yicha u yoki bu nazariy xulosalarni ilgari surganlar. Shu o'rinda, yangi evolutsionizm g'oyasi tarafdorlarining ko'pchiligi universal tarixiy qonuniyatni tan olmaydilar, shuning uchun ular «evolutsiya»ni ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra insoniyatning

doimiy rivojlanishi sifatida izohlaydilar. Madaniyatning bir chiziqdagi taraqqiyoti g'oyasi o'rnida neoevolutsionistlar bir necha: umumiy va xususiy taraqqiyot nazariyasi, mikro va makro jarayonlar nazariyasi, madaniy dominantlik qonuni, taraqqiyot imkoniyati qonuni va boshqalarni ishlab chiqdilar. O'z tadqiqodlarida ular insoniyat tarixini ko'pchiziqli yopiq tizimlar taraqqiyoti yig'indisi sifatida ko'rsatib, ko'pchiziqlikni insonning ekologik muhitga moslashuvi natijasi sifatida izohladilar.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Nima sababdan mustamlakachilik imperiyalarining yemirilishi tarixiy antropologiya taraqqiyotiga sezilarli ta'sir qilgan?

❖ XX asrning 50-yillaridan boshlab AQSHda tarixiy antropologiya nega aynan madaniy antropologiya nomi ostida rivojlandi?



Lesli Alvin Uayt (1900–1975)

Neoevolutsionizm g'oyalari AQSHda alohida o'rin tutib, antropolog va etnolog Lesli Alvin Uayt asarlarida o'z ifodasini topgan. Tarixiy antropologiyada Lesli Uayt nazariyasining o'ziga xosligi insoniyat tarixini o'rganishda madaniyatga alohida e'tibor qaratganligidir. Madaniyat haqidagi g'oyalar va umumiy konsepsiyalarini Uayt «Madaniyat haqida fan» (1949), «Madaniyat evolutsiyasi» (1959) va «Madaniy tizimlar tushunchasi – qabilalar va millatlarni tushunish kaliti» (1975) kabi fundamental asarlarida bayon etgan.

Uayt o'z konsepsiyasi asosida ijtimoiy-madaniy hodisalar va jarayonlarni tadqiq qilishda faqat ikki tadqiqot usuli: tarixiy va funksional tadqiqot usullari mavjud bo'lishiga qarshi chiqadi. Bunda birinchisi katta ijtimoiy ahamiyatga ega hodisalarni tahlil qilsa, ikkinchisi madaniy hodisalar, jarayonlarning umumiy xususiyatlarini, ularning xronologik ketma-ketligidan qat'i nazar o'rganilishini anglatar edi. Ularning o'rniga amerikalik olim madaniy jarayonlarning

uch turini amaliyotga joriy etish lozim deb hisoblaydi. U vaqtli jarayonlar, xronologik ketma-ketlikdagi muhim voqealar – tarix tomonidan o‘rga-nilishi; madaniy taraqqiyotning funksional jihatlar – funksional tahlil chegaralarida tadqiq qilinishi; vaqtli jarayonlardagi madaniy hodisalar vaqtli ketma-ketlikda – evolutsion metodda ko‘rilishi kerakligini ilgari suradi.

Uaytning fikricha, evolutsiya mavjudlikning u‘ch asosiy shaklining yaxlitlikdagi taraqqiyoti bo‘lib, bu jarayonda bir shakl ikkinchisidan xronologik ketma-ketlikda o‘tib chiqadi. Har bir shakl o‘z navbatida madaniyatning turli elementlari yig‘indisidan tashkil topadi. Uayt bo‘yicha madaniyat mustaqil tizimni tashkil etib, uning maqsadi va vazifasi – insoniyat uchun hayotni xavfsiz va qulay qilishdir. U o‘z hayotiga ega, o‘z prinsip va qonuniyatlari tomonidan boshqariladi. Asrlar davomida u shohlarni tug‘ilganidan o‘z bag‘riga olib, ularni o‘z fikri, xulqi, tasavvuri va munosabatlariga ega shaxslarga aylantiradi.

Lekin Uaytning yozishicha, har qanday taraqqiyotning o‘lchovi va manbasi energiya (quvvat) hisoblanadi. Barcha tirik mavjudotlar kosmosning erkin energiyasini o‘z tanalaridagi hayotiy jarayonlarga xizmat qiladigan quvvat turlariga aylantiradi. O‘simlikka quyosh energiyasi o‘sish, qayta yaralish, hayotini saqlash uchun zarur bo‘lgani singari, insonlar ham yashash uchun quvvat olishlari shart. Bu to‘lig‘icha madaniyatga ham taalluqlidir. Har qanday madaniy harakat energiya sarflashni talab etadi. Madaniyatning yuksak omili va belgisini aniqlovchi vosita uning quvvat bilan ta‘minlanish darajasidir. Madaniyatlar foydalanayotgan quvvati miqdori bilan farqlanib, madaniy taraqqiyot darajasi aholi jon boshiga yil davomida ishlatilgan quvvat miqdori bilan o‘lchanishi ham mumkin. Taraqqiy etmagan madaniyatlarning faqat inson kuchiga nisbatan rivojlanganlari esa shamol, bug‘, atom quvvatidan foydalanadi. Shu tariqa Uayt madaniyat evolutsiyasini ishlatiladigan quvvat miqdorining o‘sishi, butun madaniy evolutsiya mazmun-mohiyatini esa insonning dunyoga moslashuvini takomillashtirish bilan bog‘laydi.

Uayt konsepsiyasida ramzlar nazariyasi muhim o‘rin egallaydi. Olim madaniyatni ekstrasomatik (noan’anaviy) an’ana sifatida belgilab, unda ramzlar yetakchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ramziy xulq-atvor, madaniyatning asosiy belgilaridan biridir, chunki ramzlardan foydalanish insonning asosiy o‘ziga xosligidir. Ramzni Uayt so‘z bilan

shakllangan g'oya hisoblab, uni inson tajribasini tarqatish va davom ettirish imkonini beradigan vosita sifatida izohlaydi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Nega Lesli Uayt ijtimoiy-madaniy hodisalar va jarayonlarni o'rganishda faqat ikkita tadqiqot usulidan foydalanishga qarshi chiqadi?

❖ Lesli Uaytning: «Madaniyatning maqsadi va vazifasi – insoniyat uchun hayotni xavfsiz va qulay qilishdir», degan fikriga qo'shilasizmi? Nima uchun?

❖ Nima sababdan Lesli Uayt butun madaniy evolutsiya mazmun-mohiyatini insonning dunyoga moslashuvini takomillashtirish bilan bog'lagan?

Keyingi o'n yilliklarda Amerika antropologiyasi orasida Klifford Girs (1926–2006) va Rixard Tyorner (1920–1983) qarashlari asosida shakllangan yangi germentivik (izohlovchi, talqin etuvchi) yo'nalishi ancha mashhur bo'lib bormoqda. Mazkur yo'nalish tarafdorlari asosan ijtimoiy kommunikatsiyada ramzlar va ramzlarning zamonaviy madaniyatlardagi ma'naviy-axloqiy ahamiyatini tadqiq qilishni maqsad qilib olganlar. Bu borada Tyorner ramzlarning pragmatik aspektiga ko'proq e'tibor qaratadi va ramzlar ijtimoiy jarayonlarda faol kuch tarzida namoyon bo'ladi, degan xulosaga keladi.

Tyornerdan farqli ravishda Girs ramzlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ularning inson hissiyoti va ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini muhim deb hisoblaydi. Girs antropolog empirik (tajribaga asoslangan) ma'lumotlarni tahlil qilish bilangina cheklanib qolmasdan, mazkur madaniyat sohiblarining qarashlari va harakatlari tub mohiyatini aniqlashlari zarur degan g'oyani ilgari surgan.

Olim o'z g'oyalariga alohida yopiq tizim sifatida qarab, interpretativ antropologiya yo'nalashida ularni o'qishga, tahlil qilishga, matnlar tarzida izohlashga intilgan. Interpretativ antropologiyaga manifest bo'lgan asarlaridan birida ham Girs antropologlarga empirik ma'lumotlarni tavsiflash bilan cheklanmasdan, mazkur madaniyat tashuvchilarining fikr va faoliyat asosidagi chuqur jihatlarini tadqiq qilishni taklif qiladi.

Zamonaviy manzaralarda tarixiy antropologiyaning XXI asrdagi rivojlanishi haqida so'z borar ekan, g'arb olimlari germentivik antropologiya taraqqiyoti istiqbolini bashorat qilmoqdalar. Ushbu yo'nalish vakillari germentivik antropologiyada «madaniyat obyekti»ni tadqiq qilish

subyekti asosan yevropaliklar bo'lishi lozim, yevropalik bo'lmagan jamoalar faqatgina tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin», degan g'oya asosida shakllangan yevrosentrizm g'oyasidan butunlay voz kechdilar. Alohida madaniyatlarning o'zaro ta'sir va yaqinlashuv jarayoni ularni tobora yaxlit global madaniyat tizimiga aylantirib bormoqda. Zero, boshqa madaniyatlarni faqat tadqiqot obyekti sifatida emas, madaniy-tarixiy jarayonlarning teng huquqli a'zolari deb tan olgan, boshqacha hayot tarzi, qadriyatlari va fikrlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunib, ijtimoiy va madaniy aloqalarning ikkinchi darajali ekanligini anglagan antropologiya yo'nalishlari taraqqiyot istiqboliga ega bo'la boshlashdi. Har qanday holatda ham, shuni ta'kidlash mumkinki, yevrosentrizm zamonaviy antropologiyada o'z mavqegini yo'qotdi. Yagona yevrosentristik nazariya o'rniga antropologiyada plyuralizm asosidagi turli nazariy yo'nalishlar shakllandi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Ramzlarning *pragmatik aspekti* (amaliyotda insonga nima ko'proq foyda bersa, o'shanga ko'proq ahamiyat berish nuqtayi nazari)ga qo'shilasizmi?

❖ Interpretativ (izohlovchi) antropologiya deganda nimanı tushundiringiz? U tarixiy antropologiya rivojida qanday ahamiyat kasb etdi?

❖ «Yevropalik bo'lmagan jamoalar faqatgina tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin» degan g'oya asosida shakllangan yevrosentrizm g'oyasidan butunlay voz kechilishi tarixiy antropologiya taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib dunyoning turli mamlakatlari tadqiqotlar olib borayotgan etnologlar orasida informatsion, intellektual va tashkiliy aloqalar kuchaydi. Etnik chegaralar va milliy ilmiy maktablar turfa xilligiga qaramay, ilmiy maktablar rivojlanmoqda. Aynan mana shunday maktablardan biri bu – postmodernizmdir. Postmodernizm tushunchasi ilk bora XX asrning 60-yillarida me'morchilikda qo'llanilgan va shundan boshlab zamonaviy dunyo (modern) inqirozi bilan bog'liq intellektual harakatni anglatuvchi yo'nalish tarzida keng qo'llanilgan. Fanda postmodernizm avvalo yaqin vaqtlargacha ustuvor bo'lib turgan ilmiy-metodologiya yo'nalish va dunyoqarashni tanqid qilishni anglatadi.

Postmodernizm g'oyasi Amerika tarixiy antropologiyasida ayniqsa mashhur bo'lib, bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan mutaxassislar mazkur oqimni tanqidiy antropologiya deb yuritadilar.

Madaniy (ijtimoiy) antropologiya qat'iy ma'nodagi fanni anglatuvchi atama emas, balki badiiy ijod mahsuli bo'lib, ko'plab antropologlar o'zlarining tadqiqotlarini ilmiy asosda tasdiqlamaydilar. Balki badiiy uslubni qo'llagan holda o'quvchini ishontirishga harakat qiladilar. Chunonchi, aynan mazkur yo'nalishda bajarilgan tadqiqotlardan biri tarzida Klifford Girsning «Hayot va turmush antropolog muallif nazdida» (1988) nomli kitobini misol sifatida keltirish mumkin. Kitob muallifi B.Malinovskiy, R.Benedikt, K.Levi-Stross kabi fanning klassiklari bo'lgan yirik olimlarning mualliflik uslublarini tahlil qilish asnosida ularning ko'plab «kashfiyotlari»ni badiiy konstruksiya mahsuli tarzida baholaydi.

Antropolog-etnolog dala tadqiqotlari jarayonida maxsus ilmiy moslama yordamida mavjud voqelikka aniq tashxis qo'yish imkoniyatiga ega emas. Har bir tadqiqotchi avvalo inson sifatida o'zga madaniyat vakillari orasida ko'rgan-kechirganlarini va kuzatganlarini o'z madaniyatidan kelib chiqib tahlil qiladi. Ushbu muammo tufayli zamonaviy xorij antropologiyasida juda ko'plab adabiyotlar yaratilib, bular sirasiga Jon Van Maanenning «Dala hikoyalari. Etnografiya yozuvlari haqida» (1988), Pol Rabinovning «Marokashdagi dala ishlari haqida mulohazalar» (1977) kabi asarlarini kiritish mumkin.

XX asrning 90-yillariga kelib, ko'plab g'arb olimlari postmodernizm o'zining «jo'shqin» tanqidlari bilan asrlar davomida fanda ustuvor bo'lib kelgan ustunlarga jiddiy zarar keltirishini va hatto uni yo'qotib yuborishi mumkinligini e'tirof qildilar.

Bugungi kunga kelib, tarixiy antropologiyaning rivojlanishi va uning boshqa fanlar bilan aloqalari sababli yangi etnoiqtisodiyot, etno-metodologiya, etnopsixologiya, etnolingvistika kabi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Tarixiy antropologiyada ko'proq insoniyat va uning madaniyatini tadqiq qilishga va ularni ilmiy tahlil etishga e'tibor qaratilmoqda.

XXI asr boshlariga kelib dunyoning etnik manzarasi keskin tarzda o'zgarib borishi tadqiqotchi olimlarni antropologiyaning tadqiqot obyekti muammosiga yana qayta murojaat qilishlariga sabab bo'lmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerikadagi turli muammolarni paydo qilgan ko'p sonli diasporalar, emigrantlar va qochoqlar (migrantlar) rivojlangan


davlatlarning etnik tarkibini jiddiy o'zgartirib, mahalliy avtohton etnoslar orasidagi kamsonli etnik jamoalar sifatida mustahkam mavqe topishiga olib keldi. Bu holat esa Yevropa Ittifoqida qator yangi millatlararo muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Natijada ayrim Yevropa mamlakatlarida so'nggi o'n yillar davomida izchil amal qilib kelingan multikulturalizm siyosati tanqid ostiga olinmoqda.

Xullas, zamonaviy tarixiy antropologiya fani «postmodernizm» falsafasiga asoslangan bo'lib, bunda asosiy e'tibor ijtimoiy guruhlar orasidagi jarayonlarga qaratilmoqda. Shuningdek, fanda lokal va global jarayonlarni o'rganishda tadqiqotchilar tomonidan tanqidiy tanlanish, ya'ni jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni emas, balki etnos va turli-tuman madaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng muhim deb hisoblangan ko'rinishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Boshqacha aytganda, so'nggi yillarda bajarilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor insoniyatning rivojlanish bosiqichlari, ya'ni paydo bo'lganidan to hozirgi kunga qadar bo'lgan tarixiy davrning global miqyosdagi tavsifi emas, balki muammoviy tanlanish asosidagi tadqiqotlarga ko'proq e'tibor berilmoqda. Demak, yuqoridagi mulohazalarga yakun yasab umumlashma tarzida shuni ta'kidlash mumkinki, postmodernizm g'oyasi bilan boyitilgan tarixiy antropologiya fanining bugungi kundagi asosiy vazifasiga etnomadaniy munosabatlarni hosil qiluvchi etnosni va etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilish kiradi. Tadqiqotchilar oxirgi paytlarda etnik madaniyatlarga va ularning lokal xususiyatlariga, odamlarning kundalik turmush tarzi va madaniyatiga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Eng muhimi hozir bajarilayotgan ko'plab etnologik tadqiqotlar amaliyotda qo'llanilmoqda va rivojlangan mamlakatlarda bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati jamiyat hayotida aynan muhim va eng dolzarb deb e'tirof etilgan ijtimoiy muammolar doirasida amalga oshirilayotganligi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Reja:

1. Evolutsionizm tushunchasi va uning asoschilari.
1. Eduard Taylor – antropologiyadagi evolutsion nazariy konsepsiyasi asoschisi.
2. Gerbert Spenser qarashlarida evolutsionizmning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Adolf Bastian va Lyuis Genri Morgan faoliyatida evolutsionizm asoslari.
4. Evolutsionizm g'oyalari va unga qarshi yo'nalishlarning vujudga kelishi.

Evolutsionizm g'oyalari barcha fanlarning rivojlanishiga keskin burilishlar yasashgan. Jumladan, geologiya, biologiya, sotsiologiya, etno-




Charz Robert Darvin (1809–1882)

logiya, antropologiya va boshqalar. Barcha fanlarda bo'lgani kabi evolutsionizm nazariyasining asosida «evolutsiya» (lotincha «evolutio» kengayib bormoq), ya'ni tadriijy rivojlanish, uzluksiz ravishda davom etadigan va sifatiy o'zgarishlarga olib keladigan miqdoriy o'zgarishlardan iborat rivojlanish shaklidir. Tarix fanida buni izohlaydigan bo'lsak har xalqqa xos madaniyatning yoki uning alohida elementlarini asta-sekinlik bilan, keskin sakrashlarsiz murakkablashish tomon rivojlanishi nazarda tutiladi.

Evolutsionizm nazariyasi quyidagi olimlarning g'oyalari asosida tabiiy va ijtimoiy fanlarda o'ziga xos yo'nalishlarni vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Jumladan: Darvinning evolutsion g'oyasi tabiiy fanlardagina to'ntarish yasab qolmasdan, ijtimoiy fanlar, xususan, yangi shakllanayotgan antropologiyada ham uzil-kesil qaror topadi. Ko'pgina antropolog-evolutsionistlar ularni ijodga tabiiy fanlardagi muvaffaqiyatlar undaganligini ta'kidlaydilar. Evolutsionist olimlar o'zlarining

bosh vazifalarini: turli xalqlar madaniyatlarini qiyoslash, insoniyat madaniyati taraqqiyotining umumiy qonunlarini ochish va asoslash deb bilganlar.



Eduard Bernett Taylor
(1832–1917)

Evolutsion g'oyani turli mamlakat antropologlari: angliyalik Gerbert Spenser (1820–1903) va Eduard Bernett Taylor (1832–1917); germaniyalik Adolf Bastian (1826–1905); amerikalik Lyuis Genri Morgan (1818–1881) yuksaltirdi. Ularning tadqiqotlari tufayli madaniyat avvalgi ma'lum mazmunga ega bo'lmagan alohida tur va xususiyatlar yig'indisidan insoniyat uchun umumiy tarixiy qonunlarga ega bo'lgan mujassam tizim va tartibli ko'rinish oladi.

Tarixiy antropologiyada evolutsion nazariya asoschisi deb haqli ravishda ingliz

olimi Eduard Taylor tan olinadi. U 1865-yili nashr qilingan «Insoniyatning qadimgi tarixiga oid tadqiqotlar» asarida o'z qarashlarini bayon etadi. Olim mazkur asarida insoniyat madaniyatining ibtidoiy darajadan hozirgiga qadar yuksalib borishi, xalqlar madaniyatlaridagi farqlar esa haqiqiy xususiyatlar emas, madaniy taraqqiyotning notekis rivojlanishi natijasi ekanligini ta'kidlaydi.

Taraqqiyotning evolutsion nazariyasini Taylor 1875-yil nashr etilgan «Ibtidoiy madaniyat», kitobida yanada batafsilroq yoritadi. Unda Jozef Mari de Mestr (1753–1821)ning yerda yarim sivilizatsiyalashgan odamlarning paydo bo'lgani hamda ularning bir qismi yovvoyilikka, boshqalari esa oldingi sivilizatsiyaga qarab taraqqiy etgani to'g'risidagi g'oyasiga qarshi insoniyat madaniyatining uzluksiz rivojlanishi g'oyasini ilgari suradi. Shu bilan birgalikda Taylor ma'lum tarixiy va tabiiy fojialar madaniyatda rekrisiv, ya'ni salbiy (orqaga qaytuvchi) rivojlanish bo'lishi mumkinligini ham inkor etmaydi. Madaniyat turlarining ko'pligini u taraqqiyot davomida ko'plab bosqichlardan o'tish bilan izohlagan. Bu bosqichlar o'zaro bog'langan bo'lib, barcha xalqlar madaniyatlarini bir zanjirga birlashtiradi.

Boshqa evolutsionistlar kabi Taylor ham madaniy jarayonlarni o'r-ganishda ilmiy-tabiiy metodni qo'llashga harakat qiladi. Shuning uchun olim ilmiy-tabiiy klassifikatsiyani tarixiy antropologiya ehtiyojlariga

moslashtirishga intilgan. U moddiy va ma'naviy madaniyatning ma'lum belgilarini tadqiq etib, ularni tabiatshunoslikdagi o'simlik va hayvonlar turlariga qiyoslagan. Madaniy borliq, insoniyat madaniyatining doimiy taraqqiyotda bo'lishi nuqtayi nazarini yoqlagan. Taylor evolutsionistlar orasida birinchi bo'lib ibtidoiy tarixni o'rganishda arxeologiya bilan etnografiya fanini yaqinlashtirish kerakligini ilgari surgan, ibtidoiy qarashlarning umumiy qonuniyatlarini yaratdi va bular o'z davri uchun eng yetakchi g'oyalardan biri edi.

Taylor madaniy jarayonlarning barchasidan ham ibtidoiy xalqlarning diniy tasavvurlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratib, dinning animistik kelib chiqishi g'oyasini ilgari surdi. Qoloq xalqlar diniy tasavvurlarini o'rganishda olim insoniyat va uning madaniyati vujudga kelishi yagona ekanligi g'oyasiga asoslandi. U ayrim olimlar ta'kidlaganidek «yovvoyilar» diniy tasavvurlari va udumlari turli bo'lmag'ur fikrlar aralashmasi emas, balki ularning aksari qismi mantiqli va tartibli ekanligini tasdiqlashga urindi. Taylarning yozishicha, diniy tasavvurlar asosida jonlar va ruhlarga ishonch tuyg'usi yotadi. Olim bu tuyg'ularni «animizm» (*lotincha* anima –jon, hayot) atamasi bilan ifodalaydi. U animizmning ildizlarini «yovvoyi» kishining «falsafasi»da, uning tush, tush ko'rish, hushdan ketish, kasalliklar, o'lim sabablarini bilishga intilishida ko'radi. Uni izohlash davomida insonlar har bir kishida ruh mavjudligi va odamni vaqtinchalik (tush) yoki umuman (o'lim) domiga tashlab ketishi mumkinligi haqidagi xulosaga keladilar. Ruhlarga ishonch tuyg'usi asosida qadimgi odamlarda keyinchalik yanada murakkabroq diniy tasavvurlar shakllanadi. Ibtidoiy odamni afsungarlikka ishonch, atrof-muhitdagi barcha narsalar, shu jumladan, jonsiz buyumlar ham o'z ruhlariga ega ekanligiga ishontirgan. Shu tariqa avval hayvonlar va tabiat kuchlari ruhlariga e'tiqod, keyinchalik esa «narigi dunyo», tabiatning ulug' ilohlariga, eng so'ngida, yagona Xudoga ishonch paydo bo'ladi.


Taylarning evolutsion qarashlari antropologiyadagi oldinga tashlangan muhim qadam bo'ldi. Ularni tarixiy jarayoni va madaniyatining ijobiy taraqqiyoti yagonaligini asoslovchi batartib konsepsiya deb atash mumkin. Ammo evolutsionizmning, xususan, Taylor nazariyasining nuqsonlari keyinchalik ma'lum bo'ldi. Olimning g'oyalari o'z zamonida antropologiyada juda tez tarqalib, uning qator davomchilari yetishib chiqdi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Turli xalqlar madaniyatini qiyoslash, madaniyat taraqqiyotining umumiy qonunlarini ochish va asoslash vazifasi qanday omillar natijasida yuzaga kelgan?

❖ Madaniy borliq, insoniyat madaniyatining doimiy taraqqiyotda bo'lishiga asoslangan g'oya tarixiy antropologiyadagi mavjud qarashlarga qanday ta'sir etdi?

❖ Taylorning fikricha, diniy tasavvurlarning asosida jonlar va ruhlarga ishonch tuyg'usi yotadi. Sizningcha, uning fikri qanchalik to'g'ri?



Gerbert Spenser (1820–1903)

Evolutsion nazariy klassiklaridan biri ingliz faylasufi, biolog, psixolog va sotsiolog Gerbert Spenserdir. Uning bir xillik (gomogen)dan madaniyatning ko'p xillik (geterogen), ya'ni bosqichma-bosqich differentsatsiya va integratsiya orqali o'zgarib, murakkablashib borishi g'oyasi «Sotsiologiya asoslari» asarida o'z aksini topgan.

Spenser g'oyasining asosi jamiyat va inson organizmining qiyoslanishida edi. Jamiyat va madaniyatlarning turli tiplarini u ma'lum «ilohiy tana» tarzidagi, doimiy taraqqiyotdagi borliq sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, jamiyat yoki madaniyatlar tashqi (geografik muhit, qo'shni madaniyatlar) va ichki (insonning jismoniy tabiati, irqiy differentsatsiya, ruhiy sifatlarining xilma-xilligi) omillari orqali taraqqiyot etadi. U birinchilardan bo'lib «qoloq» madaniyatlarni jismoniy, aqliy va axloqiy taraqqiy etmagan xalqlar yaratganligi gipotezasi (farazi)ni ilgari suradi. Spenser insoniyat ilk tarix bosqichidan tabiatga asta-sekin moslasha borayotgani ehtimolini aytadi. Ushbu jarayonlar natijasida inson sifatleri takomillashib, jamiyatlarda mujassamlashib, an'analar orqali keyingi avlodlarga o'tib boradi. Insonlar guruhleri yashash sharoitlari, muhitlari ta'sirida, ularning sifatleri taraqqiysi ham turlicha bo'ladi. Ammo bu kabi farqlar insondagi takomillashishga bo'lgan tug'ma imkoniyatlar orqali tez vaqtda yo'qotilishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyotini tahlil etishda Spenser ikki xususiyatni – differensiatsiya va integratsiyaning ahamiyatini alohida belgilaydi. Uning fikricha, dastlab son o'sishi, madaniyat elementlarining ko'payib borishi kuzatiladi. Miqdor o'sishi, o'z navbatida, ma'lum madaniy birlikning differentsatsiyalashuvi yoki qismlarga bo'linishiga olib keladi. Ushbu strukturaviy qismlar tobora bir-biriga o'xshamaydigan, ma'lum funktsiyalarni bajaradigan, maxsus madaniy vazifalarni mujassamlashtirgan mexanizmga aylana boradilar.

Bu borada Spenser ilmiy amaliyotga «struktura», «funksiya», «madaniy institut» kabi tushunchalarni kiritdi. Shuning uchun ham uni antropologiyaning yangi yo'nalishi – funksionalizmning asoschisi deb hisoblashadi. Ammo Spenser g'oyalari asosan faylasuflar orasida ommalashib, antropologiyaning taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazmaydi.


O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Gerbert Spenserning o'z g'oyasini asoslashda jamiyat («ilohiy tana») va inson organizmini qiyoslashdan foydalanishi qanchalik mantiqqa yaqin?

❖ Uning «qoloq» madaniyatlarni jismoniy, aqliy va axloqiy taraqqiy etmagan xalqlar yaratganligi to'g'risidagi faraziga qo'shilasizmi? Nima uchun?

❖ Spenser jamiyat taraqqiyotini tahlil etishda nega aynan differensiatsiya va integratsiya xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratgan?

Nemis antropologiyasi va evolyutsionizmning Germaniyadagi asoschisi Adolf Bastian yirik nazariyotchi va fan tashkilotchisi edi. Dunyoning turli hududlaridagi 9 ta ilmiy ekspeditsiya davomida to'plagan ma'lumotlari unga ilmiy konsepsiya yaratish imkonini berdi. Bastian g'oyasining muhim tomoni unda insoniyat tarixining soddalikdan murakkablikka tomon yuksalishi izohlangani bo'ldi. U o'z tadqiqotlarida barcha odamlar dunyoqarashining o'zagiga – psixologiyaga e'tibor qaratdi. Bastianning fikricha, ibtidoiy odamlar tarixiy-geografik muhitga moslashuv borasida elementar, deyarli psixik strukturaga ega bo'lishgan. Insonlar ruhiyatining o'xshashligini turli xalqlar o'tmishidagi ertaklar, afsonalar ayrim g'oyalardagi umumiylikda ham kuzatishimiz mumkin.



Adolf Bastian (1826–1905)

Har bir xalq o'z g'oyalari majmuasini yaratadi va ular ushbu xalq madaniyatining mohiyatini belgilaydi.

Mabodo ushbu xalq alohida chet hududda yashasa, uning g'oyalari majmuasi o'zgarishsiz qoladi. O'zga xalqlar bilan aloqa qilingan taqdirda esa yangi g'oyalar o'zlashtirila boshlanib, bu hol madaniyatning yuksalishini ta'minlaydi. Misol tariqasida o'zbek xalqining XIX asr oxiri – XX asrlardagi g'oyalari doirasi va ularning kengayib borishini jadidlar faoliyati bilan ko'rsatish mumkin.

Bastian buyuk madaniyatlar misolida insoniyatning taraqqiyoti halqa tarzida yuksalib borishi, agar unga harakatlantiruvchi kuchlar ta'sir etsa, madaniy taraqqiyot yanada davom etishini izohlaydi. Olim tarixni tahlil qilar ekan, xalq o'zining geografik muhiti bilan qanchalik mustahkam bog'liq bo'lsa, u shu qadar tarixiy o'zgarishlarga ham yo'liqadi, degan xulosaga keladi.

Bastian nazariy qarashlarida ijtimoiy hodisalarning psixologik va biologik xususiyatlari o'ziga xos tarzda ifodalangan. Olim o'z tadqiqotlaridagi barcha muammolar yechimini, insonning aqliy imkoniyatlari va uning atrof-muhit bilan faol munosabatlaridan izlaydi.

Bastian insonning aqliy fazilatlarini uning biologik xususiyati natijasi deb biladi va insonning ma'naviy hayoti biologik qonunlarga to'liq bo'ysunishini ta'kidlab, shu nuqtayi nazardan o'rganilishi lozimligini aytadi. U inson ruhiyati vaqt bilan bog'liq tarzda yuksalishini, ruhning vujudga kelish sabablari va omillarini o'rganishni antropologiya predmeti deb ko'rsatib, uni tabiiy fanlar qatoriga qo'ydi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Adolf Bastianning dunyo bo'ylab 9 ta ilmiy ekspeditsiyadagi ishtiroki uning dunyoqarashiga qanday ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin?

❖ Har bir xalq tomonidan yaratilgan g'oyalar majmuasi o'sha xalq madaniyatining mohiyatini belgilashi haqidagi fikrga Siz qanday munosabatdasiz?

❖ Yuqoridagi fikrlardan qanday xulosa chiqardingiz? Adolf Bastianning evolutsionizm rivojiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat ekan?

Tarixiy antropologiyada evolutsionizmning shakllanishida amerikalik olim Lyuis Genri Morgan alohida o'rin tutadi. Morgan antropologiyaga o'ziga zamondosh bo'lgan barcha hamkasblarining umumiy xizmatidan ko'proq hissa qo'shgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Umrining deyarli 40 yilida dastlab AQSH hindu qabilalarini, so'ngra dunyoning boshqa hududlaridagi xalqlarni o'rgandi. Morganning etnik muammolarga qarashlari «Qadimgi jamiyat» (1877) va «Ibtidoiy jamiyat» (1871) asarlarida o'z aksini topdi. Mazkur asarlarda olim antropologiyaning uch asosiy muammosi: urug'chilik jamiyatining insoniyat tarixidagi o'rni va ahamiyati, oila-nikoh munosabatlarining shakllanishi tarixi hamda insoniyat tarixini davrlashtirishni tadqiq qildi.

«Qadimgi jamiyat» asarida irokezlarning o'ziga xos jamoa tuzumiga asoslanib, ibtidoiy jamoa asosini urug' tashkil etgan, degan xulosaga keldi. Olim insoniyat tarixini ikki katta: ilk urug' va qabilalarga asoslangan ijtimoiy tuzum hamda so'nggi odamlarning hudud va mulkka turlicha munosabatiga asoslangan siyosiy tashkilotlar davriga bo'ldi. U urug'chilik qadimgi Osiyo, Amerika, Yevropa, Afrika, Avstraliya jamiyatlari uchun ijtimoiy tuzumning universal asosi bo'lganligini yozdi. Ushbu davrda urug' jamoasi jamiyat tizimi va faoliyatining asosiy quroli hisoblangan. Morgan xalqlarning urug'chilik tuzumini tarixiy nuqtayi nazardan yondashgan holda tadqiq qilgan.

Morganning ilmiy tadqiqotlarida oila tarixini o'rganish ham katta o'rin tutgan. Bu masala ham «Qadimgi jamiyat» asarida yoritilgan. Turli xalqlardagi qon-qarindoshlik turlari haqidagi ma'lumotlarni to'plagan olim, ularni tizimlashtirdi. Morgan insoniyat tarixidagi oilalar taraqqiyotida: 1) qon-qarindoshlik oilasi [ota-ona va farzandlar orasidagi nikohning taqiqlanishi]; 2) punalual oila [bir necha opa-singillarning umumiy er bilan yoki bir necha aka-ukalarning umumiy xotin bilan guruhiy nikohi]; 3) juft sindiastlik oila; 4) patriarxal yoki pompam oila; 5) monogam [zamonaviy ko'rinishdagi] oilalar bo'lganini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, oila shakllari orasida eng muhimlari 1^a, 2- va 5-lari bo'lib, xuddi shu xildagi nikohlardan insonlar qardoshligi asosiy turlari rivojlandi.

Morgan tadqiqotlaridan eng muhimi – ibtidoiy jamoa tuzumini tadqiq qilishi va ibtidoiy madaniyatni davrlashtirishga harakati hisoblanadi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Lyuis Genri Morgan o'z asarlarida nega aynan antropologiyani yuqoridagi uch asosiy muammosini tahlil qilishga harakat qilgan?

❖ Uning insoniyat tarixini bor-yo'g'i ikki yirik davrga: ijtimoiy tuzum hamda siyosiy tashkilotlar davriga bo'lish g'oyasi nimaga asoslangan?

❖ Nima uchun u o'zi tasniflagan oilalar orasidan aynan qon-qarindoshlik, punalual hamda monogam oilalarni eng muhimlari deb hisoblagan?

Evolutsion yo'nalish inson taraqqiyoti va uning madaniyatini tartibli o'rganish borasidagi dastlabki konsepsiya bo'lib, u ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yuksala borishi g'oyasiga asoslangan edi. Evolutsionizmning asosiy g'oyalari quyidagilar:

❖ insoniyatning kelib chiqishi yagonadir, shu sababdan uning vakillarining aqliy imkoniyatlari deyarli bir xil, ma'lum vaziyatlarda ular o'xshash qarorga keladilar; bu hol inson vakillari madaniyatining, ular qayerda yashamasinlar birlikka egaligi va bir xilda taraqqiy etishi, turli madaniyatlar orasidagi aloqalar hal qiluvchi ahamiyatga ega emas;

❖ jamiyatlarning doimiy yuksalishi, ya'ni oddiylikdan murakkablikka o'tish jarayoni mavjud; madaniyat ham jamiyatning bir bo'lagi sifatida oddiylikdan murakkablik tomon doimiy, sekinlik bilan bo'ladigan o'zgarishlar, son jihatidan o'sish yoki kamayish orqali rivojlanadi;

❖ madaniyatning har bir elementi taraqqiyoti avvaldan belgilab qo'yilgan, uning keyingi shakllari avvalgilaridan shakllanadi, bu borada madaniyat taraqqiyoti ko'p bosqichli bo'lib, ular dunyodagi barcha madaniyatlar uchun bir xildir;

❖ insoniyat madaniyatlarining universal qonunlariga binoan turli xalqlar va ularning madaniyati bir xil bosqichda bir xil natijalar beradi;

❖ ijtimoiy taraqqiyotning evolutsiya qonunlari bo'yicha madaniyat elementlarining o'zaro bog'liqligi;

❖ turli xalqlar madaniyatidagi farqlar ularning taraqqiyot bosqichlaridagi tafovutlar bilan bog'liq ekanligi.

Ushbu prinsiplarga asoslanib evolutsionist etnologlar muhim mafkuraviy va amaliy, ya'ni barcha xalqlar yagona taraqqiyot yo'lidan borsa va uning cho'qqisi Yevropa sivilizatsiyasi hamda madaniyati bo'lsa, demak, barcha xalqlar oxir-oqibat Yevropa madaniy qadriyatlariga kelishishi lozimligi haqida xulosalar qilganlar.

XIX asrning oxirida yangi ma'lumotlarning toplanishi evolutsion g'oyaning zaif tomonlarini, hayotda mavjud faktlar bilan nomuvofiq kelishini aniqladi. Xususan, madaniyatda faqat son jihatidan o'zgarishlar bo'lishi mumkinligiga asoslangan evolutsionistlar uning yangidan tug'ilishi (vujudga kelishi) mumkinligini izohlash tugul, o'ylab ham ko'rishmagan. Evolutsion g'oya bo'yicha madaniyatning barcha elementlari insoniyat tarixining muqaddimasidan boshlangan. Yangi etnografik tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar evolutsion g'oyaga mos kelmagan. Natijada ularni tadqiq etishning yangi yo'llari, usullari izlana boshlandi. Shu sababdan evolutsion nazariyaga qarshi yo'nalishlar vujudga keldi. Evolutsion g'oyadan qoniqmagan ayrim etnolog va antropologlar esa nazariy muammolar bilan shug'ullanishdan bosh tortib, faqat empirik ma'lumotlar yig'ishga o'tdilar.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖Evolutsion yo'nalish mohiyatini tashkil etuvchi ijtimoiy taraqqiyotning doimiy yuksala borishi g'oya'si har qanday jamiyatlarga ham taalluqlimi?

❖Madaniyat taraqqiyoti ko'p bosqichli bo'lib, ular dunyodagi barcha madaniyatlar uchun bir xildir, degan qarashni biror fakt bilan inkor eta olasizmi?

❖Evolutsion nazariya inqiroziga unda aynan qanday hayotiy faktlarga nomuvofiq qarashlarning mavjudligi sabab bo'lgan? Ularni izohlang.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓Eduard Bernett Taylor asarlarida insoniyat madaniyatining uzluksiz rivojlanishi g'oyasi asoslarining yaratilishi.

✓Gerbert Spenserning jamiyat taraqqiyotiga oid tahlillarida differensiatsiya va integratsiyaning ahamiyati.

✓ Adolf Bastian ilmiy tadqiqotlarida insonlar ruhiyatining o'xshashligi to'g'risidagi qarashning ilgari surilishi.

✓ Lyuis Genri Morgan asarlarida insoniyat tarixini davrlashtirish muammosining tadqiq etilishi va ibtidoiy madaniyatni davrlashtirish masalasi.

✓ Tarixiy antropologiyadagi evolutsionizm yo'nalishining o'z ahamiyatini yo'qotib borishiga sabab bo'lgan omillar va ularning tahlili.

Seminar savollari:

1. Tarixiy antropologiyada evolutsionizm yo'nalishining vujudga kelishi uchun sabab bo'lgan omillar va nazariyaning mohiyati nimalardan iborat?

2. Evolutsionist olimlar tomonidan shakllantirib borilgan evolutsionizmning asosiy g'oyalarini qanday tamoyillar tashkil etadi?

3. Evolutsion nazariya asoschisi Eduard Taylor, shuningdek, Gerbert Spenser qarashlarida nazariyaning yangi qirralari paydo bo'lishiga nimalar turtki bergan?

4. Adolf Bastian va Lyuis Genri Morgan evolutsionizm yo'nalishi rivojida qanday muhim nazariy qarash va g'oyalarni ilgari surganlar?

5. Evolutsion nazariyaga qarshi yo'nalishlar vujudga kelishi uchun qanday omillar sabab bo'lgan? Mazkur nazariyaning keyingi taqdiri qanday kechgan?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarga diqqat qiling!

Gerbert Spenser merosini o'rganishga oid manbalar:

- ❖ **Duncan D.**, The life and letters of H. Spencer, N. Y., 1908;
- ❖ **Haberlin P.**, H. Spencer's Grundlagen der Philosophie, Lpz., 1908;
- ❖ **Hudson W.**, An introduction to the philosophy of H. Spencer, N. Y., 1894;
- ❖ **Peel J.**, H. Spencer. The evolution of a sociologist, N. Y., 1971.
- ❖ **Royce J.**, H. Spencer, N. Y., 1904;
- ❖ **Runmey J.**, H. Spencer's sociology, L., 1934;
- ❖ **Schwarze K.**, H. Spencer, Lpz., 1909;
- ❖ **Spencer H.**, Works, v. 1-18, L. - N. Y., 1910;
- ❖ **Taylor A. E.**, Herbert Spencer, N. Y., 1928:

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA DIFFUZIONIZM VA UNING NAMOYONDALARI

Reja:

1. Fridrix Ratsel va Leo Frobenius asarlarida madaniy omillarning tarqalish qonuniyatlari.
2. Tarixiy antropologiyada madaniyat – Frits Grebner va Klark Uisslerlar talqinida.
3. Diffuziya g'oyasining ingliz va rus olimlari ilmiy tadqiqotlaridagi o'rni.

Antropologiya, arxeologiya va etnologiya fanlari XIX asr oxiriga kelib o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga kirdi. Avvallari etnografik kuzatishlarning aksari savdogarlar, missionerlar, sayyohatchilar tomonidan olib borilgan bo'lsa, endi ularni maxsus tayyorlangan olimlar avvaldan tayyorlangan dasturlar asosida olib boradigan bo'ldilar. Shu paytdan evolutsionizm tarixiy tadqiqotlarda yetakchi o'rini yo'qota boshlaydi, chunki evolutsion metodologiya izohlab bera olmaydigan ma'lumotlar ko'payib bordi.

Evolutsionizmdagi metodologik inqiroz qator diffuzionistik maktablarni shakllantirishga yo'l ochdi. Yangi yo'nalish cheklangan davrdagi tarixiy muammolarni, xususan madaniyat va uning alohida elementlarining hududiy shakllanishi, ularni rekonstruktsiya qilish va tarqalishini tadqiq etishni bildirdi.

«Diffuziya» (*lotincha «diffusio» «tarqalish»*) antropologiyada diffuziya madaniy omillarning xalqlararo savdo, ko'chishlar, istilolar orqali tarqalishini ifodalaydi. Diffuzionizm ilmiy yo'nalish sifatida tarixiy jara-yonning asosiy mazmuni deb madaniyatlararo o'zaro ta'sirni tan oladi.

Evolutsionistlar madaniyatlarning avtonom (muxtor) vujudga kelishi va bir xilda rivojlanishi g'oyasiga, diffuzionistlar esa ma'lum geografik muhitda vujudga kelgan o'ziga xos madaniyat elementlarining keyinchalik ushbu markazdan qo'shni hududlarga tarqalishi g'oyasini ilgari surdilar. Ma'lum ma'noda diffuzionizmni, evolutsion nazariyaning progressiv taraqqiyot g'oyasi, madaniy komplekslar yoki ularning ayrim elementlarini hududiy diffuziya prinsipi bilan almashtirishga urinish sifatida tushunish mumkin.

Diffuzionizm g'oyasining qator yo'nalishlari va maktablari shakllandi. Skandinaviya mamlakatlarida Erik Nordenildning tarixiy-geografik yo'nalishi; Germaniyada Frits Grebner va Vilgelm Shmidtning madaniy-tarixiy hamda Leo Frobeniusning antropogeografiya maktablari; AQSHda Eduard Sepir, Melvill Xerskovits; Angliyada giperdiffuzionizm (geosiyosiy) maktabi vakillari Grafton Elliot Smit, Uilyam Riverslar ijod qilishgan.

Ratsel o'z g'oyalarini «Antropogeografiya», «Xalqshunoslik» va «Yer va hayot» kabi ko'p tomlik asarlarida ifodalaydi. Ularda olim yer yuzida insonlarning joylashishini tasvirlar ekan, madaniyatning geografik muhit bilan bog'liq holda yuksalishiga e'tibor qaratdi. Bu borada olim tabiiy muhitning xalqning ichki hayotiga, uning madaniyati shakllanishiga, xalqlar orasidagi aloqalar xarakteriga ta'sirini batafsil tadqiq qiladi.



Diffuzionizmning asoschisi deb Lyudvig Maksimilian nomidagi Myunxen universiteti professori, nemis geografi, etnologi, sotsiologi **Fridrix Ratsel** (1844–1904) tan olinadi. U birinchi bo'lib madaniy omillarning mamlakatlar va hududlardagi tarqalishi qonuniyatlariga e'tibor qaratdi. Evolutsionistlarda madaniy omillar ularning paydo bo'lishi sharoitlari bilan bog'liq holda ko'ril-magan. Ratsel esa madaniyat omillarini xalqlararo munosabatlardagi muhim omil sifatida ko'rsatdi. Uning fikricha, irqalar aralashadi, tillar paydo bo'ladi va yo'qoladi, xalqlarning nomi o'zgaradi, faqat madaniy ashyolar o'zining hududiy o'rnini hamda ko'rinishini saqlab qoladi. Shuning uchun Ratsel madaniy ashyolarning tarqalishi masalasini o'rganishni fanning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydi.

Ratsel o'zining tarixiy antropologiyada madaniyat borasidagi asosiy g'oyalarini «Antropogeografiya» nomli asarida moddiy madaniyat buyumlarining elat va xalqlar orqali tarqalish geografiyasi orqali tahlil qildi. Uning fikricha, turli xalqlar madaniyatidagi tabiiy muhit bilan bog'liq tafovutlar, xalqlar orasidagi aloqalar moddiy madaniyat ashyolari – etnografik buyumlarning tarqalishi orqali asta-sekin yo'qolib boradi.

Ratsel xalqaro munosabatlarga: qabilalarning ko'chishlari, bosqinlar, irqalararo aralashuv xususiyatlariga, almashinuv, savdo va hokazolarga alohida e'tibor qaratdi. Bunday o'zaro munosabatlar davomida madaniyatning borliqqa tarqalishi ro'y beradi. Amalda etnografik ashyolarning tarqalishi til yoki irqlar xususiyatlarning yoyilishidan ancha muhimdir. Til etnik belgi sifatida irqqa nisbatan muhimroq, lekin u ham vaqt davomida o'zgaradi yoki boshqa tillar tomonidan surib chiqariladi. Moddiy madaniyat ashyolari – buyumlar esa o'zining ko'rinishini, tarqalgan hududini madaniyatning boshqa omillariga nisbatan uzoqroq saqlab turadi. Ratselning fikricha, xalqlar o'zgaradi, yo'qolib ketadi, moddiy madaniyat buyumlari esa qanday bo'lsa, shunday qoladi. Shuning uchun etnografik ashyolarning tarqalish geografiyasi madaniyatni tadqiq etishning eng muhim tomonlaridan biridir.

Ratsel madaniyat elementlari tarqalishida madaniyatning ayrim predmetlari (ashyolari) emas, butun etnografik ashyolarning bir xalqdan ikkinchisiga o'tishi ham kuzatilishini yozadi. Uning ta'kidlashicha, ayrim buyumlar (taqinchoqlar, kiyimlar, tamaki) bir xalqdan ikkinchisiga o'tsa, boshqalari (egar-jabduqlar, temir buyumlar) faqat uni o'zlashtirgan xalqlar bilan birga tarqaladi.

Ratsel asarlarida mustaqil yo'nalish sifatida diffuzionizmning madaniyatni o'rganishdagi asosiy tamoyillari: madaniyatlarning o'zaro ta'siri; yangi elementlar davomida uning o'zgarib borishi; insoniyat madaniyatining bir yoki bir necha markazdan boshlangani g'oyalari o'z aksini topgan. Bu borada Ratsel insonning o'ziga ikkinchi darajali etnografik buyumlar tashuvchisi sifatida o'rin berib, madaniyatni unga nisbatan mustaqil deb hisoblaydi. Madaniy omillarning uni tashuv-chilardan mustaqilligi g'oyasi keyinchalik Frobeniusning «Madaniy morfologiya» va Shmidtning «Vena maktabi vakillari» asarlarida yanada rivojlantirildi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ XIX asr oxirlarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida evolyutsion metodologiya izohlab bera olmaydigan qanday ma'lumotlar ko'payib bordi?

❖ Nima uchun Fridrix Ratsel madaniy ashyolarning tarqalishi masalasini o'rganishni fanning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan?

❖ Ayrim buyumlarning bir xalqdan ikkinchisiga o'tishi, bosh-qalarining esa faqat uni o'zlashtirgan xalqlar bilan birga tarqalishi deganda nimani tushundingiz?

Diffuzionizmning yetuk namoyondasi Leo Frobenius Afrika va Melaneziya madaniyatlarini tadqiq qilish, qiyoslash orqali tarixiy antropologiyada madaniyatdagi ayrim elementlar emas, balki madaniy borliqning butun komplekslari tarqalishi haqidagi fikrni aytadi.

Frobeniusning qarashlari ma'lum ma'noda afsonaviyligi bilan xususiyatlidir. U madaniyatni tirik organizmga qiyoslab, uni tug'ilish, bolalik, barkamollik, qarilik, va nihoyat, o'lim bosqichlarini bosib o'tishini aytadi. Olimning fikricha, madaniyat odamlar tomonidan yaratilmasdan, o'z-o'zidan yuksaladi. Inson esa madaniyatning yaratuvchisi emas, uning mahsuli yoki obyekti sifatida ifodalanadi. Ammo madaniyat xalq tomonidan yaratilmasa-da, uning siz yashay olmaydi, sababi madaniyat faqat xalq orqali tarqaladi. «Madaniyatning oyog'i yo'q», shuning uchun u insonni o'zini tashishga, tarqatishga chorlaydi. Demak, inson (xalq) – madaniyatni yaratuvchi emas, uni tashuvchi xolos, degan xulosalarni qayd etadi. Uning fikricha, har bir madaniyat o'z xarakteriga, o'zining «madaniy ruhi»ga ega bo'lib, u madaniyatning har bir elementida o'zining o'chmas izini qoldiradi.

Ushbu madaniyatning o'ziga xos xarakterini olim «paydeum» (*yunoncha* «tarbiyalash») deb atab, uni «madaniyat ruhi» atamasi o'rnida ishlatishni taklif etadi. «Paydeum» atamasi mazmunini ochar ekan, Frobenius uni madaniy-psixologik tushuncha sifatida izohlab, u orqali xalqning ma'naviy strukturasi yoki uning madaniy siymosi ko'rinadi deb izohlaydi. Atamaning ushbu ma'nosini zamonaviy «mentallik» tushunchasining sinonimi deyish mumkin.



Arxeolog, etnolog, folklorshunos Leo Frobenius (1873–1938) diffuzionizm doirasida «madaniy morfologiya» nazariyasi va «madaniyat xalqlari» g'oyalari asoschisi bo'ldi. Frobenius aslida afrikashunos bo'lib, Afrika, Avstraliya va Okeaniya xalqlari madaniyatlarini o'rganish uchun 12 ta ekspeditsiya uyushtirgan. U tuzgan Afrikaning etnologik xaritasi hozirga qadar o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Ekspeditsiya materiallari va ularning nazariy tahlillari Frobeniusning fundamental asari – «Amerika madaniyatlarining kelib chiqishi» (1898) da bayon etilgan. Unda olim madaniyatni tirik organizm sifatida ko'rib, undagi

o'zgarishlar hayotning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi degan xulosaga keladi.

Madaniyatni ijtimoiydan holi, mistik borliq sifatida tasvirlagan Frobenius uni erkaklar va ayollar madaniyatlariga bo'ladi. Ushbu bo'linishni o'zining ekspeditsiyalari ma'lumotlari bilan to'ldirgan Frobenius afrikaliklar madaniyatining ikki turini: tellur – efioatriarxal va xtonik – xamit-matriarxal deb farqlaydi. «Tellur» va «xtonik» atamaları lotin va yunon tilida bir xil – yer ma'nosini beradi. Ammo olimning ta'birida bu atamalar qarama-qarshi ma'no kasb etadi. Tellur – yerdan yuqoriga o'sish, xtonik esa yerga (yer bag'riga) qarab o'sishdir. Ular turli geografik sharoitda tellur – savannada, xtonik – Sahroyi Kabir va Shimoiy Afrikada shakllangan. Shu asosda har bir madaniyat o'z paydeumiga ega bo'lib, ularning yo'nalishlari ham qarama-qarshidir. Tellur madaniyati yuqoriga intilib ustunli uylar, ustun ustidagi ombor, oyoqli krovat va boshqa buyumlarda kuzatilib, madaniyat ruhi o'simliklar singari yuqoriga intiladi, xudolar ham tepada – yetish mumkin bo'lmagan joylarda yashaydi. Bu madaniyat doim patriarxal bo'lgan.

Xtonik madaniyat, aksincha, yer ostiga intiladi: yerto'la uy, yerto'la omborlar, yer o'chog'i, inson ruhining yer osti dunyosiga tushishi haqidagi g'oyalar va hokazolar. Bu madaniyat o'z xususiyatiga ko'ra matriarxaldir. Frobenius xtonik madaniyatning magik (sehrgarlik) xususiyatiga egaligini yozsa, tellurga – mistik xususiyat ato etadi. Bu ikki madaniyatning qo'shilishidan yuksak madaniyatlar shakllangan.

Madaniyatning bu xilida tushunish, uni biologik organizm bilan qiyoslash, uning organik borliq sifatida mustaqil yashashiga ishonish natijasida, uning fikricha, madaniyatni tadqiq qilishni tarixiy emas, tabiatshunoslik ilmiy usullari orqali olib borish lozim.


O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Leo Frobeniusning fikricha, inson madaniyatning yaratuvchisi emas, uning mahsuli yoki obyektidir. Sizning bu fikrga munosabatingiz qanday?

❖ Qo'shimcha ma'lumotlar asosida «paydeum» va «mentallik» tushunchalarining o'xshash va farqli jihatlari jadvalini tuzing.

❖ Frobeniusning qarashlariga ko'ra, madaniyat erkaklar va ayollar madaniyatiga bo'linadi. Sizningcha, ushbu bo'linish aynan qanday maqsadda amalga oshirilmoqda? U nimaga xizmat qiladi?

Nemis tilli mamlakatlardagi diffuzionizmning yana bir yirik namoyondalaridan biri Frits Grebnerdir. Grebner uchun antropologiyada asosiy madaniy-tarixiy aloqalar yoki madaniyatlarning mustaqil vujudga kelishi va taraqqiyotini o'rganish usullarini ishlab chiqish tadqiqotining asosini tasfiqil etdi. Bu masalalardagi o'z fikrlarini «Antropologiya metodi» (1911) asarida bayon etdi.



Frits Grebner (1877–1934)

Frobenius va Ratsel asarlari asosida Grebner «madaniyat xalqlari» nazariyasini yaratib, uni global rekonstruksiya qilishga urindi. O'z nazariyasini izohlashda olim butun insoniyatning davlatga qadar taraqqiyot bosqichini 6 ta «madaniy xalqlarga» (madaniyatlarga) birlashtirgani, ularning har biri 19–20 elementdan tashkil topganini ta'kidlaydi. Madaniy elementlarga Grebner moddiy va ma'naviy madaniyat, shuningdek, ijtimoiy hayotning ko'rinishlarini kiritadi. Masalan, Sharqiy papuaslar madaniyati asosiy elementlariga: yerildizli ekinlar yetishtirish; to'rlar yordamida baliq ovlash; taxtadan yasalgan qayiq; ikkiyoqlama tomli kulba; spiral tarzda to'qilgan savatlar; erkaklar

faxriy ittifoqlari va niqobli raqslar; oy haqidagi miqlar; odamxo'rlik haqidagi miqlar; doira shaklidagi bezaklar; ovoz berish do'mbiralari va boshqalarni kiritadi, qolgan madaniy xalqlar elementlarini ham shu xil va tarkibda shakllantiradi.

Grebner madaniyatning o'sish elementlari qaysi doiraga kirishidan qat'i nazar, ularning bitta madaniy doirada shakllangani hamda yagona geografik markazdan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har qanday madaniy omil tarixda faqat bir marta, bir joyda paydo bo'lib, avvaldan ma'lum madaniyatga mansub bo'lib, u bilan birga boshqa madaniyat doiralari tarqaladi.

Bu fikrlar asosida Grebner insoniyat tarixida va madaniyatida hech qanday takrorlanishlar yo'q, demak, umumiy qonuniyatlar ham bo'lishi mumkin emas, degan xulosaga keladi. Etnik jarayolarning takrorlanishi bizga shunday tuyuladi. Aslida madaniyat omillari qat'iy yagonalikka ega. Demak, antropologiya umumiy emas, xususiy voqealar bilan ish olib boradi. Grebnerning fikricha, antropologiya tabiiy fanlar madaniyatini o'rganuvchi fan sifatida tarixiy fanlar qatorida bo'lishi lozim.



Diffuzionizmning Amerikada shakllanishi
Frans Boasning tarixiy antropologiyadagi evolutsion nazariyani tanqid qilishi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Boas Grebnerning turli geografik hududlarda bir xildagi madaniy omillar vujudga kelishi mumkin emasligi haqidagi fikrini to'liq qo'llab-quvvatladi. Har qanday madaniy borliqni, uning ichki taraqqiyoti yoki yaqin-uzoqdagi qo'shnilar madaniyati ta'siri bilan izohlash mumkin. Shuning uchun har qanday mahalliy madaniyatning rivojlanishida diffuziya muhim o'rin tutadi. Boas va uning

shogirdlari tufayli amerika antropologlari diffuziya – turli xalqlar madaniyatidagi o'xshashlikning asosiy omili degan xulosaga keldilar.

XIX–XX asrlarda amerika etnologlari amerika hindularini o'rganish uchun ekspeditsiyalar uyushtira boshladilar. Bu tadqiqotlarning natijasi «madaniy viloyatlar» konsepsiyasida mujassamlashib, Klark Uisslarning (1870–1947) «Amerika hindusi» (1912) asarida nisbatan to'liq va tartiblashtirilgan holda bayon etildi.

Shimoliy Amerika hindularining o'zaro aloqalarini, ularning madaniyati elementlarining geografik tarqalishini tahlil qilgan Uissler, madaniyat – ma'lum kishilar guruhining, biror-bir ekologik muhitga moslashuv natijasi, degan xulosaga keldi. Xo'jalik qurollari, kulolchilik, folklor syujetlari va hokazolarga oid ko'plab ma'lumotlarni umumlashtirgan olim moddiy hamda ma'naviy madaniyat elementlarining insonning somatik belgilari mavjud madaniy viloyatlar orasida diffuziya orqali tarqalishini tasdiqladi.

Empirik ma'lumotlarga asoslangan Uissler, Shimoliy Amerika hindularining 15 ta madaniy viloyatlarini ajratib, madaniy diffuziyaning umumiy qonunini – antropologik xususiyatlar o'zi shakllangan joydan barcha yo'nalishlar bo'ylab tarqalish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Uning fikricha, madaniy omillar va odam xususiyatlari konsentrik usulda tarqalishini, ya'ni oddiy narsalar chetda qolib, murakkab xususiyatlar markaziy o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Shu tariqa, Uisslarning nazdida madaniy viloyat madaniy markazning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun madaniy markazdan uzoq-yaqinligiga qarab ayrim jamiyatlar boshqalariga nisbatan tipik madaniyatga ega bo'ladi.



O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

- ❖ Frits Grebnerga ko'ra, turli geografik hududlarda bir xildagi madaniy omillar vujudga kelishi mumkin emas. Uni istisno qiluvchi fakt keltira olasizmi?
- ❖ Nima uchun diffuzionizm nazariyasi har qanday mahalliy madaniyatning rivojlanishida muhim o'rin tutadi? Fikringizni dalillar bilan asoslang.
- ❖ Uisslarning: «Madaniyat – ma'lum kishilar guruhining, biror-bir ekologik muhitga moslashuvi natijasi», – degan ta'rifi haqiqatga qanchalik yaqin?

Diffuziya g'oyasining ingliz antropologiyasiga kirishi va taraqqiyotini Uilyam Rivers (1864–1922) nomi bilan bog'lashadi. U «Melaneziya

jamiyati tarixi» (1914) asari ustida ishlash davomida melaneziyaliklarda qarindoshlik va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini evolutsiya bilan izohlash mumkin emas, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, Melaneziyada yangi madaniyatning shakllanishi ko'chib kelganlar katta guruhining o'zaro aloqalari natijasidir.

Rivers Okeaniyada birini ikkinchisi almashtirgan, bir necha to'liqinsimon ko'chishlar bo'lib, ularning har biri madaniyatga yangi elementlar kiritganini ta'kidlaydi. Misol sifatida **kavi xalq**idagi totemizm, vafot etganlarga e'tiqod, quyosh va oy kulti, monogam nikoh, o'q-yoy, ma'lum ko'rinishdagi uylar va hokazolarni keltiradi. Yangi madaniyatlar evolutsiya emas, turli madaniyatlarning aralashuvidan vujudga kelishi mumkinligini xulosa qiladi. Uning fikricha, bir necha madaniyatlar aralashuvi va o'zaro ta'siridan ularning hech qaysisiga xos bo'lmagan butunlay yangi madaniyat elementi vujudga kelishi mumkin.

Reverga ko'ra, ko'p sonli bo'lmagan migrantlar ham yuksakroq texnologiyaga ega bo'lsa, o'zlarining udumlarini mahalliy xalqqa o'tkazishi mumkin. Shunga qaramasdan Reverting qarashlari o'zining sun'iyliги va xayoliyligi bilan ajralib turadi. Jumladan, u aytgan migrantlar kim, ular qayerdan va qanday madaniy ko'nikmalar bilan kelishgani, keyinchalik madaniyatlari qanday yuksalgani noma'lum. Bu haqda faraz qilish mumkin, xolos.

Diffuzionistlar qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi madaniy o'ziga xoslikning yoyilish jarayonini tushuntirib berishga harakat qilishgan. Ular madaniy doiraning murakkab (ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan) klassifikatsiyasini rivojlantirishgan va asl madaniyatning paydo bo'lgan hududdan tarqalish jarayonini tekshirib chiqishgan. Ba'zi bir manbalarda, misol uchun Okeaniyadagi Grebnerning o'rganishlarida, ular har bir jamiyatdagi madaniy doira yoki yettita tarixiy yotqiziqlarni bir xil deb hisoblashgan. Shunisi ahamiyatliki, diffuzionizm evolutsion nazariyadagi nasl-nasabdan kelib chiqishni rad qilmagan.



Rus sayyohi, antropolog va etnograf Nikolay Nikolayevich Miklukho-Maklay (1846–1888) Yevropa universitetlarida o'qigan. 1866–1867-yillarda Kanar orollari va Marokashga sayohat qilgan. Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya, Tinch okeanidagi orollarda yashovchi tub joy aholisining madaniyati, turmushi, antropologiyasi va etnografiyasini o'rgangan. Bir necha yil Yangi Gvineya oroli sohilida va Avstraliyaning Sidney shahrida yashab ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. 1886-yil Avstraliyadan Rossiyaga qaytgan.

Miklukho-Maklay antropologiya va etnografiya tadqiqotlariga asoslanib, inson zotining birligi va odam irqalarining o'zaro qardosh ekanligi g'oyasini ilgari surdi. U o'sha vaqtda Yangi Gvineya aholisi (papaslar)ning boshqa irqlardan farq qiladi degan qarashni inkor etdi.

Diffuzionizm nazariyasi nafaqat Miklukho-Maklay boshchiligidagi Rossiya antropologlari guruhi uchun, balki Sharqiy Yevropa antropologlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Uilyam Reversning bir necha madaniyatlar aralashuvidan butunlay yangi madaniyat elementi vujudga kelishi haqidagi fikriga aniq misol keltira olasizmi?

❖ Sizningcha, evolutsionizmga zid g'oyalarni ilgari suruvchi diffuzionizm nega aynan evolutsion nazariyadagi nasl-nasabdan kelib chiqishni rad qilmagan?

❖ Nikolay Miklukho-Maklayning qdam irqalarining o'zaro qardosh ekanligi haqidagi g'oyasi qanday ilmiy asoslarga ega?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ Fridrih Ratsel qarashlarida madaniyatning geografik muhit bilan bog'liq holda yuksalishi g'oyasi asoslarining yaratilishi.

✓ Leo Frobenius asarlarida xalqning ma'naviy strukturasi yoki uning madaniy siymosini ifodalovchi paydeum tushunchasi tahlili.

✓ Frits Grebner nazariy yondashuvlarida madaniyatning o'sish elementlari tushunchasi tahlili va uning yangi fikrlar bilan boyitilishi.

✓ Moddiy hamda ma'naviy madaniyat elementlarining insonning somatik belgilari mavjud madaniy viloyatlar orasida diffuziya orqali tarqalishi.

✓ Nikolay Mikluxo-Maklay qarashlarida inson zotining birligi va odam irqalarining o'zaro qardosh ekanligi g'oyasining ilgari surilishi.

Seminar savollari:

1. Diffuzionizm nazariyasining vujudga kelishi aynan qanday omillar ta'sirida yuz bergan? Uning mohiyatini nimalar tashkil etadi?

2. Fridrix Ratsel diffuzion yondashuvdan kelib chiqqan holda madaniy omillar tarqalishining qanday qonuniyatlarini ilgari surgan?

3. Leo Frobenius o'z asarlarida madaniy borliq komplekslari tarqalishi g'oyasini qanday izohlagan? Mazkur g'oya haqiqatga qanchalik yaqin?

4. Frits Grebner va Klark Uisslerlar qarashlari diffuzionizm nazariyasi taraqqiyotining qaysi jabhalariga hissa bo'lib qo'shilgan?

5. Mazkur nazariyaga asoslangan g'oyalar ingliz va rus olimlari tadqiqotlarida ham o'z aksini topganmi? Shunday olimlardan kimlarni bilasiz?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarga diqqat qiling!

- ❖ **Frobenius L.**, Kulturgeschichte Afrikas, Z., 1954;
- ❖ **Grabner F.**, Das Weibild der Primitiven, Munch., 1924;
- ❖ **Grabner F.**, Kulturkreise und Kulturschichten in Ozeanien, «Zeitschrift fur Ethnologie», 1905, t. 37, H. 1.
- ❖ **Grabner F.**, Methode der Ethnologic, Hdlb., 1911;
- ❖ **Ratzel F.**, Anthropogeographie, Tl 1, 4 Aufl., Stuttg., 1921;
- ❖ **Ratzel F.**, Anthropogeographie, Tl 2, 3 Aufl., Stuttg., 1922;
- ❖ **Ratzel F.**, Politische Geographie, 3 Aufl., Munch. - V., 1923;
- ❖ **Rivers W.**, Social organisation, 3 ed., L. - N. Y., 1932.
- ❖ **Rivers W.**, The history of Melanesian society, v. 1-2, Camb., 1914;
- ❖ **Rivers W.**, The Todas, L. - N. Y., 1906;

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA SOTSIOLOGIK VA FUNKSIONAL QARASHLAR

Reja:

1. Tarixiy antropologiyada sotsiologik yo'nalishning vujudga kelishi.
2. Funktsionalizmning paydo bo'lishi.
3. Tarixiy antropologiyaning Amerika maktabi.

Yevropa antropologiyasida diffuzionizm bilan deyarli bir paytda sotsiologik yo'nalish ham shakllanib, uning vakillari diffuzionizmga nisbatan ham sermahsul ijod qildilar. Agar evolutsionizm asoschilari antropologiyaning asosiy predmetini – odamda, diffuzionistlar – madaniyatda ko'rsalar, sotsiologik yo'nalish vakillari – inson jamiyatini asos deb bildilar. Nazariya tarafdorlari inson jamiyatini oddiy individlar majmuasi sifatida ko'rishni istamadilar. Jamiyatni ular odamlar orasidagi axloq aloqalari tizimi sifatida ko'rib, uni insonlarga majburan yoki kuch bilan o'tkazilishini ta'kidlashdi.



Emil Dyurkxeym
(1858–1917)

Sotsiologiya nazariyasining vatani Fransiya bo'lib uning yirik namoyondasi Dyurkxeym sanaladi. U haqli ravishda XIX asrning so'nggi o'n yilliklarida yaratilgan antropologiyadagi muhim yo'nalishning asoschisidir.

Evolutsionistlardan farqliroq, Dyurkxeym, odamlar jamiyatini atrof-muhitga moslashib boruvchi, yuksalishdagi bosqichlar deb emas, balki yopiq statik tizimlar sifatida anglab, ularni ijtimoiy faktlar yordamida tadqiq qilish lozimligini uqtirdi.

Ijtimoiy faktlarni esa u individning harakat turlari, anglash va sezilish sifatida ifodalab, ularni tashqi muhit tomonidan ta'sir etadigan va majburlash kuchiga ega deb hisobladi. Bu borada olim ijtimoiy faktni bizning tushunchamiz bo'yicha emas o'zligicha o'rganish lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Uning fikricha, jamiyat osoyishtaligi uning a'zolarining ijtimoiy birdamligi orqali ta'minlanadi. Ijtimoiy tizimning har bir elementi muhim muvozanatda bo'ladi va aks holda, u inqirozga mahkumdur.

Jamiyatlarning taraqqiy etganlik darajasini tasniflagan Dyurkxeym fanga «ijtimoiy tip» yoki «ijtimoiy tur» tushunchalarini kiritdi. Tasnif asosiga u eng oddiy jamiyat: «ibtidoiy to'da»ni qo'ydi. To'da taraqqiyoti davomida nisbatan murakkabroq ijtimoiy strukturaga – klanga (urug'ga) aylanadi. Klanlarning turli birikmalari esa qabila, kuriya fratrinarini shakllantirib, keyinchalik ulardan ilterilga qadar yana ham murakkab jamiyatlar vujudga keladi. Demak, Dyurkxeym fikricha, har qanday jamiyat ibtidoiy jamiyatning ma'lum darajada murakkablashgan ko'rinishidir.

Dyurkxeym etnosotsiologik nazariyasining yana bir muhim qismi – jamoaviy tushunchalar haqidagi g'oyadir. Olim inson ongining bir xil emasligini, sababi u ikki: xususiy va jamoaviy (kollektiv) ko'rinishda bo'lishini yozgan. Birinchisi – har bir shaxsga taalluqli bo'lib, u to'li-g'icha shu kishining ruhiyat xususiyatlari bilan aniqlanadi; ikkinchisi esa butun guruh uchun yagona bo'lib, ayrim shaxsga bog'liq emas, va hatto, zarur bo'lsa, shaxsga nisbatan majburlash kuchiga ham ega. Kollektiv ong o'z ifodasini guruhiy tushunchalarda – diniy tasavvurlar, miflar, axloq va huquq normalarida topadi.

Bilib oling!




Emil Dyurkxeym (Durkheim) (1858.15.4, Epinal – 1917.15.11, Parij) – fransuz sotsiologi, fransuz sotsiologik maktabi asoschisi. Individual-psixologik va biologik yo'nalishlarga qarshi chiqqan, jamiyatga individlar majmuyi bo'lmagan reallik deb qaragan. Ayni vaqtda jamiyatda «kollektiv ong»ning hal qiluvchi rolini alohida ko'rsatgan. Mehnat taqsimotini ijtimoiy birdamlikning asosi deb hisoblab, ijtimoiy nizolarni jamiyat illati deb talqin qilgan. Asosiy asarlari: «Ijtimoiy mehnat taqsimoti haqida» (1893), «O'z-o'zini o'ldirish» (1897), «Diniy hayotning oddiy shakllari» (1912).

Ular ijtimoiy hayotga singdirilgan bo'lib, butun ijtimoiy guruh tomonidan yaratilib, uning qabul qilish xususiyatlarining turlicha ko'rinishidir. Guruhiy tushunchalar haqidagi g'oyasini rivojlantirish davomida Dyurkxeym qonuniy tarzda dinning mohiyati va uning jamiyatdagi o'rni masalasiga to'qnashadi. Dinning keng yoyilgan g'ayritabiiy mavjudotlarga, kuchlarga sig'inish ekanligini rad etgan olim, dinning asosiy belgisi deb dunyoni ikkiga: ilohiy (muqaddas) va oddiy kundalik (profan) hayotga bo'lishini ko'rsatadi.

Bunday bo'lishning o'ziga xosligi, har ikki qismni o'zga butunlay bir-biriga qo'shilishi mumkin bo'lmagan narsalar deb ta'kidlaydi. Bu dunyolar orasidagi o'tib bo'lmaz chegarani, faqat diniy marosimlar orqali yengish mumkin. Dyurkxeymning fikricha, din funksional tamoyil bo'lib u guruhning ijtimoiy birdamligini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Har qanday din uni vujudga keltirgan ijtimoiy muhit mahsuli sifatida, mavjud borliqning soxta ko'rinishi deb hisoblanishi mumkin emas. Qolaversa, dinning mazmuni, oxir-oqibat, uni yaratgan jamiyat va uning strukturasi aksidir.

Dyurkxeymning nazariyasini uning shogirdlari va izdoshlari: Marsel Moss, Klod Levi-Stross, M.Grane, Lyussen Levi-Bryullar rivojlantirgan.



Lyussen Levi-Bryul
(1857–1939) ●.

Fransuz antropologiyasidagi ushbu sotsiologik maktab vakillari orasida Levi-Bryul g'oyalari ayniqsa muhimdir. Levi-Bryul tadqiqotlarining barchasi jamoaviy ong insonning shaxsiy tajribasi orqali emas, uning ongiga ijtimoiy muhit: ta'lim-tarbiya, jamoatchilik fikri, urfodatlar orqali kiritilishi g'oyalarga asoslanadi. Bu g'oyalarni rivojlantirish borasida olim kollektiv ong, tushunchalarni boshqaruvchi qonunlar masalasiga e'tibor qaratdi. Dyurkxeym qarashlariga suyangan holda u o'zining ibtidoiy jamiyatlardagi oldmantiqiy ong nazariyasini yaratib, uni «Ibtidoiy ong» (1930) asarida ifodaladi.

Levi-Bryul fikricha, sabab va oqibat orasida aniq chegaraning bo'lmashligi oldmantiqiy ongli ibtidoiy odamni zamonaviy avloddan butunlay farqlaydi. Oldmantiqiy ong bizniki kabi qarama-qarshiliklardan qochmasa-da uni mantiqsiz deb bo'lmaydi. Bu borada so'z o'zining

alohida qonuniyatlariga bo'ysunuvchi ong tipi haqida yuritilmoqda. Ushbu qoloq xalqlarning kollektiv ongini boshqaruvchi qonunlari bizning mantiqiy ongimiz qonuniyatlariga butunlay o'xshamagan.

Ular emotsiyalardan ajralmagan borliq hodisalarini izohlashga yo'naltirilmagan. Bu borada ular asab tizimiga keskin qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir etadi, xususan diniy marosimlarni o'tkazish paytida, odamlarni qo'rquvga solish, qattiq xohish, umid va hokazolar bag'ishlashi mumkin. Bu holda ibtidoiy odam o'zini o'rab turgan borliqni, hodisalarni tushunishga, anglashga intilgan. Sababi u hodisalarni sof holda emas, yashirin kuchlar, narsalarning sehrli xususiyatlari bilan mujassamlashgan emotsiyalar majmuasi tarzida qabul qilgan.

Shu sababdan ibtidoiy odamning dunyoqarashi biznikidan butunlay o'zgacha yo'naltirilgan, biz borliqni obyektiv anglashga intilsak, ibtidoiy odamlar ongida subyektivlik hukmron bo'lgan. Shuning uchun ibtidoiy odamlar real narsalar va ular haqidagi tasavvurlarni aralashtirib yuborganlar, ular tushni borliqdan, odamning o'zini ismidan ajrata olmaganlar. Xuddi shu sababli ibtidoiy ong tajriba bilan bog'lanmagan.

Tajribaviy bilimlar ibtidoiy odamni sehrgarlik, tabiat kuchlari, fetishlarga ishonchini yo'qota olmagan. Ibtidoiy odamning ongi tajribalarga «berilmaydi». Levi-Bryulning yozishicha, unda mantiqiy qonunlar emas, «ishtirok etish qonuniyati» hal etuvchi ahamiyat kasb etgan. Unga binoan buyum o'zligidan tashqari, bir vaqtning o'zida boshqa narsa ham bo'lishi mumkin, u bu yerda bo'lishidan tashqari boshqa joyda ham bo'lishi mumkin.

Ongning bunday tipini Levi-Bryul «oldmantiqiy» deb izohlaydi. Levi Bryulning yozishicha jamoa fikriga e'tibor zamonaviy yevropaliklar ongida ham mavjud. Bu insonning ilmiy bilimlar tushuntirib bera olmaydigan, uni o'rab turgan borliq bilan muloqotda bo'lish tabiiy ehtiyojidan kelib chiqadi. Fanning dunyoni obyektivlashga intilishi uni insoniyatdan yanada uzoqlashtiradi. Shuning uchun inson tabiat bilan jamoaviy tushunchalar: din, axloq, udumlar orqali muloqotda bo'lishga



intiladi. Levi-Bryulning fikricha, oldmantiqiy ong mavjud va u mantiqiy ong bilan birgalikda saqlanib qolgan, «ishtirok qonuni» va mistik tayyorlik holati – zamonaviy inson ongining tabiiy xususiyatidir.

Diqqat qiling!

Sotsiologik yoʻnalishning gʻoyalari quyidagilarda namoyon boʻladi:

☑ har bir jamiyatda «jamoaviy tasavvurlar» majmuasi boʻlib, ular jamiyatning mustahkamligini taʼminlaydi;

☑ madaniyatning vazifalari jamiyatni birlashtirish, insonlarni yaqinlashtirishdan iborat;

☑ har bir jamiyatda xulq mavjud boʻlib, u doimiy oʻzgaruvchan va yuksalishga moyildir;

☑ bir jamiyatdan ikkichisiga oʻtish murakkab jarayon boʻlib, u bir tekisda emas, balki notekis, tezlanishlar bilan amalga oshiriladi.

Oʻylab koʻrib, fikr yuriting!

❖ Yevropa antropologiyasida diffuzionizm bilan deyarli bir vaqtda yana qaysi yoʻnalish ham shakllandi?

❖ Tarixiy antropologiya yoʻnalishlarida uning tarafdorlari boʻlgan olimlar antropologiyaning asosiy predmetini qaysi jihatlarga koʻra belgilaganlar?

❖ Dyurkxeymning: «*Har qanday jamiyat ibtidoiy jamiyatning murakkablashgan koʻrinishidir*» fikri uchun qanday misollarni keltirish mumkin?

Sotsiologik nazariyaning mantiqiy davomi va yuksalishi funksionalizmda nomoyon boʻladi. Diffuziya nazariyasining vatani Germaniya, sotsiologik gʻoyaniki Fransiya boʻlsa, funksionalizm Angliyada vujudga kelib, XX asrning 20-yillaridan antropologiyadagi yetakchi yoʻnalishga aylandi. Shunga qaramasdan, funksional nazariyaning yakuniy konsepsiyasi nemis etnologi Rixard Turnvaldga tegishli. Biroq funksionalizm Germaniyada keng tarqalmadi.



Bronislav Malinovskiy (1884–1942) Avstriya-Vengriya hududidagi Krakov shahrida tugʻilgan. 1908-yil fizika va matematika fanlari boʻyicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. J.Frezerning «Oltin buta» (*The Golden Bough*) asari taʼsirida antropologiyaga qiziqqan va ibtidoiy tarzda yashovchi qabilalarni oʻrganish yoʻllarini izlagan. Birinchi Jahon urushi davrida Papua (1914), Mailu (1914) orollarida boʻldi. 1915–1918-yillar Trobrian orolida boʻldi, u yerda antropolog Radkliff Braun bilan uchrashdi va undan dala tadqiqotlarini oʻtkazish sirlarini oʻrgandi. Oʻz tadqiqotlarida etnik jarayonlarni funksional tadqiq qilishning oʻziga xos xususiyati, madaniyatni oʻzaro aloqador elementlar va qismlardan iborat yagona birlik sifatida qarashga chaqirdi.


Angliyada yirik ilmiy yoʻnalishga aylangan funksionalizm ijtimoiy va madaniy antropologiya taraqqiyotiga sezilarli taʼsir oʻtkazdi. Uning eng mashhur vakili Bronislav Malinovskiy shu yerda ijod qildi. Funksionalizm tarafdorlari uchun madaniyatning tarixiy oʻzgarib borishi ahamiyatsizdir. Ularning tadqiqotlari ijtimoiy tizim va madaniyatning yuksalib, yangilanishi va faoliyati mexanizmlarini ochish muhim hisoblanadi. Unga inson va u yaratgan madaniyat orasidagi koʻp qatlamli (sathli) oʻzaro munosabatlarni tahlil qilish orqali erishiladi.

Malinovskiy ilmiy qiziqishlarining asosiy predmeti madaniyatni koʻp qirra – borliq tarzida oʻrganish, shuningdek, oʻziga xos madaniyatlarni sistemali oʻrganish, qiyoslash uchun zarur boʻlgan va tamoyillarni yaratish edi. Oʻz tadqiqotlarini olim dala tadqiqotlari oʻtkazmagan holda muzey ashyolari orqali turli fikrlar bildirayotgan evolutsionist va diffuzionistlarga qarshi keskin chiqishdan boshlaydi.

Malinovskiyning oʻzi bunday tajribaga ega boʻlib, qiziqarli xulosalarga keladi. Uning kuzatishicha etnologlar buyumlarning tashqi xususiyatlarinigina tavsiflab, qandaydir psixoloik gipotezalarini ilgari surishdan qochishgan. Lekin Malinovskiyning fikricha, tashqi kuzatishlar tadqiqotchini juda oson chalgʻitadi, ichki jihatlarini aniqlamasdan turib esa madaniyatni anglash mumkin emas. Buyumni faqat tavsiflash emas, uni kim yaratgan, kimlar foydalangan, kimga taalluqli ekanligini bilish lozim. U antropologiya fanining tavsiflash, faqat faktlarni qayd etishi

orqali madaniyatning tarqoq xususiyatlarini ifodalashiga qarshi edi. O'zining madaniyat nazariyasini Malinovskiy «Madaniyatning ilmiy nazariyasi» (1944) asarida bayon etdi. Bu nazariya o'zida naturalizm, bieseviorizm, jixoinalizmning strukturaviy-funksional metodlarini ham mujassamlashtiradi. Uning barcha masalalarini o'rganishdagi funksional ifodalashlari izohlari o'rganilayotgan madaniyatning asosiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Malinovskiyning fikricha, jamiyat o'ziga xos biologik organizm (birlilik) bo'lib, u tabiiy adaptiv tizim sifatida jamiyat va uning a'zolari talablarini qondirishga yo'llangan (yo'naltirilgan).

Uning fikricha, madaniyat insonning biologik xususiyatlari mahsuli, sababi odam – hayvonot dunyosi vakili sifatida dastlab o'zining biologik talablarini qondirishi lozim. Ularni qondirish uchun odam o'ziga oziq: issiqlik topadi, uy-joy barpo etadi, kiyim-kechak tayyorlaydi va hokazolar. Shu tariqa u atrof-muhitni o'zlashtirib, ishlab chiqarish vositalarini, boshqacha aytganda, madaniyatni yaratadi. Madaniyatlar orasidagi farq bu insonlar elementar ehtiyojlarini qondirish usullaridagi tafovutdir. Ushbu metodologik yo'nalishda madaniyat moddiy va ma'naviy tizimlar bo'lib, ular orqali inson o'zining hayotini ta'minlab, o'z oldidagi vazifalarni bajaradi.



Malinovskiy Trobrian orolida mahalliy aholi bilan birga.

Asosiy ehtiyojlardan tashqari Malinovskiy tabiat tomonidan emas, madaniy muhit yaratgan ikkinchi darajali talablar mavjudligini ham ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ularning har ikkisini qondirish vositalari

ma'lum tashkilotdan iborat bo'lib, uning birliklarini institutlar deb ataydi. Institut birlamchi tashkiliy birlik sifatida, asosiy va qo'shimcha ehtiyojlarni qondirishdagi vosita va usullar majmuasi, yig'indisidir. Madaniyatni mustaqil tenglikka asoslangan har bir qismi o'z vazifasini bajaruvchi tizim sifatida qaragan Malinovskiy, unda o'zga madaniyat o'zgarishlar va boshqa madaniyatlardan o'zlashtirishlar bo'lishini inkor etmagan. Ammo bu o'zgarishlar davomida madaniyatning ma'lum elementi (masalan, zararli udum) yo'q qilinsa, butun etnomadaniy tizim, demak, xalq halok bo'lishi mumkin.

U Taylorning «sarqitlar» metodini ayniqsa qattiq tanqid ostiga oldi. Uning fikricha, bu metod bo'yicha tadqiqotlar o'zkazgan olimlar hamma joyda sarqitlarni izlashgan, holbuki madaniyatda sarqitlar emas, yangi ko'rinish va funksiya olgan an'anaviy elementlar shakllanadi. Olimning fikricha, «sarqitlar» tushunchasi antropologiya faniga sezilarli zarar keltirgan. Sababi, u madaniy omillarning funksional aloqadorligi prinsipiga ziddir. Malinovskiyning ta'kidlashicha, madaniyatda ortiqcha yoki qo'qqisdan (kutilmagan) narsa bo'lishi mumkin emas, undagi barcha narsalar qandaydir vazifani o'taydi, aks holda, u chiqarib tashlanadi va unitiladi. Agar qandaydir udum uzluksiz davom etib kelayotgan bo'lsa, demak, nimagadir kerak, biz uni zararli va ma'nisiz deb, uning ehtiyoj bazasi bilan hisoblashmasdan yoki uni boshqa madaniyatlarga aloqasiz deb qiyoslashimiz noo'rindir.

Malinovskiy madaniy o'zlashtirishlarga tayangan diffuzion g'oyani ham qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, diffuzionistlarning asosiy xatosi madaniyatni yagona tirik organik birlik sifatida emas, jonsiz buyumlar birikmasi sifatida qarashlaridadir. O'zidan avvalgi tadqiqotchilarning asosiy kamchiligi deb Malinovskiy madaniyatning ayrim xususiyatlarini o'zaro bog'liq bo'lmagan alohida ayrim narsalar sifatida o'rganishida deb biladi.

Madaniy tizimning yaxlitligini buzib bo'lmaydi, aks holda unga tayangan butun piramida yaxlitligi ham qulashi mumkin. Shubhasiz, zararli bo'lgan mahalliy varvar xalqlari udumlarini ham oddiy holda yo'qotib bo'lmaydi. Avval ularning barcha funksiyalari, ularni bajaradigan vazifalarni aniqlash, ularni to'laqonli almashtiruvchi udumlarini topish lozim.

Malinovskiyda ijtimoiy institutlar funksional aloqalarining insonning biologik ehtiyojlaridan kelib chiqishga bog'liqligi g'oyasi asos bo'lsa,

funksionalizmning boshqa yirik namoyondasi Alfred Radkliff-Braun (1881–1955) qiziqishlari jamiyat strukturasi bo'lgan. Uning nazariyasi asosida, jamiyat hayotiga o'zaro ishonchga asoslangan, jamiyat hayotining o'zaro bog'liq elementlarning yuksalib boruvchi tizimi tarzida qarashdadir. Jamiyatning asosiy elementlari funksional o'zaro mutanosiblikka ega bo'lgan.

Radkliff-Braun ilmiy qarashlari Malinovskiy g'oyalariga yaqin bo'lsa-da, uning ilmiy nazariyasi o'zining mustaqil ekanligi bilan xususiyatlangan. Riversning shogirdi bo'lgan olim ingliz strukturalizmi yoki strukturaviy funksionalizm ilmiy yo'nalishiga asos soldi. Unda ijtimoiy hayotni odamlarni ongi xulqi va madaniyatlarni tahlil qilishda funksional va strukturaviy yondashuvlarga asoslanilgan. O'zining asosiy asarlari – «Antropologiya va ijtimoiy antropologiya metodi» (1958y.), «Madaniyatning tarixi va funksional ifodalanishi»da (1929y.) olim insonning hayoti haqidagi fanning tadqiq qilish metodlarini aniq ifodalab berdi.

Uning harakatlari bilan ingliz ijtimoiy antropologiyasi zamonaviy ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Olimning tasavvuricha insonni o'rganuvchi asosiy fan antropologiya bo'lib u: odam biologiyasi, oldtarixiy arxeologiya va etnografiya yo'nalishlaridan iborat. Etnografiya o'z navbatida: antropologiya va ijtimoiy antropologiyaga bo'linib, ularning har biri o'ziga xos metodlarga egadir. Antropologiyaning asosiy metodi insoniyat madaniyatini tarixiy rekonstruksiya qilishdir. Bu kabi tadqiqotlar yozma manbalarga, shuningdek, ma'lum xalqning madaniyati doirasidagi gipotetik rekonstruksiya tayangan.

Olimning fikricha, ijtimoiy antropologiya insoniyat madaniyatini tadqiq etishning butunlay o'zgacha yo'nalishidir. Uning vazifasi ma'lum xalqlar madaniyatini rekonstruksiya qilish emas, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini izlashdir. Bu fan tabiiy fanlar singari induktiv metoddan foydalanadi. Induktiv metodning mohiyati – madaniyat omillarini o'rganishda ma'lumotlarni generalizatsiya tanlash va umumlashtirishdir.

Radkliff-Braun bo'yicha ijtimoiy antropologiya: umumiy va markaziy (asosiy) nazariyalardan iborat. Umumiy nazariya 3 ta guruhdagi muammolar bilan shug'ullanadi. Umumiyga o'rganilayotgan jamiyat haqidagi statik va morfologik, uning boshqa jamiyatlardan farqi va o'xshashligi, ularni qiyoslash va klassifikatsiyalash xususiyatlari kiradi.

Asosiyga – sotsial dinamika: turli jamiyatlarning faoliyat jihatlari, ularning o'z faoliyatini saqlash va qo'llash muammolari mansub. Uchinchi guruhga – taraqqiyot masalalari: jamiyatning o'z tipini o'zgartirish, yangi jamiyatlarning qanday shakllanishi, ijtimoiy o'zgarishlarning umumiy qonuniyatlarini o'rganish kiradi. Boshqacha aytganda, inson va uning madaniyati taraqqiyotining umumiy qonunlarini ijtimoiy jihatlari tadqiq qiladi. Bu borada Radkliff-Braun dastlab generalizatsiyalashuv, keyinroq funksional yoki qiyosiy deb atagan metod qo'llaniladi. Ijtimoiy antropologiyadan farqliroq, antropologiya o'z tadqiqotlarida ayrim xalqlarning o'tmishi va bugungi hayotiga oid aniq ma'lumotlarni tarixiy metod orqali o'rganadi.

Diqqat qiling!

Radkliff-Braun umumnazariy konsepsiyasi bo'yicha: obyektiv borliqning barcha turlari tabiiy tizimning (atom, molekula, tana, odamlar jamiyati) turli sinflaridir. Har qanday tizim:

- a) uni tashkil etuvchi birliklar (elementlar) dan;
- b) ijtimoiy udumlarning umumiy birikmasidan;
- d) ijtimoiy udumlar bilan bog'liq o'ziga xos fikrlar va sezgi timsollaridan iboratdir.

O'zining ilk asarlarida Radkliff-Braun «madaniyat» atamasini keng ishlatdi. Lekin 1931-yildan keyin uning ijtimoiy antropologiya predmetiga nisbatan fikri o'zgarib, u yanada toraydi va «madaniyat»ni «ijtimoiy struktura» atamasi bilan almashtirdi. Natijada Radkliff-Braun tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari turli madaniyatlarning siyosiy tizimlari, qon-qardoshlik munosabatlaridan o'ziga xosliklar va ularning ijtimoiy tizimdagi o'rni, ibtidoiy diniy tasavvurlar strukturasining funksional tahliliga yo'naltirildi. Shu sababli, ko'pincha Radkliff-Braunni Malinovskiyga qarshi qo'yishib, Malinovskiy kabi funksionalist emas, balki strukturalist deb atashadi.

Funksional ta'limot va uning asosiy namoyondalari konsepsiyalarini tarixiy tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bu konsepsiyalar muammoni qo'yishda ilmiy tadqiqotlarda o'ziga xos xususiyatlari va metodlari bilan ajralib turadi. Lekin ularning barchasi funksional ta'limotning asosiy g'oyalari doirasida faoliyat ko'rsatib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

☑ inson jamiyati mavjud borliqning bir qismi sifatida tirik organizm o'laroq taraqqiy etadi, shu tarzda yashaydi, uni tashkil etadigan elementlari, ma'lum funksiyalarni bajaradi, boshqacha aytganda, inson jamiyati asosini o'zaro bog'liq va bir-birini to'latuvchi madaniy elementlar strukturasi tashkil etadi;

☑ har qanday ijtimoiy sistema «strukturalar» (tuzilmalar) va «faoliyatlar» dan tashkil topadi. Tuzilmalar mustahkam modellar bo'lib, ular orqali shaxslar atrof-muhit bilan bog'lanadi, shaxslarning vazifasi tizimining ijtimoiy yaxlitligiga o'z hissasini qo'shishdan iborat;

☑ madaniyat shaxsining ehtiyojlariga, eng avvalo, uning uchta asosiy talablari: asosiy (taom, uy-joy, kiyim-kechak va hokazolarda), ishlab chiqarish (mehnat taqsimoti, himoya, ijtimoiy nazorat) va integrativ (ruhiy xavfsizlik, ijtimoiy yetuklik, qonunlar, din, san'at va boshqalar) xizmat qiladi;

☑ madaniyatning har bir tamoyili yuqorida qayd etilgan ehtiyoj turlari doirasida o'z vazifasini o'taydi;

☑ madaniyatdagi asosiy o'rin: udumlar, marosimlar, axloqiy me'yorlarga tegishli bo'lib, ular insonlar xulq-atvorini boshqaruvchilardir. Ushbu vazifani bajarish orqali ular insonlarning hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishda madaniy, ularning birgalikda hayot kechirishidagi tashkiliy omil bo'lib xizmat qiladi;

☑ antropologiyaning vazifasi madaniy tamoyillar funksiyalarini har bir madaniyatdagi boshqa madaniyatlarga bog'liq bo'lmagan o'zaro aloqadorlik va o'zaro bog'liqlikni o'rganishdir.

Funksionalizmning asosiy tavsiflari orasida ahamiyatga moligi uning tadqiqotlaridagi amaliy yo'nalishdir. Antropologiyadagi yo'nalishlar orasida funksionalizm ilk marotaba o'zining amaliy xarakterda ekanligini bildirdi. Ushbu yo'nalish tarafdorlari ijtimoiy antropologiyani ingliz koloniyalarini boshqarishda eng muhim, dolzarb muammolarni hal etishini ta'minlovchi amaliy fan sifatida yaratishga intilganlar. Bu borada eng avvalo an'anaviy madaniyatlar ustun hududlar nazarda tutilgan. Ingliz mustamlaka siyosatidagi an'anaviy boshqaruv institutlari va mavjud ijtimoiy strukturalarga tayanib boshqarish konsepsiyasi funksionalizm ta'sirida shakllangani shubhasiz.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Bronislav Malinovskiy nima sababdan madaniyatni o'zaro aloqador elementlar va qismlardan iborat yagona birlik sifatida qarashga chaqirdi?

❖ Malinovskiyning jamiyat o'ziga xos biologik organizm (birlik) bo'lib, u tabiiy adaptiv tizim sifatida jamiyat va uning a'zolari talablarini qondirishga yo'naltirilgan degan fikrini izohlang.

❖ Alfred Radkliff-Braunning: «Antropologiyaning asosiy metodi – insoniyat madaniyatini tarixiy rekonstruksiya qilishdir», degan fikriga qo'shilasizmi? Nima uchun? Fikringizni faktlar bilan asoslang.



**Frans Boas
(1858–1942)**

XIX asning 90-yillariga qadar AQSH antropologiya fani evolutsion yo'nalish ta'sirida rivojlandi. Lekin XIX asr 90-yillarida Amerika antropologiyasida yangi yo'nalish vujudga kelib, uning asoschisi yirik olim va jamoa arbobi Frans Boas (1858–1942) bo'ldi. Yangi yo'nalish «Boas maktabi», rasman esa «tarixiy antropologiyaning amerika maktabi» nomini oldi.

Antropologiyadagi inqiroz holati yangi yo'nalishning vujudga kelishiga yo'l ochdi. Bir qator olimlar fanda hukmron bo'lgan g'oyalarni inkor etib, turli xalqlar hayotini o'rganishda butunlay yangi yondashuvlarni taklif etishdi. Tarixiy antropologiya vazifalarini qayta ko'rish

taklifi bilan chiqqan olimlar orasida Frans Boas alohida o'rin tutadi. U antropologiyadagi barcha yo'nalishlar: evolutsionizm, diffuzionizm va funksionalizmni zarur darajada universal emas deb inkor etadi. Tanqid eng avvalo evolutsion ta'limotga taalluqli bo'lib, undagi insonlar, ijtimoiy institutlar va madaniyatlarning oddiy, sodda ko'rinishdan murakkablikka tomon yuksalib borishi g'oyasiga qarshi qaratilgan edi.

Boas antropologiyani amalda butunlay yangidan yaratishni taklif etib, unda avvalgi etnologik nazariyalar noto'g'ri asosga ega bo'lgani hamda tadqiqotlarni noo'rin xulosalarga olib kelganini ta'kidladi. Uning fikricha, etnografik ma'lumotlarni qaytadan to'plab, ularni umumlashtirish asosida yangi metodlar va yangi nazariyalar yaratish lozim.

Inson haqidagi fanning maqsadini Boas har bir xalqni uning tili va madaniyatini o'rganish orqali, tarix haqidagi yaxlit tasavvurni yaratish deb biladi. O'zining dastlabki prinsipial, «Antropologiya vazifalari haqida» maqolasida Boas bu fanning yakuniy maqsadi faqat sivilizatsiyalashgan emas, balki barcha xalqlarning buyuk muzlik davridan to hozirga qadar barcha bosqichlardagi yagona tarixini yaratishdir deydi.

Buning uchun olimning fikricha, har bir xalqning madaniyati, tilini ularning o'ziga xosligini alohida tadqiq etish lozim. Butun insoniyatning mavjud tarixini rekonstruksiya qilish orqali esa inson faoliyatini boshqaruvchi barcha qonunlarni aniqlash maqsad etib qo'yildi. Boasning tan olishicha, bu jarayonda madaniyat taraqqiyotining umumiy qonunlari mavjud, ammo ularni ifodalashda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim, sababi har bir madaniyat o'ziga xos betakror taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi.

U o'zining ehtiyotkorlik bilan yondashuvini, tashqi ko'rinishidan o'xshash narsalarning turli kelib chiqishiga egaligi va turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lishi mumkinligi bilan izohlaydi. Har bir o'xshashlik ham tarixiy aloqalar yoki moddiy omillarni bir xalq tomonidan boshqasidan o'zlashtirganidan darak beravermaydi. Moddiy omillarning o'xshashligini odamzot ruhiyatining bir xil tashkil etilgani atrof-muhit o'xshashligi bilan izohlashni ham har doim to'g'ri deb bo'lmaydi. Boas madaniyat tarixida turli variantlar, xususan, matriarxat yoki patriarxat turdagi qardoshlik tizimiga o'tish kuzatilishi mumkinligini aytdi. Har bir vaziyatda sinchikovlik bilan tarixiy tadqiqotlar o'tkazish lozim.

Evolutsionizm va diffuzionizmni rad etar ekan, Baos o'z navbatida, madaniyatni tarixiy metod orqali tadqiq qilish lozimligini ta'kidlaydi. Uning anglashicha, madaniyat – inson ulg'ayishi va qabul qilishi borasida o'zlashtirgan xalq modellari yig'indisi, madaniyat taraqqiyoti – ijtimoiy guruhning ichki taraqqiyoti o'ziga xosligi, qisman unga o'tkazilgan tashqi ta'sir bilan belgilanadi. Har bir madaniyatni betakror va o'ziga xos deb bilgan amerika tarixiy maktabi tarafdori madaniyatning eng mayda elementlarini ham to'liq tasvirlashga intilgan. Buning natijasida to'plangan ko'p sonli rang-barang ma'lumotlar uni qayta ishlashda o'ziga xos metodlarni talab qiladi. Shuning uchun Boas

maktabida qator yangi metodlar, xususan, etnografik kartografiyalash uslubi yaratilib, u keyinchalik antropologiyada keng qo'llanildi.

Boasning ilmiy salohiyati nihoyatda yuksak bo'lib, uning qator shogirdlari va davomchilari yetishib chiqdi. Ular ichida eng taniqlilari: K.Uissler, A.Kreber, A.Goldenvayzer, R.Loui, P.Radin, L.Uaytlar bo'lgan. Ulardan Alfred Kreberni (1876–1960) shubhasiz eng qat'iyatli izdoshlardan deb atash mumkin.

O'zining ilmiy qarashlarida Kreber Boas maktabining davomchisi sifatida: antropologiya bosh predmeti – bu inson madaniyati, aniqlash, inson guruhlarini madaniyati ekanligini izchil ta'kidlaydi. O'zining nazariy qarashlarini olim «Antropologiya» (1912) asarida ta'riflaydi. Uning yozishicha, dunyo xalqlari madaniyati, o'tmishda va hozir, yaxlit, uzluksiz kontinuumni tashkil etsada, va uni qismlarga bo'lish qiyin bo'lsa-da, an'anaga ko'ra insoniyat yaratgan madaniyatlarni ikkiga: yozuvsiz va yozuvli xalqlar madaniyatlariga bo'linadi. Antropologiya ulardan birinchisini, tarix fani esa ikkinchisini tadqiq qiladi.

Kreber madaniyatni: turli elementlardan o'ziga xos tarzda birlashtirilgan va yaxlitlikni tashkil etuvchi, ma'lum model, namunaga mujassamlashgan, uyg'unlashgan tizimi deb tushungan. Madaniyat formasi unga mansub stilga bog'liq bo'lib, bu insonlarning o'zini tutishida, moddiy madaniyat ashyolarida o'z muhrini qoldiradi. Uning o'ziga xosligi ma'naviy madaniyat va uning qadriyatlarida namoyon bo'ladi. Har bir madaniyatga xos ma'lum dominant (yetakchi) g'oya bo'lib, u ushbu madaniyatning eng buyuk yutuqlarini va betakror ekanligini ifodalaydi.

Keyinchalik K.Klaxxon bilan hamkorlikda yozilgan boshqa bir asarida u madaniy modellar haqidagi g'oyasini uzil-kesil umumlashtirib, tartibga keltirdi. Kreberning madaniy modellari o'ziga xos abstraksiya, ya'ni u tadqiqotchilarga o'rganilayotgan madaniyatlarning barcha elementlarini (siyosiy tuzilishi, kiyimlari, taomlari, san'at asarlari, uy-joylar qurilishi texnologiyalari va hokazolar)ni yaxlitlikda ko'rish imkonini berdi. Bu xildagi yondashuv bilan Kreber amalda «madaniy modellar» tushunchasini almashtirdi. Shu tariqa modellarni alohida madaniyatlarning suyagi, arxipik asosi deb atash mumkin.

Kreberning madaniy modellar nazariyasi ijtimoiy hayot turlari va strukturalarning kelib chiqishi bilan qiziqmaydi. Ularga borliq sifatida

qaraladi. Biz biror madaniyatni o'rganar ekanmiz, o'z madaniyatimiz paragmalari doirasida, etnosentrizm pozitsiyasida qolishimiz tabiiy. Madaniyat hayoti ichki innovatsiyalar va tashqi ta'sirlarga beriluvchan bo'lsa-da, ular madaniyatning yuksalishini ta'minlasa, boshqalari uni sekinlashtiradi.

Madaniyatning bu xildagi notekis rivojlanishi Kræber tomonidan kulminatsiya tushunchasi kiritilishiga sabab bo'lib, unda turli madaniy modellar kombinatsiyasi eng muvaffaqiyatli chiqib, madaniyatning ma'lum sohalari yuksalgan, gullab-yashnagan davri olinadi. Bitta madaniyatning o'zi qator kulminatsiyalarni boshdan o'tkazishi mumkin. Kulminatsiyaning vaqti ham turlicha – bir necha 10 yildan bir necha 100 yilgacha bo'lishi mumkin.

Tarixiy maktabning mohiyatini va uning antropologiyaga qo'shgan hissasini ifodalaydigan bo'lsak, quydagilarga e'tibor berish lozim:

☑ antropologiya har bir xalqni alohida, tili, madaniyati va antropologik tipini aniq va har tomonlama mukammal o'rganishi kerak;

☑ turli xalqlar madaniyatlarining o'zaro ta'siri, ma'lum geografik hududlardagi madaniy birlikning shakllanishini; ushbu areallar chegarasida xalqlar madaniyati o'zaro ta'sirining aniq ko'rinishlarini, ayrim madaniy elementlar diffuziyasini kuzatish mumkin;

☑ insoniyat va uning madaniyati taraqqiyoti anglash qiyin bo'lgan umumiy qonunlar asosida bo'ladi: umumiy qonuniyatlarni tadqiq qilish davomida madaniy omillarning tashqi o'xshashligidan aldanmaslik lozim, sababi ular aslida butunlay xilma-xil hamda kelib chiqishi ham har xil bo'lishi mumkin;

☑ «O'zimizning» ma'naviy baholash kriteriyalarimizni o'zga madaniy tipga ega xalqlarga nisbatan qo'llashimiz noo'rin, sababi har bir xalqda tarixan ijtimoiy ideallar, axloqiy hormalar shakllanadi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Tarixiy antropologiyaning amerika maktabi qay tariqa vujudga keldi? Uning shakllanishida Frans Boasning xizmatlari nimalardan iborat?

❖ Frans Boasning har bir madaniyat betakror taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi haqidagi fikriga misollar keltiring. Ularni ayniqsa qaysi xalqlar misolida yaqqol ko'rish mumkin?

❖ Etnografik kartografiyalash uslubi haqida nimalarni bilib oldingiz? U nega aynan dastlab amerika maktabida vujudga keldi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ Fransuz sotsiologi Emil Dyurkxeymning «kollektiv ong» haqidagi qarashlari (asarlar asosidagi tahlil).

✓ Lyussen Levi-Bryul va uning «oldmantiqiy ong» nazariyasi. Mazkur nazariyaning ibtidoiy jamiyatda tutgan o'рни.

✓ Malinovskiyning madaniyat modeli. Uning asosini tashkil etuvchi to'rtta o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar tahlili.

✓ Alfred Radkliff-Braun qarashlarida «madaniyat» tushunchasining «ijtimoiy struktura» tushunchasiga alamashishiga sabab bo'lgan omillar (tahlillar, nazariyalar va xulosalar).

✓ Tarixiy antropologiyaning amerika maktabidagi etnografik kartografiyalash uslubining yuzaga kelishi va mazmuni.

Seminar savollari:

6. Tarixiy antropologiyada sotsiologik yo'nalish vujudga kelishiga qaysi omillar turtki bo'lgan?

7. Fransuz sotsiologiya maktabi asoschisi Emil Dyurkxeym qarashlarida jamoaviy tushunchalar haqidagi g'oya qanday o'rin tutadi?

8. Levi-Bryul ibtidoiy davr jamoaⁿⁱ ongini nima sababdan «oldmantiqiy ong» deb nomlagan? Bu tushuncha nimalarni anglatadi?

9. Zamonaviy antropologiya va funksionalizm maktabi asoschisi Bronislav Malinovskiy qarashlari qanday tamoyillarga tayanadi?

10. Radkliff-Braun umumnazariy konsepsiyasi nimalardan iborat?

11. Tarixiy antropologiyaning amerika maktabi qanday sharoitda shakllandi? U nega o'zidan boshqa barcha maktablar qarashlarini inkor etdi?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarga diqqat qiling!

✓ Emil Dyurkxeym asarlari:

□ Education et sociologie, P., 1922;

□ Sociologie et philosophie, P., 1924;

□ L'education morale, P., 1923;

□ Le socialisme, P., 1928;

□ Leçons de sociologie. Physique des m?urs et du droit, P., 1950;

✓ **Bronislav Malinovskiy asarlari:**

- The natives of Mailu, Adelaide, 1915;
- Argonauts of the Western Pacific, N. Y., 1961;
- A scientific theory of culture and other essays, N. Y., 1960;
- Dynamics of culture change, L., 1946.

✓ **Alfred Radcliff-Braun asarlari:**

- The Andaman islanders, Camb., 1922;
- Structure and function in primitiv society, L., 1952;
- A natural science of society, Glencol, 1957.
- ✓ Alpert H., Emile Durkheim and his sociology, N. Y., 1961;
- ✓ Duvignaud J., Durkheim, P., 1965.

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA STRUKTURALIZM VA NEOEVOLUTSIONIZM

Reja:

1. Tarixiy antropologiyada strukturalizmning vujudga kelishi.
2. Tarixiy antropologiyada neoevolutsionizm qarashlari.

Strukturalizm yaratilishi funksionalizm doirasida bo'lgani sababli, uning ilk turi strukturaviy funksionalizm nomini oldi. Yangi nazariyaning asoschisi Alfred Radkliff-Braun (1881–1955) bo'lgan. U jamiyatga alohida elementlarning o'zaro aloqadagi strukturaviy tizimi sifatida qaray boshlagan. Olimning fikricha, insonlarning ijtimoiy hayotini, ularning ma'lum ijtimoiy tuzimi doirasidagi faoliyatlari sifatida qarash mumkin.

Radkliff-Braun yaratgan g'oya ingliz ijtimoiy antropologiyasida tezda ommalashib, o'z taraqqiyoti bilan qator olimlar guruhi tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Ular orasida Eduard Evons-Pritchard (1902–1972) ayniqsa mashhur bo'lgan. Afrika madaniyatlarining tadqiqotchisi bo'lgan olim ularni o'rganishda strukturalistik uslubni qo'llagan.

Fransiyada strukturalizm g'oyalari taraqqiyoti o'zgacha yo'ldan bordi. Fransuz strukturalizmi Klod Levi-Stros ishlari bilan tanilgan. Uning ilmiy qarashlari Dyurkxeymning jamiyat haqidagi nazariyalari ta'sirida shakllangan. «Strukturaviy antropologiya» (1958–1973), «Gotelizm bugun» (1962), «Qayg'uli so'qmoqlar» (1975) va boshqa asarlar muallifi.

Levi-Stros nazariyasining asosini strukturaviy lingvistika uslubini qo'llash orqali madaniyatning u yoki bu turi strukturasi aks ettiruvchi ramzlar tizimini yaratish mumkinligiga ishonch tashkil qiladi. Olimning barcha asarlarida markaziy mavzu insoniyat ongining barcha tarixiy bosqichlarida yaxlitligi g'oyasi yotadi.

Strukturaviy tahlil metodini qarindoshlik tizimini o'rganishda qo'llagan Levi-Stros keyinchalik totemizmni tadqiq qilish, ong jarayonlarini izohlashda foydalandi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Jamiyatga alohida elementlarning o'zaro aloqadagi strukturaviy tizimi sifatida qaray boshlanishi qaysi nazariyaning vujudga kelishiga zamin yaratdi?

❖ Klod Levi-Stros nazariyasining asosini qanday konsepsiya tashkil etadi? Uning asarlarida bu konsepsiya qanchalik yoritilgan?

❖ Totemizmni tahlil qilish, ong jarayonlarini izohlashda strukturalizmdan qanday foydalanish mumkin? Fikringizni misollar bilan izohlang.

Neoevolutsionizm – XX asrning 40-yillarida shakllanib, unda evolutsiya yangicha talqinda progress (taraqqiyot) yoki ortga qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishni, jarayonni anglatadi.

Yangi nazariya tarafdorlari evolutsionizm g'oyasi tarafdorlarini tan olmaydilar, shuning uchun ular evolutsiyani ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra insoniyatning rivojlanishi sifatida ifodalaydilar.

Neoevolutsionalizm AQSHda keng tarqalib, kulturolog va etnolog Lesli Uayt (1910–1975) asarlarida o'z ifodasini topdi. «Madaniyat haqida fan» (1949) «Madaniyat evolutsiyasi» (1959) va boshqalar.

Uaytning yozishicha, har qanday taraqqiyotning o'lchovi va manbai energiya (quvvat) hisoblanadi. Barcha tirik mavjudotlar kosmosning erkin energiyasini o'z tanalaridan hayotiy jarayonlarga xizmat qiladigan quvvat turlariga aylantiradi. O'simlik quyosh energiyasini o'sish, qayta yaratish uchun hayotini saqlash uchun qabul qilgani singari, insonlar ham yashash uchun quvvat olishlari shart. Bu to'lig'icha madaniyatga ham taalluqlidir. Har qanday madaniy harakat quvvatni sarflashni talab etadi.

Julian Styuard (1902–1972) «Madaniy o'zgarishlar nazariyasi» (1955) asarida har bir madaniyatni alohida tabiiy muhitga moslashgan tizim sifatida qaraydi. Uning fikricha, tabiat evolutsiyasi turli yo'llar bilan ro'y berishi mumkin, ammo o'xshash tabiiy muhitga deyarli bir xil texnologik taraqqiyot darajasidagi jamiyatlar evolutsiyasi nisbatan o'xshash bo'lishi mumkin.

❖ XX asrning 50–60-yillarida neoevolutsionizm Amerika etnologiyasida yetakchi nazariy yo'nalishga aylandi. Sababi neoevolutsionistlarning madaniyat taraqqiyoti haqidagi konsepsiyalari klassik evolutsionistlarnikiga nisbatan murakkab va serqirraligi bilan ajralib turadi.

Bu parallel evolutsiya fenomeni geografik jihatdan bir-biridan uzoq va o'zaro aloqada bo'lmagan jamiyatlar taraqqiyotidagi jarayonlarning o'xshashligini izohlaydi. Styuardning fikri turli jamiyatlar o'xshashligi madaniy diffuziya konsepsiyasi vositasida izohlanishi mumkin emas. U yoki bu madaniy formalarning vujudga kelishi, tabiiy muhit, jamiyat texnologik taraqqiyoti darajasi va uning faoliyati orasidagi o'zaro

aloqalarni tahlili izohlanadi. Shu tarzda Styuard o'zining evolutsiyalarini ko'pligi konsepsiyasi orqali madaniy o'zgarishlar g'oyasini asosladi.

Julian Styuardning yozishicha, madaniy taraqqiyot qonunlarini tadqiq qilish uch yo'l bilan evolutsiyani bir liniyalı taraqqiyot nazariyasi, ya'ni barcha xalqlar madaniyati taraqqiyotining kelib chiqishi birligi g'oyasi unda ushbu taraqqiyotning turli bosqichlarida genlar farqlar shakllangani tan olinadi, madaniy relyativizm⁹ nazariyasini qo'llash orqali, u turli xalqlar madaniyatlari orasidagi sifat farqlariga e'tibor qaratadi. Ko'p liniyalı evolutsiya nazariyasini qo'llash, unda alohida madaniyatlar taraqqiyoti turli yo'llar bilan bo'lishi, bu holatni atrof-muhitga moslashishining turli jihatları bog'liqligi bilan izohlanadi.

So'nggi nazariyaning asoschisi va tarafdori bo'lgan Styuard, atrof-muhitning turli-tumanligi, unga moslashuv formalarini ham turlicha bo'lishiga ishonadi. Shuning uchun madaniyat taraqqiyoti turli yo'nalishlarda ketib biz madaniy evolutsiyaning ko'plab turlarini va uning ko'plab omillarini ko'rishimiz mumkin. Madaniy o'zgarishlar jarayonini izohlash uchun Styuard «madaniy ekologiya» tushunchasini kiritib, u madaniyatlarni atrof-muhitga moslashuvi va o'zaro aloqaları jarayonini anglatadi. Styuard bu tushunchani, uning fikricha, insonni biologik muhitga moslashuvini ifodalanishini aks ettiruvchi «inson ekologiyasi» va «ijtimoiy ekologiya» tushunchalariga qarama-qarshi qo'yadi.

Styuard madaniy ekologiya konsepsiyasining asosiy maqsadi, moslashuv evolutsion xarakterdagi ichki ijtimoiy munosabatlarni o'z ortidan olib keladimi yoki yo'qligini aniqlash bo'lgan. Uning fikricha, madaniy moslashuv uzluksiz jarayon, chunki biror bir madaniyat atrof-muhitga uzil-kesil moslasha olmagan. Styuardning ta'kidlashicha, madaniyatning asosiy xususiyatlari tabiiy muhit bilan bog'liq, lekin bu bog'liqlik madaniy omillar bilan xususiyatlanadi.

Styuard g'oyasida «madaniy tip» tushunchasi, madaniyat yadrosini tashkil etadigan xususiyatlar yig'indisi sifatida muhim o'rin tutadi. Styuard ekologiyani muhim omil hisoblasa-da, uning fikricha, madaniyatning hamma jihatlarini ham ekologik moslashuv bilan izohlab bo'lmaydi. U qator misollar yordamida tabiiy muhitga bog'liqlik, juda

⁹ Relativizm (lotincha relativus - nisbiy) nisbiylik va bilim mazmunining shartililigini absolyutlashtirishdan iborat metodologik prinsipdir.

ham to'g'ridan-to'g'ri emasligini tasdiqladi. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat qanchalik sodda bo'lsa, uning geografik muhitga bog'liqligi shuncha kuchli bo'ladi.

Styuard evolutsion nazariyasini takomillashtirar ekan, ijtimoiy-madaniy integratsiya darajasi konsepsiyasini shakllantirishga yaqinlashdi. Olim oddiy va murakkab jamiyatlar orasidagi tafovutlar faqat son bilan o'lchanmasligiga ishongan. Nisbatan yuksak tizimlar faqat xilmaxil va ko'plab qismlardangina tashkil topmagan. Murakkab tizimlar sifat jihatdan oddiylaridan farqlanadi, sababi murakkablik darajasi farqlari integratsiya va moslashuvning turli formalarini keltirib chiqaradi.

Madaniy evolutsiyada atrof-muhitning rolini sinchkovlik bilan tadqiq qilgan Styuard, uning ikkilamchi xususiyatga ega ekanligini: ijodiy kuch sifatida chiqishidan tashqari, cheklovchi omil bo'lishi ham mumkinligi xulosasiga keldi. So'nggisi muhim ahamiyatga ega, chunki u ham qanday tizim bo'lishiga qarab ma'lum chegaragacha o'zgarishi mumkin, aks holda odamlar tirik qolmaydi. Bu chegaralar keng yoki tor bo'lishi, o'z navbatida, o'zlariga bo'ysunadigan madaniy harakatlarning katta yoki kichik kenglikda bo'lishini ta'minlaydi. Yuksak texnologiyali jamiyatlar, bu borada atrof-muhit cheklovlaridan erkinroq bo'lib, kengroq madaniy diapazonga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda neoevolutsionizmning eng taniqli namoyondasi Marvin Xarris bo'lib, u o'zini Uayt va Styuardlarning davomchisi hisoblaydi. Uning «Madaniy materializm» (1979) asarida bayon etgan qarashlarida, madaniyatlar orasidagi tafovut va o'xshashliklar oxir-oqibat, odamlar ehtiyojlarini qondirish texnologiyalarining, hozirgi paytdagi atrof-muhit sharoitlariga mosligi bilan belgilanadi. Har qanday texnologiya atrof muhit xususiyati bilan mutanosib bo'lishini, mavjud resurslardan optimal foydalanib, kam mehnat va quvvat sarf qilishini ko'zda tutadi. Shu tariqa tizimda muvozanat paydo bo'lib, uning alohida ko'rsatkichlari o'zgarmaguncha o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Bu kabi fikrlarga tayangan Xarris, turli madaniyatlar misolida, biz umuman keraksiz deb hisoblagan qator udumlar ortida iqtisodiy manfaatlar yotganini tasdiqlashga urindi. Xususan, qadimgi hind vedalarida yirik shoxli molni qurbonlik qilingani haqida so'z yuritilsa-da, hozirda hindlarda qoramolni o'ldirishga qat'iy talab qo'yilgan. Xarrisning fikricha, sigirlarni muqaddaslashtirish Hindistonda uzoq tarixiy jarayon

bo'lib, iqtisodiy, ekologik, demografik va texnik omillarning o'zaro ta'siri natijasidir. Tadqiqotchining xulosasicha, madaniyat va atrof-muhit o'zaro ta'sir qiladigan omillardir.

XX asr oxirlarida antropologiyada qator maktablar yuzaga keldi. Jumladan, shu davrda ijtimoiy biologiya maktabi rivojlandi, ammo u tez orada o'z o'rnini madaniy ekologiyaga bo'shatib berdi.

Madaniy ekologiya bugungi kungacha Amerika madaniy antropologiyasida o'zining yetakchi mavqeyini saqlab qolmoqda. Bu oqim funksionalizm, strukturalizm va neevolutsionizm bilan birga Amerika madaniy antropologiyasida asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Lesli Uaytning «har qanday taraqqiyotning o'lchovi va manbayi energiya (quvvat) hisoblanadi», degan fikrini asoslang.

❖ Julian Styuard tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan «madaniy ekologiya» tushunchasini izohlang.

❖ Madaniyat qanchalik sodda bo'lsa, uning geografik muhitga bog'liqligi shuncha kuchli bo'ladi, degan qarashga qo'shilasizmi? Nima uchun?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ Klos Levi-Stros nazariyasining asosini tashkil etuvchi strukturaviy lingvistika uslubi: uning mohiyati hamda u orqali erishilgan natijalar.

✓ Julian Styuard va uning «madaniy ekologiya» konsepsiyasi.

✓ Marvin Xarris va neoevolutsionizm nazariyasiga qo'shgan hissasi (madaniyat va atrof-muhit o'zaro ta'sir qiladigan omillar fikri tahlili asosida)

Seminar savollari:

12. Tarixiy antropologiyada strukturalizm nazariyasi qay tariqa shakllandi? Uning yuzaga kelishida kimning xizmatlari ulkan ahamiyat kasb etdi?

13. Fransuz strukturalizmi maktabi vakili Klod Levi-Stros mazkur nazariya rivojiga qanday hissa qo'shdi? Uning o'z nazariyasini targ'ib qilishga qaratilgan qanday asarlari mavjud?

14. Neoevolutsionizm nazariyasi tarixiy antropologiya taraqqiyotidagi qanday omillarni belgilab berdi? Uning tarafdorlarni kimlar?

15. Ijtimoiy biologiya maktabi va madaniy ekologiya o'rtasida qanday o'xshashliklar mavjud? Nima sababdan biri ikkinchisining o'rnini egalladi?

Quyidagi qo'shimcha adabiyotlarga diqqat qiling!

Iod Levi-Stros asarlari:

La vie familiale et sociale des Indiens Nambikwara, P., 1948;

Tristes tropiques, P., 1955;

Anthropologie structurale, P., 1958;

Le totemisme aujourd'hui, P., 1962;

Les structures elementaires de la parente, 2 ed., P. - La Haye, 1967.

Olim faoliyati haqidagi adabiyotlar:

Merleau-Ponty M., De Mauss a Levi-Strauss, в кн.: Signes, P., 1960;

Leach E. Structural study of myth and tothemism, L., 1967;

Simonis Y., Claude Levi-Strauss ou «la passion de l'inceste». P., 1968;

Leach E., Levi-Strauss, N. Y., 1970;

Kirk G. S., Myth, its meaning and functions in ancient and other cultures, Berk. - Los Ang., 1970, p. 42-83;

Claude Levi-Strauss; the anthropologist as hero, Camb. - L., [1970];

Cressant P., Levi-Strauss, P., 1970;

Remotti F., Levi-Strauss. Struttura e storia, Torino, 1971;

«Esprit», 1963, Novembre; «L'Arc», 1965, 26.

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA MIKROTARIX YO'NALISHI

Reja:


1. Tarixiy antropologiyada yangi yo'nalishlarning vujudga kelishi.
2. Tarixiy antropologiyadagi mikrotarix yo'nalishi haqida.
3. J. Levining «Nomoddiy meros: XVIII asrda Pyemontlik tabib karyerasi» asari tahlili.

*Mikrotarix mayda-chuyda narsalarga qarash emas, balki
tafsilotlarni ko'rib chiqishdir.*

J. Levi

XX asrning 70–80-yillarida tarixiy antropologiya bir qancha mamlakatlarda rivojlanishi sekinlashdi. 90-yillarda Fransiyada tarixiy antropologiyani tanqid qilish kuchaydi, fanni o'rganish, unga qiziqish pasayib ketdi. Lekin, Y.I. Bessmertniyning fikricha, bu jarayon global xarakter kasb etmadi, ko'pgina mamlakatlarda tarixiy antropologiyaga qiziqish oshdi, bu jarayon orqali ba'zi mamlakatlarda tarixiy antropologiyaning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi (Germaniya, Italiya, Ispaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda).

Bu rivojlanish natijasida tarixiy antropologiyaning o'rganilish geografiyasi kengaydi, tadqiqot maydoni oshdi. Ko'pgina mamlakatlarda turli zamonaviy yo'nalishlar, jumladan, AQSHda yangi madaniy tarix (new cultural history), Italiyada mikrotarix (u so'nggi vaqtlarda boshqa ko'pgina mamlakatlarga ham tarqaldi), Germaniya, Avstriya, Shveysariyada «Alltagsgeschichte» yo'nalishlari paydo bo'ldi. Bundan tashqari, turli mamlakatlarda inson tanasi tarixi, siyosiy madaniyat atamalari ham tarixiy antropologiyada ishlatilmoqda va bir qator mutaxassislar bu atamalarni ham tarixiy antropologiyada yangi yo'nalishlardan deb e'tirof etishgan. Mikrotarix – tarixiy fanlaridagi yo'nalishlardan biri bo'lib, u kichik hududlar va kam sonli aholi (shaharcha, qishloq yoki oddiy oila) orqali o'tmishdagi oddiy odamlar hayoti va fikrlashini o'rganib, o'rganilayotgan davrga ma'lum bir nuqtayi nazardan turib baho beradi.



Mikrotarix oddiy, xususiy hodisalarni o'rganib, shu orqali ma'lum davr jamiyatini o'rganishni maqsad qiladi.

Ilk bor mikrotarix atamasi 1960-yilda Fernan Brodel tomonidan ishlatilgan. Brodel bu atamani dastlab salbiy ma'noda qo'llagan bo'lib, u mikrotarixni mayda-chuydalar bilan shug'ullanuvchi tarix deb atagan. 60-yillar oxirida meksikalik tadqiqotchi L.Gonsalez o'zining qishlog'i haqida yozgan kitobini aynan shu atama bilan nomlaydi. 70-yillarga kelib, bir qancha italyan tarixchilari (Levi, Ginzburg) tomonidan mikrotarix fanda yangi yo'nalish deb baholandi va butun dunyoga shu nom bilan tarqaldi.

Mikrotarixchilar Italiyada chop etiladigan «Guaderni Storici» («Kundalik tarix») jurnali orqali o'z yo'nalishlari mohiyatini yoritib borishdi. 1981-yildan boshlab Turindagi «Eynaudi» nashriyoti mikrotarix bo'yicha kitoblarni chop eta boshladi. Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, 90-yillar o'rtalarida bu kitoblar 20 tomlik qilib nashr etildi. Mikrotarix yo'nalishi tarafdorlari tadqiqotlar orqali jamiyat rivojlanishi oddiy jarayonlar orqali bo'lmaganligini, bu rivojlanishlar hammaga har xil ta'sir qilishini ko'rsatib berishga harakat qilishgan.

E.Grendining ta'kidlashicha, bu yo'nalishning rivojiga ijtimoiy antropologiyaning ta'siri kuchli bo'lgan. Keyinchalik mikrotarix ham o'z prinsiplariga ega bo'lib bordi. J.Levi 1991-yilda mikrotarixga oid katta maqola e'lon qiladi, bu maqolada mikrotarix prinsiplari alohida ta'kidlangan. Shu maqola mikrotarix mohiyatini ochib berishda katta xizmat qildi.

Levining fikricha, birinchi navbatda, ushbu yo'nalish tajribaviy yo'nalish hisoblanadi, u tajribalarga asoslanadi. Tajribaning eng yuqori cho'qqisida tadqiqotchi shu tadqiqotdagi eng ikir-chikir nuqtalarni o'rganishga kirishadi, shu orqali butun tadqiqotni ochib berishga harakat qiladi. Levi shunga urg'u beradiki, muammoni kichik nuqtada o'rganish uning hajmini, mazmunini maydalashtirmaydi, balki hayotning ma'lum nuqtasidagi umumiy jarayonlardagi burilish nuqtasini ko'rishga yordam

beradi. Mikrotarixchilar funksionalistlarga qarama-qarshi yo'nalish vakillari hisoblanib, ular funksionalistlardek ijtimoiy-madaniy tizimni umumiy holda emas, balki shu tizimni ma'lum bir kichik nuqtalar, kichik jarayonlar orqali o'rganishadi.

Diqqat qiling!

Mikrotarixning turli mamlakatlarda ko'pgina namoyondalari bor. Masalan: Italiyada Ginzburg, Levi, Grendi, S.Cherrutti, P.Redondi, M.Gribauidi; Fransiyada Revel; Germaniyada X.Mediklar bu yo'nalishda ish olib borishgan.

Mikrotarix yo'nalishida yozilgan ba'zi asarlar:

Petro Redondi 1983-yilda «Galiley-Dahriy» asarini yozgan.

Jovanni Levi 1985-yilda «Nomoddiy meros» asarini yozgan.

M.Gribauidi 1987-yilda «Ishchi dunyo va ishchi afsona» asarini yozgan.

4. Simon Cherutti 1992-yilda «Ustalar va imtiyozlar» asarini yaratgan.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ XX asrning 70–80-yillarida bir qancha mamlakatlarda tarixiy antropologiya rivojlanishining sekinlashishiga nima sabab bo'lgan bo'lishi mumkin? Fikringizni asoslang.

❖ Tarixiy antropologiyani rivojlanishida yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi qanday o'rin tutadi? Yangi yo'nalishlar oldingilaridan qaysi jihatlari bilan farqlangan?

❖ Mikrotarix rivojiga ijtimoiy antropologiya sohasining ta'siri kuchli bo'lganligi haqida qanday qaraysiz? Misollar keltiting.

Germaniya ham mikrotarixni o'rganish bo'yicha markazlardan biri sanaladi. M.Plank nomidagi jamiyat tarixi institutida bu yo'nalish bo'yicha keng tadqiqotlar olib boriladi. 70-yillarda Germaniyada mikrotarix yo'nalishiga o'xshash yangi bir yo'nalish paydo bo'ldi, bu «har kunlik tarix» nomini oladi. Bu ta'rifni ilk bor Y.Kokka ishlatadi. 80-yillarda bu yo'nalish yanada rivojlana boshladi, Germaniyaning g'arbiy hududlarida M.Krom ta'rifi bo'yicha «tarixiy bum» holati yuzaga keladi. Bu hududlarda yashovchi aholi o'z oilasi, qishlog'i yoki shaharchasi tarixi bilan qiziqadi, joylarda turli «tarixiy ustaxonalar» paydo bo'ladi.

Bu yo'nalishda og'zaki tarix metodi keng qo'llaniladi. Dastlab tanqidga



uchragan «har kunlik tarix» 80-yillar oxirida tan olingan yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu yo'nalishga bag'ishlangan maqolalar A. Lyudtke tahriri ostida 1989-yilda Germaniyada, 1995-yil AQSHda to'plam holatida nashr etildi. Bu yo'nalish vakillari asosan XX asr boshi tarixini o'rganishgan. Oddiy odamlar ongiga fashizm g'oyasi qanday ta'sir etgani, oddiy odamlar nima uchun fashizmga xayrixoh bo'lganligi o'rganilgan. Bu yo'nalishning mikrotarixdan farqli tomoni shundan iboratki, mikrotarix o'rganilish davri sifatida o'rta asrlar va yangi davr boshlarini olsa, bu yo'nalish asosan XX asrda bo'lgan hodisalar bilan tadqiqot olib boradi.

Germaniyada mikrotarix yo'nalishining vakillaridan biri bu X.Medik hisoblanib, u o'rganish davri sifatida XVII–XIX asrlarni olgan, X.Medik Shvabiya hududlaridagi qishloqlarda tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotlarda asosan shu yerlik aholining diniy tasavvurlari va bu tasavvurlarning insonlar mehnat faoliyatiga ta'siri o'rganilgan. Bu tasavvurlar ularning moddiy madaniyatiga, xususiy mulk haqidagi tushunchalariga qanday ta'sir ko'rsatganligi tadqiq qilingan. Tadqiqotlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu qishloqlarda mulkiy munosabatlarda asosiy rolni «protestant etika» o'ynagan, bu etika mehnat munosabatlarini ham tartibga solib turgan.

Bu hududlarda, muallifning ta'kidlashiga ko'ra, ota-onalar mulkni butun holda ko'rishni xohlashgan, uning bo'linib ketishiga qarshi bo'lishgan. Shu sababli, bu hududlarda o'sha davrlarda ko'p farzandlilik jamiyat tomonidan yoqlanmagan.

Yuqorida yozilganidek, J.Levi 1991-yilda e'lon qilgan maqolasida mikrotarix kichik hodisalar orqali jamiyat rivojlanishidagi keskin burilishlarni ko'rsatib bera olishini ta'kidlab o'tgan. 1990-yilda esa Levi hodisalarga «mikroskop orqali qarash» mikrotarixning asosiy vazifasi ekanligini ta'kidlagan edi. Levi bu fikrlarni «Nomoddiy meros: XVIII asrda Pyemontlik tabib karyerasi» asari orqali isbotlashga harakat qilgan (bu asar 1985-yilda yozilgan).

Asarning bosh qahramoni – ruhoniylar va tabib Giovan Battista Kieze bo'lib, u aholi orasida «jinlarni quvish» qobiliyati bilan shuhrat qozonadi. Asardagi voqealar Pyemontdagi Santena qishlog'ida bo'lib o'tadi. Tadqiqot maqsadi qilib eski tartibdagi dehqonlar hayotining yangilanish jarayonini ochib berish olinadi. Batista Kieze otasi – sudya va notarius Giulio Cesare Kieze o'z hududidagi aholini uzoq vaqt boshqaradi. Uning o'limidan so'ng bu boshqaruv o'g'li Batista Kieze meros bo'lib o'tadi. Kitob nomidagi «nomoddiy meros» bu ruhoniylarning otasidan meros qilib olgan boshqaruv va obro' hisoblanadi. Muallif o'z oldiga qo'ygan maqsad shundan iborat edi, birinchidan, odamlar va oilalar orasidagi murakkab munosabatlarni o'rganish, ikkinchidan, siyosiy va iqtisodiy qonunlarning odamlar ongiga qay darajada ta'sir qilganini o'rganishdan iborat hisoblangan.

Shu maqsadda J. Levi hujjatlarda nomlari saqlanib qolgan Santena qishlog'ining barcha aholisining biografiyasini birma-bir o'rganib chiqqan. Tadqiqotida o'z asari orqali quyidagi munosabatlarga alohida urg'u bergan: demografik ko'rsatkichlar, oilaviy strukturalar va aloqalar, yer oldi-sotdisi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar, dehqonlar ongi, to'dalar o'rtasidagi raqobat va kelishmovchiliklar, Santena qishlog'ining tashqi dunyo bilan aloqalari. Levi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bu munosabatlardan chiqqan xulosalar orqali butun bir davrning ma'lum bir nuqtalarini baholash mumkin. Masalan, yer oldi-sotdisidagi asosiy munosabat bu xaridor va sotuvchi o'rtasidagi shaxsiy munosabat bo'lgan, shu sababli yer aniq stabil bir narxga ega bo'lmagan. Bundan tashqari, bu qishloq ma'lum bir siyosiy jarayonlarda ham ishtirok etgan, bu qishloq davlat, yonidagi Kyer shaharchasi nizolaridan unumli foydalanib alohida avtonomiyaga erishgan. Giulio Kieze bu nizolarda tomonlarning muvozanatini ushlab turgan yoki ular o'rtasida kelishtiruvchi kuch bo'lgan. Faqat uning o'limidan keyingina davlat qishloq ustidan yana nazorat o'rnatilgan.

Bu asar kichik bir qishloq misolida yozilgan bo'lsa-da, bu orqali o'rta asr va yangi davr Italiyasidagi ba'zi munosabatlar qanday bo'lganini ko'rish va bu munosabatlarga ma'lum bir nuqtayi nazardan turib xulosa berish mumkin. Ayniqsa, iqtisodiy, agrar, ijtimoiy munosabatlar orqali o'sha davr Italiyasining manzarasini ko'rish mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, Yevropada paydo bo'lgan yangi yo'nalishlar dastlab mahalliy ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, keyinchalik ular tan olingan yo'nalishlarga aylanishdi. Bunga yorqin misol sifatida yuqorida tilga olingan mikrotarixni yoki har kunlik tarix yo'nalishlarini olish mumkin. Z. Krauker tarixni o'rganishda

mikrotarixni o'rganish muhim ekanini qayd etib o'tgan, sababi mikrotarix ijtimoiy-madaniy munosabatlarni chuqurroq o'rganadi, tadqiqotlarda inson psixologiyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu yo'nalish ham ma'lum nuqtalarda muhim ahamiyatga ega.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Og'zaki tarix metodi haqida nimalarni bilasiz? U tarixiy voqelikni qayta tiklashda qanday ahamiyat kasb etadi?

❖ Mikrotarix kichik hodisalar orqali jamiyat rivojlanishidagi keskin burilishlarni ko'rsatib bera olishi mumkinligi haqidagi fikrga munosabatingiz qanday? Misollar keltiring.

❖ Yevropada paydo bo'lgan yangi yo'nalishlarning mahalliy darajadan umumtan olingan ko'rinish kasb etgunlariga qadar bo'lgan jarayon qanday kechdi? Orada o'z ahamiyatini yo'qotgan yo'nalishlar ham bo'lganmi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ Fransuz tarixchisi Fernan Brodel asarlarida mikrotarix tushunchasining qo'llanilishi va olimning unga munosabati.

✓ Og'zaki tarix metodi va uning rivojlanishi.

✓ O'zingiz istiqomat qilayotgan hududdagi so'nggi o'n yillikda amalga oshirilgan ishlar ko'lamini tasavvur etishga imkon beruvchi mikrotarixni o'rganing. So'ngra uni boshqa guruhdoshlaringizniki bilan solishtiring.

Seminar savollari:

1. Tarixiy antropologiyada yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishi qanday jarayonlar fonida kechdi? Yangi yo'nalishlar nimalarga xizmat qildi?

2. Mikrotarix tushunchasini tarixiy antropologiyada yuzaga kelgan yangi yo'nalishlardan biri sifatida qarash qanchalik o'rinni? Mazkur tushuncha mazmun-mohiyatida nimalar yotadi?

3. Og'zaki tarix bilan mikrotarix o'rtasida qanday farqli jihatlar mavjud? Ularni nimalar umumlashtirib turadi?

4. J. Levining «Nomoddiy meros: XVIII asrda Pyemontlik tabib karyerasi» asari asosida o'z xulosalaringizni chiqaring. Bu jarayonda asardagi qaysi jihat Sizni ayniqsa qiziqitirdi?


Reja:

1. Tarixiy antropologiyada Annallar maktabining vujudga kelishi.
2. Annallar maktabida L. Fevr va M. Bloklar faoliyati.
3. Annallar maktabi avlodlari.

XX asrga kelib tarixni bayon etishdagi yondashuvlar tanqid ostiga olinadigan bo'ldi. Jumladan, an'anaviy burjua tarixshunosligining ko'plab tushunchalari va uning ta'siri ostida shakllangan maktablar va tendensiyalar inqirozga uchray boshladi. Marksizmdan tashqarida javob topishga harakat qilgan ijtimoiy fan olimlari real voqeyeliklarni bayon etish uchun sivilizatsiyaning taqdiri haqida yanada chuqur fikrlarga ehtiyoj sezadilar. Fransiyada bu ehtiyojlarni yuzaga chiqaruvchi olimlar «Annallar maktabi» deb atalgan yo'nalishga asos solganlar. Annallar maktabi (yoki Nyu-Historical Science) 1929-yilda Fransuz ijtimoiy tarixchilarining ta'sirchan guruhi vakillaridan Lyusen Fevr va Mark Blok tomonidan asos solingan «Annals of Economic and Social History» jumali bilan bog'liqdir. Bu jurnal ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng tarixga oid barcha davriy nashrlarning eng nufuzisiga aylangan. Bu o'z navbatida tarixni bayon etishga yangi yo'nalishni shakllanishiga ta'sir etgan. Ushbu maktab butun Yevropa sivilizatsiyasining empirik tadqiqotiga, shuningdek, tarixiy tahlil muammolarini nazariy va uslubiy jihatdan rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Maktab vakillari, xususan, ijtimoiy tarix, ijtimoiy tuzilma va uzoq muddatli tarixiy tendensiyalarga katta e'tibor berib, siyosiy voqealar xronologiyasi sifatida tarixga nisbatan umum qabul qilingan yondashuvga qarshi chiqdilar. Ya'ni tarixiy tafakkur xronologik sanalar asosida yozilishini eng to'g'ri yondashuv deb bilmadilar. «Annallar» maktabining g'oyalari ijtimoiy ma'lumotlarning yangi sohasi - tarixiy antropologiya yaratilishiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatgan. «Annallar» maktabining asosiy vakillari - L.Fevr, M.Blok, F.Brodel, Le Goff - an'anaviy ravishda tarixni birgina universal metodik yondashuv asosida olib borib bo'lmashligini, tarixni tadqiq etishda hamma uchun majburiy bo'lgan yagona e'tiqod yo'qligini ta'kidlanganlar. Mark Blokning «Tarix apologiyasi yoki tarixchining kasbi» asarida tarix fani

metodologiyasi muammolari sirasiga ushbu maktab oldida turgan vazifalarni ham belgilab bergan. Shundan so'ng Annallar maktabi faoliyati «yangi tarixiy fan» (fr. La nouvelle Histoire) degan ma'noda mashhur bo'la boshlagan. Shu o'rinda ushbu yo'nalishga berilgan bu nom lotincha «*annus*» ya'ni «*yil*» degan ma'noni anglatadi. Qadimgi Rimda saroy tarixchilari faoliyatiga nisbatan shunday ibora qo'llangan. Jumladan, Rim tarixchisi Publiya Korneliya Tatsitning milodiy 14 yildan 68 yilgacha yozgan Rim imperiyasiga bag'ishlangan yilnomasini misol qilib keltirish mumkin. Annallar maktabi vakillari «Annallar» jurnalida o'z maqolalarini chop etib, butun XX asr tarixshunosligiga katta ta'sir o'tkazdi. «Annallar jurnali» 1929-1939-yillarda shu nom ostida chiqqan edi. 1939-1941-yillardan esa «Ijtimoiy va iqtisodiy tarixning Annallari» nomini oldi. Bu jurnal asosida tarix fanining tarixiy muammosi yuzasidan yangi qarashlar va farazlar paydo bo'ldi. Olimlar endi o'zining tadqiqotlar markaziga buyuk insonlar hayotini emas, balki jamiyat rivoji va shakllanishini endi birinchi o'ranga qo'ya boshladi.


Annallar maktabining yirik vakillaridan biri M.Blok Fransiyaning eng mashhur tarixchilaridan hisoblanadi. U 1886-yilda Alsatianning o'rta darajadagi yahudiy oilasida tug'ildi, Blok otasining izidan borib Sorbonna universitetida iqtisodiy tarix professori bo'ldi. Annallar maktabining birinchi avlodi: 1939-yilda Mark Blok va Lyusen Fevr bilan birgalikda yaratilgan «Ijtimoiy va iqtisodiy tarixning Annallari» (fran. *Annales d'histoire economique et social*) jurnalida tarixchilar-olimlar o'z maqolalarida tarixni siyosat, diplomatiya va harbiylardan xoli tarzda yoritishni asosiy yo'nalish qilib olgandi. Annallar maktabining konsepsiyasi Mark Blok tomonidan aniq ta'rif bilan shunday deyilgan: Tarixning asosiy muammosi insonlarda kechayotgan munosabat va ularning olib borayotgan ishlarining tarixiy ta'sifi mukammal ta'riflanishi lozim. Asarlaridan biri «Tarix analogiyasi» da shunday degan edi: "Bizning olib borgan mehnatimizda bir sq'z yorqin namoyon bo'ladi, butushunish". Latviya universitetining professori Xaris Tumans shunday degan edi. «Annallar jurnali» tarixshunoslik fanida yangi go'ya sifatida



insonlarni moziyga nazar solishga majbur etgan. Annallar maktabi tarix fani va metodologiyasini rivojlantirishda katta ilmiy natijalarga erishdi. Eng avvalo XX asr boshlarida tushkunlik, sarosimalik holatida bo'lgan tarix faniga yangi hayot, kuch-quvvat baxsh etdi. Tarix fani maqsad va vazifalari rivojlanish yo'li, tadqiqotlar yo'nalishlarini aniqlashtirishda «Annallar» maktabi doirasida faoliyat ko'rsatgan tarixchi, metodolog olimlarning xizmati katta bo'ldi. Jahon tarix fani annallar maktabining faoliyatini tarix fani va metodologiyasini rivojlantirishdagi xizmatini e'tirof etdi. Bu maktab ilgari surgan ilmiy konsepsiya, g'oyalardan foydalandi va hozir ham foydalanadi. Annallar maktabining faoliyati hozirgacha qator milliy tarix maktablari tomonidan tadqiq va tahlil qilinadi.

M.Blok o'z asarida tarixiy tadqiqotda tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishni asosiy sharti bu o'rganilayotgan manbani tanqidiy o'rganish vazifasini qo'ydi. Olim manbalarni tanqidiy o'rganish metodi tarixiga o'z asarida alohida bobni ajratdi va unga «tanqid» deb nom berdi. M.Blok manbani tarixiy tanqidini ilmiy-nazariy tahlil qildi, tanqidiy metodni boshlanishi XVII asrga borib taqalishini ko'rsatdi. M.Blok 1681-yilni «De Re» diplomatiyani nashr etilishini insoniyat aqlining buyuk sanasi arxiv hujjatlarini tanqidi paydo bo'lganini ta'kidlaydi. Bu sana M.Blokning fikricha tanqidiy metod tarixida hal qiluvchi lahza edi. Uyg'onish davrida manbalarni tanqidiy o'rganishga urinish mavjud bo'lsada, lekin hech qanday jiddiy o'zgarish yuz bermadi. Tarixchi voqealarni faqat manbalarga mos tasvirlashini eslatdi. Bu davrda manbalarni tanqidiy o'rganish metodi mavjud emas edi. Ilmiy tadqiqot tamoyillari faqat XVII asr davomida shakllandi, ayniqsa bu asrning ikkinchi yarmi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi, deb ta'kidlaydi. M.Blok tarixiy tadqiqotlarda manbalardan tanqidiy foydalanish sifat ko'rsatgichlarini tahlil qildi va manbalarni tanqidiy o'rganish metodlarini ishlab chiqish jarayonini yo'lga qo'ydi. Natijada M.Blok keyingi tarixiy tadqiqotlarda manbalarni tanqidiy o'rganishga alohida e'tibor bera boshladi, chunki M.Blok tarixiy tanqidni mohiyat mazmunini ilmiy asoslab berdi. Endilikda tarixiy tadqiqotlarda manbalar tanqidiga alohida e'tibor berilgani uchun, o'tmish tarixiy taraqqiyotining turli sohalariga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlarda ilmiylik, xolisliyk hamda tarixiylk tamoyillariga amal qilish odat tusiga kirdi. Bu o'z navbatida ilmiy asoslangan tarixning shakllanishida tarixiy mushohada, tafakkur ustuvor

ahamiyatga ega bo'ldi. «Tanqid» so'zining o'zi endi yangi mazmun kasb etdi. Boshda bu yangi mazmunni hamma ham qabul qilmadi. XVII asrning olimlari Mobilon, Rishar, Simon, Spinoza o'z tadqiqotlarida tanqidiy metoddan unumli foydalandilar. Manbalardagi dalillarni haqqoniyligini tekshirish tadqiqotchidan yuqori saviyadagi bilim va ma'lum bir ko'nikma va malakani talab qiladi. M.Blok hozirgi kunda tarix fanida foydalaniladigan va tarixchilar, jamiyatshunoslar leksikonida mustahkam o'rinish qolgan tarixiy so'zlarning kelib chiqishi va mazmunini ilmiy tadqiq qildi. Olimning ushbu tadqiqotlari tarix tadqiqotlarini ilmiyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Tarix fanida M.Blok faoliyatiga qadar atamalarga yetarli darajada e'tibor berilmadi. Faqat XVIII asrdagi fransuz ma'rifatparvarlari nashr etgan tarixda birinchi ensiklopediyada atamalarga alohida e'tibor qaratilgan edi. Ushbu ensiklopediyada besh mingga yaqin maqola tarixga bag'ishlangan edi. Maqolalarning har birida atamalarga alohida urg'u berilib, uni mazmun-mohiyatiga ma'lum darajada o'rin berilgan edi.



Mark Blok o'z asarlarida «Tarixiy tadqiqotlarda atamalarga nima uchun jiddiy e'tibor berilishi kerak?» degan savolga tarixiy tadqiqotda qo'llaniladigan atamalarining ko'pchiligi tadqiqotda foydalanilgan tarixiy manba dalillaridan olinadi. Qaysiki tarixiy manba o'z davrida bitilgan bo'lib, shu davrda ishlatilgan ibora va atamalardan iborat. Tarixiy manbada ishlatilgan atamalar tadqiqotchisi yashagan davrda ko'p holda iste'moldan chiqqan bo'ladi, yoki boshqa mazmun kasb etadi. Misol uchun, XI asrgacha o'lkamiz tarixida «dehqon» atamasi katta yer-mulk egasi ma'nosini bildirgan.

XI asrdan aniqrog'i Qoraxoniylar davrida dehqon so'zi yerga ishlov beruvchi kasb egasi ma'nosini bildirgan. Hozirgacha bu so'z shu ma'noda ishlatilib kelinadi. M.Blok metodolog olim sifatida ilk bor tarixiy tadqiqotda anuman tarix fanida atamalarni o'rniga e'tibor bergan birinchi olim bo'ldi. Olim o'z asarida tarixiy atamalarga alohida o'rin ajratdi. «Tarix o'z shaxsiy lug'atini katta qismini o'z mashg'ulotlarining predmetidan oladi. Tarixiy atamalarni o'zlashtirishda bir xillik yo'q.

Hujjatlar tarixchiga o'z atamalarini tiqishtiradi. Agar tarixchi ularga quloq tutsa, u hamma vaqt boshqa davr irodasi ostida yozadi, lekin tarixchi tabiiyki o'z davri qoidalari asosida fikrlaydi, demak, o'sha vaqt so'zlari bilan mushohada qiladi. M.Blokning fikricha tarixiy atamalar o'z davrida o'sha jamiyatga mos holda ifodalanadi. Lekin, yillar o'tishi natijasida atama o'z mazmunida ifodalangani yoki ming yil davomida yana boshqa tovushlarida ifodalanadimi, bu so'zni grammatik va morfologik tahlil qilish maqsadga muvofiq deb bilgan. Bundan tashqari, mamlakatni turli hududlarida tildagi shevalar ham ma'lum bir atamalarni talaffuzini har xilligi bilan belgilanadi. M.Blok turli tillarda bir xil mazmunga ega, lekin turlicha so'z bilan ifodalanadigan so'zlardan foydalanish muammosiga ham e'tiborni qaratdi. Ba'zi atamalar ataylab o'ylab chiqazilmaganligiga e'tibor qaratadi. «Feodal», «feodalizm» atamalarini XVIII asrda Fransiyadagi Monteske ham ishlatadi. Keyinchalik bu atama ijtimoiy strukturani xilini belgilash uchun qo'llanila boshlandi. Sudxo'r va hisobchi keng qo'llagan «kapital» so'zini ahamiyatini iqtisodchilar kengaytirdilar.

XX asrda keng ishlatilgan kapitalizim so'zi (lotincha – kaputalesmus so'zidan olingan) ijtimoiy-siyosiy adabiyotda yaxshi o'rinish qoldi. «Proletary» so'zi qadimgi Rimda ilk bor ishlatilgan bo'lib, yo'qsil, hech vaqosi yo'q odamga nisbatan aytilgan. Bu so'z 1789-yilda fransuz inqilobi paytida ko'p uchraydi, keyin Russo, Babyof ko'p qo'lladi, keyin esa Marks bu so'zni to'la egallab oldi. Hatto amerika hindulari «totem», Okeaniya «tabu» so'zlarini berdi. Bizning milliy tarixiy adabiyotimizda ham munosib so'z, atamalar ham har bir tarixiy davrda kirib kelgan, ularning ba'zilari hozirgacha ishlatilib kelinadi. Bu so'z va atamalarni ilmiy tahlil qilish fan uchun muhim ahamiyat kasb etadi. M.Blok tarix fani tadqiqotlarini, sohalarini kengaytirdi. U tarix fani tadqiqotlari nafaqat o'tmishdagi siyosiy voqealar, taniqli shaxslar, taniqli Lashkarboshilar, davlat arboblari, davlat hokimiyati tuzum va tuzulmalar to'g'risida bo'lishi tarix fanining tadqiqot doirasini cheklab qo'yishini ta'kidlaydi. U tarix fanining



eng asosiy tadqiqot sohalaridan biri o'tmishdagi oddiy odamlarning turmush-tarzi, psixologiyasi, hayot tashvishlari va quvonchlarini tadqiq qilishi shart deb hisobladi. Bu hozirgi kunda ijtimoiy tarix sohasi bo'ladi. Amerikaning Vermont universiteti xodimi Gal Hodman M.Blokning ijtimoiy tarix sohasidagi faoliyatini shunday tavsiflaydi: »Uning fan sohasidagi kashfiyotlari tarixga ijtimoiy tarix, jamiyatning birligi harakati tarixini o'z ichiga oluvchi urushdan oldingi tarixiy-tasviriy uslublarning yoyilishiga yordam berdi» («His pioneering inter-disciplinary approach to history helped lay the ground work for many post-war historiographical trends, including the history of collective mentalities, la longue dure, and social history»).

Hozirgi globallashuv sharoitida integratsiya jarayonlari kuchaygan vaqtda tarixda «jahon tarixi» fani yutuqlarini o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangilanishlar davri va butun hayot bizdan tarixni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu tarix metodologiyasini yangi ilmiy yutuqlar asosida qurishni taqozo etadi, chunki hozirgi zamon tarix fani va uning metodologik muammolarini, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni manbalarga tayangan holda xolisona yoritish tarixiy taraqqiyot jarayoniga sivilizatsiya nuqtayi nazaridan yondashish zaruriyati tug'ildi.

M.Blok ba'zi hollarda L.Fevrga o'xshab madaniyat tarixi va ijtimoiy psixologiyaga murojaat qiladi. Alohida individumlarning tafakkurini tahlil qilishda emas bevosita ommaviy ko'rishda o'rganadi. Demak, Blok eng avvalo madaniyat tarixi va o'sha o'tmishdagi odam psixologiyasini o'rganish metodologiyasini bevosita ommaviy ko'rinishlar asosida amalga oshirishga chaqirdi. Shuningdek, olim biror-bir sen'or yoki hukmdorning shaxsiga tavsif bermaydi. Blok foydalangan metodlarning tadqiqotchilari uning metodida sotsiologik mavhumlashtirish ko'rinishida bo'lmay, aynan insoniyat jamiyatining aloqalar tizimi odamlar o'rtasidagi munosabatlar ko'rinishida chiqadi. Tadqiqotchilar Blok metodologiyasida shaxslarni emas, butun bir jamiyatni tahlilini ko'radi. Uning asarlarida bir sen'or yoki hukmdorni shaxsiy tavsifi berilmaydi. Blok texnika tarixi, o'zaro yer munosabatlari, G'arbiy Yevropaning feodallashuvi, madaniy ruhiy tiklanishi bilan shug'ullangan bo'lsa ham, u ijtimoiy tuzumning tadqiqotchisi bo'lib kelgan.

M.Blok va L.Fevrning madaniyat tarixiga, ijtimoiy psixologiyaga murojaat etishlari, muammoni o'rganishda olim alohida individlarning

fikrlari tahlilidan emas, balki bevosita ommaviy hodisalarning tahliliga asoslanadi. Blokning «Feodal jamiyat» nomli ikki jildlik asariga nisbatan Fevr hayrat bilan feodal davrda «hukmronlikning mavhum g'oyasi aniq bir hukmdor tavsifidan kam ajratilganligi» va biror bir mansabdor shaxs yoki hukmdorning shaxsiy tavsifnomasi berilmaganligi to'g'risida so'z yuritadi. M.Blok tarixiy taraqqiyot o'rganishda ayrim tarixiy shaxslar emas, hukmdorlar emas, balki o'sha tarixiy taraqqiyot davridagi ommaviy hodisalarni tahlil qiladi. Ommaviy hodisalarni o'rganish asosida o'sha davrning mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Insoniyatning o'tmish tarixiy taraqqiyoti alohida tarixiy shaxslar emas, taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan xalq ekanligi g'oyasini ilgari suradi. Blok nima bilan shug'ullanmasin texnika tarixi, yer munosabatlari, G'arbiy Yevropadagi feodalizm o'rta asrlardagi odamlarning madaniy, psixologik bo'g'ini bilan u ijtimoiy strukturalizm tadqiqotchisi bo'lib qolavergan, shuning uchun uni iqtisodiy qiziqishlarini asl diapazonini jiddiy toraytirish hisoblanadi. Blok fransuz tarix metodologiyasi zaxirasi, ruhiyat asosida o'z tadqiqotini amalga oshirdi. Shu bilan birga Blok metodologiyasi nemis tarixchilarining ko'rsatmalaridan yiroq edi: tarixchilar e'tiborini nafaqat jamiyat, balki mamlakat ham egallagan. Tarixchi M.Blokning hamkori L.Fevr asosiy kategoriya sifatida sivilizatsiyani hisoblasa, undan farqli ravishda Blok uchun asosiy kategoriya sifatida jamiyat bo'lib qoldi. Blokning nazarida ma'lum bir takroriylikka ega bo'lgan tipik ommaviy hodisalar egallagan, shuning uchun Blok metodologiyasining muhim parametri bo'lib, o'rganiladigan jamiyat va institutlarga qiyosiy tipologik yondashuv hisoblangan. Keng dunyoqarashga ega bo'lgan tarixchi uchun taqqoslashdan foydalanish tabiiy holdir. U g'arbdagi feodalizm bilan eski Yaponiya tuzilishigacha bo'lgan qiyoslashlardan foydalangan. Chunki Blok uchun feodalizm Yevropa rivojlanishining noyob hodisasi emas, balki «ijtimoiy tipdir». Bu yerda olim insoniyat tarixiy taraqqiyotining notekisligi va har bir mamlakat, hudud uchun alohida bo'lishini e'tirof etdi. Shu bilan birga turli jamiyatlarning o'xshash rivojlanish bosqichlarida ularga xos bo'lgan qonuniyatlarni aniqlagan. Ammo qiyosiy-tipologik metoddan foydalanish unga tuzilgan qatorlar orasidan yakka xususiy holatlarini aniqlashga imkon bergan. Tarixchi uni qiziqtirgan ijtimoiy hodisalarning genezisini o'rganishi tabiiydir. Biroq Blokn ko'pgina olimlar afzal ko'rgan usullari - aniq bir institutning mavjudligini aniqlab olishdan oldin ularning


asoslarini o'zlashtirmay turib sabablarini manbalar bilan almashtirib o'rganadigan bunday genetik tushuntirish qoniqtirmaydi. Blok murakkab tarixiy hodisalarni tushuntirishda faqatgina ularning tub ildizlarini qidirishdan iborat bo'lgan urinish xatarli ekanini bildiradi. U ko'pgina tarixiy tadqiqotlar mualliflarida uchraydigan «vasvasa» «manba but-sanam», «kelib chiqish savdoyiligi» deya atadi. Tarixiy tadqiqotlarda faqat manbani o'rganish va faqat shu manba asosida butun bir yaxlit manzarani tasvirlashga qarshi chiqdi. Ba'zi olimlar o'tmishni o'rganish emas, tarixiy manbani o'rganish bu tarixchining kasbi deb tushundilar. M.Blok bunday tushunchaga qarshi chiqdi. «Eman urug'idan eman daraxti paydo bo'ladi. Ammo u faqatgina qulay muhit sharoitidagina eman bo'lib yetishadi va daraxt bo'lib qoladi, muhit esa embriologiyaga bog'liq emas. Arablar, vengerlar, normanlar bosqinidan yaratilgan «muhit» ta'rifida «inson insonga tobeligi» yetakchilikni egallagan.

M. Blok «Feodal jamiyat» asarini ham feodal munosabatlarini yoki ularning paydo bo'lishi sharoitlarini aniqlash genezisining «embriologik» tadqiqotlaridan boshlamaydi. Biroq Blokning manbalarni emas, balki ma'lum bir feodal institut egallagan klassik shaklini tadqiqot qilishga kirishish va uning kelib chiqish tarixi bilan umuman qiziqmaydi degan fikrga kelish noo'rindir. M.Blok shu qatlamning mohiyatiga doir bilimlar bilan to'laqonli qurollangandagina genesis¹⁰ muammosiga murojaat etgan. Jamiyat paydo bo'lishini yaxlit holda uning rivojlanish bosqichining yetuk davrida bir butun tasavvur eta turib, uni keng genetik aloqada ko'rishga harakat qilgan». Blok tomonidan maxsus o'rganilgan IX-XIII asrlardagi feodal jamiyat bir tomondan kechki antik davrni, ikkinchi tomondan esa yangi davrni (XVIII asr revolyutsiyasigacha) o'z ichiga olgan tarixiy istiqbolga kiritilgan. Ratsional tanlov bilan qurollangan iqtisodiy-ijtimoiy tadqiqot o'chog'i Annall tarixchilari keyinchalik Blok tomonidan davom ettirilgan yarim statik qishloq joylarining bayoniga qarshilik bildiradi. Ular axloqiy asoslarga ega bo'lgan institutlar funksiyalarini amalga oshirish kishilar muhtojligiga bo'ysunishning umumiy ezigulikka xizmat qilishi savolini beradi. Jumladan, Allan Marksfadlani o'rta asrlarning oxiridagi ingliz qishloq hayoti haqida yozadi. Ular ruhiy va jismoniy harakatlarining bo'shliqlarini ahamiyatiga urg'u berish an'anasi haqida qayg'urishadi. Blok ijtimoiy qatlamning

¹⁰ Lotincha »Genesis» – vujudga kelish, tug'ilish. Bu o'rinda yo'nalishning vujudga kelishi nazarda tutilmoqda.

mohiyati talqinini va uning hosil bo'lish tarixini taklif etsa hamki, o'z vazifasini bajargan deb hisoblamaydi. Har safar o'rta asrlarning u yoki bu ijtimoiy institutini o'zi tugallangan tahririyatida tasvirlaganda, shu institutning turli mamlakatlar yoki bir davlat hududidagi turli viloyatlarida ko'p qirrali ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan. Bunga sabab, o'zi tomonidan berilgan dastlabki ta'rif barchada bir xillik yoki keng tarqalgan fikrlarning yuzaga kelishini oldini olish mumkinligi sababi mavjud edi. M.Blok tarixiy bilimni rivojlantirish bilan shug'ullanib, tarixni o'rganishda qiyosiy metodga alohida e'tiborni qaratdi. Olim tarixiy tadqiqotlarda qiyosiy metoddan foydalanish tadqiqotda aniqlikka xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shu sababli, u tarixiy tadqiqotlarda bu metoddan kengroq foydalanishni ko'rsatdi va o'z tadqiqotlarida ushbu metoddan unumli foydalandi. Biroq ijtimoiy tizim qiyosiy tahlili bitta olim hal qilishi qiyin bo'lgan muammodir. Shuning uchun ham Mark Blok «Feodalizm va feodal, yakkalik yoki ko'pchilik muammosini ko'tarib uni hal etishdan bosh tortadi. U faqatgina o'z tadqiqotining natijasini va imkoniyatini ko'rsatgan holda, Yevropa feodalizmi va o'rta asrlarda Yaponiyadagi ijtimoiy tuzilish orasidagi tipik yaqinlikni faraz qilish uchun asos bo'lgan Yevropa va Yaponiya orasidagi bog'liqlikni ko'rsatib o'tish bilan chegaralanadi. Olim o'rta asr feodal jamiyatini tadqiq qilishga ko'p kuch sarfladi. Blok mulohazalarining boshi hisoblanmish feodalizm ko'rinishi hayotiy haqiqatning mavhumlash-tirilgan belgilar to'plami emas edi. Bu ko'rinish real makon va tarixiy zamonga to'g'rilangan hamda ko'pgina manba va dalillarga tayangan edi. Tahlillarning keyingi bosqichlarida ushbu tavsif aniqlashtirilib, serqirra va ko'p o'lchovli xossaga ega bo'lib boradi. Blok feodalizmning qandaydir umumiy xossalarini sanab o'tishdan iborat bo'lgan yo'ldan bormaydi. U tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqlikda bo'lgan yaxlit bir organni sistemali ko'rinishini ochib berishni ma'qul ko'radi. Uning fikricha, feodalizm bu G'arbiy Yevropa hududida bir necha asrdavomida yetakchilik qilgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy institutlarning o'zaro aloqasi va bog'liqligi yig'indisidir.

Blok tarixchilarni sud tergovchilariga qiyoslaydi. «Ayblanuvchi tomonidan aytilgan fikr, yoxud uning iqroriga ham qoniqmay, tergov ishining barcha tavsilotlarigacha aniqlashga uringan tergovchidek, tarixchi-tadqiqotchi ham «yuzada yaqqol ko'rinish turgan» manba dalillarigagina tayanib qolmaydi. U takror-takror yangi savollarni berib



boradi, garchi savollar to'plami to'g'ri tuzilgan bo'lsa, u eng muhimlarini ajratib oluvchi «hujjatlar uchun magnit»ga aylanishini ta'kid gorliklarga o'ta faollik bilan murojaat etmoq zarur. Ish boshida doimo laydi. M.Blok tadqiqotlarida tarixiy haqiqatni ochishda eng asosiy unsur bu manba deb e'tirof etdi. Tarixiy haqiqatga yetishmoq uchun yod – tirishqoqlik ruhiyati, ammo bu tirishqoqlik ruhiyati talabchan olimga tegishlidir. Blok asarlari g'oya va gipotezalarga boy. Biroq u o'zi shakllantirgan «har qanday tarixchi tekshirishi iloji yo'q bo'lgan hech qanday fikrlarni ilgari

surmasligi haqidagi to'g'rilik qonuni» ga rioya qilib kelgan. «To'g'rilik qonuniga bir misol» O'rta asrlarning ijtimoiy tarixiga oid muammoli savolga to'xtalib, unga javob bera olishga botinolmagan. Blok shunday deydi: «Kitobxondan uzr so'rayman, ammo shunday holatlar uchraydiki, tadqiqotchining galdagi vazifasi «Men topa olmadim» degan iqrojni aytishi lozim bo'ladi. Kamina aynan mazkur holatga tushib, bilmasligini tan olishi lozim, lekin ayni paytda bu holat ushbu tadqiqotimni davom ettirishim uchun asos bo'lib qoladi». Blok manbalarining doirasini kengaytirishga da'vat qilish va ularni o'rganish metodikasini qayta ko'rib chiqish bilan chegaralanmaydi. Blok olim va shaxs sifatida o'ziga xos xislati shundan iboratki, uning novatorlik tabiatiga mos keluvchi so'z va ish birligidir. U o'z asarlari va maqolalarida tarixiy yodgorliklarini tanlash, talqin qilish va qayta ishlashning o'ziga xos usullarini qo'llash bo'yicha qimmatli ilmiy ma'lumotlarni yoritib o'tadi. Tarixiy tadqiqotlarning chegaralarini shiddatli chetga surgan Blok yangi kelajak istiqlolini aniq tushunuvchi odam va hodisalarning qatlami ostida ijtimoiy hayot yuzasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlashtiruvchi jamiyat strukturasi qatridagi yashirin qatlamlari mavjudligini aniqlaydi. Asosiy e'tiborini siyosiy hodisalar tavsifidan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o'rganishga qaratar ekan, u tarix manbalarining kategoriyasiga murojaat qildi. Blok ishlaridan biri bo'lgan «metod darsi» edi. Uning mehnat faoliyati manbalarining ostida yashiringan ijtimoiy haqiqatga aniq va chuqur erishishga yetaklovchi atamalar tahlilining

ishonchli tajribalaridan iborat. Blokning safdoshlari ham bunday vorisiylikni tasdiqlash bilan chegaralanishgan. Blok uchun esa muammo shu yerdan boshlangan. Zero, ijtimoiy muhitning o'zgarishi bilan aloqaning insoniy tuzilishi ham tegishlicha o'zgaradi. Annallar maktabining o'tgan faoliyati davrida o'ziga xos avlodlar shakllandi.

Fransuz olimi Jak Le Goff (1924—2014) o'zining. «Annallar maktabining avlodlari» nomli asarida bu haqda keng to'xtalib o'tgan. U Annallar maktabini to'rtta avlodga bo'ladi.

Birinchi avlod vakillariga maktab asoschilari L.Fevr va M.Bloklar faoliyati bilan belgilaydi. Ular faoliyatida ham ikki xil yondashuv borligini ta'kidlaydi. Jumladan, Lyuse Fevr izlanishlarida asosiy fenomen sifatida madaniyat, o'zlikni anglash masalalari, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda diniy faoliyat asosiy tarixiy omil sifatida bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan. Mark Blok yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarixda asosiy



Jak Le Goff (1924—2014)

harakatlantiruvchi kuch inson omilini qo'yib, o'rta asrlar hukumdorlari tomonidan davlat boshqaruvida sehr-joduning birinchi o'ringa qo'yilganligi, XI-XVIII asr oxirigacha feodal jamiyatlarning rivojlanishi masalalariga, ayniqsa, feodal jamiyatlardagi ijtimoiy tuzilmalarga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlaydi

Annallar maktabining ikkinchi avlodining yetakchilariga Jorj Dyubi, Fernan Brodel va Jak Le Goff kabi tadqiqotchilarni sanash mumkin. Fransuz tarixchilarining ushbu avlodi asarlarida dastlab maktabning falsafiy konsepsiyasida bayon etilgan yondoshuvlarini yanada mustahkamlaganlar.

F.Brodel va J.Dubilar Mark Blokning «Feodallar jamiyati» asaridagi ijtimoiy tuzilmalarni o'rganish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqish bilan an'anaviy pozitivist tushunchalarni buzishga harakat qildilar. F. Brodelning «Filipp II davrida O'rta Yer dengizi» va «Moddiy sivilizatsiya, iqtisodiyot va kapitalizm» asarlarida uch xil tarixiy vaqt tushunchasini ishlab chiqqan. 1) tabiiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan uzoq iqtisodiy jarayonlar vaqti, 2) ijtimoiy o'zgarishlar va siyosiy voqealar vaqti, 3) uzunligi va, aksincha, juda qisqa sikllarga asoslangan

vaqt. Aslida, F. Brodel tarixiy voqealarni fonga surib, tarixdagi tabiiy va ijtimoiy omillar ustuvorligi g'oyasini isbotlashga harakat qildi.

J. Dubi feodal jamiyatning shakllanishidagi ijtimoiy jarayonlarni o'rganib, Mark Blokning feodalizmning davriylashib borishi haqidagi tasavvurini XI-XVIII asrlarda mavjud bo'lgan hodisa sifatida tasdiqlashga urinib ko'rdi. Shuningdek, ikkinchi avlod vakillari mentalitetni o'rganishga ham alohida e'tibor qaratib, birinchi bo'lib jamiyatning ijtimoiy va kuch tuzilmalarini o'rganishga e'tibor qaratishgan.

Jak Le Xof Annallar maktabining yana bir yo'nalishini o'zida mujassam etgan, asosan madaniy omillar va mentalitetni o'rgangan. Ushbu yo'nalish tadqiqot mavzusi bo'yicha XI asr feodal inqilobiga e'tibor qaratgan Dubidan farqli o'laroq ikkita muhim burilishni yasadi. Jak Le Goff birinchi navbatda jamiyatning o'zgarmas tuzilmalari bilan qiziqishi bo'lsa ikkinchidan o'rta asrlarda ro'y bergan «*dinamik*» qisqa muddatli jarayonlarga murojaat qilganligidir. Ammo uni siyosiy voqealar qiziqitirmadi. U o'zining «Mo'jizaviy ishchilar» asarida M. Blokning fikrlariga murojaat qildi va ularni avvalgilari qaranganda ko'proq darajada ijodiy rivojlantirdi. O'z tadqiqotlarini kengaytirish bilan Le Goff maktab asoschisi M. Blok bilan to'qnashdi, bu bilan o'rta va o'rta asrlarda jamiyat tuzilmalarining dinamik rivojlanishini tadqiq etdi. Xususan, Le Goff o'z asarlarida O'rta asrlarda ijtimoiy tizimlarning shakllanganligini va keyinchalik ular yangi va yangi davrlarda barcha Yevropa sivilizatsiyasining rivojlanishi uchun zarur bo'lganligini ko'rsatib o'tadi. Jak Le Goff o'zining «O'rta asrlardagi ziyolilar» asarida bu davr madaniyatning faol rivojlanishi davri ekanligini ko'rsatdi, natijada Yevropada ziyolilarning yangi mulki bo'lgan yangi ijtimoiy qatlam paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ziyoliylar ijtimoiy qatlamini paydo bo'lishini obyektiv iqtisodiy shart-sharoitlar bilan emas, balki haqiqatni qidirishda, intellektual mehnatga chinakam qiziqishni ko'rsatgan holda, yangi ijtimoiy guruhni noldan yaratgan va mavjud tuzilmalarga kiritishga muvaffaq bo'lgan ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq bo'lganligini ta'kidlaydi. Le Goff «Patratorning paydo bo'lishi» asarida O'rta asrlar mentaliteti turg'un emasligini va ilgari noma'lum bo'lgan yangi madaniy tendensiyalarni shaharlarning rivojlanishi, yangi shaharlarning paydo bo'lishi va uch asrlik o'rta asrlar jamiyatining tipik shakllanishiga javoban paydo bo'lganligini ko'rsatdi.

Le Goff o'rta asrlarda paydo bo'lgan yangi mentalitet va tuzilma nafaqat o'rta asrlar jamiyatining, balki yangi asr jamiyatining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladi. U O'rta asrlarning «Kechikish sivilizatsiyasi» yo'qolib ketganidan keyin paydo bo'lgan va «Yangi asr sivilizatsiyasi»dan sezilarli darajada farq qiladigan o'ziga xos, dinamik sivilizatsiya sifatida ta'kidladi. Biroq, Le Goff o'z asarlarida har doim o'rta asrlarning zamonaviylik uchun ahamiyatini ko'rsatib, ular Yangi asrga qo'shgan intellektual, madaniy va siyosiy hissalari haqida gapirib bergan.

Uchinchi avlod. Annallar maktabining uchinchi avlodi, uning asosiy vakili Emmanuel Le Roi Laduri o'zlarining o'tmishdoshlarining g'oyalarga qarshi chiqdi. Le Roy Ladurie o'zining «Iqlim tarixi» asarida Fernand Brodelning Yevropa tarixidagi tabiiy omillarning o'zgar-masligiga oid tezislarini shubha ostiga qo'ydi. Ularning dinamik o'zgarishini ta'kidladi va «mayda muzliklar»ning ba'zi davrlarini (XI va XVI-XVII asrlar) iqtisodiy va muhim o'zgarishlar bilan bog'laydi. O'rta asrlar va hozirgi zamonaviy davr jamiyatining ijtimoiy tuzilmalarini «Montaiu, Oksitaniya qishlog'i» asarida insonlar ruhiyatlariga ko'proq e'tibor qaratdi. Bu bilan birinchi navbatda ijtimoiy tuzilmalarni emas, balki insonlar ruhiyatini o'rganishni zarur deb bilgan. Ijtimoiy tuzilmalarni ham qo'ydi. Le Roy Laduri tog'lardagi chekka bir qishloq uchun _ata_g jamiyatining tipik tuzilishi odamlar kundalik o'zaro munosabatlari jarayonida yaratgan jamiyat haqidagi g'oyalarga qaraganda kamroq ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatishga urindi.

To'rtinchi avlod. Annallar maktabining _ata_g, to'rtinchi avlodi uchun yuqoridagi g'oyalar qanchalik muhim edi? Ushbu avlod vakillari Annallar maktabida «Lingvistik burilish» deb nomlangan g'oyalarni ilgari surdilar. Bu, birinchi navbatda, ijtimoiy tuzilmalarga va hatto fikrlash tuzilmalariga qiziqishni yo'qotishni anglatgan. Falsafa, antropologiya va tarixda shunday nomlangan «Post-strukturalizm», uning doirasida tadqiqotchilar ijtimoiy tuzilmalar yoki ong tuzilmalariga emas, balki til orqali jamiyat va dunyo haqida tushuncha va g'oyalarni shakllantirish jarayonida qiziqish bildirdilar. Tarixchilar insonni shunday o'rgana boshladilarki, uning tili, haqiqatni buzish usullari va g'oyalar va g'oyalarni shakllantirish usullarida muhim rol o'ynaganligini ilgari surdilar. Ushbu yo'nalish vakillaridan biri Bernard Lepti bo'lib, u «miqdoriy tarixni odamlar ijtimoiy toifalarda mavjud emasligi, ular

teshiklardagi to'p kabi bo'lmasligi va bu « teshiklar» odamlarning o'zlariga berganlaridan ko'proq ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikrga qarama-qarshi bo'lishi kerak» deb yozgan. Ushbu avlod faoliyatida, manbalarni o'rganishda yangi yondashuvlar paydo bo'ldi va ko'proq manbaning nafaqat tashqi va ichki tanqidiga, balki hikoyaning ikkinchi va uchinchi rejalariga ham ko'proq e'tibor berildi.

Xususan, ushbu avlodning yetakchi tadqiqotchilaridan biri Richard Sharte matnlarni yaratish va o'qish jarayoniga _ata e'tibor bergan. O'z asarlarida u tarixiy manbani yaratish amaliyotining noaniqligiga, uning ijtimoiy nuqtayi nazardan mavjudligiga, uni o'qishga va yanada ko'proq tushunishga e'tibor qaratdi. Xususan, Richard Sharte turli xil yozma manbalarni o'rganib, matnlar monastirlarda, shahar uylarida, qirollar va knyazlarning sudlarida turli xil yaratilgan va o'qilganligini va o'qish funksiyasi doimiy ravishda o'zgarib turishini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, uning asaridagi eng muhim g'oya matnni va uning qismlarini tushunish vaziyatga bog'liq bo'lganligi va bir xil manba o'qish va yaratilish kontekstiga qarab har xil ma'noga ega bo'lishi mumkin deb taxmin qilishni ta'kidladi.

Annallar maktabida Le Goff siymosiga qaytadigan bo'lsak, uning maktabining tuzilishidagi o'rni juda muhim ekanligini ta'kidlash mumkin. U tarixiy yo'nalishning ikkinchi avlodi sifatida ko'pchilik e'tibor qaratayotgan ijtimoiy tuzilmalarni emas, balki Mark Blok va Lyuse Fevrlarning mentallik va madaniyatlar tarixini tadqiq etish estafetasini qabul qilib olgan. To'rtinchi avlod vakillaridan biri Le Roi Ladurining Annallar maktabining tarixshunosligi bobida olib borayotgan tadqiqotlari natijasida bugungi kunga kelib yo'nalish vakillarining asosiy e'tiborlari yana mentalitetni asosiy tadqiqot muammosiga aylantirishganligidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Tarixiy antropologiyada Annallar maktabining boshqa maktablardan farqi nima? deb o'ylaysiz?

❖ Tarixda shakllangan ijtimoiy tuzilmalarni o'rganish qanchalik muhim deb o'ylaysiz?

Ma'lum bir davr lingvistikasini o'rganish tarixiy tadqiqotda nima beradi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- ✓ Mark Blok faoliyati va uning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar
- ✓ Lyuse Fevrning asarlari tarixshunosligi
- ✓ Jak Le Goffning Tarixiy antropologiyaga qo'shgan hissasi.
- ✓ Annallar maktabining bugungi faoliyatidagi yirik namoyondalari

Reja:

1. Irq tushunchasi haqida.
2. Irqlarning o'ziga xosligi va klassifikatsiyasi.
3. Irqlarning yer yuzida tarqalishi.

Antropologiya fanining eng muhim muammolaridan biri odamzod irqining kelib chiqishini o'rganishdan iboratdir. «Irq» atamasining kelib chiqishi aniq belgilanmagan. Bu arabcha «ras» so'zining (bosh, ildiz) modifikatsiyasi bo'lishi mumkin. Ushbu atama italyan razzasi bilan bog'liq degan fikr mavjud, bu «qabila» degan ma'noni anglatadi. «Irq» so'zi taxminan hozirgi ma'noda ishlatilgan va fransuz olimi Fransua Bernierda 1684-yilda insoniyat irqalarining dastlabki tasniflaridan birini nashr etgan. Irqlar, asosan, ijtimoiy ma'noda mavjud bo'lib, ma'lum bir jamiyatda qo'llaniladigan ijtimoiy tasniflash shakllaridan birini anglatadi. Odamzod irqi, uning shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyati tarixining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Antropologiya va arxeologiya fani qo'lga kiritgan dalillar irqalarning shakllanishi hozirgi zamon jismoniy tipidagi odamlarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda sodir bo'lgan, deb aytishga imkon bermoqda.

Bilib oling!

Irqlar – Homo sapiens turi ichidagi sistematik guruhlar. Har bir irq o'ziga xos irsiy belgilar, masalan, ko'z, soch va teri rangi, yuz va bosh qutisi shakliga binoan boshqa irqlardan farq qiladi. Hozirgi odamlar 3 ta: ekvatorial (negroid, avstraloid), yevrosiyo (evropoid), osiyo-amerika (mongoloid) yoki 5 ta (negroid, avstraloid, yevropoid, mongoloid, amerikanoid) yirik irqlarga bo'linadi. Har bir irq ichida yana kichikroq, ya'ni kenja irqlar bo'ladi. Masalan, ekvatorial irq negr, negrill, bushmen, avstraliya va boshqa irqlarga; yevropoid irq esa atlantika-bolliq, Hind-O'rta dengizi, o'rta Yevropa va boshqalarga; mongoloid irq shimoliy osiyo, arktika, janubiy osiyo va boshqalarga ajraladi.


Irqlar paleolitning so'nggi davrlarida bundan 40–30 ming yil avval odam yer yuzini egallashi bilan shakllana boshladi. O'sha davrda ko'pchilik irqiy belgilar moslanish xususiyatiga ega bo'lganligidan muayyan muhit sharoitida tabiiy tanlanish tufayli mustahkamlanib borgan. Masalan, ekvatorial irqda terining qora rangi ultrabinafsha nurlar ta'siridan

himoyalovchi, burun katagining keng bo'lishi nam tropik iqlim sharoitida suv bug'lanishini kuchaytiruvchi, tananing uzun bo'lishi tana yuzasini tana hajmiga nisbatan kengaytirish orqali termoregulatsiyani amalga oshiruvchi vosita sifatida vujudga kelgan.

Barcha irqalar Homo sapiensga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega: ularning barchasi biologik va psixik jihatdan teng bo'lib, evolutsion rivojlanishning bir xil pog'onasida turadi. Barcha irqalar madaniyat va sivilizatsiya eng yuqori darajada rivojlanishida bir xil imkoniyatga ega. Hozirgi zamon fani mavjud irqalar bir xil qobiliyatga ega emasligi, ular evolutsiyaning turli bosqichlarida turganligi to'g'risidagi irqchilik g'oyalarini inkor etadi.

Odam irqalarini «millat», «til guruhi» tushunchalari bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Bitta millat tarkibida har xil irq va, aksincha, bitta irqning o'zi turli millatlar tarkibiga kirishi mumkin.

Diqqat qiling!



Neontropalar tarqalgan joylar shartli ravishda quyidagi geografik o'lkalarga bo'linadi:

Yevropa muzlik o'lkasi;

Sibir-mo'g'ul o'lkasi.

O'rta Yer dengizi o'lkasi;

Hind-Himolay o'lkasi;

Janubiy Afrika o'lkasi;

Malaya provinsiyasi o'lkasi. •

Yer yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan palenatropalar – ya'ni neandertallar shu xilma-xil tabiiy sharoit va ijtimoiy mehnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdilar. Natijada hozirgi jismoniy tipdagi «yangi odam» - neotrop darajasigacha yetib kelguncha katta tarixiy davrni bosib o'tdilar. Neontropalar o'zlarining jismoniy va aqliy

qobiliyatlari bilan eng qadimgi va qadimgi odamlardan sifat jihatidan tubdan farq qilar edilar. Shuning uchun ham uni «aql-idrokli» odam – homo sapiens, deb ataganlar. Ular o'zlarining tashqi qiyofasi jihatidan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshab ketadilar. Mutaxassislarining fikricha, Neontroplar bundan 40–35 ming yil muqaddam so'nggi tosh asrining boshlaridan paydo bo'lgan va dastlabki Eski dunyo bo'ylab keng tarqala boshlaganlar. Ularning skletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy qoldiqlari Afrika, Yevropa va Osiyoning ko'pgina joylaridan topilgan.

«Aql-idrokli» deb atalgan odamlar dastlabki O'rta Yer, Qora va Kaspiy dengizi va unga tutash bo'lgan joylarda paydo bo'lib, shu yerdan Markaziy, Sharqiy, Janubi-Sharqiy Osiyoga, Sharqiy, Janubiy Afrikaga, G'arbiy va Janubiy Yevropaga tarqalganlar.

Mazkur joylardan neontroplar qoldirgan juda ko'p manzilgohlar, manzilgohlardan esa ular qoldirgan moddiy-madaniy qoldiqlar va o'sha madaniyatni yaratgan kishilarning suyak qoldiqlari, butun-butun skletlari ko'plab topildi va topilmoqda.

Fransiyada Kro-Manon, Komb-Kapell, Orinyak Shanselyad; Italiyadagi «Dolalar g'ori», Grimaldi, Kavilon, Barma Grands, Bausso de Torro g'orlaridan; Angliyadagi Paviland g'oridan neontroplarning skletlari va ularning moddiy-madaniyatiga oid buyumlar ko'plab topilgan.

Paleontologik materiallar qadimiy Afrikada ham neontroplar yashaganidan darak beradi. Neontroplarning manzilgohlari, mehnat qurollari va skletlari Afrikaning Afalubu-rummel, Makta-al-Arbi, Nauru Assilyar, Elenteyt, Boskon, Siyaikoma, Elizabet, Skildergat, Fish-Xuk, Keniya va Tanchaninaning ko'p joylaridan topilgan odam suyagi ham neontroplarga mansubdir.



«Aql-idrokli odam»ning suyak va skletlari Murzak-Kyuba, Fotma Koba, Sibirdagi Malta, Buret, Afont g'ori yaqinidan, Don, Desna daryolari bo'yidan, Kostyonka qishlog'i yaqinidan topilgan. So'nggi vaqtlarda arxeologiya va antropologiya sohasida qo'lga kiritilgan materiallar neontroplarning eski dunyoning katta qismida keng tarqalganligini ko'rsatdi.

«Aql-idrokli odamlar» deb atalmish inson ajdodi o'zining tashqi qiyofasi,

fikrlash qobiliyati, yashash tarzi, moddiy madaniyati va mafkurasi jihatidan qadimgi odam – neandertallardan tubdan farq qilar edi.

Bu farq avvalo ularning bosh tuzilishida ko'zga tashlanadi. Bu tip odam miya qutisining hajmi $1400-1560\text{sm}^3$ ga teng bo'lib, peshonasi keng, bosh suyagining yuqori qismi ancha baland bo'lgan. Ularda miyaning eng progressiv uchastkalari, ya'ni boshning tepa qismi ikki chekka, ayniqsa, peshona kattalashgan.

Neantrop odamlarning basharasi neandertallarniki singari oldinga chiqib ketmagan. Unda qosh-qovoq usti qabartma suyagi yo'q bo'lib, pastki jag'ida bizniki kabi do'mboq iyagi bo'lgan. Neantroparning yuz tuzilishi neandertallarga nisbatan chiroyliroq bo'lgan.

Bu davr kishilarining qaddi-qomati hozirgi zamon odaminiki singari bo'lib, to'ppa-to'g'ri yurganlar. Ularning qo'l-oyoqlari, tana tuzilishi bir-birlariga mutanosib bo'lib, tez chopa olgan, mo'ljalni to'g'ri ura olgan.

Agar neantrop bilan hozirgi zamon odamining suyaklarining bir-biriga qiyos qilinsa, ularni jismoniy tuzilishi jihatdan bir-biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. Shunday qilib, qadimgi paleolitning so'nggi paleolitga o'tishda, so'nggi paleolitning boshlariga kelib, neandertallardan hozirgi zamon jismoniy tipidagi odam paydo bo'ldi va shu bilan antropogenez jarayoni asosan tugallandi, odam o'z biologik rivojlanishini yakunladi. Bu urug'chilikning ilk bosqichi edi.

Diqqat qiling!

So'nggi neolitdayoq odamzod irqining uchta turi – yevropoid, negroid va mongoloid irqi shakllana boshlagan. Bu jarayon ham uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Irqlar nasldan-naslga o'tuvchi tashqi fizik xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy tarkib topgan turli xil odamlardan tashkil topadi. Odamlardagi irqiy belgilar reaksiya burjua olimlari aytganidek azaliy bo'lmay, balki ularning turli yerlarga tarqalishi, turli xil geografik omillar ta'siri ostida va tarixiy tarkib topgan, shart-sharoitlar natijasida paydo bo'lgan xususiyatdir. Yevropada so'nggi paleolitda paydo bo'lgan Kromanon tipidagi odamlar yevropoid irqining tipik vakili hisoblanadi.

Baland bo'yli, kalla suyagining cho'ziqligi, qovoq usti qabartma suyagining yo'qligi, keng yumaloq yuzlilik, pastki jag'ning to'laligi va iyakning yaxshi rivojlanganligi yevropoid irqining o'ziga xos xususiyatidir.

Yevropoid irqining asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bosh suyaklari Fransiyaning Kro-Manon, Shanselad, Komb-Kapell, Orinyak, Angliyaning Paviland, Italiyaning Kavilon, Barma Grande, Bausso de-Torre, Shimoliy Afrikaning Afalu-bu-Rummel, Maқтаal-Arbi, Assillar, sobiq SSSRning Voronej shahri yaqinidagi Kostenka, Qrimdagi Murzak-Koba, Fotma-Koba, Yaqin va O'rta Sharqdagi bir qancha joylardan topilgan va o'rganilgan.

Lekin, yevropoidlar asosan Yevropada shakllanib kengroq tarqalgan. So'nggi poleolitda yevropoid irqidan tashqari negroid irqining ham bo'lganligi fanga ma'lum.

Bu irq vakillari Kromonyonlardan bo'y-bastining pastligi bilan va boldirlarining uzunligi, basharalarining yapaloqligi, tishlarining so'yoqligi, sochlarining qora, jingalakligi va iyaklarining o'rtacha taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi.

Negroid irqining vakillari Italiyaning Grimaldi, Sahroi Kabirdagi Asselyar, Kostenkadagi Markinagora, Falastin va O'rta Yer dengizi havzasidagi ba'zi joylardan ko'plab topilgan.

So'nggi poleolit davrida Markaziy Osiyo, Sibir va uncha tutash bo'lmagan joylarda mongoloid irqiga mansub bo'lgan odamlar yashagan. Bu irq vakillari yuz bichimining kattaligi, oldinga tomon chiqib turishi, yanoqlarining o'siqqligi, yon tomonga biroz bo'rtib chiqib turishi shu tufayli yuzning yapaloqroq bo'lishi, ko'zning biroz qisqirligi, yuqori qovoq burmasining kuchli rivojlanganligi burunning o'rtacha kenglikda bo'lishi va qansharning pastligi bilan xarakterlanadi.

Mongoloid irqi vakillarining qazilma suyaklari Krasnoyarskdagi Afontova Gora P, Pekin yaqinidagi Chjoukoudyanning yuqori g'oridan topilgan.

Keyingi vaqtda Uzoq Sharq, Sharqiy Sibir, G'arbiy Sibir, Mo'g'uliston, Xitoy va boshqa joylardan mongoloid irqiga mansub bo'lgan juda ko'p kalla suyaklari, butun-butun skletlar topildi va topilmoqda. Shuni nazarda tutish kerakki, mazkur qadimgi irqlar hozirgi zamon irqlariga nisbatan uncha ko'p farqlanmaganlar.

Biroq so'nggi paleolit odamlarining ayrim vakillarida har xil irqqa oid alomatlar paydo bo'la boshlagan. Mutaxassislarning aniqlashicha, ibtidoiy jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida turli odamlar yashab turgan tabiiy sharoit, geografik muhit muhim ahamiyat kasb etgan. Antropolog Y.Y. Roginskiy negroid irqi odamlarining ilk davrdan boshlab janubiy kengliklarida issiq, serquyosh o'lkalarda yashaganligi bilan bog'laydi.

Insoniyat irqi		
Negroid irqi	Mongoloid irqi	Kavkazoid irqi
• qorong'i teri rangi • jingalak, spiral sochlar • keng va ozgina chiqadigan burun • qalin lablar	• qorong'i yoki adolatli teri • tekis va etarlicha qattiq sochlar • tananing yonoq suyaklari va chiqadigan lablari bilan tekislangan yuz shakli • tor palpebral yoriq • yuqori ko'z qovog'ining kuchli rivojlanishi • epikantxning mavjudligi, «mo'g'ul burchagi»	• adolatli yoki quyuq teri • tekis yoki to'liqlik • yumshoq sochlar • tor chiqadigan burun • ochiq ko'z rangi • ingichka lablar
Ikki katta shoxlari bor - Afrika va Avstraliya: G'arbiy Afrikaning qora tanlilari, Bushmen, pigmies - negritos, Hottentots, Melaneya va Avstraliyaning aborigenlari.	Osiyoning tub aholisi (Hindistondan tashqari) va Amerikada (Shimoliy Eskimosdan tortib Tierra tub tubigacha)	Yevropa, Kavkaz, janubi-g'arbiy Osiyo, shimoliy Afrika, Hindiston, shuningdek Amerika aholisida

Arxeolog S.A. Semenov mo'g'ul irqidagi bo'rtgan qovoq, epikantus va qisq ko'zlarining dastlab paydo bo'lishida tabiiy muhitning katta rol o'ynaganligini isbotlab bergan. Markaziy Osiyo va unga shimol tomondan yondoshgan Sibirning arktik rayonlari mo'g'ul irqi dastlab paydo bo'lgan o'lkalardir.

O'z-o'zidan ravshanki, Markaziy Osiyo uchun uzoq davom etadigan qattiq shamollar va kuchli qor hamda qum bo'ronlari xarakterlidir. Bu bo'ron va shamollar to'xtaganda esa havo toza, tiniq bo'lib, quyosh butun nurini sochib turgan, shomda ko'zni kattaroq ochib yurishga imkon bermagan. Shu tufayli mazkur joydagi aholida mo'g'ul irqiga xos bo'lgan qisq ko'zlik va qalin qovoqlik alomatlarini paydo bo'la boshlagan.

Shunday qilib, irqlar va irqiy ayirmalar bir necha o'n ming yillar davomida mahalliy sharoitlarning odam tashqi qiyofasiga ta'siri ostida shakllana borgan va rivojlangan hamda nasldan-naslga o'tgan. Hozir Yer

yuzida yevropoid, negroid va mongoloid irqalarining shahobchalari keng tarqalgan.

Negroid irqi – qora irq ham deb yuritilgan. Ular asosan Afrika, Avstraliya va Okeaniyada keng tarqalgan. Ularning soni 300 million kishidan oshiq bo‘lib, jahon aholisining 10 foizini tashkil qiladi.

Yevropoid irq, jonli tilda uni «oq irq» deb ham ataladi. Mazkur irq vakillari 1750 millionga yaqin bo‘lib, Yer aholisining 53 foizini tashkil qiladi.

Mongoloid irqini «sariq irq» ham deyishadi. Mongoloid irqining vakillari Osiyo, Amerika va Okeaniyada keng tarqalgan bo‘lib ularning soni 1,220 million kishidan oshiq bo‘lib, Yer yuzi aholisining 37 foizga yaqinini tashkil etadi.

O‘ylab ko‘rib, fikr yuriting!

❖ Nima sababdan odamzod irqining kelib chiqishi masalalarini o‘rganish antropologiya fanining eng muhim muammolaridan biri sanaladi?

❖ Paleontoplardan neontoplarga o‘tish bosqichi insonning rivojlanishiga qanday ta’sir qildi? «Aql-idrokli» odamlar oldingilaridan qaysi jihatlari bilan farqlanar edilar?

❖ Neontoplarga mansub odam suyak qoldiqlari qayerlardan topilgan? Bu hududlarga hozirgi O‘zbekiston hududini ham qo‘shish mumkinmi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ «Aql-idrokli» odam: uning shakllanishi, o‘tmishdoshlaridan farqi va insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.*

✓ Neontoplar topilgan manzilgohlar: geografik joylashuvi, tatbiq etilish tarixi va topilmalar tasnifi.

✓ So‘nggi paleolit davrida irqlar vujudga kelishi uchun zamin hozirlagan omillar va ularning irqlarga ta’siri.

Seminar savollari:

1. Antropogenez jarayoni qanday kechdi? «Aql-idrokli» odamlar shakllanishi uchun nech ming yil talab etildi?

2. Neontoplar o‘zlarining o‘tmishdoshlaridan aynan qaysi jihatlari bilan farqlanganlar? Antropogenez jarayonida odamlarning miya tuzilishida qanday o‘zgarishlar bo‘lib bordi?

3. Irqlarning vujudga kelishiga qaysi omillar turtki bo'ldi? Irqlar qaysi davrdan shakllana boshladi?

4. Irqlar qanday antropolgik xususiyatlar bilan bir-birlaridan ajralib turadilar? Bu belgilar qaysi olimlar tomonidan tadqiq etilgan?

Bilib oling!

Homo habilis – «Ishbilarmon odamlar». Zinjantropalar eng sodda mehnat qurollarini yasay olgani, ya'ni toshni-toshga urib mehnat qilgani uchun unga olimlar ushbu nomni berishgan.

Homo sapiens – «Aql-idrokli, ongli odamlar». Ushbu nom so'nggi paleolit odami kromanyonga berilgan. Ularning ongi, tili rivojlangan bo'lib, bir-birlari bilan burro-burro so'zlashganlar.

Kromanyon («homo sapiens» – «ongli odam») – so'nggi paleolit davrining hozirgi (neantropalar) ko'rinishida bo'lgan qazilma odamlarning umumlashma nomi. 40–12-ming yil ilgari yashagan. 1868-yilda Fransiyaning g'oridan topilgan (nomi shundan). Dunyoning barcha qismida kromanyonga oid suyak qoldiqlari topilgan. Kromanyonning yuz tuzilishi hozirgi zamon odamiga o'xshaydi. Ular taxminan 40 ming yil muqaddam paydo bo'lishgan.

Mongoloid irqi (Osiyo-Amerika irqi) – insoniyatning eng katta irqalaridan biri. Bug'doy rangligi, qalin qora sochi, yuz va bədanida tukning kamligi, kichik burni, yanoq suyaklarining bo'rtib chiqqanligi, yuzi yumaloqdan kelganligi, qisq ko'zligi bilan xarakterli. Sharqiy Osiyo, Indoneziya, Markaziy Osiyo, Sibir, Amerikada tarqalgan.

Negroid irqi – katta ekvatorial (negr-avstraloid) irqqa kiradi. Tanasining qoraligi, jingalak sochligi, burnining kengligi, lablarining qalinligi, prognatizm (jag' suyaklarining oldinga turtib chiqishi) xosdir. Afrikada, Sahroi Kabirning janubida tarqalgan. «Negroid irqi» termini ba'zan ekvatorial irqining sinonimi sifatida qo'llaniladi.

Yevropoid irqi (Yevrosiyo irqi) – insoniyatning asosiy katta irqalaridan biri. Terisining tiniqligi, baland bo'yi, uzunchoq boshi, ko'k ko'zi, mayin va jingalak sochlari, serjunligi (erkaklarda), oldinga turtib chiqqan ingichka burni, yupqa labi, ortognatizm (yuz va jag' suyaklarining oldinga turtib chiqmaganligi) va boshqa belgilari bilan ajralib turadi. Yevropa, Shimoliy Afrika, Old Osiyo, Shimoliy Hindistonda tarqalgan; Yevropaliklarning ko'chib borishi natijasida Amerika, Avstraliya va Janubiy Afrikaga ham tarqalgan.



TARIXIY ANTROPOLOGIYADA ISHLAB CHIQARISHNING RIVOJLANISHI

Reja:

1. Insoniyat tarixida ishlab chiqarish masalalari.
2. Ishlab chiqarishning inson antropologiyasiga ta'siri.
3. Ibtidoiy ishlab chiqarish va uning turlari.
4. Ishlab chiqarishning rivojlanishi va ijtimoiy hayotga ta'siri.

So'nggi urug' jamoasi bosqichi oykumenalarning ma'lum bir qismida ilk dehqonchilik yoki dehqonchilik-chorvachilik hamda yuqori darajada ixtisoslashgan o'zlashtirish xo'jaligining malakali ovchi, baliqchi va termachi hamda boshqa ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarning taraqqiy etganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichning ahamiyatli tomoni shundaki, qaysiki qayerda qulay tabiiy sharoit mavjud bo'lsa, o'sha joylarda xo'jalikning birinchi shakli ikkinchisini yuzaga keltirganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning paydo bo'lishi ibtidoiy iqtisodiyotning ulkan yutug'i, kelgusidagi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarixida asos, muntazam ortiqcha, keyinchalik qo'shimcha mahsulot olish uchun muhim sharoit yaratdi. Taraqqiyot davomida aynan ortiqcha va qo'shimcha mahsulotning olinishi, ishlab chiqaruvchi xo'jalikning rivoji ibtidoiy jamiyatning buzilishiga va sinfiy jamiyatning shakllanishiga olib keldi. Mazkur burilish vaqtining aynan neolit davrida sodir bo'lishi hamda ingliz arxeologi Gordon Chayldning iqtisodchi F.Engelsning «sanoat inqilobi» atamasiga o'xshash taklifi, ya'ni «neolit (yoki agrar) inqilobi» nomi bilan atalgani bejiz emas.

Yuqori darajada ixtisoslashgan malakali ovchilik, baliqchilik va termachilik xo'jaligi kelgusidagi taraqqiyot uchun ham ahamiyatli imkoniyatlar ochib berdi. Ammo ular anchagina cheklangan bo'lib, qulay tabiiy sharoitga ega ayrim hududladagina ilk sinfiy darajagacha bo'lgan bosqichga ko'tarila olishgan.

So'nggi urug' jamoasi ishlab chiqaruvchi xo'jaligining shakllanishi haqida gapirar ekanmiz, u holda dehqonchilik va chorvachilik qachon, qayerda va qanday paydo bo'ldi, degan savolga atroflicha javob berish lozim bo'ladi. Ushbu savollarga rasmiy javob deyarli bir xil, ya'ni

chorvachilik taxminan paleolit davrida paydo bo'lgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida arxeologik adabiyotlarda o'nlab yillar davomida ko'pchilik paleontolog mutaxassislarning yuqori paleolit odami itni qo'lga o'rgatgani va undan ovda foydalanganligi to'g'risida fikrlari ustunlik qilib keldi.

Mazkur tasdiqlar albatta manzilgohlardan topib o'rganilgan xonaki itlarning suyak qoldiqlarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan. Biroq yaqinda Reyi daryosining chap qirg'og'idagi Oberkassel manzilgohining madlen qatlamiga mansub xonakilashtirilgan itning o'rganilishi bu boradagi tortushuvlarga chek qo'ydi. Umuman, hozirda yuqori paleolitda itni qo'lga

o'rgatish va undan foydalanish boshlanganligi hech kimda shubha uyg'otmaydi.

Bu borada aytib o'tish lozimki, mutaxassislar orasida faqatgina otni qo'lga o'rgatish borasida muammo yoki bir to'xtam yo'q. Ko'pchilik tadqiqotchilarning qayd etishicha, ot yuqori paleolit so'nggida qo'lga



o'rgatilgan. Shuningdek, yuqori paleolit davridan boshlab it odamga ovda yordam bergan. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning (ko'pchilik mutaxassislar uni ma'lum texnologik usullar asosida ijtimoiy mahsulotlarni muntazam ishlab chiqarilgandagina yuzaga keladi deb hisoblashadi) shakllanish aynan yuqori paleolitga xos.

Barchada qaysi madaniy o'simlik va uy hayvoni qoldiq topilmasi eng qadimiy va u yoki bu darajada munozaradan holi, degan savolga javob qiziqish uyg'otmoqda. Mazkur jarayon mil. avv. IX–XIII ming yillikda Old Osiyoda Falastin, Suriya, Janubi-Sharqiy Turkiyada bo'lib o'tgan dastlabki madaniylashtirilgan o'simliklardan bu polba – emmer (bug'doyning bir navi), bug'doy, arpa, chechevitsa (yasmiq) dir. Dastlabki mahsuldor uy hayvonlari qo'y va echki bo'lib, keyinchalik yirik shoxli qo'famol qo'lga o'rgatilgan va foydalanila boshlangan. Undan keyin eshak, ot, tuya, shimol bug'usi, lama qo'lga o'rgatilgan.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish va yangi tabiiy resurslarni o'zlashtirishga olib keluvchi yagona omilni ko'rsatib o'tish mushkul. Mezolit davrida mavjud bo'lgan texnik qurollanish va ov usullari dehqonchilik jamoalarini hayot kechirishi uchun yetarli darajada mahsuldor bo'lganligidan darak beradi. Biz buni manzilgohlardagi, qabristonlardagi



topib o'rganilgan jamoaviy dafn shaklidan bilib olishimiz mumkin. Mantiqan o'ylab qaraganda jamoadagi a'zolari sonining oshishi albatta hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat miqdoriga bog'liq bo'lgan.

Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotidagi boshqa o'zgarishlar bilan bir qatorda kechdi. Avvalo, toshdan mehnat qurollari yasash texnikasi ahamiyatli darajada o'sdi. Siqib retushlash texnikasi yanada takomillashdi. Ayrim joylarda mezolit davridayoq toshlarni silliqlash yoki sayqallash, shuningdek, neolitda tomorqa uchun o'rmonlarni tozalash va daraxtlarni kesish uchun nisbatan samarali bolta va teshalarga bo'lgan zaruriyat natijasida toshlarini arralash va parmalash kabi usullar keng tarqala boshladi. Mehnat ov qurollarini yasashda yangi nisbatan qattiq minerallar turi: nefrit, jedent, obsidianlardan foydalanila boshlandi.

Yer osti toshlarga ishlov berish (ya'ni kovlab olish) boshlandi. Dehqonchilik ehtiyoji bolta va yana boshqa mehnat qurollarini ham takomillashtirishni talab etdi. Termachilar foydalangan kovlovchi – tayoq va sodda kesuvchi tosh pichoqlar taraqqiy etib haqiqiy motiga va o'roqlarga aylandi, g'alla yanchgich hovonchalar xo'jalik hayotiga keng kirib keldi. Joylarda yerni oddiy memortsiya usullaridan foydalanila boshlandi, masalan, Old Osiyodagi irrigatsiya yoki Yangi Gvinsyeyadagi drenajlar bunga misol bo'la oladi.

Yuqori ixtisoslashgan ovchi, baliqchi, termachi xo'jaliklardagi mehnat qurollarning takomillashib borishi natijasida ularning ko'rinishi ham

o'zgarib borgan. Quruqlikdagi ovda tuzoq, qopqonlardan, dengiz ovchiligi va baliqchilikda nisbatan taraqqiy qilgan garpun, to'r, qarmoqlardan foydalanilgan. Mazkur davrdan o'yma qayiq, sudratma turlardan foydalanish keng ko'lamda iste'molga kira boshlagan. Ishlab chiqaruvchi yoki yuqori darajada ixtisoslashgan o'zlashtirma xo'jalikka o'tish jarayoni qayerdagi o'troq turmush tarziga o'tgan jamoalarda o'z nihoyasiga yetdi. Shuning uchun endi ibtidoiy kulbalar o'z o'rnini nisbatan uzoq muddatli yerto'la yoki yarim yerto'la, keyinroq yer ustidagi mustahkam uylarga bo'shatib berdi. Neolit davrida kashf etilgan to'quvchilik va oddiy to'qimachilik o'simlik tolasidan tayyorlangan kiyimlardan aks eta boshladi keyinchalik teridan ham kiyimlar tayyorlana boshladi.

Uy-ro'zg'or buyumlari muhim bir kashfiyot, ya'ni sopolda yasala boshlandi. Sopol buyumlar asosan ikki usulda: spiralsimon tasma va aylana shaklda loyni bir-biriga yopishtirish orqali yasalgan.

So'nggi urug' jamoasining asosiy ishlab chiqarish yutug'i sifatida – dehqonchilik va chorvalikning shakllanishi, toshga ishlov berish texnikasining takomillashuvi, sopolning kashf etilishi, to'qimachilik va boshqalar aynan mazkur davrda insoniyatning tajriba va bilimining ahamiyatli darajada o'sganligidan guvohlik beradi. Shu bilan birgalikda mazkur davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti ham yuzaga keladi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Qayerda qulay tabiiy sharoit mavjud bo'lsa, o'sha yerda o'zlashtiruvchi xo'jalik ishlab chiqaruvchi xo'jalikni yuzaga keltirganligi haqidagi qarashga qanday qaraysiz?

❖ «Neolit inqilobi» deganda nimani tushunasiz? Nega uni «agrar inqilob» deb ham atashadi? Faktlar va misollar keltiring.

❖ Mehnat qurollarining takomillashuvi, inson tomonidan yangidan-yangi kashfiyotlarning amalga oshirilishi uning xo'jaligiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

So'nggi ibtidoiy jamoa bosqichida ham ilk ibtidoiy jamoa bosqichida bo'lgani kabi jamoaviy mehnatning roli katta bo'lgan. O'rmonlarni tozalash, chorvani boqish samarali ovchilik va baliqchilik xo'jaligini yuritish albatta bir oilaning qo'lidan kelmagan, shu sababli jamoaviy mehnat va yerga jamoaviy egalik o'z ta'sirini saqlab turgan. Keyinchalik so'nggi urug' jamoasi bosqichi oxirlariga kelib ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi mazkur prinsiplarning buzilishiga olib keldi. Yer uzoq vaqt jamoa mulki

sifatida saqlanib kelinganligi Yangi Gvineya papuaslari misolida ham o'z aksini topgan. Ularda yer avloddan-avlodga o'tish shart hisoblangan.

Jamoadagi to'plangan oziq-ovqatlar taqsimotida har doim ham tenglikka e'tibor berilmagan, bir-biriga yaqin qondosh yaqin qarindoshlik muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Ammo ayrim holatlarda buning aksi ham bo'lgan. Masalan, yaxshi hosil olgan yoki chorvadan yaxshi nasl olgan, yoki ovda omadi yurishgan ovchi mazkur mahsulotlarni o'zida qoldirgan yoki kim bilan xohlasa, o'sha bilan bo'lishgan hollari ham uchragan. Etnologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, papuaslarda och qolgan papuas qarzini qaytarishni aytgan holda o'ziga qo'shni bo'lgan yaqin qarindoshining tomorqasidan yamsni erkin olishi mumkin bo'lgan bo'lsa, Janubiy Amerika kubeo qabilasida bu o'g'rilik hisoblangan.

Oila va nikoh So'ngi urug' jamoasida juft nikoh ustuvorlik qilishda davom etgan. Avval bo'lganidek, guruhiy munosabatlar davrasida bu ixtiyoriy tarzda amalga oshirilgan.

Ilk ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan shug'ullanuvchilar orasida poligin-ya, xususan, sororat tartibidagi ko'p xotinlilik, ovchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarda esa liverat tartibidagi poliendriya – ko'p yerlilik keng tarqalgan edi.

Ota urug' davri dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik va xo'jalikning boshqa sohalaridagi qator mijishlar, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarining tobora rivojlanishi urug'chilik jamiyatining yangi tashkilotiga ota urug'i jamoasiga o'tish uchun zaruriy shart-sharoitni vujudga keltiridi. Lekin ota urug'i jamoasi to'satdan vujudga kelmay, ona urug'i quchog'ida tug'ildi. Ona urug'idan ota urug'iga o'tish negizida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi yotadi. Bu o'sish moti asosida dehqonchilikdan omoch asosida dehqonchilikka o'tishda va, xonaki hayvonlarni boqib parvarish qilishdan keng ma'nodagi chorvachilikka o'tishda namoyon bo'ldi. Bu o'zgarish sodir bo'lishda bronza va temirdan yasalgan qurollardan foydalanish ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Endilikda omoch asosida dehqonchilik ham yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi xarakterdagi chorvachilik erkaklarning mashg'uloti bo'lib qoldi. Xo'jalikning bu ikki sohasi yuksalishi ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarilib, mol ayriboshlashning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu hol xo'jalikning ajralib chiqishiga olib keldi. Endilikda uy xo'jaligi bilan ayollar shug'ullana boshladilar. Oila-urug' jamoasida barcha ayollar va bolalar endilikda xo'jalikning asosiy boshqaruvchilari – erkaklarga tobe bo'lib qola

boshladilar. Ma'naviy, ijtimoiy va xo'jalikning hamma sohalarida erkaklar hukmron mavqeni egallay boshladilar.

Shuni unutmaslik kerakki, ona urug'idan ota urug'iga o'tishning shakli va bosqichlari xilma-xildir. Lekin omoch asosidagi dehqonchilikka va chorvachilikka o'tish ona urug'idan ota urug'iga o'tishning eng muhim va keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ona va ota urug'i davri ibtidoiy jamiyat tarixining ikki umumiy – tarixiy bosqichini tashkil qiladi. Xo'jalikning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarishda erkaklarning mehnati ustun darajaga yetib, ular asosiy o'rinni egallaganda ona urug'i o'rmini ota urug'i egallashi shubhasizdir.

Haydab ekiladigan dala dehqonchiliga va chorvachilik ota urug'ini yuksalishda qulay imkoniyatlar keltirdi. Hozir Afrika va Avstraliya, Amerika va Okeaniyadagi patriarxal munosabatlar hukmron bo'lgan qabilalar ko'p uchraydi.

Ona urug'idan ota urug'iga o'tish nikoh va oila munosabatlarining o'zgarishiga – matrilokal¹¹ yoki dislapal joylashishning patrilokal¹² joylashuviga o'rin bo'shatib berishiga olib keldi. Demak, ota urug'i davriga kelib, nikoh yangicha shakl va yangicha mazmunga ega bo'ldi. Matriolokal va dislokal joylashuv vaqtidagi muvaqqat va u qadar mustahkam bo'lmagan juft nikoh o'rmini er va xotinning ancha barqaror va mustahkam bog'lanishga ega bo'lgan monogamiya – bir nikohlikka asoslangan oila shakli vujudga kela boshladi va tobora mustahkamlandi.

Nikoh ilgarigi matriarxat oilalar o'rniga ota urug'i davrining yirik patriarxal oilalari tashkil topa boshladi. Ota urug'i o'zining rivojlangan va so'nggi bosqichga o'tgach matriarxal tartibini yemirib tashlaydi. Er o'z bolalari va xotinini o'z urug'i, o'z uyida olib qoladi va bu oila patriarxal oilaga aylanadi. Ayol va uning bolalari o'zi tug'ilgan oila, qarindosh va butun urug'dan aloqani uzib, patriarxal oilaning uy xo'jaligida huquqsiz mehnat kuchiga aylanadi, xotin va bolalar shu oila boshlig'ining qo'l ostiga o'tadi. Shu tariqa oilada onalik huquqi mag'lub bo'lib, otalik huquqi g'olib bo'lib qoldi.

¹¹ Matrilokal yashash – Ijtimoiy antropologiyada matrilokal yashash yoki matrilokallik - bu turmush qurgan juftlik xotinining ota-onasi bilan yoki uning yonida istiqomat qiladigan ijtimoiy tizim yoki odat.

¹² Patrilokal yashash – bu er yoki xotin erining oilasi bilan yoki uning yonida joylashadigan jamiyat yoki odat.




Monogamiyaga o'tish natijasida er-xotin orasidagi nikoh mustahkamlanadi va ularning bir-biridan ajralishi ancha mushkullashdi. Etnografik va tarixiy adabiyotlarda katta patriarxal uy jamoasi nomi bilan mashhur bo'lib, u bir otaning 3-4 avlodidan iborat eng yaqin qarindosh-urug'lari. Ularning xotin va bolalari, oila doirasida yashovchi kuyovlari va oilaga qabul qilingan uzoq-yaqin qarindoshlardan tarkib topgan, yagona xo'jalikka birikkan guruhlar majmuasidir. Bunday patriarxal oilalarda odam soni yuz va undan ortiq bo'ladi.

Ishlab chiqarish predmeti va ishlab chiqarish vositalariga umumiy egalik qilish patriarxal oila xo'jaligining negizini tashkil etib, ayrim shaxsiy buyumlargina (kiyim-bosh, ayrim qurollar) u yoki bu kishining shaxsiy mulki hisoblanadi. Ammo ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarilgan narsa va iste'mol buyumlari oila jamoasiga barobar taqsim qilinadi.

Patriarxal oila jamoasi jamiyatining asosiy negizini tashkil etgan, oiladagi eng keksa erkak oila jamoasidagi barcha katta yoshdagi a'zolari bilan maslahatlashib, uy jamoasining hamma ishlariga rahbarlik qilgan. Uy jamoasining butun a'zolari hamma uchun turar joyda istiqomat qilib, bir qozondan ovqat yeganlar.

Lekin aholi sonining tobora ortib borishi ishlab chiqarishning yuksalishi va xo'jalik tarmoqlaridagi ishlarining tobora murakkablashuvi natijasida uy xo'jaligini boshqarish ancha og'irlashadi. Natijada oila jamoasi ayrim-ayrim guruhlarga bo'linib ketadi va alohida xo'jalik bo'lib yashay boshlaydi.

Patriarxal oilaviy jamoaning bo'linishi natijasida paydo bo'lgan qon-qarindosh oilalar kattalashib bo'rib, bir butun xo'jalik va ijtimoiy jamoa tashkil etgan pat-ranomiyalarga aylanadi. Patranomiyaning asosiy mohiyati va xo'jalik birligi asosini patriarxal oila kabi yerga umumiy egalik qilish va undan umumiy foydalanish tashkil etadi.



Patranomiya alohida qishloqni tashkil etib, o'zini o'z idora etadi, o'z kengashiga, o'z boshlig'iga ega bo'ladi. Ular birgalashib mehnatda bir-birlariga ko'maklashadilar.

Patriarxal uy jamoasi va patranomiyalar birlashib bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan patriarxal urug' jamoasi qabilaning ular uchun ajratilgan ekin yerlaridan qabila uchun umumiy bo'lgan o'tloq, o'rmon, tog', daryo, ko'llardan barobar foydalaniladi. Urug'ga berilgan yer patronomiyalar o'rtasida vaqti-vaqti bilan taqsimlanib turiladi.

Dastlab patriarxal urug' jamoasini boshqarish xalqchil xarakterlarga ega bo'lgan. Patriarxal urug' jamoasini urug'idagi bosh patronomiya boshqarib, urug'idagi boshqa patronomiya va oilalarning boshliqlaridan saylangan kishilar urug' kengashini tashkil etadi. Urug'ning barcha katta yoshdagi a'zolari ba'zi muhim masalalarni hal etishda qatnashadilar. Bu davrning eng muhim xususiyati shuki, undan ezuvchi xalq ham, ezuvchi ham yo'q bo'lib, umummanfaat shaxs manfaatidan ustun turadi, hokimiyat esa urug' ichidagi katta yoshdagi, tajribali, obro'li shaxs tomonidan boshqariladi. Ibtidoiy davrning eng katta, eng yirik etnik birlashmasi qabila bo'lib, u urug'larning o'zaro birlashuvidan tashkil topgan. Qabilaning ham xo'jalik-ijtimoiy va mafkuraviy masalalarni hal qilishda o'z qo'lda-qonuni mavjud. Qabilani urug' boshliqlaridan tashkil topgan kengashi boshqargan. Kengashdagi eng kekxa, obro'li tajribali, aqlli, tadbirkor kishini qabila boshlig'i qilib tayinlaganlar.

Qabila uchun aloqador bo'lgan masalalar urug' boshliqlaridan tashkil topgan kengashda hal qilingan. Qabilada ham urug'larda bo'lgani kabi ezuvchi ham, eziluvchi ham, zolim ham, zulm ko'ruvchi ham bo'lmagan. Chunki buning uchun hech qanday iqtisodiy va siyosiy asos yo'q edi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Ota urug'i jamoasi to'satdan vujudga kelmay, balki ona urug'i quchog'ida tug'ildi, degan fikrni asoslang.

❖ Oilada onalik huquqi mag'lub bo'lib, otalik huquqi g'olib bo'lishi qanday jarayonda kechdi? Bunga sabab bo'lgan omillarni ayting.

❖ Ibtidoiy davrning eng katta, eng yirik etnik birlashmasi nima? Unda odamlar qanday istiqomat qilganlar?

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlana borishi mehnatning birinchi va uchinchi taqsimoti va boshqa qator sabablar jamiyat ichida katta o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Bu hol oqibatda ibtidoiy tuzumning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Bu jarayon patriarxal jamiyatning asosiy negizini tashkil etgan katta oilalarga ta'sir etib, ular kichik-kichik mustaqil oila bo'lib ajralib chiqib boshladilar. Mustaqil xo'jalik yurita boshladilar. Katta patriarxal oilalarning mayda oilalarga bo'linib ketishi, xo'jalik jihatidan mustaqillikka va erkinlikka intilishlari xususiy mulkning vujudga kelishi uchun zamin hozirladi va natijada uni vujudga keltirdi.

Xususiy mulkning vujudga kelishi masalasi ibtidoiy jamiyat umuman bashariyat tarixi bilan shug'ullanuvchi barcha olimlar oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Xususiy mulkning kelib chiqishi masalasida reaksiya burjua olimlari qator «nazariya»larni ilgari suradilar. Ularning fikricha, xususiy mulk azaliy va tabiiy emish.

Ular qoloq qabilalardagi ba'zi shaxsiy buyum, yog'och va turli-tuman bezaklarni xususiy mulk deb biladilar. Burjua fani shaxsiy mulk bilan xususiy mulkning negizida qo'shimcha mahsulot yotadi.

Eng avval, qaysi narsalar, nimalar xususiy mulkka aylangan, degan masala olimlarni qizqtirgan. Bu masalada hali olimlarning fikr-mulohazalari bir xil emas. Ba'zilar chorvani eng dastlabki xususiy mulk desalar, boshqalar yerni va bo'lak narsalarni eng dastlabki xususiy mulk bo'lgan deyidilar.

Shuni aytish kerakki, qayerda xo'jalikning qaysi tarmog'i rivojlangan bo'lsa, mazkur xo'jalik yetishtirgan mahsulot shu joyda xususiy mulkning ramzi bo'ladi.

Chorvachilik rivojlangan hududlarda chorva mollarining dastlab xususiy mulkka aylanganligi shak-shubhasizdir. Xo'jalikning asosini dehqonchilik, bog'dorchilik tashkil etar ekan, demak, u joylarda yer xususiy

mulkning manbai bo'lib qolgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi yirik patriarxal oilalar yemirilib uning o'rniga kichik oilalar maydonga keldi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida kichik oilalar jamiyatning asosiy xo'jalik va ijtimoiy tashkilotiga aylandi. Mol-mulk, chorva, yer va boshqa narsalar kichik oilalar ixtiyoridagi xususiy mulkka aylandi. Oila boshlig'i esa oila ixtiyoridagi, yer, suv, chorva, o'z xotini, bolalari ustidan, ayni vaqtda, ularning mehnati ustidan cheksiz huquqqa ega bo'lgan hukmron shaxsga aylandi. Shunday qilib, xususiy mulkchilik kelib chiqdi.

Kichik oilada ishlab chiqarishning ham dehqonchilik, chorvachilik ayirboshlash va boshqa sohalarining yuksala borishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talab kuchaya bordi. Kichik oila katta xo'jalik yurita boshlashi natijasida oilada kishilarning ish kuchi kifoya qilmay qoldi. Endilikda xo'jalik ishlarini olib borish uchun tashqaridan qo'shimcha yangi ishchi kuchi kerak bo'lib qoldi. Bunday ishchi kuchni o'zga qabilalar bilan olib borilgan urushlar vaqti asrga olingan kishilar tashkil etib, ular qullarga aylantirilgan, ular mehnatidan turli xo'jalikning turli sohalarida foydalanilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, harbiy asrlar qo'shimcha ishchi kuchi – qulning yagona manbai emas.

Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilayotgan so'nggi bosqichiga kelib, iste'mol buyumlari taqsimoti o'zgarib, ba'zi kishilar nochor ahvolga tushib qoladi. Natijada qarz olish paydo bo'lib, qarzni o'z vaqtida yoki umuman to'lay olmaslik qaramlik va asoratga olib keladi. Shunday qilib, qul va qulchilik vujudga keldi. Qulchilik ba'zi joylarda matriarxatning so'nggi bosqichlaridayoq vujudga keldi, ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlarida, uning tanazzulga yuz tutgan davrida biroz rivoj topdi. Lekin bu davrdagi qulchilikni klassik qulchilikka taqqoslab bo'lmaz edi. Chunki u hali xo'jalik sistemasiga ishlab chiqarishning alohida vositasiga aylanmagan edi.

Ular o'z mulklariga ega bo'lish bilan birga, ba'zi shaxsiy huquqlarga ham ega edilar. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilayotgan bir sharoitda hamma oilalar boylik jihatidan bir xil emas edilar. Ba'zi oilalar sermulk, badavlat, ba'zilari o'rtahol, ayrimlari esa kambag'alroq edilar. Ko'rinib turibdiki, bu davrga kelib oilalar urug'lar va qabilalar jamoasi ichida ham mulkiy tengsizlik vujudga keldi.

Mulkiy tengsizlikda esa jamiyatni boy va kambag'al tabaqalarga bo'lib yuborib, ular orasida qator ziddiyatlarni vujudga keltirdi. Bu ziddiyatlar esa ular orasidagi to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi xususiy mulkning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi bilan jamiyatning bir necha qarama-

qarshi toifalarga bo'linishi ibtidoiy jamoa tuzumining negizida dastlabki quldorlik davlatlarini vujudga kelishi uchun asos yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi so'nggi davrida urug' jamoalari tarqalib, qo'shni jamoalar vujudga kela boshlaydi. Urug' jamoalarining ko'chishi boshlanadi. Yoki ular borib o'rnamashgan yerga o'zga joylardan o'zga urug'ga mansub odamlar guruhi kelib o'rnama boshlaydi. Bu ko'chishlar urug'larning dastlabki territorial birligini buzib yuborib, turli urug'lardan tashkil topgan aralash qishloqlarni vujudga keltiradi. Bu qo'shni jamoalar edi.

Shu tariqa, qon-qarindosh urug'chiligiga buzilib, qo'shni jamoalar paydo bo'ladi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda bu dehqonlar jamoasi, chorvadorlarda esa ko'chmanchilar jamoasi nomini oladi.

Qishloq jamoasi ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi hisoblanadi. Qishloq jamoasi dualizm – ikki tomonlama xarakterga ega edi. Bu ikkiyoqlik qishloq jamoasida ayni bir vaqtning o'zida ham xususiy ham ijtimoiy mulkning mavjud ekanligi bilan xarakterlanadi.

Yerni yakka-yakka ishlash, undan hosilni xususiy o'zlashtirish, hayvonlar, qishloq xo'jalik buyumlari, qullar, «uy va uning qo'shimcha qismi – hovli» xususiy mulk hisoblanib, ekanligi yerdan, o'tzorlar, o'tloq, yaylovlar, o'rmonlar, tog'-toshlar va suvlar umumiy mulk sifatida hammaga tegishli bo'lgan. Lekin qishloq jamosi ham barqaror bo'lmay, keyinchalik o'zgarishga uchragan.

Qo'shni qishloq jamoasidan dualizm uning umumiy mulkdan xususiy mulkka o'tish formasi bilan izohlandi. Lekin qadimgi sharqning sug'orma dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlarida qishloq jamoalari nisbatan barqaror bo'lib, uzoq yashaganlar. Chunki sug'orma dehqonchilikka asoslangan mamlakatlarda kanallar qazish, sug'orish inshootlarini qurish va ularni tartibga solib turish hamisha, hamma vaqt birgalikda mehnat qilishni taqozo etar edi. Shuning uchun ham bunday mamlakatlar uchun qo'shni qishloq jamoasining ahamiyati katta edi.

Xususiy mulk va mulkiy tengsizlikning vujudga kelib kuchaya borishi qator o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu hol urug' jamoa va qabilalar orasidagi munosabatlarni ular orasida qator-qator kelishmovchiliklarni vujudga keltirdi. Bu kelishmovchiliklar esa qabilalararo urushlar kuchayishiga sabab bo'ldi. Ilgari chegarani himoya qilish, o'ldirilgan qabilalar, urug' a'zolarining xunini olish uchun urushlar olib borilgan bo'lsa, endilikda urush talonchilik, boylik orttirish va qo'lga kiritishning asosiy manbaiga aylandi. Urushda g'olib chiqqan qabilalar, qo'lga tushirgan xazina, qurol, chorva va boshqa qimmatbaho buyumlarni o'lja qilib olar,

erkin aholini esa qul qilib haydab ketar edilar. Aholi sonining orta borishi bilan esa yengilgan qabilalarning ekin yerlarini, ajoyib o'tloqlarini, hayvonot olamiga boy bo'lgan ov qilish maydonlarini ham tortib olar edilar.

Talonchilik, bosqinchi qabilalarga mashaqqatli mehnatdan ko'ra osonroq va hatto sharafliroq bo'lib ko'rinadi. Demak, o'sha davrdagi harbiy yurishlar, harbiy texnika va harbiy tashkilotlarni qayta-qayta ko'rishni talab etar edi.

Jangovar va mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan nayza, oybolta, cho'qmor, qilich, dubulg'a, qalqon, xanjar kabi qurollar o'sha vaqtlarda paydo bo'ldi va takomillasha borgan. Dushman hujumidan saqlanish uchun qishloqlarni atrofi qalin devor, ko'tarma va handaq kabi mudofaa inshootlari bilan ixota qilina boshladi.

Shunga muvofiq, urush harakatlari, uning taktika va strategiyasi o'zgarib murakkablasha boshladi. Aholining borgan sari zich bo'lib yashashi talonchilik urushlari, o'z-o'zini mudofaa qilish qator ichki va tashqi sabablar hamma yerda qarindosh qabilalar ittifoqini tuzish zaruriyatini taqozo etdi.

Qabilalar ittifoqi, ular orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar esa turli qabilalarning bir-biriga qo'shilib, aralashib ketishi natijasida jamiyatda yangi ijtimoiy shakl – xalqlar vujudga keldi. Dastlab harbiy yurishlar vaqtida qabila boshlig'ining o'zi barcha ishlarga rahbarlik qilgan. Lekin urush harakatlarining kuchayishi va urush texnikasining takomillashuvi natijasida alohida harbiy boshliqlar ajralib chiqqan boshlaydi. Bu harbiy boshliq yoki lashkarboshi atrofida esa kuchli, botir, epchil va sadoqatli jangchilardan tashkil topgan askarlari bo'lgan.

Qabilani tashqi dushmanlardan muvaffaqiyatli ravishda mudofaa qilish va talonchilik urushlari va harbiy sohada olib borilgan boshqa ishlar lashkarboshilarning obro'-e'tiborini oshirib yuboradi. Qo'shni qabilalar ustiga bosib borish, talonchilik urushlari natijasida hisobsiz o'ljalardan va asirlar qo'lga kiritilgan. Shubhasiz, bu o'lja va asirlar g'oliblar orasida taqsimlanib, boylik va asirlarning katta qismi harbiy boshliqlarga tekkan. Shunday qilib, g'olib kelgan lashkarboshilar va askarlar o'ziga qabila va xalqlarni talash yo'li bilan boyib keta boshlaganlar.

Endilikda ilgari xalq lashkarboshisi qabila uchun zarur bo'lgan mansabdor kishiga aylana boshlaydi. Xalq majlisi bo'lmagan joyda xalq majlislari paydo bo'lib, xalq majlisi, lashkarboshi, oqsoqollar kengashi harbiy demokratiya deb atalmish tashkilotni tashkil etadilar.



Xalq yig'inida 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, ya'ni harbiy yoshdagi kishilar qatnashar edi. Unda yo'lboshchi, demokratik muassa hisoblangan xalq yig'ilishi va oqsoqollar kengashi saylab qo'yilar edi. Harbiy demokratiya deyilishining sababi ham shunda.

Xalq yig'ilishi harbiylar yig'ilishi ham edi. Unda xalq Lashkar-boshisining ta'siri kuchli bo'lib, endilikda urushning o'zi va urush olib borish uchun uyushish xalq turmushining muntazam funksiyalariga aylandiki, shuning uchun ham u harbiydir. Harbiy demokratiya tushunchasini tarix faniga olib kirgan kishi L.G. Morgan bo'lib, u urug'chilik tuzumining so'nggi bosqichi davridagi jamiyatni boshqarish tashkilotini «harbiy demokratiya», deb atagan.

Normannlar, qadimgi germanlar, keltlar, skiflar jamiyatini qadimgi Rimning podsholik davri va Gomer davridagi yunon jamiyati harbiy demokratiyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Shunday qilib, harbiy demokratiyaning vujudga kelishi talonchilik urushlari, qabilalararo munosabatlar, savdo-sotiq, ayriboshlashning kuchayishi xususiy mulkchilik, mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tabaqalar va davlatning kelishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida, tabaqasiz jamiyat o'rniga tabaqali jamiyat va yuqori ijtimoiy toifalarning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat vujudga keldi. Ijtimoiy tabaqalar va davlatning vujudga kelishi masalasi tarix fani oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mehnatning birinchi, ikkinchi va uchinchi-yirik ijtimoiy bo'linishi talonchilik urushlari, urug' qabila va qabilalar orasidagi tashqi va ichki munosabatlar ijtimoiy tabaqalar va ilk davlatlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratdi. Natijada uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida dastlabki quldorlik davlatlari vujudga keldi.

❁ Lekin ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi va dastlabki davlatlarning vujudga kelishi yer sharining odam yashaydigan joylarida ayni bir vaqtda emas, balki turli sharoitda, shu bilan birga turli davrlarda vujudga keldi. Jamiyat yerdor, mulkdor, yirik chorvador, katta boylikka ega bo'lgan guruhlar va qullar, kambag'al ozod kishilarga bo'linib ketar ekan, ular orasida kelishtirib bo'lmaydigan ziddiyatlar ham vujudga keldi.

Endi ibtidoiy davrdagi xalqchil boshqaruv tashkilotlari – urug', qabila va xalq kengashlari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Tabaqaviy jamiyatni boshqarish tashkilotlari vujudga keldi. Ibtidoiy davrdagi urug'-qabila

oqsoqollari, ayniqsa harbiy boshliqlar va ularning homiylari o'z davrining nufuzli aslzoda zadogonlari – hukmron doiralarga aylana boshladilar.

Endilikda qabilaning nufuzli kishilari harbiy o'ljalarning asosiy qismini o'zlariniki qilib olish bilan bir qatorda o'z qabiladoshlaridan ham sovg'a, o'lpon va qurbonliklar tarzida ko'p boylik to'play boshladilar. Urug'-qabila zadogonlari asta-sekin xalq ommasidan uzoqlashib, ularni ezuvchi guruhlariga aylandilar.

Nufuzli, badavlat kishilar atrofida jangchi, ruhoniylar va boshqalardan iborat sodiq kishilar guruhi to'plandi. Bu dastlabki tizim apparatining ko'rinishi edi. Davlat va ijtimoiy tabaqalarning kelib chiqishida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar va din homiylari uni azaldan mavjud deb talqin qiladilar.

Olimlarning ba'zi namoyondalari bu masalada zo'rlik nazariyasi bilan maydonga chiqdilar. Zo'rlik nazariyasining tasafsdorlari ijtimoiy tabaqalar va davlat faqat istilolar natijasida vujudga kelgan, deb sharhlaydilar. Ularning fikricha, istilochi-talunchilar nufuzli hukmron tabaqani tashkil etib, istilo natijasida asir olinib, qulga aylantirilgan kishilarni o'z qo'l ostilarida saqlab turish uchun davlat barpo etgan emishlar. Bu nazariyaga ko'ra hukm chiqarilsa, davlat u yoki bu xalq turmushiga, qabilalar ittifoqiga tashqaridan kirib kelgan bo'ladi.

Istilolar va zo'rlik ijtimoiy tabaqa va davlatning vujudga kelishi uchun hech qachon asosiy omil bo'lmagan emas. Shuning uchun ham zo'rlik nazariyasi ham amaliy, ham mantiqiy jihatdan noto'g'ridir. Demak, tabaqalar va davlat ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi natijasida uning xarobalarida vujudga keldi. Dastlabki davlatlar quldorlik davlatlari bo'lib, dastlab kichik, kuchsiz edi, bora-bora ular kengayib qudratli quldorlik davlatlariga aylandi.

Davlat paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hukmron toifalarning manfaatlarini himoya qiluvchi qoida-qonunlar vujudga kelib, shunga muvofiq idora tashkilotlari ham joriy qilindi. Ishlab chiqarish kuchlari, geografik muhit, ichki, tashqi va boshqa qator sabablarga muvofiq davlat yer yuzining hamma joylarida bir vaqtda emas, balki turli davrlarda vujudga kelgan.

Dastlabki tabaqaviy jamiyat, ya'ni ilk davlatlar Mesopotamiya va Misrda mil. avv. IV mingyillikning ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan. Mil. avv. III ming yillikning oxirlariga kelib Hindistonda ham eng dastlabki davlatlar vujudga kelganini kuzatish mumkin. Mil. avv. II ming

yillikda esa Kichik Osiyo, Janubiy Arabiston, Urartu va Egey dengizi havzasidagi o'lkalarda qator katta-kichik davlatlar tashkil topadi. Huddi shu davrda Xitoyning Xuanxe daryosi va unga tutash bo'lgan o'lkalarda dastlabki davlatlar vujudga kelgan.

Eron, O'rta Osiyo, Kavkaz Yevrosiyo, Janubiy Sibir yerlarida ilk tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Yevropaning ba'zi joylarida tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi mil. avv. I ming yillikning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa, ba'zi joylarida esa milodning boshlariga to'g'ri keladi.

Yangi Dunyo, ya'ni Amerikaning ko'pgina qabilalari ham bu jarayonni o'z boshlaridan kechirganlar. Lekin, Amerikada tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi Osiyo, Shimoli-Sharqiy Afrika, Janubiy Yevropa o'lkalaridan birmuncha keyinroq sodir bo'ldi. Shuni ham unutmashlik kerakki, Amerika, Afrika, Okeaniya va boshqa joylarda ijtimoiy tabaqa nima ekanligini, davlat nima ekanligini bilmaydigan qabilalar ham hozirgacha uchraydi.

Shunday qilib, beshta tarixiy davrning eng dastlabkisi – ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati tarixining juda katta davrni tashkil etadi. Hozirgi jismoniy tipdagi odamning yetilishi va urug'-jamoa tuzumining vujudga kelishi faqatgina sotsial sohadagina emas, balki ibtidoiy kishilar ma'naviy hayotning rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratdi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Odamlar o'rtasida xususiy mulkning vujudga kelish jarayoni qanday kechdi? U kishilar hayotida nimalar o'zgarishiga sabab bo'ldi?

❖ Ba'zilar chorvanj eng dastlabki xususiy mulk desalar, boshqalar yerni va bo'lak narsalarni eng dastlabki xususiy mulk bo'lgan deydilar. Sizningcha-chi?

❖ Kichik oilalar qay tariqa jamiyatning asosiy xo'jalik va ijtimoiy tashkilotiga aylandi?

Bilib oling!

Eng qadimgi urug'chilik tuzumi – insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan, hamma odamlar hamkorlikda mehnat qilgan davr.

Ibtidoiy to‘da – turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan qadimgi odamlar jamoasi.

Urug‘ – birgalikda yashagan va hamkorlikda mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yaroqqa ega bo‘lgan qarindoshlar uyushmasi.

Urug‘ jamoalari – so‘ngi paleolitning kashfiyotlaridan biri bo‘lib, unda odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlariga bo‘lingan. Bu urug‘ga oqsoqol sardorlik qilgan, urug‘ a‘zolari bitta manzilgohda yashagan.

Urug‘chilik jamiyati – Matriarxat (ona urug‘i) va patriarxat (ota urug‘) davrlari. Bunda asosiy ishlab chiqarish vositalari bo‘lgan yer, yaylov, ov qilinadigan joy va shu kabilarga qon-qardoshlik jamoasi egalik qilgan.

Matriarxat (lotincha mater – ona va yunoncha arche – ibtido, hokimiyat) – eng qadimgi tuzum rivojidagi bir bosqich bo‘lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, urug‘ga va oilaga ayol kishi sardorlik qilgan.

Patriarxat – eng qadimgi jamoa tuzumining bir davri bo‘lib, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo‘lgan, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan. Patriarxatning xo‘jalik faoliyati: omoch bilan yer haydash, chorvachilik, metallga ishlov berish. Bu davrda ibtidoiy jamiyat yemirilib, uning so‘nggi bosqichida mulkiy tabaqalanish va davlat yuzaga kelgan.

Patriarxal oila – erkak boshchilik qiladigan oila. Matriarxatdan patriarxatga o‘tish davrida vujudga kelib, birgalikda xo‘jalik yurgizuvchi qarindoshlarning bir qancha avlodidan tashkil topgan. Patriarxal oila, asosan, ilk xo‘jalik jamoasi bo‘lgan, uning iqtisodiy asosini yerga va ishlab chiqarish qurollariga umumiy egalik (ishlab chiqarishga ham, is‘temolga ham) tashkil etgan.

O‘zlashtiruvchi xo‘jalik – eng qadimgi odamlarning mashg‘uloti bo‘lib, tabiat in‘om etgan narsalarni terib-termachilik yoki ovchilik orqali iste‘mol qilganlar.

Ishlab chiqaruvchi xo‘jalik – ancha vaqt urug‘ni o‘simlik va hayvon yegulik mahsulotlari bilan ta‘minlab kelgan ziroatchilik va chorvachilikdir. Zirotchilik termachilikdan boshlangan, chorvachilik esa ov va hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishdan kelib chiqqan. O‘rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka neolit davrida o‘tiladi.

Sug‘orma dehqonchilik – O‘rta Osiyo janubida (irrigatsiya asosida) vujudga kelgan dehqonchilikning turi. Eneolit davrining kashfiyoti.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- ✓ Ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning paydo bo‘lishi – ibtidoiy iqtisodiyotning ulkan yutug‘i (tahlillar asosidagi tezis).
- ✓ Neolit inqilobi va uning odamlar ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta’siri.
- ✓ Matriarxatdan patriarxat tuzumiga o‘tishda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning ahamiyati.
- ✓ Xususiy mulkning vujudga kelishi va uning inson antropologiyasiga ta’siri (misollar vositasida tahlil qilish)

Seminar savollari:


1. O‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish jarayoni qanday kechdi? Bu jarayonda odamlar nimalardan voz kechdilar?
2. Jamoaviy mehnat va yerga jamoaviy egalik ibtidoiy odamlar hayotida qanday munosabatlarni vujudga keltirgan?
3. Ona urug‘idan ota urug‘iga o‘tilishi jarayonida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ldi?
4. Xususiy mulkning shakllanishida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning ahamiyati nimalardan iborat? Misollar bilan izohlang.

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA OILA VA NIKOH MASALASI

Reja:

1. Tarixiy antropologiyada oila va nikoh munosabatlarining o'rganilishi.
2. Kishilik tarixida juft oilalarning vujudga kelishi.
3. Yirik oilalarning shakllanishi.

Insoniyat tarixini o'rganishda oila va nikoh munosabatlari ham dolzarb masalaridan biri sifatida qaralgan. Shveysariyalik tarixchi va yurist Iogann Yakob Bahofen (1815-1887) ibtidoiy oila va nikoh masalalarini o'rganish ishiga asos solgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U qadimgi klassik adabiyot, etnografiya va arxeologiya fanlari qo'lga kiritgan ma'lumotlarga asoslanib yaratilgan «Onalik huquqi» va boshqa asarlarida oila, nikohning vujudga kelishi haqida qimmatli mulohazalar bildirdi.



I.Ya. Bahofen

Iogann Bahofen dastlabki jinsiy aloqa, onalik huquqi, ayollarning tutgan o'rni, ona va ota urug'lari haqida quyidagi fikrlarni bildirdi:

1) Kishilar dastlab tartibsiz jinsiy aloqa qilib yashaganlari, buni – Bahofen «geterizm» - erkin hayot kechiruvchi ayol degan nomuvofiq nom bilan atagan.


2) Shunday ekan tug'ilgan bolaning otasi kim ekanligini bilishning imkoniyati bo'lmagan, binobarin, nasl-nasabni faqat xotin tomondan onalik huquqiga qarab belgilash mumkin edi.

3) Demak, shunday ekan xotinlar tug'ilgan bolalarning onalari, yosh bo'g'inni tug'ib o'stirganliklari hammaga aniq ma'lum bo'lgan. Birdan-bir onalar bo'lganliklari sababdan, juda katta e'tibor qozonganlar va izzat-ikrom qilinar edilar. Ayollar bunday izzat-ikrom qilinganliklari tufayli to'la hukmronlik – ginekokratiya darajasiga yetishgan edilar.

4) Bir nikohlilikka o'tish, bunda xotin bitta erkakniki bo'lib, bu hol eng qadimgi diniy nizomni buzish, degan gap edi: bu tartibni buzish jazo

berilishini talab qilar yoki hech bo'lmaganda bu xotin bundan keyin ma'lum bir vaqt ichida boshqalar bilan aloqa qilib gunohini yuvishi kerak edi. U «geterizm»dan monogamiyaga va ona huquqidan ota huquqiga taraqqiy etish diniy tasavvurlarning yanada taraqqiy etishi natijasida sodir bo'ladi, deb noto'g'ri fikrni bildirgan. Shunga qaramay, Bahofen Aristotel zamonidan beri hukm surib kelayotgan «patriarxal» nazariyaga – kishilikning boshlang'ich shakli ota-onalar va ularning avlodlaridan tashkil topgan oilada esa katta yoshdagi erkak hukmron, uning huquqi chegaralanmagan edi, degan noto'g'ri fikrga qattiq zarba berdi. Ammo Aristotelning patriarxal oila nazariyasi hamon saqlanib kelmoqda. Iogann Bahofenning «Onalik huquqi» asari bosilib chiqqandan so'ng oila tarixini o'rganishga asos solindi. Ibtidoiy nikoh va oila tarixini o'rganishda shotlandiyalik yurist J. F. Mak-Lennanning (1827–1881) ham xizmati bor.

Mak-Lennan qadim zamonda yashagan va yangi zamonda yashayotgan qabila va xalqlarda nikohlanishning formalari shubhasiz xilma-xil bo'lgan, degan fikrni bayon qiladi. Qoloq qabilalar orasida, - deydi u, shunday guruhlar mavjud bo'lganki, mazkur guruhlar ichida o'zaro nikohlanish mutlaqo man etilgan. Shuning uchun ham erkaklar xotinni, xotinlar erni o'zlari yashab turgan guruhdan tashqari joydan olishgan.



Jon Fergyuson Mak-Lennan

Lekin shunday guruhlar ham mavjud bo'lganki, ularda erkaklar xotinni, xotinlar erni o'z guruhlaridan tanlash odati bo'lgan.

Mak-Lennan birinchi* guruhni ekzogamiya – tashqaridan nikohlanish, ikkinchisini esa endogamiya – ichkaridagi guruh doirasida nikohlanish tartibi deb atagan. Mak-Lennanning xizmati shundaki, u o'zi ekzogamiya deb atalgan nikoh tartibining hamma joyga tarqalganligini va uning katta ahamiyati borligini ko'rsatdi. U nasl-nasabni onalik huquqiga qarab tayin qilish, dastlab hukm surgan tartib ekanini e'tirof etdi.

Bilib oling!

Ekzogamiya – ibtidoiy jamiyatda bir urug‘ yoki jamoa a‘zolari orasida jinsiy munosabatlarning taqiqlanganligi. Ekzogamiyaning dastlabki va ko‘p tarqalgan shakli ibtidoiy jamoa davridagi ota urug‘i yoki ona urug‘i orasida o‘zaro qarindoshlik munosabatlaridagi urug‘chilik ekzogamiyadir.

Ekzogamiya paydo bo‘lishi haqidagi qarashlarni, asosan, uch guruhga ajratish mumkin. Ba‘zi bir tadqiqotchilar (L.G. Morgan va boshqalar) ekzogamiyaning kelib chiqishini qon-qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh natijasida yuzaga keladigan zararli oqibatlardan qutulish zarurati bilan, boshqalari esa (E. Taylor, A. M. Zolotarev, K. Levi-Stros) kishilarning ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va jamoalararo munosabatlar o‘rnatishga intilish bilan izohlaydilar.

Uchinchi guruh tadqiqotchilar (S.P.Tolstov, Y.I. Semyonov) esa ekzogamiyani avvalo jamoada ijtimoiy tinchlikni qaror toptirish vositasi bo‘lgan, chunki shu tariqa jinsiy munosabatlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan nizolar jamoa doirasidan tashqariga chiqarib qo‘yilgan, deb hisoblaydilar.

Endogamiya – birona ijtimoiy guruh (qabila, urug‘, tabaqa va boshqalar)ning o‘z ichidan uylanishini taqozo etuvchi odat. Ibtidoiy jamiyatda urug‘ ekzogam, qabila esa endogam bo‘lgan. Ibtidoiy jamoa munosabatlarining buzilish davrida bir qancha xalqlar (malagasiylar, bantu xalqlarining bir qismi, arablar, o‘zbeklar, tuareglar, Dog‘istonning ayrim xalqlari va boshqalar)da urug‘ yoki ichidagi guruhlarda endogam nikoh qaror topdi.

Bundan maqsad yaqin qarindoshlar ichida mol-mulkni saqlash edi. Natijada nikoh aka-ukalarning bolalari o‘rtasida, amakivachchalar va ota yoki ona tomoniga mansub qarindoshlar o‘rtasida bo‘lgan.

Ammo u barcha qabilalar ekzogamiya va endogamiyaga*bo‘linib, ekzogamiya mazkur guruhda qiz bolalarni tug‘ilishi bilanoq o‘ldirilishi natijasida ayollar sonining kamayib ketishi oqibatida kelib chiqqan, deb noto‘g‘ri xulosaga keladi. Mak-Lennan o‘zining bu muhohazalarini «Qadimgi tarix ocherklari», «Boshlang‘ich nikoh» kabi asarlarida bayon qilgan.

Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda mashhur Amerika olimi Lyuis Genri Morgan (1818–1881) ham alohida o'rinni egallaydi. Lyuis Morganning ibtidoiy va qadimgi davr qabila va xalqlari haqidagi qarashlari uning «Qon-qarindoshlik tizimi», «Amerikaliklarning uyi va uy xo'jaligi», ayniqsa «Qadimgi jamiyat» degan asarlarida o'zining to'liq ifodasini topgan. Uning xulosalari yer sharining hamma joylaridan olingan juda ko'p etnografik, arxeologik va tarixiy dalillarga asoslangan edi. Lyuis Morgan Shimoliy Amerika hind-prokezlari orasida 40 yildan oshiq yashab, ular hayotini chuqur o'rgangan.

Bu kuzatishlar Morgan tadqiqotlarining negizini tashkil etadi. Bahofen va Mak-Lennandan so'ng oila va nikoh tarixi bilan qiziqib, uni tiklashga kirishdi. Lyuis Morgan oila va nikoh taraqqiyotining qator bosqichlarini – eng dastlabki nikohdan monogamiyagacha bo'lgan bosqichlarini belgilab berdi.

Lyuis Morganning ulug' xizmati shundan iboratki, u yozma tariximizning ana shu tarixdan bugungi negizining asosiy xususiyatlarini ochib bordi va tikladi hamda qadimgi yunonlar, rimliklar va germanlar tarixining hozirgacha hal qilinmay kelgan eng muhim muammolarini hal qilishga imkon beradigan kalitni Shimoliy Amerika hindularining urug'doshlik birlashmalaridan topdi.

Lyuis Morganning asarlari, xususan uning, «Qadimgi jamiyat» kitobi, ibtidoiy davr tarixini o'rganishda eng qimmatli manbalardan hisoblanib, Engels aytganidek, zamonamizda, butun bir davr ochadigan juda nodir asarlardan biridir. Lekin ibtidoiy davr tarixini ilmiy asosda o'rganish XIX asr o'rtalarida boshlandi.

Ayrim chet el olimlari eng qadimgi davr fanidan o'zining fazilatlarini mustahkamlash uchun foydalanib, bu davrda xususiy mulkchilik, qulchilik, yakka xudolik va davlat ham mavjud bo'lgan deb, ibtidoiy munosabatlarning mohiyatini qo'pol ravishda soxtalashtirishga urindilar.

Ishlab chiqarish rivoji va mehnatning ishlab chiqarishdagi ahamiyati o'sishi, ishlab chiqarishning individuallashiga, mehnatni parselyatsiyalashuviga olib keldi. Odamlar ishlab chiqarishda imkon qadar ko'proq mehnat qurollarini takomillashtirish hisobiga kam mehnat sarflab, ko'proq daromad ola boshladilar. Ilgarigi zamonlarda jamoa kuchidan foydalanib ishlashdan ko'ra yaxshi daromad olish boshlandi. Daromadi yaxshi bo'lgan xususiy mulk egalari jamoa mulk egalarining yordamiga, shuningdek, jamoalar yordamiga muhtoj bo'lishdan ozod

Ortakuzen nikoh (yunon tilidan «*ortos*» - to'g'ridan-to'g'ri va fransuzchada-amakivachchasi), qarindoshlarning parallel nikohi, ba'zi xalqlar orasida ibtidoiy jamiyatning parchalanish bosqichida rivojlangan turmush shakli. Ikki shakl mavjud: ikki aka-ukaning farzandlari yoki ikki opa-singil (aka-ukalar yoki uzoqroq darajadagi farzandlar) o'rtasidagi nikoh. Birinchi shakl (arablar, malgashlar, ba'zi bantu qabilalari, kurdlar, turkmanlar va boshqalar) patriarxal katta oilaning mulkiy manfaatlari yoki otasining ismi - bir xonadon ichida nikoh to'lovini saqlab qolish istagi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Ikkinchi shakl (faqat Sahro Tuareglari orasida tasdiqlangan) materiariarxal jamiyat sharoitida onalik va otalikning qarindoshlik, meros yo'nalishini birlashtirish uchun rivojlangan.

bo'lishdi. Xuddi shunday jarayonlarni ko'rgan jamoa va urug' jamoa xo'jaliklari va kollektiv mulkini alohida oilaviy shaxsiy xo'jaliklariga va ularning xususiy mulkiga o'tishi tezlashdi. Ikkinchidan, yangi oila nikoh shakllarini talab qiladigan, mustahkam, butun iqtisodiy va ijtimoiy birlashmalarga jamoa xo'jaliklarni shaxsiy xo'jaliklarga aylanishi tezlashdi.

Bu davrga kelib, ibtidoiy davrga xos bo'lgan ibtidoiy-egalitar¹³ nikohni, unchalik mustahkam bo'lmagan nikohni siqib chiqarishga harakat bo'ldi va kuyov-kelinlarning mustahkam oilalarini vujudga kelishiga, ya'ni monogamiyaning vujudga kelishiga olib keldi. Ammo, monogamiya odati juda ham to'g'ri emas, chunki xuddi shunga o'xshash tartib ko'pxotinlilikda ham, poliginialilikda ham uchraydi. Ammo erkakning xo'jalikdagi roli o'sgan sayin nikohning so'nggi ibtidoiy davrda yuzaga kelgan shakllari paydo bo'ldi va matrilokal yoki uksorilokal nikoh turar joyidan patrilokal yoki virilokal nikoh turar joylariga o'tish jarayoni boshlandi. So'nggi ibtidoiy davrda xotinning sotib olinishi anchagina qimmat edi. Agarda bunday holat bo'lmasa, nikoh qaytarilishi mumkin bo'lgan yoki nikohning mustahkamligiga putur yetgan.

Endilikda xotin erning uyiga butunlay keladigan bo'lgandan keyin, erkaklar o'sha sarflagan xarajatini qimmatini qaytarib olishga harakat qildi. Shunday qilib, ilgari faqat ma'lum shartlar asosida, ikki tomonlama

¹³ Egalitarizm (frantsuzcha egalitarisme égalité «tenglik») – bu jamiyatning barcha a'zolari uchun teng siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va fuqarolik huquqlariga ega bo'lgan jamiyat yaratish g'oyasiga asoslangan tushuncha, imkoniyat.

kelishilgan holda sotib olingan nikoh turi bo'lgan bo'lsa, endilikda oddiy tovarni sotib olinganday sotib olinadigan nikoh turi paydo bo'ldi.

Sinfiy jamiyatlar tuzilayotgan davrda sotib olinadigan nikoh eng keng tarqalgan nikohlar turiga kirar edi. Shuning uchun sotib olish uchun hammaning ham imkoniyati bo'lmaganligi tufayli va shu bilan birga harbiy bosqinchilik urushlari tufayli ko'p hollarda o'g'irlash usuli bilan amalga oshiriladigan nikoh turi ham paydo bo'ldi. Ammo bu nikoh turi ikkinchi darajali nikoh turi bo'lib qolaverdi. Shu bilan birga bu nikoh turining juda uzoq belgilari dunyoning turli xalqlarida, shu jumladan Kavkaz va O'rta Osiyo xalqlarida ham saqlanib qolgan.

Shu bilan birga bunday nikoh turlarining turli variantlari shakllandi va tarqaldi. Sotib olinadigan nikoh turini ayrim xalqlar o'zlarining qarindoshlarini ichida amalga oshirish keng yo'lga qo'yildi. Shunday nikoh turlaridan biri *ortakuzen* nikoh turi bo'lib, o'z navbatida, bu nikoh turi ikki shaklda namoyon bo'ldi. Bulardan biri – keng tarqalgan qarindoshlarning qizlari va o'g'illari o'rtasidagi nikoh bo'ladigan bo'lsa, ikkinchisi – opa-singillarni o'rtalarida bo'ladigan nikoh turidir. Nikohdan keyingi patrilokal va virilokal yashash manzilgohlariga o'tish keng miqyosda amalga oshgan davrdan boshlab nikoh bilan birga bo'ladigan turli kompromiss shakllari namoyon bo'ldi. Ularning juda ko'plari urfodat, an'anaga aylanib qolgan. Shunday odatlar qatoriga ayol tuqqandan keyin o'zining onasini uyiga borib yashash odati yoki qalinni to'liq bermagunga qadar otasining uyiga borib yashash odati ayrim xalqlarda tug'adigan xotin erining uyida bo'lsa ham unga alohida xona ajratilish odati kabilar keng tarqalgan edi.

Patriarxat zamonidan boshlab tarqalgan xuddi shunga o'xshash odatlar qatoriga ayol kishini erining yoshi katta qarindoshlari oldiga chiqmaslik odati, ya'ni ayollarning erkaklarga yuzini ko'rsatmasligi, shu bilan birga er-xotin bolalari bilan birga yoshi katta yaqin qarindoshlarining oldiga chiqmaslik odatlari keng tarqalgan edi. Bunday odatlarning kelib chiqishining asosiy sababi ilgarigi matriarxat zamonidagi matrilokal yashash sharoiti bilan bog'liq odatlar bo'lib, patriarxat zamonida xotinning erining qarindoshlari oldida «ko'zbo'yamachilik» qilib, yosh kelin-kuyovlar eski matrilokal an'alarini buzmay yurganliklarini namoyish qilishmoqchi bo'lganligidir. Shu bilan birga bu odatlarning boshqacha talqini ham bo'lishi mumkin.

Yangi nikoh turlarining paydo bo'lganligi dastlabki davrlarda unchalik og'ir ham emas edi va shu bilan birga ular u qadar tahqirlovchi ham emas edi. Bu urf-odatlar erning va xotinning barcha qarindoshlarini, guruhlarini o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida qilingan odatlar edi. Ammo ayolni sotib olib xotin qilish odati borgan sayin ayol kishini oldi-sotdi qilish mumkin bo'lgan buyum darajasiga ko'tardi. Bundan tashqari, sotib olib xotin qilish odati o'zining orqasidan patriarxat zamonining boshqa nikoh turlarini vujudga keltirdi. Jumladan, puldor chollarning yosh qizlarga uylanish odati, ko'pxotinlilik odatlari kelib chiqdi. Sotib olinadigan nikoh turi vujudga kelgandan keyin berilgan qalinni qaytarmaslik maqsadida o'lgan akasining xotiniga uylanish odati ham kelib chiqdi.

Ayollarni ma'naviy jihatdan yerga urishning yuksak cho'qqisi bo'yicha yana bir odat vujudga keldi. U ham bo'lsa «xotin o'g'irlash» odatining kelib chiqishidir. Bu odat paydo bo'lgan bo'lsa ham jamiyatdagi ayol, xotinning yanada yuksak statusini saqlay olmadi.

Yangi oila turiga o'tish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasdan o'ziga xos bo'lgan oraliq shakllar orqali bo'lgan. Ayniqsa, mulkni merosga qoldirishning ona tarafga bo'lishi tartibi saqlanib qolganligi bu davrning oraliq shakl ekanligini ko'rsatadi. Mulkni merosga qoldirishning bu shakllari matrilokal yoki uskorilokalni patrilokal- yoki virilokal bilan almashish davriga to'g'ri keladi.

Bu davrda xotin erning uyiga o'tib yashasa ham, uning bolalari ma'lum bir yoshga yetgandan keyin xotin tarafga o'tishi kerak edi. Bu yerda eng yaqin qarindosh tog'a bo'lib qoldi, uning bolalari ham o'sha sabablarga ko'ra boshqa urug'ga o'tishgan. Jiyanlar tog'aning uyida yashashib, uning xo'jalik ishlariga yordam berishgan, bu xo'jalikka xotinlarini ham olib kelishgan va barcha mulklariga merosxo'r bo'lishgan.

Shunday qilib, bu davrdagi oilalar ota-onalar va bolalardan emas, balki tog'alardan, jiyanlardan iborat bo'lib, bunday oilani *avvankulat* oila deb aytishgan. Etnologlar bu davrga xos bo'lgan materiallarni o'rganishib, bolalarni tarbiyalashni boshqa oilalarga berish odati aynan shu davrga xos bo'lganligini aytishadi. Bunday tarbiyalash odatlari aleutlarda, mo'g'ullarda, turklarda, Kavkazning bir qator xalqlarida saqlanib qolgan. Bunday odatlarning avvankulat bilan bog'liqligi taxminiyligicha qoladi, bu sun'iy qarindoshlikni o'rnatishni mexanizmi bo'lishi kerak.

Lekin erkaklar ilojini boricha o'zini mulkini jiyanlarga emas, balki o'z bolalariga qoldirishga harakat qilgan. Bu narsa qarindoshlikni ona tomonidan emas, balki ota urug'ining merosiga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Patri-lokal joylashuv tartibi, yoki virilokal joylashuv tartibi kabi bu juda ham uzoq davom etadigan jarayondir. Bu yo'nalishda ham oraliq, yoki o'tish davri bo'lib, odam o'z ixtiyori bilan o'zini kelib chiqishini yoki



otasi, yoki onasi tarafdanligini tan oladi. Bunday o'tish davrida qarindoshlikni ota yoki ona tomonidan aniqlash, ilmiy adabiyotlarda ambilineynost¹⁴ yoki qarindoshlikni ham ota tomonidan, ham ona tomonidan aniqlash, ilmiy tilda bilineynost¹⁵ deb ataldi.

Shuning uchun bu davrning bolalari ham bir qismi otasini urug'iga o'tib yashagan bo'lsa, qolgan qismi onasi urug'ida yashashni tanlagan. Bir qator etnologik materiallarga qaraganda, qabila a'zolaridagi qarindoshlardan qolgan mulklar ona urug'i a'zolariga qoldirilgan, shu bilan birga o'z mehnati bilan topilgan mulk otadan bolalarga o'tgan. Boshqa xalqlarda meros akadan ukaga qolgan, chunki ularning qarindoshligi ham ota tomondan, ham ona tomondan edi.

Bu davrga xos bo'lgan narsalardan yana biri – mulk bo'lish va mulkka ega bo'lish masalasi bo'lib, bu jarayon ko'p hollarda urush-janjallardan iborat bo'lar edi. Bu janjal va tortishuvlar o'lgan odamning bolalari va jiyanlari o'rtasida bo'lar, o'lgan odamning bolalari o'zlariga tortishishsa, jiyanlari o'zlari tomon tortishga harakat qilishgan. Bularning hammasi ona urug'i davridagi tartib va qoidalarning ko'proq, uzoqroq vaqt

¹⁴ Ambilineynost (lot. ambo - ikkalasi va linea - chiziq), qarindoshlikni hisoblash qoidasi, (bir xil bo'lmaganlik singari) ajdoddan avlodga kelib chiqishning faqat bitta yo'nalishini shakllantiradi, lekin har bir avlodda ota-onalardan birortasini jalb qilishga imkon beradi.

¹⁵ Bilineynost (lot. Bi - qo'shaloq va linea - chiziq; shuningdek qarindoshlik, yoki ikki tomonlama, qarindoshlik munosabatlari) - etnologiya va ijtimoiy antropologiyada - qarindoshlikni hisoblash sohasidagi atama.

turishga harakat qilayotganligining natijasi edi. Bu kuchga qarshi just oilalarning alohida, mustaqil xo'jaliklari qattiq qarshilik qilishar edi.

Albatta, doimiy an'anaviy hayot kechirgan o'sha davr odami uchun bu qadimgi an'analarni buzish, bu an'analardan yangisiga o'tish oson kechmadi. Shuning uchun ham bu o'tish davrida, ya'ni sinfiy davlatlarni tashkil topish davrida juda ko'plab yangi, oraliq urf-odatlar paydo bo'ldi. Bunday oraliq odatlarga travestizm va kuvada kiradi.

Travestizm odati hindu qabilalarida va Sibir xalqlarida saqlangan bo'lib, unda «jinsni almashtirish» odati saqlanib qolgan. Bu odat bo'yicha erkak kishi (kamdan-kam hollarda ayol kishi) o'zining jinsidan voz kechadi va ayolning usti-boshini kiyib ayolning vazifalarini bajargan, shu bilan birga o'ziga ayollarning huquqini ham qabul qilgan.

Bundanda kuvada odati ancha yaqqolroq bo'lib, bu odat bo'yicha ota o'zining bolasi bilan juda mustahkam aloqasi borligini ko'rsatadigan odatdir va bu odatlar basklarda, fransuzlarda va inglizlarning yaqin-o'tmishdagi etnografiyasida saqlanib qolgan. Bu odatni birinchi marta fransuz etnografi Bahoven mukammal o'rgangan va u birinchi marta erkak kishining o'z bolasining otasi ekanligi, otalik haq-huquqlari uchun kurashayotganligining namoyishi ekanligi, buning uchun qarindoshlikning ota tomonidan amalga oshirish kerakligini aytadi.

Kuvada odatida erkak kishi ayollarning bola tug'ish holatlarini bajarishi, o'zining kamquvvatligini ko'rsatish, parhez qilishini ko'rsatish, «tuqqandan keyin» bir necha kun uyda yotishi va hokazo, bularning hammasi jamiyatdagi otalik huquqini tiklash uchun harakat qilinganlikdan dalolat beruvchi materiallarga kiradi.

Alohida katta oila o'sha davr jamiyatining haqiqiy yacheykasi bo'ldi. Bu oilaning yana boshqa nomi ham bo'lib, buni mutaxassislar patriarxal oila deb atashdi. Ammo hamma oilalarni ham patriarxal oila deb atalishi mumkin emas edi, chunki, yuqorida ko'rganimizday, bu davrda juda ko'plab shunday oilalar avunkulat oilalari deb atalar edi. Avunkulat oilalarining hayoti juda ham uzoq davom etmadi va patriarxal oilalarning o'sishi avunkulat oilalarni ham patriarxal oilalarga qo'shib ketishiga sababchi bo'ldi.

Bunday katta oilaning asosan ikkita tipi ma'lum. Bulardan biri vertikal (yoki bir chiziqli) bir nechta, ko'p hollarda uchta-to'rtta avloddan iborat bo'lgan uylangan-uylanmagan bir liniyadan, iborat bo'lgan avlod va gorizontal (ko'p chiziqli), yon tarmoqdan iborat bo'lgan, bir nechta uylangan va uylanmagan qarindoshlardan iborat oila. Real hayotda esa, juda ko'p katta oilalar vertikal-gorizontaldir.

Bunday oilalar asosan ota-onalardan va uning o'g'illaridan, nevarachevaralaridan iborat bo'lgan. Bunday katta oilalar bir xotinlilik asosida ham, ko'p xotinlilik asosida ham bo'lishi mumkin edi. Hatto, qulchilik rivojlangan mamlakatlarda katta oilalar ham bo'lib, oilaning umumiy soni 200, hatto 300 kishini tashkil etgan va katta turar-joy makonining yoki qishloqning asosiy aholisi shu katta oila a'zolaridan iborat bo'lgan.

Oilaning barchasi birga yashashgan, ular umumiy yerga, chorva mollariga va boshqa qishloq xo'jaligi qurollariga umumiy egalik qilib yerga birgalikda ishlov berishgan hamda yetishtirilgan barcha mahsulotlardan birgalikda yeyishgan va kiyinishgan. Oilani yoshi katta oila boshlig'i boshqargan, ayollar bo'yicha uning xotini boshqargan. Mabodo, ular qarib qolgan, kasal bo'lib qolishgan bo'lishsa, oilani boshqarish katta akaga va uning xotinlariga o'tgan.

Bu oila boshliqlarining vazifasiga xo'jalik ishlarini oila a'zolarini ichida bo'lish, ularni bajarilishini nazorat qilish, tartibga, oila kultiga topinish masalalariga e'tiborni qaratishgan. Oila boshlig'iga katta o'g'il, uning xotiniga katta kelin yordam bergan. Ammo oilaning eng muhim ishlari – yerning bir qismini ajratish, biror buyumni sotib olish, o'g'il uylantirish, qiz chiqarish kabi ishlar oilaning katta yig'inida, barcha erkaklar va barcha xotinlar qatnashgan maslahat yig'inida hal qilingan. Shunday qilib, urug'ning, yoki jamiyatning boshqa qismidan sifat jihatidan boshqa, oilaning eng yaqin qarindoshlaridan iborat bo'lgan, lekin ibtidoiy kollektivizm va demokratiyaning yuqori elementlarini saqlagan oila edi.

Xuddi shunday patriarxal oilalar ham etnologik, ham tarixiy manbalarda yaxshi saqlangan. Masalan, Polineziyada yaqin paytlargacha bir nechta o'ntalik odamlardan tashkil topgan bitta va bir nechta alohida uylarda yashaydigan oilalar borligi aniqlangan.

Vaqt o'tgan sayin katta oilalardagi xususiy mulkchilik psixologiyasiga ega bo'lgan tendensiyalar ustuvor bo'la boshladi. Amalda oila boshlig'i butun katta oila mulkining egasi, uni boshqaradigan yagona hukmron bo'lishga harakat qilgan. Bunga qarshilik ko'rsatadigan kuchlar chiqqa boshladi. Ayniqsa, katta o'g'il va uning xotini, boshqa oilalarda barcha o'g'il va kelinlar o'z mustaqilliklarini himoya qilish uchun harakat qilish boshlangan. Shu munosabat bilan mulkni turli qismlarga bo'lib, alohida kichik oilalar paydo bo'lgan. Ammo bu bo'lingan oilalar ichida yana bo'linishlar va ichki nizolar davom etgan.

Yangi oilalarning bo'linib chiqishi, mayda xususiy xo'jaliklarni paydo bo'lishiga olib kelgan. Bularga dastlabki xususiy mulkchiliklar paydo

bo'lishi, kichik oilalarning ahvolini eslatar edi. Bular sinfiy jamiyatlarni shakllanish jarayonida paydo bo'lgan edi. Ammo bu jarayonlar hamma joyda ham bo'lavermadi, balki tovar ishlab chiqarilishi jadal yo'lga qo'yilgan joylarda va natijada xususiy mulkchilik jarayonlari keng rivojlanish hududlarda bo'ldi.

Shunday qilib, ilk sinfiy jamiyatlarni shakllanishi davrida just oilalarning paydo bo'lishi oilada xususiy mulkning vujudga kelishiga olib keldi. Bu oilalarni paydo bo'lishi davrining eng dastlabkisi arxaik shakldagi katta oilalar edi. Bu oilalarning mulki chetdagilarga nisbatan xususiy mulk hisoblangan, ammo oila doirasida jamoa mulk bo'lib qolavergan.

Ikkinchi bosqichda bu arxaik shakldagi kichik oilalarning o'miga *katta oilalar* vujudga keldi. Ular tendensiyali ravishda dastlab alohida, keyinchalik kichik oilalar tarkibidagi xususiy mulkchilikni yaratdi.

Uchinchi bosqichda bu yacheykalar kichik oilalarning paydo bo'lishiga olib keldi va o'z davrining xususiy mulkni eltuvchisiga aylandi.

Bilib oling!

Katta oila, katta patriarxal oila, oila jamoasi – oilaning tarixiy shakllaridan biri. Katta oila ota tomondan qarindoshlik, urug'-aymoqlikka asoslangan, bir necha og'a-ini, ularning xotinlari, o'g'illari, kelinlari, erga tegmagan qizlari, nabiralari (3 yoki undan ortiq avlod) hisobiga 20–30, ayrim joylarda 100 dan ortiq kishilardan tashkil topgan xo'jalik guruhidir.

Oilaning bu shakli O'zbekistonning Xorazm viloyatida «katta oila», Qashqadaryo viloyatida «bir qozon», «katta ro'zg'or», Zarafshon vodiysida «ota uyi», Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida «katta ota uyi» nomlari bilan yuritiladi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, katta oila turli davrlarda jahondagi deyarli barcha xalqlarda mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikda vujudga kelib, mil. avv. VII – III asrlarda keng tarqalgan va milod boshlarida mustaqil qaror topgan.

Katta oila rivojlanish bosqichi shaharlarda va taraqqiy etgan hududlarda milodning dastlabki ming yilligi o'rtalarida, ko'chmanchi aholi yashagan mintaqalarda esa X – XII asrlarga to'g'ri keladi.

Katta oilaning iqtisodiy asosini oila ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari: yer, chorva mollari tashkil qilgan. Oila a'zolari tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, daromadlar o'rtada bo'lgan. Shuningdek, iste'mol sohasida ham katta oilaning barcha a'zolari teng qatnashgan. Katta oila ayni paytda sodda ishlab chiqarish birlashmasi bo'lgan.

Katta oila o'troqlarda – katta binolarda, ko'chmanchilarda – o'tovkapalarda yashagan va oiladagi har bir er-xotin uchun ma'lum joy ajratib berilgan. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabat patriarxal xarakterda bo'lgan. Yoshi eng ulug' (ayrim oilalarda obro'li va tadbirkor) kishi oila boshlig'i hisoblangan. U oilaning xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilgan.

Oilaning ichki ro'zg'or ishlari oila boshlig'ining yordamchisi hisoblangan katta ayol (ko'pincha oilaboshlig'ining xotini) tomonidan boshqarilgan. O'g'illar yoshiga qarab navbat bilan uylantirilgan (aholining ko'pchiligi o'z urug'idan qiz olib, o'z urug'iga qiz uzatganlar). Kelin tushirishda to'lanadigan qalin ham oilaning umummulkidan berilgan. Bunday oilalarda nikohning levirat va sororat shakllari ham mavjud bo'lgan.

Oila jamoasi ichida katta oila xo'jalik yuritishda chetdan tirikchilik vositalari sotib olmay va chetga hech narsa sotmay tirikchilik o'tkazishga harakat qilgan. Savdo-sotiq va tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi bilan katta oilalar ham bozor uchun mahsulot (masalan, qorako'l teri, jun, gilam, chakmon va h.k.) ishlab chiqara boshlagan.

Oila jamoasining ayrim a'zolari uchun chetdan pul topish, yollanib ishlash imkoniyati paydo bo'lgan. Shunday qilib, oilada ayrim kishilarga tegishli shaxsiy mulk paydo bo'lib, ko'payib borgan. Xususiy mulkchilik, shaxsiy mulkning ortishi (yoki boshqa xususiy sabablar, masalan, ocharchilik, vabo, oila boshlig'ining vafoti kabi sabablar) natijasida, katta oila tarqalib keta boshlaydi.

Katta oila o'rninga kichik oilalar vujudga keladi. Lekin dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va boshqa xo'jalik shakllari o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasining turlicha bo'lishi sababli katta oila kichik oila bilan bir qatorda uzoq davr yashab keldi (uning qoldiqlari elat, to'p, qoraqalpoqlarda koshe, tojiklarda qavm deb atalgan).

O'rta Osiyoga tovar-pul munosabatlarining kirib kelishi katta oilani yemira borib, natijada individual kichik oila, oilaning asosiy va keng tarqalgan shakli bo'lib qoldi.

Patriarxal oilalarning kundalik hayotida patriarxal tartiblar joriy qilinib, uning eng xarakterli belgisi ayollar bilan erkaklar, yoshi kattalar bilan kichiklar o'rtasidagi huquqning teng emasligida edi. Yosh qiz so'zsiz o'zidan katta kamma qarindoshlarining so'zlariga quloq solishi va uni bajarishi, qalin to'lanib turmushga chiqqan ayol o'sha oiladagi barcha kattalarning, o'zining erini aytganini qilishga majbur edi.

Erдан ajralish huquqi amalda bir tomonlama bo'ldi. Agarda ayol o'z uyiga doimiy qaytib ketishni istasa, bu istakning iloji faqat qiz tomonga berilgan qalin pulini to'lash edi. Erkaklar uchun xotinidan ajrash ham bir tomonlama ustunlikka erishida qo'shimcha imtiyoz bo'lgan. Ayollarning ikkinchi turmushga chiqishining amalda iloji bo'lmay qolgan. Jumladan, turmushga chiqqan ayolning eri vafot etgan bo'lsa, levirat tartiblariga ko'ra u erining uyida qolishi kerak edi. Uning huquqlari bolalarga nisbatan, merosga nisbatan chegaralangan.

Patriarxal tartib-qoidalarini mustahkamlanib, nikohning axloq normalarida ham o'z aksini topdi. Ayolning oilaga nisbatan qilgan xiyonati uyiga qaytarish, jinsini mayib qilish, qul qilib sotish va hatto o'lim bilan ham yakunlangan. Buning aksi o'laroq erkak kishi o'zining ilgari jinsiy aloqa erkinligini ilgari qanday davom ettirgan. Juda ko'plab puldor odamlar ayol qullarni sotib olishdi, ko'p xotin olish huquqlaridan foydalanishdi.

Nikoh axloq normalariga ko'ra, qizlarga nisbatan juda qattiq tartiblarni saqlashni talab qilgan. Bu tartiblar buzilgan taqdirda birinchi nikoh kechasidan keyin sharmandalarcha uyiga qaytarilgan. Qizning uyida ham uni yaxshilik kutmagan. Ayollarning kundalik hayotida ham bunday tahqirlash qoidalarini o'z aksini topdi. Ayniqsa, ko'chada yurganda eridan bir necha qadam orqada yurish, eridan keyin ovqatlanish, eriga va boshqa qarindoshlariga nisbatan izzat-hurmat ko'rsatishga majbur bo'lgan.

Ayollarga nisbatan bo'lgan tahqirlash qonun-qoidalarini patriarxal oiladagi yoshi kichik erkaklarga ham bo'lgan. Bunday erkaklar o'zlaridan yoshi katta erkaklarga, eng avvalo, oila boshlig'iga qaram bo'lib qolganlar. Yoshi kichik erkaklarning mustaqil ravishda o'z taqdirini o'zi belgilashi mumkin emas edi, ular o'zlariga kelin tanlash huquqidan mahrum edi.

Oilalarning ruxsatisiz o'zining oilasini, o'zining xo'jaligini tuzishi mumkin emas edi. Ular o'zining otalarini, akalarini aytganini so'zsiz bajarishi shart edi. Juda ko'plab qabilalarning axloq normalarida otaga so'zsiz quloq solish tartibi amalda bajarilmasa, unga merosdan mahrum bo'lish, uydin haydab yuborish, hatto qullikka sotish, hatto o'lim jazosini olish kabi jazolar kutishi mumkin edi.

Ularning so'zsiz itoat qilish kerakligi tartib-qoidasi bir qator patriarxal davrining etiketlari bilan, ayniqsa kattalar oldida yotish, yoki o'tirish, qattiq gapirish va kulish, kattalarning oldida ularga bepisand bo'lib yomon kiyingan holda ko'rinish, ulardan oldin gap boshlash kabi axloq normalari bilan chegaralangan edi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

❖ Kim ibtidoiy oila va nikoh masalalarini o'rganishga asos solgan olim hisoblanadi? Uning qanday asarlari mavjud?

❖ Mak-Lennanning qadim zamonda yashagan va yangi zamonda yashayotgan qabila va xalqlarda nikohlanishning formalari xilma-xil bo'lgan, degan fikri qanday asoslarga tayanadi?

❖ Oila va nikoh taraqqiyotining qator bosqichlarini – eng dastlabki nikohdan monogamiyagacha bo'lgan bosqichlar qaysi olim tomonidan belgilab berildi?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

✓ Iogann Yakob Bahofenning ibtidoiy oila va nikoh masalalarini tadqiq etishga qaratilgan asarlari va ularning mazmuni.

✓ Lyuis Genri Morgan asarlarida oila va nikoh taraqqiyotining bosqichlari masalasining yoritilishi.

✓ Kishilik tarixida juft oilalar va katta oilalarning shakllanish jarayoni.

Seminar savollari:

1. Ibtidoiy oila va nikoh masalalari kimlar tomonidan tadqiq etilgan? Nima uchun qarashlarga xilma-xilliklar mavjud?

2. Yangi nikoh turlarining paydo bo'lishi: ularning mazmuni, mohiyati va o'zaro farqlari nimalarda namoyon bo'ladi?

3. Kishilik tarixida juft oilalarning vujudga kelish jarayoni qanday omillar ta'sirida ro'y berdi?

4. Katta oilalarning shakllanishi, vaqt o'tishi bilan ularda xususiy mulkchilik psixologiyasiga ega tendensiyalarning ustuvorlik kasb eta borishi qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?

Bilib oling! •

Poliandriya, ko'p erlilik – guruhli nikohning kamdan-kam uchraydigan shakli, unda ayolning bir necha eri (odatda, aka-ukalar) bo'ladi. Asosan, matriarxat davriga xos. Bu davrda har bir ayolning bir necha eri bo'lgan. Poliandriyada xotinlar erkin er tanlaganlar, er-xotinlik, oila turg'un bo'lmagan.

Poliandriyaning asosiy shakllari: 1) bir urug' avlodlari poliandriyasi (bir urug' a'zolari bo'lgan erkaklar bir ayol yoki ayollar) ga er bo'ladi; 2) aka-uka (tug'ishgan birodarlar) poliandriyasi (aka-uka bo'lgan bir necha erkak bir ayolga er bo'ladi).

Aka-uka poliandriyasida katta akaning xotini hamma ukalariga xotin bo'ladi. Tug'ilgan bolalar hamma otalarniki hisoblanadi. Oilaga tegishli yer va mulk bolalarning eng kattasiga meros bo'lib qoladi.

Poliandriya XIX asrda aleutlarda va eskimoslarning ayrim guruhlarida mavjud bo'lgan; keyinchalik Shimoliy Hindiston va Tibetdagi ayrim etnografik guruhlarda saqlanib qolgan.

Poligamiya – ko'p nikohlilik. Ko'pincha «poligamiya» termini ko'p xotinlilikni ifodalash uchun noto'g'ri ishlatiladi.

Poliginiya, ko'p xotinlilik – asosan, patriarxatga xos bo'lgan nikoh shakli. Ayrim xalqlarda, ko'proq, musulmon xalqlarida, saqlanib qolgan. Ba'zan poliginiya poligamiya (ko'p nikohlilik) shaklida ham qo'llaniladi. Poliginiya aslida guruhli nikohning qoldig'idir, unda bir urug'ning barcha ayollari boshqa urug'ning barcha erkaklariga umumiy xotin hisoblangan.

Keyinchalik davrlar o'tishi bilan jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari va madaniy hayot yuksalishi tufayli bir nikohlik – monogamiyaga o'tilgan.

O'zbekistonda XX asrning 20-yillaridagi iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar natijasida ayollarning ijtimoiy mehnatga faol tortilishi, erkak va ayollarning amaldagi tengligi vujudga kelishi bilan xotinlarning erlarga iqtisodiy qaramligi yo'q qilingan. O'zbekiston Respublikasida ko'p xotinli bo'lish qonun bilan jazolanadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-moddasi).

Monogamiya, bir nikohlilik – nikoh va oilaning tarixiy shakli. Ibtidoiy jamiyatning yemirilishi davrida juft nikohdan paydo bo'lib, monogamiya nikohning hukmron shakliga aylangan.

TARIXIY ANTROPOLOGIYADA MODDIY VA MA'NAViy MADANIYATNING O'RNI

Reja:

1. Tarixiy antropologiyada madaniyatning tutgan o'рни.
2. Moddiy va ma'naviy madaniyatning rivojlanishining inson antropologiyasiga ta'siri.
3. Tarixiy antropologiyada diniy tasavvurlar masalasi.


Madaniyat – bu insonlarning aqliy va mehnat faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalanadi. «Madaniyat» atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarda rang-barang ma'nolarda ifodalangan. «Madaniyat» va «Kultur» atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra lotincha «ishlov berish», «parvarish qilish» ma'nosini anglatgan. Keyinchalik «ma'rifatli bo'lish», «tarbiyali», «bilimli bo'lish» mazmunida ishlatilgan. O'zbek tilida keng ishlatiladigan «Madaniyat» atamasi arabcha «madaniy»-»shaharlik» degan ma'noni bildiradi. Amerikalik madaniyatshunos olimlar A.Kreber va K.Klakhonlarning 1952-yildagi ma'lumotlariga ko'ra madaniyat hodisasiga berilgan ta'rif 164 ta bo'lsa, so'nggi adabiyotlarda bu raqam 400 dan ortiqni tashkil etadi.

Madaniyat inson tafakkuri va mehnat faoliyatning mahsuli bo'lib, insoniyat unga doim ehtiyoj sezib kelgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi buzilishining shart-sharoitlari. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat jamiyati tarixining eng dastlabkisidir. Bu jamiyat bir joyda qotib qolgan narsa bo'lmay jamiyatning rivojlanishi natijasida mazkur jamiyat qator o'zgarishlarga uchrab va inqirozga yuz tutdi, yemirilib bordi.

Ibtidoiy-jamoa tuzumi buzilishi sababi oziq-ovqat va turli mahsulotlarni ortiqcha ishlab chiqarish bilan bog'liqdir. Bu hol odamni odam tomonidan zo'rlab ishlatish uchun zamin hozirladi.

Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish esa ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining oqibati bo'lib, ayniqsa xo'jalikning-dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqa asosiy tarmoqlarni o'sa borishi bilan bevosita bog'liqdir.

Neolit revolyutsiyasi bu shart-sharoitlarning eng muhimi bo'lib, xuddi shu davrda yer yuzining ilg'or hududlaridan termachilikdan dehqonchilikka, ovchilikdan esa chorvachilikka o'tila boshlandi.



Miloddan avvalgi VIII-VI ming yilliklarda Old Osiyo o'lkalarida sodir bo'lgan voqea-dehqonchilik va chorvachilikka o'tish ibtidoiy jamoa tuzumining barham topishi uchun kishilik oldida dastlabki yo'lni ochib berdi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, binobarin, dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi natijasida xo'jalikning muqarrarliligi kuchaydi, aholining soni ko'paydi, turmush

darajasi ko'tarilib, sotsial strukturasi murakkablashdi hamda ibtidoiy kishilarning psixologiyasida ham o'zgarish sodir bo'ldi. Eng muhimi ishlab chiqarish kuchlarning ajralmas qismini tashkil etuvchi mehnat qurollari takomillashdi.

Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishning eng muhim shart-sharoitlaridan yana biri foydali ma'danlarini topish va undan foydalanishdir. Endi tosh asri o'rni metall asri olib, metallardan xo'jalikda keng foydalanish madaniyatning bundan keyingi rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Odam dastlab qanday metaldan foydalangan degan masala ham olimlar orasida tortishuvga sabab bo'lib kelmoqda.

Ko'pgina mutaxassislarning fikricha odam tomonidan foydalanilgan birinchi ma'dan oltindir. Misrda mil. avv. VI ming yillikka mansub neolit davri yodgorliklaridan oltindan yasalgan mayda buyumlar topilgan. Janubiy Amerikaga birinchi bo'lib bostirib kirgan portugaliyaliklar mahalliy aholi qo'lidagi qarmoqlar oltindan ekanligini ko'rganlar. Sof holda topiladigan misdan ham ancha erta foydalanilgan. Ibtidoiy kishilar tabiatda sof holda uchraydigan misdan oltin va kumushga nisbatan keng foydalanganlar.

O'rta Osiyo, Old Osiyo, Sinay, Ural, Shimoliy Amerikaning yuqori ko'l hududlarida boy mis konlari bo'lgan.


Old Osiyo va O'rta Osiyodagi ibtidoiy qabilalar misdan foydalanishlari ma'lum. Misr va Mesopotamiyada yashovchi qadimgi qabilalar sof holda uchraydigan meteo temiridan ham foydalanganlar.

Shuning uchun qadimgi shumeriklar temirni «osmon olovi» deb atashgan. Shubhasiz ibtidoiy odamlar metallni eritmay ularni «tosh bolg'a» va «tosh bolta» lar yordami bilan ishlab xilma-xil qurollar yasaganlar, keyinchalik esa odamlar metallarni eritish, ularni bir-biriga qo'shishni o'rganib, metallurgiya sanoatiga asos solganlar. Old Osiyo va Nil vodiysida mis eritish va qizdirib ishlash mil.avv V-IV ming yillikda vujudga kelgan.

O'rta Osiyo Hindiston va Xitoy misgarlikning eng qadimgi o'choqlaridan biri hisoblanadi. Afrikadagi ko'pgina qabilalarga ham mis ma'lum bo'lgan. Yevropada mis eritish mil.avv III ming yillikda paydo bo'lgan. Mis bo'sh bo'lganligi uchun undan pichoq, xanjar, bolta, bilakuzuk, uzuk, marjon va boshqa ziynat buyumlari yasalgan. U katta, og'ir va kuchli mehnat qurollari yasash uchun yaroqsiz bo'lgan, shuning uchun ham mis ibtidoiy texnikaning asosini tashkil etgan toshni siqib chiqara olmadi. Ibtidoiy kishilar misni qalay bilan rux, bilan qo'rg'oshin va surma bilan qo'shib eritishdan bronza hosil qilishni o'rganib olganlar.

Bronzadan esa jangovor qurol-yarog'lar, mehnat qurollari, idishlar va bezaklar yasalgan. Bu metall sifat jihatidan misdan afzal bo'lib undan yasalgan mehnat qurollari xo'jalikda keng qo'llana boshlagan. Shu tariqa bronza asri boshlangan. Janubiy Eron, Mesopotamiyada bronza asri mil.avv III ming yillikning o'rtalariga O'rta Osiyo, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Kipr, Kritda esa mil.avv II ming yilliklarni o'z ichiga olgan. Haqiqiy metall asri bronza (jez) va temir kashf etilgandan so'ng boshlandiki, shuning uchun ham metall asri bronza va temir davrlariga bo'linadi.

Metallni kashf qilinishi va undan foydalanish xo'jalikning hamma sohalarini, eng avvalo dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishda juda katta rol o'ynadi. Ibtidoiy dehqonchilikning dastlabki davrlarida o'rmonni kesib tozalash tosh boltalar yordami bilan amalga oshirilib, buning uchun juda katta kuch va ko'p vaqt sarf etilgan.



S.A.Semenov mis boltalar yordamida o'rmonni kesib dehqonchilik maydonlari ochish ustida olib borgan tajribalar ajoyib natija berdi. Mis bolta yordamida ochilgan yer uchun sarf qilingan mehnat tosh boltaga nisbatan uch marta qisqarganligi hisobga olingan. Bronza yoki temir boltalar esa yer ochish ishlarini osonlashtirgan va tez-

lashtirgan. Temir bolta va temir belkurak bo'lmagan taqdirda bu ishni keng miqyosda bajarish mumkin bo'lmas edi, deb yozgan edi. F. Engels.

Endilikda mis, bronza va nihoyat temirdan dehqonchilik qurollari omoch dastlab ikki daryo oralig'i, Misrda mil.avv IV, Kritda 1 ming yillik o'rtalarida kashf etildi. Bronza va temir tishli omoch dehqonchilikni rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bronza davrida Misr, Ikki daryo oralig'i, Xitoy, Shimoliy Italiya, Shvetsariya, Germaniya, Daniya, Polsha territoriyasida yer haydov qurollari keng ko'lamda qo'llanilgan. Lekin bronza bo'sh bo'lganligi tufayli, undan omoch tishi tayyorlash yaxshi natija bermagan va haydov qurollarining tishi yog'ochligicha qolavergan. Lekin temir vujudga kelishi bu sohada katta o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lgan.

Dastlab, omochni tortish odamlar zimmasiga tushgan bo'lsa kerak, lekin keyinchalik esa hayvonlardan tortuvchi kuch sifatida foydalanganlar. Bu hol motiga dehqonchiligidan yerni haydab ekishga o'tishga olib keldi va haydov dehqonchiligi yer yuzining katta qismiga tarqaldi. Chunki omoch asosidagi dehqonchilik o'zining ish unumi, xo'jalik natijasi bilan motiga asosidagi dehqonchilikdan juda yuqori turgan. Chunki u odamlarni ko'p miqdorda doimiy ovqat bilan ta'minladi. Ayniqsa suniy sug'orishga asoslangan qadimgi Sharq va O'rta Osiyoda haydov dehqonchiligi alohida ahamiyat kasb etdi.

Haydov dehqonchiligiga o'tish bilan tortish kuchiga ega bo'lgan hayvonlarga talabning orta borishi natijasida chorvachilikni yanada rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. Endilikda dehqonchilik va chorvachilik muayyan hududning o'zida yonma-yon rivojlana boshladi.

Bir tomondan omoch asosidagi dehqonchilikning rivojlanishi, ikkinchi tomondan esa uy hayvonlarini urchitib ko'paytirish natijasida chorvachilikni yuksaltirish va ulardan dehqonchilikda keng foydalanish oqibatida erkak va ayollarning xo'jalikdagi mavqei o'zgara bordi. Xo'jalikdagi asosiy ish – chorva mollariga qarash, yer haydash uni parvarish qilish erkaklarning, uy xo'jaligi bilan shug'ullanish esa ayollarning vazifasi bo'lib qoldi. Texnika taraqqiyoti natijasida yangi-yangi ko'riklar ochilib dehqonchilik taraqqiy eta bordi. Ikkinchi tomondan esa parvarishning yaxshilanishi natijasida chorva mollarining soni orta bordi. Chorva mollari sonining tobora ko'payaborishi natijasida ekin maydonlari payhon qilinib dehqonchilikka zarar keltira boshladi. Endilikda xo'jalikning bu ikki buyuk tarmog'i muayyan maydonga sig'ishmay qoldi. Bugina emas ular bir-birlarining rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. F. Etnik ta'biri bilan aytganda oriylarda Hindiston, Amudaryo va Sirdaryo, Don va Dnepr tekisliklariga cho'ponlik hayotiga olib keldi.

Xo'jalikning bu sohasi uchun alohida sharoit eng avvalo, o't, yem-xashakka mo'l tabiiy yaylovlar zarur bo'lib qoldi. Dehqonchilik uchun esa avvalo suv va serhosil yerlar talab etilar edi.

Shunday vaziyat vujudga keldiki, qadimgi dunyoning O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Yaqin Sharq, Yevropa va O'rta Yer dengizi atrofidagi ko'p o'lkalarda xo'jalikning bu ikki sohasi bir-birining rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Oqibat natijada chorvachilik dala dehqonchiligidan ajralib chiqib, xo'jalikning eng muhim, mustaqil sohasini tashkil etdi.

Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqar ekan, chorvador qabilalar chorva uchun qulay bo'lgan keng dasht, tog' oldi va tog'lik hududlarga borib o'rnatish boshladilar, podalarni yaylov-o'tloqlarda boqib, yarim ko'chmanchilik va ko'chmanchilik hayotiga o'ta boshlaganlar. Bronza va ilk temir davriga kelib G'arbiy, Markaziy, O'rta Osiyo, Shimoliy Qora dengiz bo'yi, Volga bo'yi, Orol bo'yi, Janubiy Sibir, Shimoliy Afrika va Qadimgi Sharqning dasht, tog'oldi hamda tog'lik tumanlarida yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvachilik keng tarqaldi.

Dehqon chorvachilikdan chorvachilikni ajralib chiqish mehnat taqsimotining yagona shakli bo'lmay kishilik jamiyati tarixida mehnat taqsimotining bundan boshqa shakllari ham ma'lumdir. Etnografik ma'lumotlar shundan darak beradiki, Amerika, Okeaniyaning juda ko'p orollari, shimoliy va sharqiy hududlarda yashagan chukcha, evenk va

boshqa qabilalarda mehnatning yirik ijtimoiy bo'linishi boshqacha shaklga ega bo'lgan. U yerlarda dehqonlar bilan ovchilar, dehqonlar bilan baliqchilar, chorvadorlar bilan baliq ovlovchilar o'rtasida ijtimoiy mehnat taqsimoti sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimotining mazkur shakli muayyan hududlarda yashagan qabilalarning iqtisodiy turmushidan kelib chiqib, xo'jalikning turi bilan bevosita bog'liqdir. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga, doimiy ortiqcha mahsulot yetishtirishga, mol ayriboshlashni tartibga solishga, xususiy mulkni vujudga kelishga, qullikning paydo bo'lishi va nihoyat davlatning qaror topishiga shart-sharoit tayyorladi.

Ilk urug'chilik tuzumidan boshlab ishlab chiqarish kuchlarining rivojlana borishi bilan bir qatorda, insonda yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida kishilarning tafakkuri va tili rivojlanib ularning so'z boyligi ham orta bordi.

Yangi-yangi so'zlar paydo bo'lib, ularning ma'naviy mazmuni boyidi, so'zlarning bir-biri bilan mantiqiy bog'lanishi natijasida sintaksis ham rivoj topa boshladi. U yoki bu voqiyani, fikrni o'zgalarga tushuntirishda so'zlashuv odamlar orasidagi munosabatning asosiy negizini tashkil eta boshlaydi. Lekin, ibtidoiy davrda fikrni anglatishning boshqa bir sodda usuli ham mavjud bo'lib u «*signallar tili*» deb atalgan. «Signallar tili»da biror xabarni aniq belgilar yordami bilan ifoda qilinadi. Buni Avstraliya, Okeaniya, Afrikadan va boshqa qabila, elatlar hayotidan olingan etnografik materiallar ham tasdiqlaydi. Mahalliy avstraliyaliklar bir joydan ikkinchi joyga ko'chganlarida qumga oyoqlari bilan chiziqlik chizib, uning uchiga xivich tiqib ketadilar. Chiziqlikning yo'nalishi va uning uzunligi ketuvchi guruhlarining qaysi tomonga va qancha masofaga ketganligini bildiradi. Bu mazkur guruhning kechikib qolgan a'zolari va qo'shni guruhlar uchun shartli belgisi edi.

«Signallar tili» hozirgi zamon qabila va xalqlar xarakterli bo'lib Shimoliy qabilalar xabar, fikr yoki qandaydir tuyg'uni ifodalash uchun «simvollar tili» yoki «belgilar tili»dan keng foydalanishgan. Shimoliy Amerika Hindularida tomaguk (so'yil) yuborish urush e'lon qilishning simvolik belgisi hisoblangan.

Tomagauk dushmanga maxsus elchi orqali yuborilgan. Elchi tomagaukni dushman qarorgohiga borib yerga qo'ygan. Agar dushman

tomon tomagaukni yerdan ko'tarsa urushga rozi, tomagaukni ko'tarmasa sulh tuzishga moyil ekanligi tushunilgan.

Tarix otasi Gerododning xabariga ko'ra eroniylar skiflarning yerlariga bostirib kelganlar. Shunda skiflar eroniylarga qush, sichqon, qurbaqa va beshta o'q-yoy yuborganlar. Bu ramziy belgining ma'nosi quyidagicha edi. «Agar siz eroniylar qush singari osmonga uchmasangiz, sichqon singari kavakka bekinmasangiz yoki qurbaqa singari ko'lga sakrab, suv ostiga yashirinmasangiz elingizga qayta olmaysiz va bizning o'q-yoylarimiz ostida qirilasiz»

Shunday qilib «signallar tili» va «simvollik tillar» o'z davri uchun muhim madaniy-tarixiy rol o'ynab, iqtisodiy va mudofaa ishlarida katta ahamiyat kasb etgan. Tabiiyki ibtidoiy odamning turmush sharoiti o'zi yashab turgan joyni va tevarak-atrofni yaxshi o'rganishni taqozo etgan. Odamlar o'z atroflarini o'rab turgan muhitni bilmay turib tirikchilik qila olmas edilar albatta. Etnografiya ma'lum bo'lgan Avstraliya, Janubiy Amerika, Afrika va boshqa joylarda istiqomat qiluvchi xilma-xil qabilalar o'zlari yashab turgan joydagi hayvonlar va o'simliklar dunyosini yaxshi biladilar. Ular tilida har bir hayvon va o'simlikning o'z nomi bo'lgan.

Bugina emas, ular loy, tuproq va qum ustida qoldirilgan izlar qaysi hayvonga xos ekanligini osonlik bilan aniqlaganlar. Ularga o'sha yerda yashaydigan hayvonlarning fe'l-atvori ham yaxshi ma'lum bo'lgan. Xuddi shunday-kuzatuvchanlik ibtidoiy odamlarga ham xos bo'lganligi shak-shubhasizdir.

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, tilshunoslik, geografiya, botanika, zoologiya, iqlimshunoslik va boshqa fanlarning negizini o'rganiboshlash kishilikning ibtidoiy davriga borib taqaladi. Shak-shubhasiz ibtidoiy kishilar «oltin davrda» emas juda og'ir sharoitda yashagan. U davrda kasallik keng tarqalib, kishilar 35-40 yoshdan nariga o'tmay o'lib ketishgan. Lekin, inson kasallikni oldini olish choralarini ham qidirgan. Bu esa dastlabki, odda tabobat ilmining kelishiga sabab bo'lgan. Qiyosiy etnografik materiallar shuni ko'rsatadiki, hozir yer yuzining turli yerlarida yashayotgan qoloq qabilalar kasallarni davolashda xalq tabobatidan keng foydalanadilar. Ibtidoiy davr tabiblari muolaja qilishning oddiy usullarini qo'llab chiqqan, singan suyaklarni joylash, jarohatni davolash va og'rigan tishlarni sug'urib tashlashni bilganlar.

Undan tashqari ibtidoiy kishilar shamollash, ilon chaqqanni davolab ba'zi sodda xirurgik operatsiyalarni bajarganlar. Lekin jarrohlikda sodda tibbiy usullaridan tashqari davolashning vahshiy usullaridan foydalan-ganlar. Bosh og'rig'ini kalla suyagini kesib ochish yo'li bilan davolashga uringanlar. Ibtidoiy tabobat silash, uqalash, issiq, sovuqda bug'li hamom-dan keng foydalanilgan. Ibtidoiy kishilar tabiiy davolash vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, maxsus tayyorlangan tarkibiy qaynatma, suriladigan, kukun va suyultirilgan dorilardan keng foydalanganlar. Shuni aytib o'tish kerakki, qadimgi O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, Xitoy, Amerika va Yevropa qabilalari mazkur hududlarda o'sadigan o'simlik va yovvoyi mevalarning ayrimlaridan turli dori-darmonlar tayyorlab ulardan davolash maqsadida foydalanganlar. Bu hol dorishunoslikning ham negizi ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqalishini ko'rsatadi.

Shunday qilib hozirgi zamon tabobat faniga O'rta asrlarda feodal yoki qadimgi quldorlik darida emas, balki kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrida eng dastlabki poydevor toshi qo'yilgan ekan. Ibtidoiy san'at. San'at ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib ibtidoiy jamiyat tarixining tongida emas, balki ancha keyinroq vujudga kelgan, degan fikr keng tarqalgan.

Lekin ibtidoiy san'atning kelib chiqishi masalasi haqida olimlar orasida kuchli tortishuvlar mavjuddir. Olimlarning bir guruhi san'atni dinga, afsungarlikka va totolizimga bog'laydilar. Olimlarning boshqa bir guruhi «san'at uchun» degan mantiqsiz nazariyaga yopishib olib, san'atni kishilik jamiyati hayotidan ajratib qo'yishga urindilar va urinmoqdalar. Ibtidoiy san'at va uning kelib chiqishini tushunishida. G.V.Plexanovning «Adressiz xat» maqolasi muhim ahamiyatga egadir. Keyingi vaqtda yer kurrasining turli joylaridan kishilikning ibtidoiy davriga mansub bo'lgan ko'pgina san'at obidalarini topildi. Ilg'or fikrli olimlar ibtidoiy san'atning barcha turlari o'z mohiyati va mazmuni bilan shak-shubhasiz insonning mehnat faoliyati bilan uning izchil tafakkuri, kayfiyati va fikr-mulo hazasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ibtidoiy san'atning vujudga kelishini o'ziga xos shart-sharoiti bo'lib, ibtidoiy kishilarning ongi ma'lum darajaga yeti boshlagach vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'at to'satdan, birdaniga vujudga kelmagan albatta. U mehnat jarayonida vujudga keldi va rivojlanib kamol topdi.



Million, necha yuz ming yillar davomida ibtidoiy insonning onggi tafakkuri mehnatda bo'lgan munosabati, malakasi rivoj topdi va o'zgardi. Bu hol o'z-o'zidan ibtidoiy san'atning vujudga kelishi uchun zamin hozirlagan edi. San'atning vujudga kelishi kishilik madaniyati tarixida olg'a tashlagan katta qadam edi. Arxeologik qazilmalardan shu narsa-ayonki, kishilikning ibtidoiy to'lda davrida san'at, din va ma'naviy-madaniyat mavjud bo'lmagan.



Ma'naviyat madaniyat, uning bir turi hisoblangan san'at kishilik jamiyatining ancha keyingi bosqichida urug'chilik tuzumi davrida shakllana boshlagan. Chunki bu vaqtga kelib odamlar tafakkur, til, atrofni bilish, narsalarni farqlash, qurol ishlash, uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlashda ma'lum darajada muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ibtidoiy san'at hozirgi zamon kishisiga oddiy ko'rinadi. Lekin ibtidoiy inson tomonidan yaratilgan ilk san'at ko'p qirrali bo'lib, tosh, loydan ishlangan odam hayvon haykalchalar oxra bilan chizilgan rasmlar, toshga, suyakka va boshqa buyumlarga, o'yib chizilgan xilma-xil rasmlar ibtidoiy san'atning eng dastlabki namunalari hisoblanadi. Bu jihatdan qora, qizil, sariq, yashil bo'yoqlar bilan chizilgan mamont, yovvoyi ot, arslon, fil, bug'u, yovvoyi echki, karkidon yovvoyi sigir, buqa to'ng'iz kabi boshqa yovvoyi hayvon va narsalarning tasvirlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Tosh asrining so'nggi bosqichlarida, ayniqsa mezolit (o'rta tosh asri) davrida ishlangan ibtidoiy tasviriy san'atning Altamira, Nio, Uchbirodari, Pinedel, Sahroi Kabir, Kapova g'ori, Lena, Yenisey, Ob, Amur, Alyaska, Sahalin, Mug'uliston, O'zbekistondagi Zarautsoy, Tojikistondagi Shaxta g'ori, Bittik chashma, Qirg'izistondagi Sari-jaz va yer yuzining turli joylaridan topilgan boshqa namunalar ayniqsa diqqatga sazovordir. Ibtidoiy davrda ohaktosh, mergel kabi yumshoq toshlardan ba'zan ayol va erkaklarning tasvirlarini ishlash odat bo'lgan. Yer yuzining turli joylaridan, xususan sobiq SSSR dagi Gagarino, Kostyonka, Malta va boshqa yerlaridan topilgan haykallar shular jumlasiga kiradi. Ayollarning tasviri ayniqsa realistik tarzda bo'lib, ularning onalik va jinsiy bulgilari ayniqsa bo'rttirib ko'rsatilgan. Lekin tosh asridagi rassomlardan ko'p

narsa kutib bo'lmaz edi albatta. U davrda ishlangan qoya tosh suratlari odam haykalchalari o'zining soddaligi bilan ajralib turardi. Lekin ijodiyotning eng dastlabki ilk namunasi va tasviriy san'at sohasidagi dastlabki qadam edi. Uning madaniy-tarixiy ahamiyati ham shunda edi.

Bu hol keyingi davr tasviriy san'ati uchun dastlabki poydevor toshi hisoblanadi. Qo'shiq, ertak, muzika, maqol va xalq ijodiyotining boshqa turlari ibtidoiy san'atning ajralmas qismini tashkil qiladi. Qo'shiq ertak, maqol, matal va boshqalarning vujudga kelishi ham kishilikning ibtidoiy davriga borib taqaladi. San'atning xilma-xil turlari singari xususan muzika ham mehnat jarayonida vujudga kelganligi shak-shubhasizdir. XIX asrning oxirlarida yashagan nemis Karl Byuher muzika mehnat jarayonida paydo bo'lgan, degan nazariya yaratdi. Ibtidoiy davrdagi diniy tushunchalar. Gap din haqida borar ekan, u hamisha barqaror va azaldan mavjud bo'lgan emas.

Kishilikning qadimgi hayotiga nazar tashlansa uning ilk bosqichida din va diniy tushunchalarning bo'lmaganligi ishonch hosil qilish mumkin. Din ham san'at kabi ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. Ammo ibtidoiy davrdagi diniy tushunchalarni tiklash, tushunish va tushuntirish juda murakkab masaladir. Shak-shubhasiz ibtidoiy odamlar o'z atrof-larida bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq qarayolmaganlar.

Tabiatda sodir bo'lgan turli-tuman hodisa va voqealar shamol, toshqin, momaqaldiroq, tun va kunning almashinuvi, yog'in-sochin, issiq-sovuq yer qimirlash, tug'ilish, kasallik, o'lim, o'sib-ulg'ayish, uyqu va boshqa narsalar odamlarga g'ayri tabiiy bo'lib ko'ringan. Ibtidoiy odamning bilim doirasi past bo'lganligi ko'p narsa va hodisalarning mohiyatiga tushinib yetmagan. Demak, bu narsa va hodisalarning mohiyati ibtidoiy odam uchun sirli tuyulib, ularning negizida qandaydir g'ayritabiiy kuch bordek tuyulgan. Shu tufayli ibtidoiy kishilar orasida narsa va hodisalarga sig'inish ularni ulug'lash hissi vujudga kelib, dastlabki diniy tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy kishilar o'zligining asosiy sababi ishlab chiqarish kuchlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, mehnat qurollari binobarin mehnatning kam takomillashgani va bilimsizligidan iboratdir.

Ibtidoiy davrda din va diniy tushunchalar xilma-xil ko'rinishga ega bo'lganligi shak-shubhasizdir. Buni dunyo xalqlaridan olingan etnografik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Ibtidoiy din shakllaridan biri totemizm bo'lib, u juda qadimiy bo'lsa kerak. Totemizm-algoinlar (alyaskada

yashovich qabilalar) totem-uning urug'i degan so'zidan olingan. Totemizm bu odamlar guruhining qandaydir hayvon qoplon, yo'lbars, arhar, tog' echkisi yoki o'simlik turi – kungaboqar, do'lana, qovoq va shu kabi o'simlik turi bilan qandaydir bog'liqligi, g'ayri tabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonish e'tiqodidir. Bundan ko'rinib turibdiki, totemizm ibtidoiy jamiyatning tarixining ovchilik-termachilik xo'jaligi rivojlangan vaqtda urug'chilik tuzumi ijtimoiy hayotda qaror topgach vujudga kelgan bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham urug'lar, fratriyalar va qabilalarning nomlari muayyan territoriyada tarqalgan hayvon yoki o'simlik nomi bilan atalgan. Afrika, Amerika, Osiyo, Yevropa va Avstraliyada yashovchi urug' va qabilalarning hayvon va o'simlik nomi bilan atalishi fikrimizning dalilidir. Urug'lar qabilalar va fratriyalar emas, ayrim joylarda ba'zi odamlarning ismlari ba'zi hayvon va o'simlik nomi bilan ataladi.

Har bir urug' va qabilaning totem hayvoni alohida e'zozlanib, hurmat va izzat qilganlar. Totemizmning dastlabki bosqichi davrida odatga muvofiq o'z totemizmini ovlash va uning go'shtini ovqat sifatida iste'mol qilish taqiqlangan edi. U muqaddas hayvon hisoblangan. Faqatgina bayramlarda, urf-odat marosimlari vaqtida muqaddas hisoblangan totemni ovlanib uning go'shti yeyilgan.

Totem hayvonlarni ovlash, o'ldirish taqiqlangan, ularning ko'payishi uchun g'amxo'rlik qilingan. Ba'zan ularning sharafiga bayramlar o'tkazilib odamlar mazkur hayvon terisini yopinib yoki kiyib raqsga tushganlar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, totemizm qoldiqlari ko'pgina xalqlar hayotida yaqin vaqtlargacha saqlanib qolgan. Lekin avstraliyaliklar dini klassik totemizm namunasidir. Agar avstraliyalik kenguru totemiga tegishli ekan u kenguru haqida «bu mening akam» yoki «mening onam» deydi.

Mustamlakachilar Avstraliyada totem hayvonni o'ldirganlarida mazkur urug'ning odamlari ularga «Nega siz bu odamni o'ldirdingiz, u bizning birodarimiz» deb aytganlar. Agar totemizmning boshlang'ich davrlarida totem hayvonining go'shtini iste'mol qilish taqiqlangan bo'lsa, keyinchalik uning go'shtini ovqat sifatida iste'mol qilishga ruxsat etilgan.

Lekin totem hayvon o'ldirilgach undan uzr so'rash odati ham bo'lgan yoki aybni o'zlaridan soqit qilib, uni o'zgalarga to'nkab, o'z

totemlari g'azabidan xalos bo'lishga intilganlar. Sibir yerlari mustamlaka qilinayotgan vaqtda evenklar, tunguslar va boshqa kiyik yoki ayiqni o'ldirib gunohni o'zlaridan soqit qilish, totem hayvonini g'azabini qo'zg'atmaslik maqsadida unga «bizdan xafa bo'lma, seni biz emas, ruslar o'ldirdilar» deganlar. Ibtidoiy dinning shakllaridan biri bo'lgan totemizm juda ko'p xalqlarda, xususan turkiy xalqlarda zamonamizgacha saqlanib qolgan.

Osiyodagi juda ko'p xalqlarda shuningdek Turkiy xalqlarining kalendarida 12 hayvon nomi bilan yuritiladigan muchal yil hisobi uzoq vaqtlardan beri qo'llanilib keladi. Shuningdek O'rta Osiyoda Arslonbek, Bo'riboy, Yo'lbars, Bobir, Qoplon, Sher, Sherali, Qo'chqor, Qo'ziboy, Alqar kabi ismlarning keng tarqalishi totemizm bilan aloqador emasmi.

O'rta Osiyo klassik adabiyotining zabardast namoyondasi A.Firdavsiyning «Shohnoma» asarini o'qir ekansiz unda, o'rta asr bilan bog'liq bo'lgan odam va joy nomlarini ko'plab uchratish mumkin. Bu totemizmga aloqador ismlar bo'lishi ehtimoldan holi emas. O'rta Osiyo, Osiyo va Yer yuzining juda ko'p joylaridagi qoya toshlarda arslon va yo'lbars, kiyik va to'ng'iz, arxar va bug'i, ot va it, bo'ri va tulki, qulon va sayga, yovvoyi buqa va fil, antilop va jirafa, mamont va karkidon kabi hayvon tasvirlarining uchrashi qadimgi qabilalarda totemizmning keng tarqalganligini nishonasi bo'lishi mumkin. *

Ibtidoiy o'troq dehqonchilik qishloqlari xarobalaridan topilgan sopol, mis, jez va boshqa narsalarga xilma-xil hayvonlarning bo'yoq bilan chizilgan tasvirlari ham mazkur idishlarda taom yegan kishilar e'tiqodida totemizm mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ibtidoiy qabilalarning mafkuraviy qarashlarida sehr-jodu va afsungarlik ham keng tarqalib, u ham ibtidoiy dinning bir turi hisoblangan. O'z-o'zidan savol tug'iladiki, sehr-jodu va afsungarlik nima?

Afsungarlik – deb yozadi M. O. Kosven, noto'g'ri, yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan aloqa ta'sirlarining tabiatda mavjudligiga ishonish va odamlarni ishontirish, ayrim xalqlarda tabiat odamlarga ko'zga ko'rinmaydigan ta'sirlar ko'rsatish mumkinligi va ayniqsa odamlarning tabiatga, shuningdek nihoyat bir odamning boshqa odamga ta'sir ko'rsatishi mumkinligidan iboratdir. Diniy e'tiqodning mazkur ko'rinishi odam hayotining juda ko'p tomonlariga ta'sir etgan. Hatto u tasviriy san'atni ham o'ziga bo'ysundirgan. So'ngi paleolit, mezolit, neolit va bronza davri

qoya toshlaridagi hayvon, ularga sanchilgan nayza, kamon o'qi va ular qoldirgan jarohat izlarining tasvirlari sehrgarlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sehrgarlik bir narsa xuddi shunday ikkinchi bir narsa o'rnidadir, bo'lak butun o'rnidadir, degan tasavvurga asoslangan. «Nayza tirik hayvonga uning xuddi shunday tasvir yoki kalla suyagiga sanchilgani kabi sanchilsin» - ibtidoiy sehrgarlikning mantiqi shundan iboratdir. Ibtidoiy davr kishilarining e'tiqodiga ko'ra sehrgarlik odatlari, irim-sirimlari, ov yoki xo'jalik sohasidagi boshqa ishlarning muvaffaqiyatli yakunlanishiga yordam berar ekan.

Etnografik ma'lumotlarga ko'ra mahalliy avstraliyalik ovchilar kenguru oviga borish oldidan kenguru tasvirini chizib, unga tevarak atrofdan nayza sanchishgach, ovga jo'nab ketganlar.

Etnograflarning kuzatishlaridan shu narsa ravshanki, Afrikada yashovchi pigmeylar antilopa yoki boshqa hayvonni ovlashga jo'nashdan oldin sokin bir joyga borib yerga ovlanuvchi hayvon suratini chizib, unga nayza sanchgach ovga ketganlar. Sehrgarlik faqat ov va xo'jalikning o'zidagina qo'llangan emas. Qadimgi urug' va qabilalar sehrgarlikni yoddirish, dushmanni mahv etish, hayvonlarni ko'paytirish, sevishtirish, sevilish, davolanish va boshqa narsalarda ham qo'llaganlar. Sehrgarlikda har bir voqea va hodisaning o'ziga yarasha irim-chirimi va urf-odatlari bo'lgan. Shunday qilib, sehrgarlik ibtidoiy diniy e'tiqodning shakllaridan biri edi.

Sehrgarlik sarqitlari u qadar rivojlanmagan qabilalarning dinida zamonamizgacha saqlanib qolgan. Bunday sarqitlar yuqori darajada rivojlangan xalqlar orasida islom, yahudiy, xristian dinlarida ham uchraydi.

Mantiqiy jihatdan o'ylab qaralsa diniy e'tiqodning sehrgarchilik shakli ancha murakkab bo'lib, inson tafakkurining ancha rivojlangan davriga to'g'ri kelib, totemizm va fetishizmga nisbatan keyinroq vujudga kelgan bo'lsa kerak.

Ibtidoiy davr kishilarining diniy e'tiqodlaridan yana biri animizm bo'lib, mazkur so'z lotincha anima - jon, ruh so'zidan olingan.

Ibtidoiy kishilarning tasavvuri bo'yicha har bir odam tabiatdagi barcha hayvonlar va o'simliklar olami jonga, ruhga egadirlarkim, ular o'lgach narigi dunyoda tirilib hayot kechiradilar. Aftidan animistik e'tiqod ham keyingi paleolitda, inson ongida narigi dunyo haqidagi tasavvur vujudga kelishi munosabati bilan kelib chiqqan. U davrda o'likni bukchaytirib tizzalarini iyagigacha bukib, kafanlab, qayish bilan bog'lab,

ko'mganlar. O'lik ustida qizil oxra sepib, uning yoniga mehnat qurollari va bezak buyumlarini ham birga qo'yib ko'mganlar.

Go'rlarga har xil ish qurollari, yaroq va ziynat buyumlarining qo'shib ko'milishi murdaga qizil oxra sepish narigi dunyodagi hayotga ishonish bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod bo'lsa kerak. Yaqin-yaqin vaqtlargacha ham adamonliklar, papuaslar, eskimoslar va boshqa qator rivojlanmagan qabilalarda murdani bukchaytirib bog'lab, kafanlab ko'mish odati bo'lgan. Oxra, qizil rang esa ibtidoiy kishilar tasavvurida qon va olovni ehtimol hayot ramzini anglatgan. Animizm terminini fanga ingliz olimi E.Teylor kiritgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, so'nggi paleolitdagi totemizm, sehrgarlik, animizm va boshqa diniy e'tiqodlar biri-biri bilan bog'lanib ketgan va biri ikkinchisiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Keyingi davrda vujudga kelgan islom, yahudiy, xristian dinlarining bir tomoni ibtidoiylik davriga borib taqaladi.

Shunday qilib, insonning tabiat oldidagi o'zligi, nodonligi, bilimsizligi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanmaganligi oqibatida har turli qabilalarda xilma-xil ko'rinishga ega bo'lgan diniy e'tiqodlar vujudga keldi.

Demak, madaniyat keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, kishilikning uzoq tarixiy davri mobaynida aqliy, ijtimoiy va ishlab chiqarish sohasida, qo'lga kiritgan juda boy yutuqlari majmuasidan iboratdir.*

Hozir juda katta yutuqqa erishgan insoniyat ma'naviy madaniyatining negizi ibtidoiy jamoa tuzumining ilk davrilariga borib taqalgan. Engels ta'biri bilan aytganda, biz tarix sohasigi inson bilan birga kishilik jamiyati tarixi boshlanadi, binobarin, kishilik madaniyatiga ilk bor poydevor toshi qo'yiladi. Mehnat inson hayotining eng dastlabki, asosiy sharti bo'lish bilan birga, u odamni yaratuvchisi hamdir.

Mehnat jarayoni faqat qurol yasashdan boshlanar ekan, bu ilk madaniyatga asos solish demakdir. Chunki dunyodagi hech bir mavjudod, hatto birorta odamsimon maymun qo'pol qilib bo'lsada, toshdan qurol yasay olgan emas. Shubhasiz ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichida ya'ni ibtidoiy gala davrida kishilarning tafakkuri va nutqlari u qadar rivojlanmagan bo'lib, mehnat qurollari juda sodda edi,

Lekin ibtidoiy odamlarning yashashi uchun tabiat bilan olib borgan sermashaqqat kurashida ularning tafakkuri va nutqi rivojlana bordi. Inson tafakkurining o'sa borishi mehnat qurolining takomillashishi va murakkablashuviga olib keldi.

Odamlar tabiat bilan kurashda, uni bo'ysundirish yo'lida juda ko'p g'ayrat va mehnat sarf qildilar. Dag'al, shaklsiz tosh parchalarining eng birinchi oddiy qurollarga aylanishi, odamlarning olovdan foydalanishini bilib olishlari, go'shtni olovda pishirib yeyishni suyakdan qilingan birinchi qurollarning, doimiy yashaydigan dastlabki turar joylarni vujudga keltirish uchun, necha yuz ming hatto million yillar kerak bo'ldi. Inson oddiy termachilik va ovchilikdan sug'orma dehg'onchilik va chorpvachilikka yetib kelgunicha ajoyib sopol idishlar va har xil metall buyumlar hamda qurollarni kashf qilgunicha juda katta tarixiy davrni 2, - 2,5 million yillik tarixiy davrni bosib o'tdi.

Lekin u bu yo'lda juda katta qiyinchiliklarga duch kelib ko'plab qurbonlar ham berdi. Ammo har qancha og'ir mashaqqatlarga qaramay inson qiyinchilikni yenga borib ilg'or tarixiy rivojlanishi yo'lida olg'a qarab odim tashlab, kelajak avlod uchun zarur bo'lgan madaniyatga asos soldi.

Ibtidoiy poda davrining oxiriga kelib, ibtidoiy kishilar hayotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar avvalo kishilarning tashqi qiyofasi, tafakkur doirasi, nutqi, ishlab chiqarish qurollari va xo'jaligida ko'zga tashlandi. Insonning tafakkuri va nutqi ularning birgalashib qilgan mehnati natijasida vujudga keldi. Inson tafakkur qilmasa toshdan oddiy bo'lsada, qurollar yasay olmasdi. Demak, inson tafakkuri nutqi va oddiy tosh qurollar ular mehnatining samaras* edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek qadimgi tosh asrining oxiri va so'nggi tosh asrining boshlariga kelib insonning tafakkur doirasi nutqi yanada rivojlana boshladi. Bu hol ular yaratgan madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Urug'chilik jamoasi va uning yemirilishi davrida uy qurilishi ibtidoiy dehqonchilik, chorvachilik, tog'-kon sanoati, metalsozlik, qurolsozlik, kulolchilik va hunarmandchilikning boshqa tarmoqlariga asos solinib, bu sohada kattagina muvaffaqiyatlarga erishildi. Hozirgi zamon kishilarining xo'jalik va madaniyat sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarining negizi ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yaratilgan ekan. Bu hol Levl-Bryul va boshqa burjua olimlarining ibtidoiy odamlar va shuningdek hozirgi zamondagi qoloq qabilalar fikrlash qobiliyatiga ega emas, binobarin madaniyat yaratishga qodir emas, degan uydurma qarashlarini fosh qilib tashladi.

Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi jamiyat kishilari uchun olamshumul tarixiy ahamiyatga ega ekan, uni bashariyatning boshlang'ich maktabi deb aytish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiy antropologiyada diniy tasavvurlar masalasi. Kishilar turmush tarzidagi va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar insoniyatning diniy ishonch, e'tiqod ma'lum evolutsiyaning yuz berishiga sabab bo'lgan. Ana shu asosga turli din shakllari yuzaga kelgan. Bular urug-qabilachilik (ibtidoiy) dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari. Shu bilan birga dinlar mazmun va mohiyatiga ko'ra politeistik (ko'pxudolik) va monoteistik (yakkaxudolik) dinlariga bo'linadi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohaları o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga fe'l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarini kashf etishiga ta'sir ko'rsatdi. U ibtidoiy bo'lsa ham aqlli, fikr yurituvchi, ma'lum tahlilga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalariga ega bo'lgan odam edi. Bilim miqdorini nihoyatda ozligi va uni doimiy takomillashib borishi, oldingi turgan hayotdan qo'rquv va uni yengishgi bo'lgan intilish, amaliy tajribaning uzluksiz ko'payishi, tabiati kuchlarga mutlaqo tobelik va undan qutilishga tirishishi, atrof-muhit inijliklari hamda ularni yengish va hokazo. Bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki hissiy-ijtimoiy, xayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi. 20-50 kishidan iborat bo'lgan kichik qabila mehnat faoliyati jarayoni (ov, ozuqa izlash, qurol yashash, turar joyni jihozlash, olovni saqlash va hokazo.) Doimiy ijtimoiy munosabatlar, oilaviy urug'doshlik aloqalari va hodisalar jarayonida nikoh aloqalari, iqlim ushbu jamoaning ruhoniylari gayritabiyy kuchlar va voqelik o'rtasidagi gayri oddiy aloqalar to'g'risida ibtidoiy tasavvurlar mustahkamlanib borgan. Real hayot bilan birgalikda o'zga dunyo mavjudligi, marhumlar tiriklar hayotiga ta'sir eta olish to'g'risidagi g'oyalar yuzaga keldi.

Ibtidoiy odam o'z qarindoshlarini ko'mishda maxsus marosimlar ma'lum tayyorgarlik udumlariga amal qilar edi. Jasadni qizil mineral bo'yoq bilan qoplar, uning yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari zebziynatlar, asbob-anjomlar va hokazo qo'yilar edi. Bularning bari o'z

jamoa a'zolarini dafn etayotgan jamoa oxirat mavjud ekanligi haqida ibtidoiy tasavvurlarga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Arxelogik izlanishlar jarayonida yer yuzining turli joylaridagi g'orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan surat-larning ko'pchiligi ov sahnasi, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon



terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjud suratlaridan iborat bo'lgan. Bu suratlar dalolat qildiki o'zlari va hayvonlar o'rtasidagi tabiiy va gay-ritabiiy aloqalar mavjudligi haqidagi tasavvurlarga ega edilar. Bu bilan birga marhum ajdodlarning ruhlar sexrli usullar bilan hayvonlar xul-qiga ta'sir etish imkoniyatiga ega deb bilardilar. Bu tasavvurlar tiriklar bilan marhumlar o'rtasidagi vosita-chilar ya'ni turli xildagi sehrgarlar va shamonlar faoliyatining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ibtidoiy odamlar hozirgi davrdagi singari to'la shakllangan diniy sistemaga ega bo'lmagan. Ularda boshlang'ich diniy tasavvurlargina bo'lgan xolos. Dinning ana shunday, ibtidoiy shakllariga totemizm, animizm, fetishizm, shomanizm hamda magiya (sehrgarlik) kabilar kiradi. Dinning bu shakllari urug'chilik tuzumi shakllanayotgan davrda paydo bo'lgan.


Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ishlar: jumladan tug'ilish, ozuqa topish, ov qilish, o'z xavfsizligini ta'minlash, dafn marosimi kabilar turli diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lganligini ko'ramiz. Odamzod yaratilganidan buyon o'z qarindoshlarini ko'mishda maxsus marosimlar, ma'lum tayyorgarlik udumlariga amal qilib keladi. Masalan, Qadimgi Misrda fir'avnlr jasadi qizil mineral bo'yoq bilan qoplanar, yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari, zeb-ziynatlar kabi turli-tuman asbob anjomlar qo'yilar edi. Bu ham o'z navbatida o'z jamoa a'zolarini dafn etayotgan jamoaning oxirat mavjud ekanligi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Shu paytga qadar olib borilgan arxeologik izlanishlar davomida yer yuzining turli joylaridagi g'orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan. G'orlardagi suratlarning ko'pchiligida ov qilish jarayoni, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjudotlar tasvirlangan. Demak, ibtidoiy odam o'zi va hayvonlar o'rtasidagi tabiiy va g'ayritabiiy aloqalar mavjudligi haqida tasavvurga ega bo'lgan va ayni paytda marhum ajdodlarining ruhlari sehrli usullar bilan hayvonlar xulqiga ta'sir etish imkoniyatiga ega deb bilgan. Bu tasavvurlar tiriklar bilan marhumlar o'rtasidagi vositachilar: sehrgarlar va shamanlar faoliyatining shakllanishiga turtki bo'lgan bo'ldi. Ibtidoiy odam hayoti haqidagi tasavvurlarga ko'ra, uning hayotida kelib chiqqan diniy tasavvurlar quyidagi ibtidoiy din shakllarida namoyon bo'lgan.

Totemizm. Totem-biror urug' yoki qabila ibtidosi, urug' asoschisi, ajdod, urug' jamoalari muqaddas tutgan hayvon. Totemizm e'tiqod shakli ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. «Totem» so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishlik ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin.

Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlarga tasdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraliya aborigenlari orasidan bu xususda afsonalar saqlanib qolgan. Urug'dosh jamiyatning shakllanish jarayonida totemizm muhim rol o'ynadi, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, «o'zimizniki», ya'ni «bir totemga tegishli» degan aniq taassurot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va me'yorlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi.

Ayni totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me'yorlaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli



tabiiyki, totemistik ko'rinishlarning evolutsion xarakteriga ham ta'sir kuchini o'tkazmay qolmadi. Vaqt o'tishi bilan qarindoshlik tizimining mustahkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. Zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning

totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar, ya'ni odam vafot etgach uning o'z totemiga aylanishi yoki, aksincha, qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Bular hammasi o'tgan otabobolar ruhlariga sig'inishning, umuman, kuchayishiga va ilohiy kuchlarga bir tomondan ishonchning oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan *totemga* bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, misol uchun *totemni* ozuqa sifatida iste'mol qilishni taqiqlanishiga olib keldi. *Tabu* (taqiqlash) tizimi paydo bo'ldi. Bunda eng muhimi *totemni* ovqat sifatida iste'mol qilishni taqiqlash edi. Faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliqlarigagina *totemni* yeyishga ruxsat etilardi. Shunday qilib, totemizm urug'chilik jamoasida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

Animizm (lotin tilida «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi). Animizm – ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanganicha vujudga kелgandır. Bu nomni fanga ingliz antropologi E.Teylor tomonidan kiritilgan. Animizmning



mohiyati kishi ruhining, jonining borligicha ishonishdir. Animizmda ruhlar tabiiy hodisalarni boshqaradi, unga ta'sir o'tkazadi deb hisoblanadi. Bu ruhlar yoki saxiy kishilar baxtiga, hayotiga tahdid soluvchi bo'lishi mumkin deb tasavvur qilingan. Ibtidoiy odamlar vafot etgan kishilarning ruhlari abadiy, o'lmas deb hisoblab, ularga sig'inganlar. Ular o'z tanalari tuzilishini kishi o'lishi, tush ko'rishi va jasadlari bilan bog'liq hodisalarni tushuna olmay, jonni mavjud bir narsa deb bilib, kishi o'lishi bilan jon tanani tark etib ketadi, boshqa narsalarga, ya'ni hayvonlarga, yosh chaqaloq bolalarga o'tadi deb tasavvur qilganlar. Uyquni jonning kishi tanasini vaqtincha tashlab ketishi, tushni esa kishi uxlab yotganda jonning boshqa o'lib ketgan kishilarning joni bilan uchrashuvi deb bilganlar.

Animizmga e'tiqod qilganlar odam o'lgandan so'ng jon tanadan chiqib ketadi va o'lmaydi, abadiy yashaydi deb hisoblaganlar. Shu asosda ruhning o'lmasligi to'g'risidagi tasavvurlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga ibtidoiy odamlar har bir narsaning o'z ruhi-joni bor deb tasavvur qilgan.

Markaziy Osiyoda marhumning jonini-ruhini «arvoh» deb atashgan. Arvoh esa uzoqqa ketmay shu joyda aylanib yuradi, uydagi barcha ishlardan xabardor bo'lib, turadi deb o'ylaganlar. Arvohlarni rozi qilish, g'azabini keltirmaslik maqsadida har xil qurbonlik marosimlarini o'tkazganlar.

Animizm totemizmdan farqli jihatlari bor. Albatta, totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga, uni boshqalardan farqlash

maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momoqaldiriq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki relyefning ayrim alohida qismlari – tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Hattoki, ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsangtosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo'lgach, har qanday voqyea-hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqozo etilgan, qurbonliklar qilingan, ruhlar haqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan. Animizm zamonaviy dinlarning barchasida asosiy aqidaviy qismni tashkil etadi. Jumladan, jahon dinlari sanalmish buddizm, xristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

Shamanizm («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nosi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z *totemlari*, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzu niyatlarini ruhlarga yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum harakatlar: ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga yetish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotar darajaga yetib, marosim ishtirokchisiga aylanib qolishar edi. Marosim oxirida shaman hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti

xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Umuman olganda, turli diniy marosimlarni o'z ichiga olgan afsungarlik jamiyatning haqiqiy talablaridan kelib chiqqan holda hayotda amalga oshirilgan. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog'lanish yo'li hayotda noma'lum, oldindan bilib bo'lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Shuning barobarida afsungarlik odamlarning fikrlash qobiliyatining o'sib borishi,



ongining mustahkamlanishida katta rol o'ynadi, diniy ongning shakllanish jarayonida muhim o'rin tutdi. Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o'z o'zidan bo'ladigan, faqatgina maqsadli yo'nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog'liq bo'lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko'rinish deb hisoblangan.

Natijada ko'pgina aniq hodisalar, hattoki alohida buyumlar sehrli kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi.


Sehrgarlik marosimlari ikki usul: yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilardi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Bundan kimgadir zarar yetkazish niyat qilinadi; 2) harbiy afsungarlik. Bunday afsungarlik dushmanga qarshi qo'llaniladi (masalan, qurol aslahalarni sehrlash); 3) sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, «issiq» yoki «sovuq» qilish; 4) tibbiy afsungarlik. Davolashda ishlatiladi; 5) ob-havo afsungarligi. Bu shehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadlarda foydalanilgan. Sehrgarlik hozirda ham mavjud dinlarda, turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan. *

Fetishizm («fetish» so'zi fr. fétiche – «but», «sanam», «tumor» ma'nosidagi so'zni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inishdir. Unga ko'ra alohida buyumlar kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqyea-hodisalarni o'zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega. Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir



paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar.

Bunday *fetishga* odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik yo'li bilan buyumlarga ta'sir ko'rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. Haqiqatda, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bog'liq bo'lgan animizm, turli *totemlar* hamda o'lib ketgan avlodlar shaxsiga bog'liq totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va xayolot dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo bo'ldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustahkamlandi.



Va, nihoyat, *fetishlarning* paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va bo'shliqda ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lib qolmasdan, balki voqeyiy dunyodagi buyumlarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Shunday qilib, urug'chilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy ko'rinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Demakki, diniy tasavvurlar odam hayotining bo'linmas, hattoki asosiy qismi bo'lib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, o'sha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, ozuqalar bilan ta'minlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan bo'lishni istasa, birinchi vazifasi u o'sha g'ayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va e'tiqodlarida saqlanib qolgan. Masalan, turli haykallar, suratlar, tumor, ko'zmunchoq va turli ramzlar bunga yorqin misoldir.

Ibtidoiy mifologiya. Ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy mifologiyani tashkil etgan ijod doim odamlarning ma'naviy hayoti, ibodati, hissiyotlari

va diniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq edi. Buni tushunish oson: agar ibtidoiy odamning asosiy ma'naviy hayotida totemlarga, marhum ajdodlarga ibodat qilish, ular bilan sirli qarindoshligi bo'lsa, mifologiyaning markazida zooantropomorfik ajdodlar yoki har xil mo'jizaviy kuchga ega bo'lgan ilohiylashtirilgan qahramonlar turardi. «Madaniy qahramon»larning ismlari afsonalarda biron bir ixtiro yoki yangilikda mujassam bo'lgan. Masalan, olovni topish, oila va nikohlar shaklini o'rnatish, mehnat va ov qurollarini yasash hamda boshqa jasoratlarga oid aqidalarni tashkil qilish. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan, ya'ni yer va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot, nihoyat, odamning yaratilishi to'g'risidagi rivoyatlar, afsonalarda diniy tasavvurlarning ta'siri yaqqol ifodalangan. Ruhlarining yangi shaklga kirish sehrli xususiyatiga, ya'ni o'z qiyofasini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan, bir vaqtning o'zida odam va hayvon shakliga kira olishini *monstrlik* deb hisoblashardi.

Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkaklar orasidagi muhim aloqalar tasvirlangan edi. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalar taraqqiyoti borishida diniy tasavvurlarning rolini aniqlashga imkon yaratadi.

Neolit revolyutsiyasi odamlarning turmush tarzini, tubdan o'zgartirdi. Odam asta-sekin o'simliklarni o'stirish, ozuqa zaxiralarini hosil etishni o'rgandi, bu esa odamni o'troq hayot kechirishga majbur etdi. Yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatdi hamda ular berayotgan mahsulot: go'sht, sut va teridan foydalanishni o'rgandi. Ovqat pishirishni o'rganish, idishlar yasash kabi yangi muhim materiallarni o'zgartirdi. U ovqat va ichimliklar saqlash uchun mo'ljallangan idishlar, uy qurish uchun foydalaniladigan loyni tayyorlashga o'rgandi. Neolit davri yuqori paleolitdan shunisi bilan farqlanadiki, unda odamzod tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berishni o'rgandi va shu farq mazkur davrga nom berdi (*neolit* – yangi tosh davri, yangi tosh ishlash, yangi usullar davri). Neolit davrida dehqonlarga yangicha ishlab chiqarish usullarini topdilar, zich va guruh-guruh bo'lib yashay boshladilar. Dushmanidan hamda yovvoyi hayvonlardan himoyalangan qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar o'rnatildi. Aholining keskin ko'payishi yangi

yerlarni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'dirsa, hayot tarzini o'zgarishi diniy tasavvurlarning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning muntazam tirikchilik tashvishlari: hosilni, yig'im-terimni kutish, aniq vaqtni belgilash, yil fasllarining sikllarini bilish kabilarning hammasi dehqonning osmonu yerga, quyoshu oyga, yomg'iru shamolga yangi qiziqishi paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, yangi ruhlar qudratiga ishonch sezilarli va ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. O'z navbatida, iltijo va qurbonlik ruhlarga atala boshlandi. Ammo, tabiiy imkoniyatlar to'g'risidagi tasavvurlar keskin o'zgardi. Natijada qadimgi ruhlar – animistik sig'inish obyekti asta-sekin o'ta qudratli xudolarga aylandilar. Ular uchun mehrob hamda cherkovlar tashkil etilib, bunday joyda, odatda, dehqonlar jamoasidan maxsus ajratilgan alohida xizmatkorlar – kelajakdagi koinlar – kechayu kunduz xizmat qilar edilar. Qadimgi totemistik tasavvurlar ham o'zgardi, dehqonlar hayoti ov natijasiga bog'liq bo'lmagani bois, hayvonlar qadrlana boshladi, ammo totemistik tasavvurlar avlodlar xotirasida saqlanib qolaverdi. Bu esa zoomorfik tashqi qiyofani biron-bir sig'inadigan ilohiyatda aks etishiga olib keldi. Aksar ilohiyatlarning ko'rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo'lar edi. Bu mifologik qahramonlarning yuqorida aytib o'tilgan ilohiyatiga qarindoshligi saqlanib qolgan.

Fetishizmning sokin xarakteri o'zgardi, ilohiyatlarning qudratli butlari, mehroblar yoki cherkovlar yomiga o'rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi. Ba'zan butlar o'rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlardan foydalanildi. Fetishizmning rivojlanishida bu haykal va qurilmalar ibodatxonalarning ramzi bo'lib xizmat qildi. Afsungarlarning dushmanlarga ziyon yetkazish va omadli ov bilan ta'minlash, ruhlar yordamida o'z maqsadiga yetishishning ibtidoiy usullari o'rniga yangi, puxta o'ylangan ilohlar bilan aloqa marosimlari, boshqa diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Tabiiyki, bular asosida qadimgi afsunlar yotar edi. Ammo bir qancha yangiliklar: fol va bashorat yuzaga keldi, bular afsunga yaqin bo'lgan hamda unga asoslangan afsun usullari bo'lsa-da, maqsad boshqa edi: bunda istakni amalga oshirish emas, balki uni bilish ko'zda tutiladi. Folbinlikning ilk shakllari neolit davridan ilgari ham amalda bo'lgan. Ammo tizim sifatida neolit davrida yakunlandi. Neolit davridagi dehqonlar qudratli tangridan qo'rqqan holda uning yaxshi niyat munosabatlariga juda qiziqar edilar. Buning uchun tabiat kuchlari ilohiyatlariga yoki ilohiylashtirilgan

ajdodlarga ibodat qilishar edi. Ular xayolan qurbonliklar va ibodatlar ilohiyatlar ko'ngliga yo'l topadi, bizga yordamga keladi deb ishonar edilar, ammo buni bilsa bo'ladimi? Mana shu yerda fol ochish kelar edi. Har bir jamoa uchun xos bo'lgan ibtidoiy shakldagi afsun marosimlaridan farqli o'laroq, folbinlik yuqori saviyadagi madaniyatni talab etardi. Marosimlarni olib boruvchi folbin kiyimi shartli belgilar tizimiga rioya qilishi shart edi. Bu shartli belgilar sig'inilayotgan ilohiyatining qoniqganligini hamda ularning iltijolariga aniq javob berishga tayyorligini anglatardi. Belgilar tizimi har xil: elementar qur'a tashlashdan to murakkab chiziq, yorug' nuqta va chiziqlarni qo'shilishigacha bo'lar edi.

O'ylab ko'rib, fikr yuriting!

Ibtidoiy madaniyat deganda nimalarni tushunasiz?

2. Ibtidoiy davrda madaniyatning paydo bo'lishida asosiy yo'naltiruvchi kuchlar nimalardan iborat bo'lgan?

3. Madaniyat inson hayotiga qanday ta'sir o'tkazgan?

4. Tosh davri jamoalari darajasida saqlangan madaniyatga oid qanday arxeologik ma'lumotlarni bilasiz?

5. Neolit davri jamoalari darajasidagi madaniyat to'g'risida qanday etnologik ma'lumotlarga egasiz?

6. Ilk dehqon jamoalari paydo bo'lgan davrda til va etnik holat haqida ma'lumot bering.

7. Ishlab chiqarish bilan bog'liq xo'jaliklarning paydo bo'lishi va uning taraqqiyoti to'g'risida so'zlab bering.

8. Hunarmandchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi bo'yicha nimalarni bilasiz?

9. Ibtidoiy diniy tasavvurlarning zamonaviy odamlar hayotida uchraydimi? Misollar keltiring?

GLOSSARIY

Antropologiya – inson zoti va uning ajdodlarini o'rganuvchi fandır.

Amaliy antropologiya – antropologik ma'lumotlar, qarashlar, nazariya, aniqlash usullari, baholash va zamonaviy ijtimoiy muammolarni yechish bilan shug'ullanadi.

Arxeologik aptropologiya – inson xulq-atvorini madaniyatning moddiy buyumlari vositasida tadqiq qiladi.

Biologik antropologiya – insoning biologik turlanishini vaqt va makon sharoitida o'rganish; evolutsiya, irsiyat, insoning o'sishi va rivojlanishi hamda primatologiyani o'z ichiga qamrab oladi.

Madaiiy aptropologiya – inson jamiyati va madaniyatini o'rganish; madaniy o'xshashliklar va tafovutlarni tasvirlaydi, tahlil etadi va izohlab beradi.

Madaniyat – insonga xos; o'rganish natijasida kelib chiqadi; xulq-atvor va e'tiqodlarni boshqaruvchi an'ana va marosimlar toplamidir.

Umumiy aptropologiya – madaniy, arxeologik, biologik va lingvistik antropologiyani qamrab oladi.

Keng qamrovlilik – inson borligi: o'tmishi, hozirgi ahvoli va kelajagi bilan qiziqadi; inson biologiyasi, jamiyati, tili va madaniyati ham shular jumlasidandir.

Lipgvistik antropologiya – til va tildagi o'xshashliklarni, vaqt, makon va madaniyat sharoitida tarkib topuvchi tildagi tafovutlarni tasviriy, qiyosiy va tarixiy yondashuv bilan tadqiq etiladi.

Jamoani o'rganish – murakkab jamiyatlarni o'rganishni antropologik usuli. Kichik guruhlar tarkibi turli qatlam vakillaridan iboratligi bois etnografik usulda o'rganiladi.

Murakkab jamiyatlar – xalqlar; yirik va aholisi ko'p bo'lga ijtimoiy qatlam va markaziy hukumat boshqaruvchiga ega.

Emik – mahalliy ta'riflar va muhimlik mezonlariga asoslangan tadqiqotning vazifasi.

Etik – mahalliy odamlarning emas, balki etnograflar ta'rifi, kategoriyalari muhimlik mezonlariga urg'u beradi.

Qazish – arxeologik maydonni tashkil etuvchi qatlamlarni qazish.

Genealogik usul – qarindoshlik aloqalari, avlod, nikoh kabilarni diagramma va ramzlar vositasida aniqlash hamda yozib borish.

Suhbat jadvali – rasmiy suhbat tartibini tuzishning etnografik usulini tayyor shakl (printerdan chiqqan) sistematik qiyoslaydigan suhbat yo‘nalishini aks ettiradi, savolnomadan farqli o‘laroq mahalliy odam bilan bevosita gaplashish va javoblarni yozib borishni bildiradi.


Uzoq muddatli tahlil – bu tadqiqotchining jamoa, hudud, jamiyat madaniyat muhitiga qayta-qayta tashrif buyurishi.

Kuzatuv usuli – antropologlardan tashqari boshqa ijtimoiy soha olimlari tadqiqotlarida qo‘llaniladigan tadqiqot amaliyoti. Namuna statistik tahlil va egasiz ma‘lumot yig‘ish orqali jamiyatlarni o‘rganadi.

Tizimli kuzatuv – keng maydonda joylashuvga asoslanib ahborot yig‘ish.

Geterizm – erkin hayot kechiruvchi ayol

Irqshunoslik – yer yuzida odamzod irqlarining vujudga kelishi tarixi, ularning turlarga bo‘linishi, shakllanish sabablarini va irqar o‘zgari-shining qonuniyatlarini hamda ularning geografik jihatidan tarqalishi hamda aralashuvini o‘rganadi.



RAHBARIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017, 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent, O'zbekiston, 2017, 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, O'zbekiston, 2017, 104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2016, 56 b.
5. Karimov I.A. – Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch! – T., Ma'naviyat, 2008, 173-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кром. М.М. Историческая антропология. Пособие к лекционному курсу. 1-е изд. СПб: 2000; 2-е изд. СПб 6-2004; 3-е изд. СПб 6 2010.
2. Kottak C.Ph. Anthropology: the ehploration of human diversity. 12 th ed. – New York: Mcgraw-Hill Inc., 2008.R.3rd23.
3. Barnard A. History and Theory in Anthropology. Cambridge University Press. 2004.R.1-15.
4. Феллер В. Введение в историческую антропологию. М. 2005
5. Малиновский Б. Магия, наука и религия. М., 1998 С. 70 – 91.
6. Historische Anthropologie. Der Mensch in der Geschichte / Hrsg. von H. Süssmuth. Göttingen, 1984.
7. Александров Д. А. Историческая антропология науки в России // Вопросы истории естествознания и техники. 1994. № 4
8. Asqarov A.A. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. – Toshkent. «O'zbekiston» NMIU, 2015.
9. Suleymanov R.X. «So'g'd madaniyati tarixidan lavhalar» (Naxshab yoki Qarshi vohasi arxeologiyasi asosida). uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2018

10. Ashirov A.A. Etnologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent. 2014, 544b.
11. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. Toshkent. «Universitet»-2004 y.
12. Isomiddinov M.N. Tarixiy antropologiya. Toshkent. «Navro'z», 2019, 157 b.
13. Марк Блок. Апология истории, или Ремесло историка. Перевод Е.М. Лысенко. М. Издательство «Наука» 1973 г. 234 с.
14. Марк Блок. Короли-чудотворцы. Перевод и комментарии В.А. Мильчиной. Изд. Языки русской культуры. 1998 г. 722с.
15. Жак Ле Гофф Средневековье и деньги. Очерк исторической антропологии 2010 г. Пер. с франц. М.Ю. Некрасова. Санкт Перербург. Евразия. 2010г. 224 с.
16. Жак Ле Гофф. История тела в средние века. 248 с.
17. Карло Гинзбург. Сыр и черви. М. Россмэн. 2000 г. 271 с.
18. Натали Земон Девис. Возвращение Мартина Герра. Перевод с английского А.Л. Величанского. М. Прогресс. 209 с.
19. Кон И.С. Ребёнок и общество. Учебное пособие. М. Академия. 2003 г. 336 с.
20. Ким С.Г. Историческая антропология в Германии. Методологические искания и историографическая практика. Издательство Томского университета. 2002г. 200 с.
21. Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера земли. –Л.: 1990.
22. Уайт Л. Стадии эволюции, прогресс и оценка культур // Уайт Л. Избранное: Эволюция культуры / Пер. с англ. М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЕН), 2004. 1064 с. (Серия «Культурология. XX век»).
23. Уайт Л. Эволюционизм и антиэволюционизм в американской этнологической теории // Уайт Л. Избранное: Эволюция культуры / Пер. с англ. М.: Российская политическая энциклопедия, 2004. 1064 с.
24. Штомпка П. Социология социальных изменений / Пер. с англ. Под ред. В.А. Ядова. М.: Аспект Пресс, 1996. 416 с. (Программа «Высшее образование»).
25. Бессмертный Ю.Л. Историческая антропология сегодня: Французский опыт и российская историографическая ситуация //

Историческая антропология: место в системе социальных наук, источники и методы интерпретации: Тезисы докл. и сообщ. Науч. Конф. М., 1998.

26. Косвен О.М. История первобытного общества. Эпоха первобытной родовой общины. М., Наука, 1988 г.

27. История первобытного общества. Эпоха класса образования. М., Наука 1988 г.

28. Марков Г.Э. История хозяйства и материальной культуры в первобытном и раннеклассовом обществе М., Наука 1976 г.

29. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества М., Наука 1980.

30. Бессмертный Ю.Л. «Анналы»: переломный этап? // Одиссей. 1991. М., 1991.

31. Гуревич А.Я. Историческая антропология: проблемы социальной и культурной истории // Вестник АН СССР. 1989. № 7.

32. Гуревич А.Я. Историческая наука и историческая антропология // Вопросы философии. 1988. № 1.

33. Гуревич А. Я. Исторический синтез и школа «Анналов». М., 1993.

34. Малигина И.В. этнокультурная идентичность: онтология, морфология, динамика. Автореф. дисс. на соис... док. филос. наук. 24.00.01. – теория и история культуры. М. 2005. С. 19.

35. Дингес Мартин. Историческая антропология и социальная история. Через теорию стиля жизни к культурной истории повседневностей.

MUNDARIJA

Tarixiy antropologiyaga kirish -----	6
Tarixiy antropologiyaning fan sifatida shakllanishi -----	12
Tarixiy antropologiyada muammolarini tanlash va o'rganish metodologiyasi -----	21
Tarixiy antropologiyada zamonaviy yo'nalishlar -----	32
Tarixiy antropologiyada evolutsionizm va uning tarafdorlari---	40
Tarixiy antropologiyada diffuzionizm va uning namoyondalari-	50
Tarixiy antropologiyada sotsiologik va funksional qarashlar ---	61
Tarixiy antropologiyada strukturalizm va neoevolutsionizm---	78
Tarixiy antropologiyada mikrotarix yo'nalishi-----	84
Тарихий антропологияда «Анналлар мактаби» -----	90
Tarixiy antropologiyada irqalar va uning dinamikasi masalasi---	105
Tarixiy antropologiyada ishlab chiqarishning rivojlanishi-----	113
Tarixiy antropologiyada oila va nikoh masalasi-----	130
Tarixiy antropologiyada moddiy va ma'naviy madaniyatning o'rni-----	145
Glossariy -----	171
Foydalanilgan adabiyotlar	174

QAYDLAR UCHUN

This image shows a single sheet of white paper with horizontal blue or grey ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

N. NARZIYEV

TARIXIY ANTROPOLOGIYA

Toshkent – «Иновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» – 2020

Muharrir:

M.Hayitova

Tex. muharrir:

A.Moydinov

Musavvir:

A.Shushunov

Musahhih:

Sh.Mirqosimova

Kompyuterda

sahifalovchi:

M.Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel.: +998999209035.

Nashr.lits. AL№009, 20.07.2018. Bosishga ruxsat etildi 23.10.2020.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$ «Timez Uz» garnitulasi. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 11,5. Nashriyot bosma tabog'i 11,0.

Tiraji 200. Buyurtma № 134.

**«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»
boshmaxonasida chop etildi.**

100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 17F-uy.

ISBN 978-9943-6600-7-6



9 789943 660076